

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

AKADEMIYA

D.A. YUSUBOV, X.B. SAITXODJAYEV,
A.A. MAVLYANOV

F A L S A F A

*O'zbekiston Respublikasi IIV tomonidan Vazirlik oliy ta'lim
muassasalari uchun darslik sifatida ruxsat etilgan*

Toshkent – 2012

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining
Tahririyat-noshirlik kengashida ma’qullangan*

Taqrizchilar:

falsafa fanlari doktori, professor **J. RAMATOV**;
siyosatshunoslik fanlari doktori, professor **SH.G‘OYIBNAZAROV**

F-19 Yusubov D.A.

Falsafa: Darslik / Yusubov D.A. Saitxodjayev X.B. Mavlyanov A.A.
– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 267 b.

Mazkur darslik o‘z ichiga falsafa fanining bahs mavzusi, obyekti, predmeti, qonunlari, o‘rganish usullari, dunyoqarash va uning tarixiy shakllari, mustaqillik va falsafiy dunyoqarashning yangilanish zaruriyati, falsafiy tafakkur shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari, Qadimgi Sharq va G‘arb falsafasi, uning falsafiy tafakkur shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni, Markaziy Osiyo falsafasi va uning jahon madaniyatidagi o‘rni va ahamiyati, falsafada borliq muammosi, tabiatning falsafiy tahlili masalalari, falsafiy qonun va kategoriylar ularning boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlar qonuniyatlari bilan o‘zaro munosabati va aloqadorligi, falsafada ong, g‘oya va mafkura masalalari, huquqiy ong ijtimoiy ongning bir turi sifatida, falsafada bilish muammosi va ilmiy bilish mohiyati, huquqiy ijodkorlik bilishning shakli sifatida, inson va jamiyat falsafasi, fanning falsafiy tahlili, huquq falsafasi fan sifatida, ma’naviyat va madaniyat falsafasi, huquqiy madaniyat madaniyatning bir turi sifatida, qadriyatlar falsafasi, global muammolar falsafasi, taraqqiyotning o‘zbek modeli va uning jahon sivilizatsiyasidagi ahamiyati masalalarini keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

BBK 87ya73

KIRISH

Falsafa – insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan ilm va madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir.

Inson bor ekan, olam va odam nima, ular qanday paydo bo‘lgan, voqelik qanday qonuniyatlar asosida yashaydi, o‘zgaradi va taraqqiy etadi, umrning mazmuni nimadan iborat, avlodlar ortidan avlodlar kelib-ketaverishida qanday ma’no bor kabi masalalar barchani o‘ylantiradi. Falsafa ana shunday masalalar bilan shug‘ullanadi. U nihoyatda qadimiy fan. Olam va odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o‘zgarishlar, o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi.

Biz yashayotgan dunyo so‘nggi yillarda nihoyatda o‘zgarib ketdi. Xususan, Vatanimiz tarixida XX asrning 90-yillarida olamshumul voqealar yuz berdi: mamlakatimiz mustaqillikka erishib, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanladi, rivojlanishning o‘zbek modelini amalga oshirishga kirishdi. Xalqimizning huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidagi harakatlari dunyoqarashni tubdan o‘zgartirish, eski aqidalardan tamoman voz kechish, istiqlol mafkurasi shakllantirish, xalq ma’naviyatini yuksaltirish lozimligini taqozo etmoqda. Bunda ijtimoiy fanlar rivoji ulkan ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Islom Karimov to‘g‘ri ta’kidlaganlari kabi: «Ko‘p asrlik tariximiz shuni ko‘rsatadiki, inson dunyoqarashi shakllanishida ma’rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o‘rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo‘ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo‘ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo‘ladimi – ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuviga katta ta’sir kuchiga ega»¹.

Falsafa esa – barcha fanlar rivojlanishiga asos bo‘ladigan va ulardan oziqlanadigan, ayni paytda ularning rivojlanish yo‘llarini belgilab beradigan umuminsoniy va universal fan. U qadim zamonlardayoq «barcha ilmlarning otasi» deb ta’riflangan. Uning hayotiyligi xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog‘lik mos ekani, jamiyat manfaatlari va ezgu intilishlarini qay darajada aks ettira olishiga bog‘liq.

¹ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Т., 2000. – Б.33.

Dunyoda o‘z milliy falsafa mifikatini yaratgan xalqlar bor. Chunonchi, hind va xitoy falsafasi, nemis falsafasi, ingliz falsafasi kabilar shular jumlasidandir. Milliy adabiyot, milliy madaniyat, san’at va hokazolar bo‘lgani kabi, milliy falsafaning ham bo‘lishi tabiiy. Ammo bu falsafa milliy qobiqqa o‘ralib qoladi, degani emas. U umuminsoniy fan sifatida, bir tomondan, umumbashariy muammolarni qamrab olsa, ikkinchi tomondan, shu masalalar bilan shug‘ullanayotgan aniq shaxs – faylasuf mansub millatning muayyan manfaatlarini ham ifodalaydi. Millat ozod bo‘lsa, o‘z turmush tarziga mos fikrlasa, olamni, uning muammolarini dunyoqarashiga xos holda idrok eta olsa, uning o‘z falsafasi shakllanadi. Bunday falsafa xalq manfaatlarini aql-idrok, mafkura yo‘li bilan himoya qilishga, uning ongi, dunyoqarashi va ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bois, Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng falsafani rivojlantirish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Busiz millatning haqiqiy farzandi bo‘lgan, uning kamolini o‘ylaydigan chinakam ozod, hur fikrli, barkamol insonni tarbiyalab bo‘lmaydi. Shu sababli biz o‘rganadigan falsafa umumbashariy muammolar bilan birga, Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonidagi ma’naviyatning tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy tamoyillarini aks ettirmog‘i lozim.

Sobiq Ittifoq davrida so‘z va vijdon erkinligi turli yo‘llar bilan bo‘g‘ib kelingani, bir yoqlama dunyoqarash zo‘rlik bilan singdirilgani tufayli falsafa quruq safsata va zerikarli aqidaga aylanib qolgani – achchiq haqiqat. Chunki u kommunistik g‘oyalardan tashqariga chiqolmas, hayotga taraqqiyot nuqtai nazaridan baho berolmas edi. Shuning uchun u yoshlar va talabalar uchun kamolot vositasi, intilish omili emas, teskari tarbiya quroli, zararli dunyoqarash manbai bo‘lib qolgan edi. Shu bois, u o‘z davri mafkurasi bilan birga o‘tmishga aylandi. Bu borada oddiy tilda yozilgan qo‘llanmalar, xalqchil kitoblar, afsuski, hali ham yetarli emas. Odatda, mutaxassis bo‘lмаган ба’зи kishilar falsafani eng qiyin va eng mavhum fan deb hisoblaydilar. Buning sababi nimada? Buning boisi shuki, falsafa ko‘p yillar mobaynida oddiy va ravon tilda tushuntirilmas, aksincha, turli qonun va qoidalar, xilma-xil ta’limot va g‘oyalar majmuidan iborat murakkab bir fan sifatida talqin etilar edi. U yoki bu falsafiy qoida nega kerak, ularni o‘rganishning qanday ahamiyati bor, muayyan faylasuf aynan biror bir g‘oya yoki ta’limotga ko‘proq ahamiyat bergenining sababi nimada, nima uchun uning qarashlarida aynan ana shu muammo ustuvor bo‘ldi, degan masalalar ko‘p hollarda nazardan chetda qolar edi.

Falsafaning asosiy vazifasi inson ongida sog‘lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bunday dunyoqarash biron-bir g‘oyani zo‘rlab singdirish yoki quruq yod oldirish orqali emas, balki ishontirish, xilma-xil fikrlarni o‘rtaga tashlash, muhokama qilish, zarur tushuncha, tamoyillarni aniqlash jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Ana shularni hisobga olgan holda, mazkur darslikda quyidagilarga alohida e’tibor qaratildi:

- falsafani jahon madaniyati va sivilizatsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganish;
- falsafiy g‘oyalar, muammolar, oqim va yo‘nalishlarni tavsiflashda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning uyg‘unligi tamoyiliga amal qilish;
- xilma-xil falsafiy ta’limot va turli qarashlarni bir butun jarayonning ifodasi bo‘lgan ilmiy bilimlar tizimi sifatida talqin etish;
- mavzularni aniq sharoit va jarayonlar bilan bog‘lab tavsiflash, ularni izohlashda umumbashariy va milliy miqyosdagi dalil va misollarga tayanish;
- har bir mavzuni istiqlol va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq holda tushuntirish.

Biz bu jarayonda biror bir g‘oya, oqim, yo‘nalish yoki falsafiy ta’limotni mutlaqlashtirib, boshqalarining ahamiyatini kamsitish fikridan yiroqmiz. Aksincha, bizning maqsadimiz ularning barchasini xolis talqin etish, talabalarda falsafa fani, xilma-xil falsafiy oqimlar, ularga mansub faylasuflar va ularning ta’limotlari haqida to‘g‘ri va xolisona tasavvurni shakllantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi falsafa va politologiya kafedrasi dotsentlari D.A.Yusubov I bo‘lim 1-mavzu, III bo‘lim 8-mavzu, V bo‘lim 9, 12-mavzular, VI bo‘lim 13, 14, 15-mavzular, X.B.Saitxodjayev II bo‘lim 3, 4-mavzular, V bo‘lim 10-mavzu, A.A.Mavlyanov I bo‘lim 2-mavzu, III bo‘lim 5-mavzu, IV bo‘lim 7, 8-mavzular, VI bo‘lim 11-mavzularni nashrga tayyorlanganlar. Ushbu darslikda falsafani yangi tamoyillar asosida tavsiflash borasidagi ilk tajribalardan biridir. Shu sababli unda ayrim xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ylgan bo‘lishi mumkin. Matnlar, asosan, ijtimoiy fan sohalari uchun mutaxassis tayyorlamaydigan oliy o‘quv yurtlari talabalariga mo‘ljallangan.

Mualliflar

I BO‘LIM

FALSAFA VA UNING MUAMMOLARI

**1-bob. FALSAFA FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA UNING
ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARI FAOLIYATI UCHUN
AHAMIYATI**

1-§-Falsafaning bahs mavzui va ilmiy-nazariy o‘rganish, tadqiq etish masalalari

Falsafa insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardandir. Falsafa inson ma’naviy madaniyatining eng qiziqarli sohalaridan biri hisoblanadi. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak uning o‘zi kabi falsafa ham qadimiyyidir. Falsafa olam va uning yashashi, rivojlanishi, o‘zgarishi, taraqqiyoti, hayot va inson umrining mohiyati, borliq va yo‘qlik kabi ko‘plab muammolar haqida bahs yuritadigan qadimiy fandir.

«Falsafa» atamasi qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, «Filio» – sevmoq va «sofos» – donishmandlik so‘zlarining birikuvidan iborat. Uning lug‘aviy ma’nosи – «donishmandlikni sevish» demakdir.

Abu Nasr Forobiy o‘zining «Falsafaning ma’nosи va kelib chiqishi haqida» deb nomlangan asarida «falsafa» atamasi yunon tilidan kelib chiqqanligini tasdiqlaydi.

Falsafa tabiat, jamiyat va insonning mohiyati haqidagi eng umumiy bilimlarni o‘zida ifodalab, insonni borliqqa bo‘lgan munosabatining metodologik asoslarini belgilab beradi, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining eng umumiy qonunlarini o‘rganadi va falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Falsafa bundan 3 ming yil ilgari fan sifatida paydo bo‘ldi. Uning paydo bo‘lishida jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot muhim rol o‘ynadi. Chunki, falsafa ijtimoiy ongning alohida o‘ziga xos shakli sifatida jamiyatning iqtisodiy va ma’naviy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni o‘zida aks ettiradi.

Falsafa fan sifatida borliqni, ya’ni tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonunlarini o‘rganadi. Bundan kelib chiqqan holda falsafiy bilimlar doirasi ham juda keng bo‘lib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- a) ontologiya – borliq haqidagi qarashlar;
- b) sotsiologiya – jamiyat haqidagi qarashlar;
- v) gnoseologiya – borliqni bilish muammolari;
- g) logika – inson tafakkuri qonunlari haqidagi qarashlar tizimi.

Bundan tashqari, axloqiylik va go‘zallik haqidagi bilimlar tizimini o‘z ichiga olgan etika va estetika ham falsafiy bilimlar qatoriga kiradi.

Insoniyat tarixining turli davrlarida falsafa nima va u nimani o‘rganadi degan savollarga turli mutafakkirlar turlicha javob berib kelganlar. Buning esa o‘ziga xos bir qancha sabablari bo‘lgan. Insoniyatning ijtimoiy amaliyoti va ma’naviyati rivojlanib borishi bilan falsafaning bahs mavzui, uning jamiyat hayotidagi o‘rni ham doimo o‘zgarib borgan. Bu esa har bir davrda borliqni, tabiatni, inson hayoti va jamiyatni tushunishda turli xil falsafiy qarashlar paydo bo‘lishiga olib kelgan. Ijtimoiy-tarixiy davrlarning turli bosqichlarida falsafa siyosat, iqtisodiyot, fan va madaniyat, san’at va adabiyot, shuningdek, din bilan, xullas, jamiyatning ma’naviy hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Falsafaning jamiyatdagi roli ayni shu vaqtning o‘zida o‘zgarib borgan. Xuddi shu tarzda falsafiy qarashlarning rivojlanib borishi turli xil oqimlar va yo‘nalishlarni keltirib chiqargan.

Falsafa taraqqiyotida muayyan umumiylazariy qarashlarni ishlab chiqqan mutafakkirlarning bir qismi o‘zining e’tiborini tabiatga, uni tushuntirish va izohlab berishga qaratganlar. Bunga Lukretsiy Karning «Narsalarning tabiatini to‘g‘risida», Ahmad al-Farg‘oniyning «Astronomik risolalar», al-Xorazmiyning «Vasaya: az-Ziji mumtaxana», J.Brunoning «Dunyoning ikki sistemasi to‘g‘risida suhbat», D.Didroning «Tabiatni bayon qilish haqida fikrlar», P.Golbaxning «Tabiat sistemasi», Gegelning «Tabiat falsafasi», A.Gersenning «Tabiatni o‘rganish haqidagi xatlar» va F.Engelsning «Tabiat dialektikasi» asarlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bu mutafakkirlar o‘z asarlarida yer, quyosh va yulduzlarning, xullas, koinotdagi jismlarning paydo bo‘lishi, ularning tabiatini va mohiyati haqidagi kosmologik va kosmogonik muammolarni yoritishga urinadilar. Ularning falsafiy qarashlari markazida tabiatdagi narsalarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, yemirilishi, boshqa narsalarga aylanishi, narsa va hodisalarning birinchi asosi haqidagi fikrlar yotadi. Hamma narsalarning birinchi ibridoiy asosini qidirish, narsa va hodisalarni ana shunga suyanib izohlash, ularni bir butunga birlashtirib o‘rganishga intilish – bu mutafakkirlarning falsafiy qarashlari mohiyatini tashkil etadi.

Boshqa bir guruh mutafakkirlar diqqatini inson, inson hayotining ma’nosи va mazmuni, uning dunyoda tutgan o’rni, tabiatga va jamiyatga bo‘lgan munosabatlari muammolar o‘ziga jalb qiladi. Ular inson hayotining ma’nosи va mazmunini nima belgilaydi, insonning dunyodagi o’rni qanday, inson dunyoni bila oladimi, falsafa insonni qaysi jihatdan o‘rganadi degan savollarga javob izlaganlar. Bu muammolar haqida turli davrlarda yashagan mutafakkirlar turli xil fikrlar yuritganlar va ko‘plab asarlar yozganlar. Jumladan, bunga Arastuning «Etikasi», Ibn Sinoning «at-Tadabaru monazil» (Davlatni boshqarish), Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilik», Ahmad Yassaviyning «Hikmat»lari, Amir Temurning «Temur tuzuklari», Erazm Rotterdamskiyning «Xristian jangchisi quroli», T.Gobbsning «Inson tabiati», B.Spinozaning «Ilohiy-siyosiy traktat» va «Aql kamoloti haqida traktat», A.Gelvetsiyning «Inson haqida», I.Kantning «Osmon umumiylar tarixi va nazariyasi», «Sof aqlni tanqidi», Gegelning «Ruh falsafasi», L.Feyerbaxning «Xristianlikning mohiyati» asarlari misol bo‘la oladi. Bu asarlarning mualliflari o‘z davrdagi ilm-fan asosida insonning boshqa mavjudotlardan tub farqlari, mohiyati, hayotining ma’nosи va mazmuni, bu yorug‘ olamdagи o’rni, o‘limi va abadiyligi kabi muammolarni yoritganlar.

Inson bilimlari orta borgan sari jamiyat, uning moddiy va ma’naviy hayoti, ijtimoiy munosabatlar, siyosiy, huquqiy, axloqiy muammolar ham mutafakkirlarning e’tiborlarini o‘ziga jalb qila boshlagan. Natijada, mutafakkir faylasuflar bu sohada ham tadqiqotlar olib borib, jamiyat haqida ko‘plab asarlar yaratdilar. Bular, Aflatuning «Davlat», «Qonunlar», Arastuning «Siyosat» asarini, Forobiyning «Fozil odamlar shahri», «as-Siyasa al madaniya» (siyosat ilmi), Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi», T.Gobbsning «Grajdanim to‘g‘risida», Dj.Lokkning «Qonunlarning ruhi to‘g‘risida», Gegelning «Tarix falsafasi» va «Huquq falsafasi» kabi asarlarini misol qilish mumkin. Bu asarlarda, o‘z davri nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, bir butun jamiyat, uning moddiy va ma’naviy hayoti, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, uning bazisi va ustqurmasiga oid nazariy qarashlar o‘rtaga tashlandi. Xuddi shu tarzda har bir davrda falsafaning bahs mavzusi o‘zgarib borgan.

Falsafa fanining muammolari, o‘z xususiyatlariga ko‘ra, azaliy yoki o‘tkinchi bo‘lishi mumkin. Azaliy muammolar insoniyat paydo bo‘lgan davrdayoq vujudga kelgan bo‘lib, toki odamzod mavjud ekan yashayveradi. Chunki insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun tartibiga qo‘yilaveradi. Ularni o‘rganish jarayonida ilm-fan taraqqiy etib boraveradi.

Olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, borliqning voqeligi, undagi o‘zaro aloqadorlik va taraqqiy etish, insoniyat hayotidagiadolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, ularning mazmuni, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog‘liq ko‘pdan-ko‘p masalalar falsafa va falsafiy bilim sohalarining azaliy muammolari qatoriga kiradi.

Falsafada olamning asosida nima yotadi, uni voqe etib turgan narsaning mohiyati nimadan iborat, degan masalalar nihoyatda uzoq tarixga ega. Bu masalalarni qay tarzda hal qilishiga qarab farqlanadigan falsafiy oqim va yo‘nalishlar mavjud. Masalan, olamning asosida nima yotadi, uning mohiyati nimadan iborat degan masalada monizm, dualizm, plyuralizm, materializm va idealizm kabi qator falsafiy qarashlar shakllangan.

Monizm (yunon. manos – yakka) – olamning asosi yakkayu yagona sababga, bitta asosga ega deb beradigan falsafiy ta’limotdir.

Dualizm (lot. dua – ikki) – olamning asosida ikkita asos, ya’ni modda va materiya bilan birga ruh va g‘oya, ya’ni ideya yotadi deb aytuvchi qarash.

Plyuralizm (lot. plural – ko‘pchilik) – olamning asosida ko‘p narsa va g‘oya (ideya)lar yotadi deb e’tirof etadigan ta’limot.

Materializm – olamning asosida materiya, ya’ni moddiy narsalar yotishini e’tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta’limot.

Idealizm – olamning asosida ruh yoki g‘oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb ta’lim beradigan falsafiy ta’limot.

Yuqorida ko‘rsatilgan falsafaning bahs mavzulari ham xuddi shu yo‘nalish va oqimlar asosida har xil tarzda tushuntirib berilgan. Falsafada hal qilinishi va yondashishi mumkin bo‘lgan masalalarda mutafakkirlar o‘zlarining fikr va mulohazalarini u yoki bu tarzda bayon etganlar.

Falsafada dunyonи anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bog‘liq masalalar ham mavjud bo‘lib, bu masalalarda ham har xil yondashishlar kelib chiqqan. Bu aytib o‘tilgan masalalar bilan falsafaning gnoseologiya (gnosis – bilish, logos – ta’limot) degan sohasi shug‘ullanadi. Dunyonи bilish mumkinligini tan oluvchi faylasuflar – *gnostiklar* deb ataladi. Bundan tashqari olamni bilish mumkin emas, bilimlarimiz to‘g‘ri va aniq haqiqat darajasiga ko‘tarila olmaydi deyuvchi faylasuflar mavjud bo‘lib, ularni esa – *agnostiklar* (yunoncha – bilib bo‘lmaydi degan ma’noni anglatadi) deb atashadi.

Dastavval aniq fanlar mustaqil tarmoqlarga ajralib taraqqiy topmagan vaqtida falsafa barcha bilimlarni o‘z ichiga qamrab olib «fanlarning fani» vazifasini bajarib kelgan. Shu davrning buyuk mutafakkir olimlari Demokrit, Aristotel, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Ulug‘bek va boshqalar, ayni vaqtida tabiat fanlarini ham asoschilari bo‘lganlar. Falsafani maxsus fanlar bilan birlashtirish qadimgi davrga xos xususiyat bo‘lgani uchun u tabiat falsafasi, ya’ni «naturfilosofiya» deb ham hisoblangan.

Yuqorida aytilganlardan ma’lumki, falsafaning bahs mavzusi har doim o‘zgarib kelgan. Lekin shu narsa ko‘zga tashlanadiki, insonning mohiyati va borliqqa munosabatini o‘rganish falsafiy tafakkurning negizini tashkil etadi. Inson muammoasi falsafaning asosiy masalasi sifatida uning bahs mavzusini ham belgilab beradi. Falsafaning bahs mavzusi esa quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi;

1) ma’naviyat sohibi bo‘lgan inson borliq taraqqiyotining eng oliy, noyob, nodir va betakror natijasi ekanligini ko‘rsatish, insoniylik va insonparvarlik mezonlarini tadqiq etish va rivojlantirish;

2) insonning jamiyatdagi o‘rni, borliqqa munosabati, insoniy munosabatlarning mohiyati va mezonlarini o‘rganish;

3) amaliyat va fan yutuqlari natijalarini, tarixiy meros va taraqqiyotning yangi muammolarini yetuk axloqiy qadriyatlarga tayanib o‘rganish va umumlashtirish;

4) falsafiy muammolar va metodologik xulosalarga tayanib, inson dunyoqarashini shakllantirish va shu asosda kishilarning amaliy faoliyatiga maqsad va yo‘nalish berish.

Borliqni inson o‘rganib borar ekan, uning o‘zi bilmagan yangi va yangi qirralarini ochib boradi va kashf qiladi. Fandagi yangi tomonlar insonni yangi falsafiy g‘oyalarni nazariy jihatdan oldinga surishga olib boradi. Tabiatdagi, jamiyatdagi, inson va uning tafakkuridagi o‘rganilayotgan va kashf qilinayotgan yangi tomonlar falsafiy mushohadada yangi yo‘nalish va oqimlarni vujudga keltiradi. Shu tariqa inson, jamiyat, tabiat har doim harakatda, o‘zgarishda, rivojlanishda o‘z yo‘lidan boraveradi.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin milliy falsafani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Bugun ulug‘ ajdodlarimiz tamal toshini qo‘ygan o‘zbek milliy falsafasini rivojlanishning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari mavjud.

Falsafiy fikrlar, g‘oyalar fanning rivoji uchun oldida turgan masalalarni hal qilishda o‘ziga yarasha katta kuch hisoblanadi. Asrlar

davomida shakllanib kelayotgan falsafiy bilimlar insoniyat madaniyati xazinasiga katta hissa bo‘lib qo‘sildi. Prezident I.Karimov asarlarida o‘zbek falsafasining taraqqiyot qonuniyatlari ochib berilayotganini alohida ta’kidlash lozim. Prezident falsafa oldidagi bugungi muammolarning mohiyati, ularni hal qilish yo‘llariga alohida e’tibor bermoqda. Milliy g‘oya, istiqlol mafkurasi haqida so‘z yuritib I.Karimov shunday deydi: «Milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma’naviy boyligiga dunyoqarashining negiziga aylanishga erishish biz uchun eng asosiy maqsaddir».

O‘zbek falsafasining rivojlanishida bugungi kunda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor berish lozim: xalqimizning:

- o‘z milliy an’alariga sodiqligi;
- mamlakatimizning buyuk kelajagiga ishonchi;
- muqaddas qadriyatlarimizga ishonch-e’tiqodi;
- mehnatsevarligi, intellektual salohiyati va boshqalar.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz lozim: falsafa – bu tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining eng umumiyligi qonunlarini o‘rganadigan fan. Mustaqillik qo‘lga kiritilgach yurtimizda falsafani yanada rivojlantirish zarurati paydo bo‘ldi. Mustaqillik falsafasi millatimiz vakili bo‘lgan, mustaqil fikrlay oladigan, barkamol insonni tarbiyalashga yo‘naltirilishi lozim. Shuning uchun falsafa fani ko‘pgina dolzarb muammolarni, xususan yurtimizda istiqlolni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatni barpo etish yo‘lidagi ma’naviyatning ajralmas qismi bo‘lib, uning tamoyillarini aks ettirmog‘i lozim.

2-§. Falsafaning asosiy funksiyalari

Falsafa doimo jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Falsafa ijtimoiy voqelik bilan uzviy bog‘liq holda jamiyatga, uning ijtimoiy borlig‘iga faol ta’sir qilib, yangi g‘oyalarni nazariy jihatdan shakllantirib boradi. Falsafa ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida jamiyat hayotini o‘zida aks ettiradi. Ijtimoiy borliq esa rang-barang va turli-tumandir. Ijtimoiy borliqning rang-barang va turli-tumanligidan uning ko‘p funksiyaliligi kelib chiqadi. Demak, falsafa jamiyatda ko‘p funksiyalarni bajaradi.

Falsafani jamiyat hayotida katta va betakror rol o‘ynashi uning bajaradigan asosiy funksiyalarida yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Uning asosiy funksiyalari quyidagilardir: 1) dunyoqarashlik funksiyasi;

2) ontologik funksiyasi; 3) metodologik funksiyasi; 4) gnoseologik funksiyasi; 5) ijtimoiy funksiyasi; 6) aksiologik funksiyasi; 7) evristik funksiyasi.

Falsafa dunyoni bir butun holda aks ettirib, unda insonning dunyoga munosabati haqidagi barcha bilimlarimizni nazariy jihatdan umumlashtirib, uni o'zlashtirish asosida bizni borliq, materiya, tabiat, jamiyat, inson, inson ongi va tafakkuri, insonning dunyoni bilishi to'g'risidagi eng umumi qarashlar bilan quollantiradi. Bu falsafaning dunyoqarash funksiyasidir. Dunyoqarash funksiyasi falsafaning, falsafiy bilimlarning asosiy xususiyatidir.

Hozirgi zamon falsafasining nazariy manbasini insoniyat tomonidan yaratilgan barcha jamiyat rivojiga xizmat qiladigan falsafiy ta'limotlar tashkil qiladi. Uning ildizlari shu paytgacha tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar qo'lga kiritgan yutuqlarga borib taqaladi. Insonlar shu ta'limotlar va qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan tanishib o'zlarida borliq haqida yaxlit dunyoqarash shakllantirishadi. Kishilarda olam haqida yaxlit dunyoqarash vujudga keladi.

Falsafaning dunyoqarash funksiyasi uning boshqa funksiyalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Falsafaning ontologik funksiyasi. Ontologiya (yunoncha ontos – borliq, logos – so'z, ta'limot degan ma'nolarni anglatadi) – borliq to'g'risidagi ta'limot, falsafaning borliqni o'rganuvchi qismi. Ontologiya borliqni asoslari, tamoyillari va qonunlarini o'rganuvchi ta'limot. Ontologiya tushunchasi falsafaga nemis faylasufi R.Goklenius tomonidan 1613-yil kiritilgan.

Falsafaning ontologik funksiyasi borliqni, uni tuzilishini, rang-barangligini, shakllarini o'rganishda namoyon bo'ladi.

Falsafaning metodologik funksiyasi. Borliqning turli tomonlarini xususiy fanlar o'z metodlari bilan tahlil qilishadi. Shu bilan birga borliqni o'rganishda xususiy fanlar umumi xulosalar chiqarish uchun falsafiy metodlardan ham foydalanishadi. Chunki falsafiy metodlar borliq, tabiat, jamiyat, bilish, ong va boshqa kategoriyalarning, narsa va hodisalarning mohiyatini, eng umumi tomonlarini, bog'lanish va aloqadorligini bilish imkoniyatini beradi. Aniq fanlar rivojlangan sari falsafiy metodlarning ahamiyati ham ortib boradi. Falsafiy metodlar aniq fanlar yutuqlarini umumlashtirib olam haqida yaxlit tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Aynan shu vazifani falsafiy metodologik umumlashmalar, falsafiy metodlar amalga oshiradi.

Umuman falsafa alohida fanlar uchun, ularning tabiat va jamiyatning borliq va ongning konkret tomonlarini o‘rganishda, tadqiq qilishda eng umumiy metod rolini o‘ynaydi.

Falsafaning gnoseologik funksiyasi. Falsafa dunyoni bilish muammosini o‘rganar ekan, uning umumiy metodlarini ishlab chiqadi va inson bilish jarayonining umumiy nazariyasini yaratadi. Shu asosda inson bilish, uning rivojlanish tendensiyalari va eng umumiy qonunlarini ochib beradi. Falsafa inson amaliy tajribasida hosil bo‘lgan bilimlarning haqiqatligini tekshiruvchi mezonzlarni ham tadqiq etadi.

Falsafa inson oldiga, avvalo, o‘zini anglash va so‘ngra borliqni o‘rganish masalasini ham qo‘yadi. Dunyoni bilish asosida inson o‘zi o‘zgarib, dunyoni oqilona anglab, so‘ngra amaliy faoliyatida falsafiy umumlashmalarga tayanadi.

Bunday hollarning barchasida falsafaning gnoseologik vazifasi namoyon bo‘ladi.

Jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribasi o‘rganilib va tahlil qilinib, xulosalar chiqarilib boriladi. Uning hozirgi kundagi imkoniyatlari, ehtiyojlarini bilishdan kelib chiqqan holda jamiyatning kelgusidagi istiqboli aniqlanadi. Bu – falsafaning ijtimoiy funksiyasi hisoblanadi.

Jamiyat hayotining hozirgi zamon sharoitida falsafaning aksiologik funksiyasi ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu funksiyaning mohiyati shundaki, falsafa inson hayotining mohiyatini, uni yashashining asosiy mazmunini, insonning turmushdagi qadr-qimmati, jamiyatda tutgan o‘rni, uni axloqiy, gumanistik prinsiplar va g‘oyalarni baholash asosida tushuntiradi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi kunda insoniyat boshiga xavf solayotgan jahon termoyadro urushi, qurollanish poygasining yanada avj olishi, ekologiyaning buzilishi, energiya zaxiralarini tugab borishi, jamiyatda yuz berayotgan moliyaviy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy tangliklar sharoitida turli maqsadlar va faoliyatlar natijalarining gumanistik g‘oyalari bilan qo‘silib borishi, insoniyatning Yer yuzida yashab qolishi muammolari umuminsoniy qadriyatlarni birinchi planga chiqarmoqda. Inson o‘z qadr-qimmatidan kelib chiqqan holda o‘zini ehtiyyotlashga, tabiatni qo‘riqlashga intilib boraveradi. Insoniyat o‘z tarixiy rivojlanishi davrida manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p qadriyatlarni yaratgan. Falsafa esa uni ogohlilikka chaqirmoqda.

Falsafaning evristik funksiyasi. Evristika(yunoncha heurisko so‘zi izlayman, ochaman degan ma’noni anglatadi) – qanday qilib metodik

jihatdan yangilik ochishga oid qo'llanma, yangilik kashf etish san'atidir. Falsafaning evristik funksiyasi yangilik ochishga qaratilgan, yangilik ochishga xizmat qiladi. Masalan yangi g'oyalar, yangi faktlar ochishga xizmat qiladi. Evristik funksiya ilmiy bayonda tizimli bayonlashga qarama-qarshi bo'lgan holda yangi ilmiy natijalarga erishish yo'lini tasvirlab beradi

3-§. Falsafaning izlanish metodlari

Olamdagi o'zgarish, rivojlanish, umumiyoq aloqadorlik va taraqqiyotning qay tarzda amalga oshishi, qanday sodir bo'lishi kabi masalalar ham falsafaning azaliy muammolari qatoriga kiradi. Falsafaning ana shu mavzularga munosabati va ular bilan bog'liq muammolarni hal qilishiga qarab farqlanadigan bir necha ta'limot, qarash, usul va metodlari bor. Dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, dogmatika kabilar shular jumlasiga kiradi. Ularning tarixi nihoyatda uzoq bo'lib, Qadimgi Yunoniston va Rim davrida (mil. avv. VII-I asr) boshlandi. Keyingi yillarda sinergetika ham falsafiy metod va ta'limot sifatida talqin etilmoqda.

Dialektika – yunon tilida bahs va suhbatlashish san'ati degan ma'noni anglatadi. Dialektika olamdagি narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda, taraqqiyot va rivojlanishda deb tushunishdir. Dialektikaga ko'ra, olamda o'z o'rniga va joyiga, yashash vaqt va harakat yo'nalishiga ega bo'lgan barcha narsalar va hodisalar bir-birlari bilan bog'liq va aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy va takrorlanib turadigan bog'lanishlar orqali namoyon bo'ladi.

Taraqqiyot jarayonida avlodlar, davrlar, siyosiy tuzumlar, umuman ijtimoiy voqeа va hodisalar o'z-o'zidan avtomatik tarzda sodir bo'lib, nom-nishonsiz yo'qolib ketmaydi. Balki ularning barchasi insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlarning hosilasi, ijtimoiy jarayonlarning natijasi, biror sababning oqibati sifatida namoyon bo'ladi. Bir davr ikkinchisining o'rniga, bir avlod oldingisidan keyin. Bir voqeа boshqasining ortidan sodir bo'lib turadi. Ana shu abadiy va azaliy uzlusizlik, doimiy aloqadorlik, vaqtning orqaga qaytmasligi va voqealarning ketma-ketligi tarzidagi bog'lanishlar, rivojlanish va taraqqiyot, olamning rang-barangligi va uyg'unligi dialektikaning asosiy tamoyillarini tashkil qiladi.

Falsafada mazkur tamoyillarga asoslangan tafakkurni – dialektik tafakkur, ana shunday dunyoqarashni – dialektik dunyoqarash, yondashuvni – dialektik yondashuv, metodni – dialektik metod deb atash an'anaga aylangan. Shu bilan birga u yoki bu olimning ushbu tamoyillarga asoslanadigan dunyoqarashi, falsafiy ta'limotlari ham bor. Masalan, Demokrit va Geraklit dialektikasi, Kant yoki Gegel dialektikasi deyilganda ana shunday hol nazarda tutiladi.

«Metafizika» yunoncha so‘z bo‘lib, «fizikadan keyin» degan mazmunni ifodalaydi. Bu tushuncha falsafa tarixida birinchi marta, Qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Arastuning «Ilk falsafa» deb atalgan asarlariga nisbatan ishlatilgan.

Metafizika bilish metodi sifatida hali ishlab chiqarish fan yetarli darajada rivojlanmagan XVI-XVII asrlarda, paydo bo‘ladi. U vaqtarda ko‘pchilik tabiatshunoslik fanlari falsafadan endigina ajralib chiqib, ular predmet va hodisalarni alohida-alohida o‘rganayotgan, ularning xususiyatlari to‘g‘risida dalillar to‘planayotgan bir paytda metod ijobiy rol o‘ynagan. Ayni shu vaqtda u tabiatshunoslikdan falsafiy metod sifatida falsafaga kiritiladi. Lekin u metod faylasuflarni asta-sekin dunyodagi predmet va hodisalarni bir-biridan ajralgan holda, ularni umumiy bog‘lanishdan tashqarida tekshirishga va shuning natijasida predmet va hodisalarni harakat holatida emas, balki harakatsiz holatda, muhim darajada o‘zgaradigan narsalar sifatida emas, balki abadiy o‘zgarmaydigan narsalar sifatida, tirik emas, balki o‘lik narsalar sifatida tekshirishga odatlantirib qo‘ya boshlaydi. Lekin XVIII asrga kelib tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar to‘plagan materiallar umumlashtirilib, fanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘lanishlar aniqlana boshlanib, metafizikaning cheklanganligi, bir tomonlama metod ekanligi ma’lum bo‘la boshlaydi.

Sofistika – (yunon. *sophisma* – ataylab xato dalillar asosida, ko‘p ma’noli so‘zlarga asoslanib fikr yuritish) – bilib turib, xato asoslardan yolg‘on xulosa chiqarishdir. Bu yerda so‘fiylik falsafasi emas, balki o‘rta asrlarda Yevropada keng tarqalgan alohida falsafiy ta’limot nazarda tutiladi.

Sofistik tafakkur usuli dastlab qadimgi yunon falsafasida paydo bo‘lib, o‘rta asrlarda ayniqsa keng tarqaladi va rivojlanadi.

Qadimgi davr yunon falsafasida biron-bir bilim sohasini mukammal egallagan kishilar *sofistlar*, deb atalgan bo‘lsa, keyinchalik o‘rta asrlarga kelib, notiq, bilimdonlik, donishmandlik bilan nom chiqargan kishilar

ham, turli omonim so‘zlar asosiga qurilgan turli fikrlar bilan kishilarning boshini qotiradigan, ustamonalik bilan ular fikrlarini chalg‘itadigan kishilar ham sofistlar deb atala boshlanadi.

Sofistik tafakkur usuli yoki sofistik muhokama jarayonida bilib turib, ataylab yolg‘on asoslardan yolg‘on xulosalar chiqarish asosida fikr yuritish usulidir.

Eklektika (yunon. – tanlayman) – turli qarama-qarshi nazariyalarni, qarashlarni aralash-quralash qilib yuboruvchi tafakkur usulidir. Dialektik tafakkur usuliga muqobil bo‘lgan tafakkur usullaridan yana biri bu eklektikadir.

Eklektik tafakkur usuli ham dastlab qadimgi yunon falsafasida yuzaga keladi. Eklektik tafakkur usuli, ayniqsa, O‘rta asr falsafasi va yangi zamon falsafasi sxolastiklari qarashlarida keng qo‘llaniladi. Eklektik tafakkur usulida narsa va hodisalarning muhim va nomuhim, asosiy va asosiy bo‘lmagan xususiyatlari, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar mexanik ravishda birlashtirilib, qorishtirilib ifodalanadi. Narsa va hodisalarga, ularning bog‘lanishlariga aniq, muayyan makon va zamonda, muayyan vaziyat va shart-sharoitda yondashmaslik, ulardagi asosiy va ikkinchi darajali tomonlarni hisobga olmaslik asosida eklektik tafakkur usuli paydo bo‘ladi. Eklektik tafakkur usuli asosida ham formal mantiq qonunlaridan noto‘g‘ri foydalanish, narsa va hodisalar mohiyatiga yuzaki yondashish yotadi.

Dogmatika (yunon. o‘zgarmas, qotib qolgan, aqida) – aniq shart-sharoitlarni hisobga olmay qo‘llaniladigan qoida, prinsip, fikrdir. Dogmatik tafakkur falsafadagi amaliyot va fanning yangi ma’lumotlarini hisobga olmay, aniq makon va zamon bilan bog‘liq bo‘lmagan, o‘zgarmas tushunchalar va qoidalar bilan ish ko‘rvuchi tafakkur usulidir. Dogmatik tafakkurning asosini metafizika tashkil qilib, u dastlab sofistik tafakkur usuliga qarama-qarshi o‘laroq vujudga keladi.

Sinergetika – olamning o‘z-o‘zini tashkil etish, makon va zamonda narsa va hodisalarning azaliy ketma-ketligi, o‘zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog‘lanishlar asosida mavjudligini e’tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuasidir. U asosan XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan ta’limot bo‘lib, asoschisi Nobel mukofoti sovrindori I.Prigojindir, bu ta’limotni dialektika asosida shakllangan va uni to‘ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deydiganlar ham bor. Ularga qarshi o‘laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim deb hisoblovchilar ham mavjud.

Sinergetikaning XX asrdagi shaxdam odimlari o‘rtalarda Yevropada aniq fanlar sohasida induksiya va deduksiya usullarining muvafaqqiyatli qo‘llanganini, katta mavqega ega bo‘lgani va pirovard natijada, falsafiy metodga aylanganini eslatadi. Sinergetika XX asr tabiiy fanlarining falsafa sohasiga kiritayotgan eng katta yutuqlaridan biri sifatida baholash mumkin. Ammo, bu uning dialektikani falsafadan butunlay surib chiqardi degani emas. Zero, falsafada har bir ta’limot, uslub va metodning o‘z o‘rni va faoliyat darajasi bor. Dialektikaning falsafadagi o‘rni, qadr-qimmati nihoyatda katta va u falsafaning asosiy qismlaridan biri bo‘lib qolaveradi.

4-§. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning faoliyatida falsafiy bilimlarning o‘rni va ahamiyati

Ma’lumki, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatiga shaxs va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish vazifalari kiradi. Huquqni muhofaza qilish idoralariga esa prokuratura, adliya, III kabilar kiradi. Huquqni muhofaza qilish idoralarining asosiy vazifalari: konstitutsiyaviy nazorat, odil sudlovni amalga oshirish, sudlar faoliyatini tashkiliy ta’minlash, prokuror nazorati, jinoyatni aniqlash va tergov qilish, yuridik yordam berish va jinoiy ishlar bo‘yicha muhofazani ta’minlash kabilarni qamrab oladi.

Huquq, bizga ma’lumki, insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi norma hisoblanadi.

Ma’lumki, falsafiy bilimlar juda keng qamrovli hisoblanadi. Falsafa tabiat, jamiyat va inson, uning tafakkurini taraqqiyotini eng umumiyligi qonunlarini o‘rganadi va insonlarda falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, huquq jamiyatni huquqiy tomonlarini o‘rganar ekan, u falsafa o‘rganayotgan muammolarning bir qismini tashkil etadi. Shuning uchun ham falsafa jamiyat, davlat va huquq masalalarini umumiyligi tarzda, ijtimoiy bir hodisa sifatida ko‘rib chiqadi. Huquqshunoslik fanlari falsafaning metodologik xulosalariga, yutuqlariga suyangan holda huquqiy muammolarni aniqlashtiradi hamda bir qator maxsus nazariy masalalarni o‘rganadi.

Huquqshunoslik fanlari falsafaning metodlari, qonunlari, tushunchalari, bilish nazariyasi va boshqa tomonlaridan foydalangan holda o‘z oldida turgan masalalarni hal qilishadi. Ma’lumki, jamiyat har xil guruhlardan, qatlamlardan, insonlardan tashkil topgan. Huquqshunoslik

fanlari esa xuddi shularni manfaatini va ehtiyojlarini qabul qilingan me'yorlar asosida himoyalaydi. Demak, bu yerda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar ham shu me'yorlardan foydalanibgina insonni muhofaza qiladi. Bu yerda huquq ijodkorligi, huquqiy muammolarni hal qilishda mantiqan ko'rinib turibdiki, falsafaning, uning yutuqlarini o'rni va ahamiyati katta. Falsafiy bilimlarga ega bo'lgan huquqshunos har bir masalani har taraflama keng va to'g'ri hal qilish qobiliyatiga ega bo'lib boradi.

**2-bob. DUNYOQARASH VA UNING TARIXIY SHAKLLARI.
MUSTAQILLIK VA FALSAFIY DUNYOQARASHNING
YANGILANISH ZARURATI**

**1-§. «Dunyoqarash» tushunchasi, uning mohiyati
va tuzilishi**

Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, dunyoqarash insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash – olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilish.

Dunyoqarash – insonning olamni bir-butun yoki turli tuman holda ko'rishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, tushunishi hamda unda o'z o'rni va mavqeini, munosabatini belgilovchi qarashlar, baholar, tamoyillar majmuasidan iborat murakkab tizimdir.

Demak, dunyoqarash insonning nafaqat dunyo va o'z-o'zini anglash haqidagi bilimlar yig'indisigina emas, balki dunyonи ma'lum darajada tushunish bilan birga uni baholash usuli hamdir. «Dunyoqarash» ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida keng qamrovli tushuncha bo'lib, o'zida turli xil elementlarni birlashtiradi. Bu o'rinda «dunyoqarash»ni «ijtimoiy ong» tushunchasi bilan solishtirsa tinglovchilarga tushunarli bo'ladi, chunki ularning tuzilishida bir-biriga yaqinlik bor. Jumladan, dunyoqarash tarkibida ijtimoiy ongdagi singari darajalar, turlar va elementlar mavjuddir. Quyida qiladigan tahlillarimizda dunyoqarashning tuzilishi haqida tushuncha berishga harakat qilamiz.

Dunyoqarash tarkibiga borliqning hissiy va aqliy in’ikosi sifatida hosil bo’lgan sezgi, idrok va tasavvurdan tortib, tafakkurda mantiqiy jihatdan nazariy asosda qayta ishlangan falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, badiiy va ilmiy bilimlar, nuqtai nazarlar, ishonch va e’tiqodlar kiradi.

Dunyoqarash tarkibida hissiyat va aql muhim o‘rin tutadi. hissiyat dunyoqarashning emotсional-ruhiy jihatni bo‘lib, dunyoni tushunish esa, dunyoqarashning aqliy shaklidir. Hissiyot – quvonch, shodlik, zavqlanish, hayot va kasb-kordan mamnunlik yoki norozilik, hayratlanish, xavotirlanish, asabiylashish, yolg‘izlik, zaiflik, ruhiy tushkunlik, g‘am-g‘ussa, nadomat, o‘z yaqinlari va vatani taqdirini o‘ylash kabi xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Ana shular barchasining uyg‘unligi dunyoni his etishga olib keladi. Dunyoni his qilish esa, uni aqliy tushunishga, muayyan dunyoqarashning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Inson aqli unga xos hissiyat va tasavvurlar asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi va takomillashtiradi. Har bir kishiga xos hissiyat va fikr, bilim va e’tiqod, intilish va kayfiyat, orzu-umid va qadriyatlar dunyoqarash tarkibida yaxlitlashadi va olamni bir butun holda aks ettiradi. Bir butun, yaxlit dunyoqarashning shakllanishi bolalikdan boshlanib, inson hayotining oxirigacha davom etadi. Bu holat individual dunyoqarashning asosiy tamoyillaridan birini ifodalarydi.

Dunyoqarash tarkibiga, shu bilan birga, kundalik turmushdagi hayotiy-amaliy malaka va ko‘nikmalar hamda muayyan maqsadga yo‘naltirilgan, tartib va tizimga ega bo‘lgan ilmiy-nazariy bilimlar ham kiradi. Dunyoqarash kundalik va nazariy darajalariga egadir.

Dunyoqarashning kundalik darajasi – bu kundalik hayotiy tajribalar asosida jamiyatda, odamlarda oddiy, o‘z-o‘zicha rivojlanuvchi (stixiyali) mohiyatga ega bo‘lgan qarashlar, tushunchalar, g‘oyalalar yig‘indisidir. Bu – dunyoqarashning o‘z-o‘zicha rivojlanuvchi (stixiyali) shakli hisoblanadi. Uni ko‘pincha hayotiy falsafa, deb ham ataydilar.

Hayotiy falsafaning doirasi juda keng bo‘lib, ongning sodda namoyon bo‘lish shakllarini ham, oqilona va sog‘lom fikrlarni ham o‘z ichiga oladi. Hayotiy falsafa yoki oddiy amaliy dunyoqarashning o‘ziga xos turini inson faoliyatining turli sohalaridagi bilim va tajribalar ta’sirida shakllanayotgan qarashlar tashkil etadi. «Har kimning o‘z falsafasi bor» deyilganida ana shu hol anglashiladi. Demak, dunyoqarash o‘zining kundalik ommaviy shakllarida chuqur va yetarli darajada asoslanmagan stixiyali xarakterga ega. Shuning uchun ham ko‘p hollarda

kundalik tafakkur muhim masalalarni to‘g‘ri tushuntirish va baholashga ojizlik qiladi. Buning uchun olamni ilmiy tahlil qilish va bilish zarur. Bu o‘rinda dunyoqarashning yuqori darajasi bo‘lmish nazariy dunyoqarash tahlilimiz obyektiga aylanadi.

Nazariy dunyoqarash – bu dunyoqarashning insoniyat tajribasida erishilgan bilimlarning muayyan tartibiylik va tizimiylilik asosida shakllangan yuqori darajasidir. Demak, dunyoqarash kundalik va nazariy darajalaridan iborat bo‘lar ekan.

Dunyoqarash tarkibining keyingi tahlilida, uning individual va ijtimoiy deb ataluvchi turlariga murojaat qilamiz.

Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa, ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual dunyoqarashlar yig‘indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiy va xususiy shakllarini hisobga olish lozim.

Shuningdek, dunyoqarash o‘z tarkibiga bilimlar, baholar, qarashlar, tamoyillar, e’tiqod, ishonch va qadriyatlar singari bir qator elementlarni ham qamrab oladi.

Dunyoqarash, mohiyat-mazmuniga ko‘ra, ma’naviy faoliyat bo‘lgani bois, u borliqqa bo‘lgan ongli, insoniy munosabatning muayyan yo‘nalishlarini vujudga keltirgan. Masalan, kishilarning jamiyatdagi axloqiy munosabatlari – axloqiy dunyoqarashlarida, huquqiy munosabatlari – huquqiy, siyosiy munosabatlari – siyosiy, diniy munosabatlari – diniy, ekologik munosabatlari – ekologik dunyoqarash shakllarida o‘z ifodasini topgan. Buni tizim tarzida izohlaydigan bo‘lsak, quyidagicha ko‘rinish kasb etadi. Axloqiy, diniy, huquqiy, siyosiy, ekologik va estetik.

Bu tizimni tashkil qilgan nisbatan mustaqil dunyoqarash shakllari o‘zaro bog‘liqlikda, aloqadorlikda harakat qiladi. Dunyoqarash tizimining rivojlanish darajasi jamiyat taraqqiyotiga mos keladi va uni ifodalab turadi. Bundan tashqari, har bir tarixiy davrda millatning rivojlanishi, uning mentaliteti va dunyoqarashida namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, dunyoqarash tizimi va ularning xususiyatlari muayyan inson, ijtimoiy guruh, tabaqa va butun millatning ma’naviy qiyofasini belgilab beradi.

«Dunyoqarash» tushunchasi o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g‘urur, tarixiy xotira, ma’naviy barkamollik kabi tuyg‘u va tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Chunki, dunyoqarash aynan ana

shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo‘lagiga aylanadi.

Inson ongli ijtimoiy mavjudot bo‘lgani bois, uning dunyoqarashi muayyan ehtiyoj va manfaatlarga asoslanadi. Demak, har qanday dunyoqarash muayyan inson, ijtimoiy guruh yoki tabaqaning o‘z ehtiyoj, manfaatlaridan kelib chiqqan holda borliqqa munosabatini ifodalovchi g‘oyalar, nazariyalar, bilimlar majmuasi, ruhiy holat va e’tiqod mujassami hamda ularning namoyon bo‘lishidir.

Dunyoqarash muayyan davrda shakllanadi. Shu ma’noda, har qanday dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega bo‘lib, kishilarning umri, amaliy faoliyati, hayoti, tabiatga ta’siri va mehnati jarayonida vujudga keladi. Har bir davrda ijtimoiy guruh, jamiyat va avlodning o‘z dunyoqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Dunyoqarashning tarixiyligi yana shundaki, u ma’lum dialektik jarayonda takomillashib boradi. Uning shakllari o‘zgaradi, tarixiy ko‘rinishlari muttasil yangilanib turadi.

Dunyoqarash jamiyat rivojiga mos ravishda asta-sekin takomillashib borgan. Taraqqiyotning har bir yangi bosqichida oldingi davrlarga nisbatan fan, madaniyat, ishlab chiqarish sohalarida qilingan yangi-yangi kashfiyotlar inson dunyoqarashi naqadar chuqurlashib, uning bilimlar doirasi borgan sari kengayib borishidan dalolat beradi. Bunda vorislik an’ anasi yaqqol ko‘zga tashlanadi: har bir davrning dunyoqarashi, g‘oyasi o‘tmishda yaratilgan ma’naviy qadriyatlarning eng yaxshilarini, ilg‘or va ijobiliyalarini o‘zida saqlab qoladi. Shu asosda yangi tamoyillarga ega bo‘lgan dunyoqarash ham takomillashib boradi. Oddiy bug‘ mashinasidan kosmik raketalargacha bo‘lgan fan-texnika taraqqiyoti bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan insonning amaliy bilish faoliyati ham rivojlanib boradi. Bu o‘z navbatida dunyoqarashning ham rivojlanib borishini taqozo qiladi. Insonning dunyonи amaliy o‘zlashtirishining o‘zgarib borishi bilan uning ongidagi in’ikos bo‘lgan dunyoqarash ham o‘zgarib borishi bilan uning ongidagi in’ikos bo‘lgan dunyoqarash ham o‘zgarib, rivojlanib, yangi-yangi tarixiy shakllari paydo bo‘lib boradi. Tarixiy jihatdan dunyoqarash oddiy kundalik ong – dunyonи yuzaki, cheklangan tushunishdan boshlab mifologiya, diniy va falsafiy dunyoqarashlar tomon rivojlanib boradi. Mifologiya, diniy va falsafiy dunyoqarashlar dunyoqarashning tarixiy shakllarini tashkil qiladi. Keyingi savolda dunyoqarashning aynan shunday tarixiy shakllari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz.

2-§. Dunyoqarashning tarixiy shakllari

Dunyoqarashning tarixiy shakllari insoniyat taraqqiyotining qonuniy natijasi bo‘lib, jamiyat rivojlanishining ma’naviy mezoni sifatida namoyon bo‘lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida kishilarning tabiatga, o‘zlarining ijtimoiy hayotiga bo‘lgan munosabati turli rivoyat va afsonalarda o‘z ifodasini topgan. Ular shu tariqa mifologik dunyoqarashni shakllantirgan.

Mifologik (yunon. *miphos* – doston, qissa, afsona va logos – ta’limot) dunyoqarash odatda o‘z ifodasini o‘sha qadimgi davr kishilar tomonidan yaratilgan, to‘qilgan naqlarda, rivoyat va afsonalarda topgandir. Bu rivoyat va afsonalar ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki davrning turli bosqichlarida paydo bo‘lib, ularda tasvirlangan obrazlar, asosan xudolar va afsonaviy qahramonlar bo‘lishgan. Qadimgi kishilar bu rivoyat va afsonalarda tabiat va jamiyatning turli hodisa va voqealarini umumlashtirib, xayoliy shakllarda tasvirlaganlar. Ular bu orqali afsonaviy qahramonlarning yovuz kuchlar bilan qarshi kurashlari va ularning bu kuchlar ustidan g‘alabalarini aks ettirganlar.

Mifologik dunyoqarash – ijtimoiy taraqqiyotning boshlang‘ich bosqichiga xos bo‘lgan insonning olam haqidagi tasavvurlarini obrazlarda, naql, rivoyat va afsonalar orqali ifodalananishidir.

Har bir xalqda o‘zining uzoq tarixiy o‘tmishiga xos rivoyatlar va afsonalar mavjud. Ularda bu xalqlarning ijtimoiy hayoti, turmush va fikr tarzlari, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlari xayoliy tarzda xudolar, ilohiy kuchlar va afsonaviy qahramonlar obrazlarida g‘ayritabiiy, yovuz kuchlarga qarshi kurash olib boradilar. Oqibatda, bu kurashlarda doimoadolat va haqiqat tantana qiladi. Bunday rivoyat va afsonalar dastlabki paytlarda xalq og‘zaki ijodi namunalarida, keyinchalik yozuvning paydo bo‘lishi bilan taraqqiy topgan xalqlarda o‘ziga xos adabiy asarlarda o‘z ifodasini topadi. Bunga misol sifatida biz qadimgi yunon eposlari – «Iliada» va «Odisseya»ni, hind eposi «Ramayana»ni, karelo-fin eposi «Kalevla»ni, qirg‘iz xalqi eposi «Manas»ni, o‘zbek xalq eposi «Alpomish» va shu kabilarni keltirishimiz mumkin. Bu eposlarda o‘sha xalqlarning o‘tmishdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayoti, ularning madaniyati, urf-odatlari, an’analari, axloqiy, diniy, estetik, axloqiy, huquqiy, siyosiy qarashlari va tasavvurlari o‘z ifodasini topgandir.

Yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi kurashda yaxshilikning mudom tantana qilishi mifologik dunyoqarashning gumanistik mazmunidan

dalolat beradi. Xususan, o'zbek xalqi sivilizatsiyasi jarayonida yaratilgan rivoyat, afsona va bosh.a janrlardagi og'zaki ijod namunalari millatimiz tarixda qanday ma'naviy qiyofaga ega bo'lganini hanuz ko'rsatib turadi. Ular bugungi kunda jahon ahlini hayratga solmoqda. Masalan, qadimiy merosimiz namunasi – «Avesto»da yaxshilik ramzi – Axuramazda va yomonlik timsoli – Axriman o'rtasidagi kurash tarixi misolida oxir-oqibatda ezgulik baribir g'alaba qozonadi, ya'ni yorug'lik zulmat ustidan g'alaba qiladi, degan g'oya asosiy o'rinni egallaydi va hayotbaxsh g'oyalar ilgari suriladi.

Mifologik dunyoqarash qadimgi zamon kishilarining o'zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ezgulik va haqiqat uchun kurash g'oyalarining ifodasi bo'lgan afsona va rivoyatlarda millatning muayyan ruhiy holati, kelajakka ishonchi, vatanga muhabbati, insoniy kamolotga intilishi badiiy vositalar, afsonaviy qahramonlar timsolida ifoda etilgan.

Mifologik dunyoqarash qadimgi dunyo kishilarining o'zlaricha o'sha davrga xos dunyoni tushunish, idrok qilish va uni izohlashi sifatida turli vazifalarni bajargan.

Birinchidan, bu dunyoqarash ma'lum xalqning, ma'lum ijtimoiy jamoa umumiy qarashlarining shakllanishi bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, bu dunyoqarash o'zida jamiyatning ma'lum ma'naviy, madaniy qadriyatlarini (axloqiy, estetik, diniy, badiiy, ilmiy, falsafiy va boshqalar) mujassamlashtirgan edi. Uchinchidan, bu dunyoqarashda tabiat va jamiyatning, olam va odamning, bir butun borliqning umumiy birligi, ichki va tashqi aloqadorligi, inson ichki ma'naviy dunyosining manzarasi, garchi hali chuqr bo'lmasa ham, o'zining dastlabki ifodasini topadi. To'rtinchidan, bu dunyoqarashda o'tmish bilan hozirning hamda kelajakning bog'lanishi, ular o'rtasidagi uzviy aloqa qayd qilingan bo'ladi. Mifologik dunyoqarashning yana bir jihat shundaki, unda intellektual moment konkret emotsiyonal, poetik, holatlari ifodalaniishi tufayli insonni qurshab turgan dunyodagi narsa va hodisalar insoniy sifatlar, insoniy xususiyatlar jihatdan baholanadi va tushuniladi.

Dunyoqarashning mifologik mohiyati bugungi fan-texnika taraqqiyoti, insonning aqliy salohiyati bag'oyat yuksalib ketgan davrda juda jo'n va ibtidoiy bo'lib ko'rindi. Ammo afsona va rivoyatlar o'zining kuchli jozibasi, insonparvarlik g'oyalari bilan hozirgi kunda ham kishilarni ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalashning ta'sirchan va samarali omili bo'lib qolmoqda.

Muayyan dunyoqarash tarkibida diniy-ilohiy qarashlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo‘lgan e’tiqodi bilan bog‘liq bo‘lib, vujudga kelishiga ko‘ra, boshqa dunyoqarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega.

Mifologik dunyoqarash afsonaviy kuchlarni e’tirof etish bilan bog‘liq bo‘lsa, diniy dunyoqarash ilohiy qudratlarga e’tiqod qo‘yish bilan bog‘liq. Shuning uchun ham bu dunyoqarash shaklini inson qalbidagi quyidagi holatlar belgilaydi:

- emotsional-ruhiy. odatlar;
- iymon-e’tiqod;
- iymon-e’tiqodning xatti-harakatlarda ifoda etilishi.

Bular ayni paytda diniy dunyoqarashning asosiy tamoyillarini ham tashkil qiladi.

Diniy dunyoqarash har bir davrda muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarib kelgan. «Din, shu jumladan islom dini ham, ming yillar davomida barqaror mavjud bo‘lib kelganining o‘ziyoq u inson tabiatida chuqr ildiz otganidan, uning o‘ziga xos bo‘lgan bir. ancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma’naviy hayotining muayyan sohasi bo‘lgan din, umuminsoniy axloq me’yorlarini o‘ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan»¹.

Diniy dunyoqarash – bu g‘ayritabiiy kuchlarning real mavjudligiga ishonishga asoslangan, voqelikni xayoliy obrazlarda, tasavvurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi olamning fantastik manzarasini yaratuvchi ilmiy bo‘lmagan qarashlardan iborat dunyoqarashning o‘ziga xos shaklidir.

Diniy dunyoqarashning asosini din tashkil qiladi. Din voqelikni inson ongidagi fantastik in’ikosidan iborat bo‘lgan ijtimoiy ong shakllaridan biridir. U insonning tabiat va jamiyat qonunlarini hali bila olmagan, dahshatli va tushunib bo‘lmaydigan bo‘lib tuyulgan tabiat kuchlari va «sirlari» oldida ojizligining in’ikosi sifatida g‘ayri tabiiy kuchlarning real mavjudligiga ishonish, ularga e’tiqod qilish natijasida paydo bo‘ladi. Din murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u g‘ayritabiiy kuchlarning real mavjudligiga ishonishni (diniy e’tiqodni), diniy dunyoqarashni, diniy marosimlarni (dinga sig‘inishni) hamda diniy tuyg‘ularni o‘z ichiga oladi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т., 1998. – Б. 441.

Diniy e’tiqod – bu g‘ayritabiiy kuchlar va ilohiy mavjudotlarga noilmiy, hech bir dalil va isbotsiz ishonishdir. Diniy e’tiqod dindor kishining his-tuyg‘ularini, ichki kechinmalari va xulq atvorini belgilab beradi. Diniy e’tiqod o‘z ichiga intellektual, hissiy va iroda elementlarini qamrab olgan murakkab hodisadir. Diniy e’tiqodning intellektual elementlari – bu dindorlar ongida mavjud bo‘lgan, yuzaki qaraganda, to‘g‘riga o‘xshagan, aslida voqelikning xato in’ikosi bo‘lgan diniy tasavvurlar va tushunchalardir. Ular hech qanday ilmiy dalil va asosga ega bo‘lmaydilar, lekin ayni vaqtida ular dinga ishonuvchi kishilar tomonidan hayotiy zarur narsalar sifatida baholanadilar. Diniy e’tiqodning dindorlar uchun majburiy hisoblangan, muhokama yuritmasdan ishonish lozim bo‘lgan talablari mavjud bo‘lib, ular vazifasini diniy aqidalar bajaradi.

Diniy aqidalarga misol qilib Qur’onda berilgan islom aqidalarini olishimiz mumkin. Islomda sunniylik ilohiyotida shakllangan bunday aqidalar yetta: Ollohning yagonaligi, farishtalar, muqaddas hisoblangan yozuvlar, payg‘ambarlar, oxiratning borligi, taqdirning ilohiyligi va kishi o‘lgandan keyin qayta tirilishga ishonish (bu aqidalar imon talablari ham deyiladi).

Sig‘inish – diniy faoliyatning bir ko‘rinishi sifatida odamlarning kundalik hayotida ular ustidan hukmronlik qiluvchi diniy obrazlar shaklidagi ilohiy kuchlarga toat-ibodat qilishdir. Sig‘inish diniy marosimlarning bir ko‘rinishi sifatida diniy tasavvurlar va g‘oyalarni ifoda etuvchi hamda g‘ayritabiiy, xayoliy obyektlarga qaratilgan yakka yoki jamoa bo‘lib bajariladigan ramziy xatti-harakatlardir. Bundagi yakka shaxs yoki jamoa sig‘inishining subyekti bo‘lib, ibodatxona, diniy buyumlar (xoch, shamlar, tasbeh va shu kabilar) sig‘inish vositalari hisoblanadi. Ta’zim, tiz cho‘kish, sajda qilish, bosh egish, qo‘l qovush-tirish, cho‘qinish va hokazolar sig‘inishning oddiy ko‘rinishlaridir. Qurbonlik qilish, xudoyi qilish, qur’on o‘qitish, diniy bayramlarni nishonlash sig‘inishning murakkab shakllaridir. Shu yo‘l orqali kishilar o‘zlaridagi dinga, e’tiqodga, ishonchga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishadi.

Diniy tuyg‘u – dinga ishonuvchilarning tabarruk va aziz deb tasavvur qilinadigan mavjudotlarga, muqaddaslashtirilgan buyumlar, narsalar, shaxslar, joylarga, bir-biriga va o‘z-o‘ziga, shuningdek, diniy mazmunda talqin etilgan tabiat va jamiyat hodisalariga bo‘ladigan hissiy munosabatlaridir.

Har qanday his-hayajon, kechinma diniy tuyg‘u bo‘lavermaydi. Kishilarning turli hissiyotlari – qo‘rqish, shodlanish, zavqlanish, muhabbat, ehtirom, quvonch, umid, umidsizlik, muvaffaqiyat, muvaffaqiyatsizlik kabi holatlari ularning diniy tasavvurlari, g‘oyalari va qarashlari bilan qo‘silib ketib, tegishli yo‘nalish, ma’lum ma’no va mazmun kasb etishi natijasida diniy tuyg‘uga aylanadi. Umuman din biz sanab o‘tgan barcha elementlari bilan o‘ziga xos dunyoqarash shakli bo‘lishi bilan birga, u murakkab ma’naviy tuzilma sifatida ijtimoiy tarixiy xarakterga ega hamdir. Jamiyat hayotida har qanday, shu jumladan, diniy dunyoqarashning o‘rni va ahamiyatini ham sun‘iy ravishida mutlaqlashtirish, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu hol ayniqsa, diniy fundamentalizm va ekstremizm insoniyat uchun jiddiy xavfga aylangan hozirgi davrda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Hozirgi davrda fan, texnika, dunyoviy ilmlarning kuchayib ketishi bilan «Diniy dunyoqarash, tafakkurning, insonni o‘rab turgan dunyoga, o‘zi kabi odamlarga munosabatning yagona usuli bo‘lmaganligini ham ta’kidlash zarurdir. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon va u bilan teng yashash huquqiga ega bo‘lgan holda rivojlanib kelgan»¹.

Diniy dunyoqarashni teologiya deb ataladigan falsafiy fan o‘rganadi. **Teologiya** olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o‘lim muammosi kabi masalalarni ilohiyot, diniy e’tiqod tushunchalari bilan bog‘lab tahlil qilish hamda o‘ziga xos mukammal tizimini yaratgan. Bugungi kunda diniy dunyoqarashning xayoliy kompensatorlik, kishi xulq-atvorini belgilash (regulyativ), boshqarish va integrativ kabi bir talay asosiy vazifalari mavjuddir. Umuman, dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati benihoyat ulkan va u tobora ortib bormoqda.

Falsafiy dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta’sirida shakllanadi hamda rivojlanadi. Falsafiy dunyoqarash mifologik va diniy dunyoqarashdan farqli o‘laroq, dunyoni sof ilmiy tushuntiruvchi nazariy qarashlar sistemasidir.

Falsafiy dunyoqarash – dunyoni, aqliy jihatidan mantiqiy, izchil, umumlashtirib turuvchi nazariy qarashlar tizimidir.

Falsafa azal-azaldan dunyoqarash bo‘lgan. Chunki, uning o‘zi hayot nima uchun berilgan, dunyoga kelishdan maqsad nima, umrni mazmunli

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т., 1998. – Б.442.

o‘tkazishning qanday yo‘llari bor, degan talay savollarga javob topish zarurati tufayli vujudga kelgan. Falsafiy dunyoqarash o‘zining nazariy asoslangani va puxta ishlangani bilan ajralib turadi. Shu ma’noda, u boshqa fan yoki faoliyat sohasi uchun umumiy uslub vazifasini ham bajaradi.

Agar nazariya bilish jarayonining natijasi bo‘lsa, usul (metod) shu bilimga erishish yoki uni amalgalash oshirish yo‘lini anglatadi. Falsafiy nazariya esa, bir vaqtning o‘zida usul vazifasini ham bajara oladi. Tarixning burilish davrlarida o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari nechog‘lik to‘g‘ri ekani falsafiy dunyoqarash tamoyillariga solishtirib aniqlanadi. Bunda muayyan falsafiy nazariya umumiy usul (metod) sifatida qabul qilinadi. Shu sababdan ham bunday davrlarda falsafiy nazariyalarga e’tibor kuchayadi, taraqqiyot yo‘llaridan borish falsafiy modellarining ahamiyati ortadi.

Masalan, bizning mamlakatimiz jahon hamjamiatiga qo‘shilish, demokratik davlat qurish borasida Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan taraqqiyot yo‘li – «O‘zbek modeli»ni amalgalash oshirmoqda. Bu yo‘lning asosiy mohiyati islohotlarni inqilobiy tarzda emas, tadrijiy ravishda olib borishni nazarda tutadi. Prezidentimiz, aynan shu yo‘lni taklif etar ekan, asosiy e’tiborni uning mohiyat-mazmuni, tarixda qanday natijalar bergani kabi masalalarga qaratgan. Bunda taraqqiyotning mazkur yo‘li aniq tarzda tasavvur etilgan. Ya’ni, uning tarixiy va zamonaviy jihatlari, umumbashariy va mintaqaviy xususiyatlari, mamlakatimizning buguni va kelajagi uchun naqadar ahamiyati har tomonlama o‘rganilgan. Ana shu asosda kerakli xulosalar chiqarilgan va ularni hayotga tatbiq etishning asosiy yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatib berilgan.

Biz ana shu nazariyani, bir tomonidan, taraqqiyotimizning o‘zimizga xos va mos modeli deb ataymiz. Ikkinci tomonidan esa, uni mamlakatimiz. Hayotini tubdan o‘zgartiradigan va uning kelajagini belgilab beradigan, milliy dunyoqarash, ong va tafakkur rivojida muhim o‘rin tutadigan umumfalsafiy tayanch – metodologiya deb bilamiz. Chunki, uning tamoyillari taraqqiyotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi va shu bilan birga, bu jarayonga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Falsafiy dunyoqarash borliq haqidagi ilmiy qarashlar tizimining o‘z-o‘zicha shakllangan (mexanik) yig‘indisi emas, balki ularning umumiy qonuniyatlar asosidagi tizimidir. Falsafiy dunyoqarash tarkibida quyidagi tamoyillar namoyon bo‘ladi: ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, uni-

versallik, maqsadlilik, g‘oyaviylik hamda nazariya va amaliyotning birligi.

Falsafiy dunyoqarash ilmiydir, chunki u narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. Har qanday falsafiy dunyoqarash shakli obyektiv olamdagи narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks ettiradi.

Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili jamiyatning o‘tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Agar mantiqiy izchillik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan va izchil aks ettirishiga putur yetadi.

Falsafiy dunyoqarashning universalligi boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya’ni har qanday dunyoqarash shakli o‘ziga xos falsafiy xususiyatga ega.

Falsafiy dunyoqarash maqsadga muvofiq bo‘lib, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o‘z dunyoqarashida aks ettiradi.

Falsafiy dunyoqarashning g‘oyaviylik tamoyili, uning asosida muayyan g‘oya yotgani bilan ifodalanadi.

Xususan, bugungi o‘zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik, o‘zlikni anglash, millatimiz kelajagini belgilaydigan istiqlol g‘oyasiga tayanishi bilan xarakterlidir. Falsafiy dunyoqarash shu g‘oyani e’tiqodga aylantirish va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi.

Falsafiy dunyoqarashning eng muhim tamoyillaridan biri *nazariya va amaliyot birligidir*. Dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo‘l kelishi bilan izohlanadi. Shuningdek, dunyoqarashning amaliyotga joriy etilish jarayonida uning usul va vositalari muhim ahamiyatga ega.

Falsafiy dunyoqarashning zikr etilgan tamoyillari, uning vazifalarini belgilab beradi. Ya’ni, bu vazifalar jamiyatning umumbashariy ruhdagi maqsad-muddaolaridan, manfaatlaridan kelib chiqadi hamda boshqa dunyoqarash shakllari uchun uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoqarash, avvalo insoniy munosabatlar ifodasidir. Shu nuqtai nazardan, u insonning borliqqa munosabatida, dastlab uning bahosi

tarzida ko‘zga tashlanadi. Bu – falsafiy dunyoqarashning *baholash* vazifasini anglatadi. Ya’ni, inson, o‘z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, narsa-hodisalarni: yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qarama-qarshi mezonlarga ajratadi.

Inson narsa-hodisalarga baho berar ekan, buning zamirida uning ijtimoiy hayoti, ya’ni ongli munosabatlari yotadi. Bunda inson yoki jamiyat munosabatlari dunyoqarashning o‘zi tayanadigan omillarga (ideallariga) moslashtiriladi. Orzu-havaslarga erishishning usullari, vositalari, amaliy yo‘nalishlari belgilanadi.

Dunyoqarash inson faoliyatini axloqiy me’yor, diniy qadriyat, huquqiy hujjat va siyosiy mexanizmlar kabi usul-vositalar orqali *boshqarish* vazifasini ham ado etadi. Bunda falsafiy dunyoqarashning o‘zicha nisbatan mustaqil bo‘lgan har bir yo‘nalishi o‘ziga xos boshqarish usuliga ega bo‘ladi. Masalan, insonni ezgulikka yo‘naltirish uchun axloq uning aql-zakovatiga; din – iymon-e’tiqodiga; huquq – qonunlarga, jazo idoralariga; siyosat-davlat funksiyalariga tayanadi va o‘ziga xos ta’sir yo‘nalishlariga ega bo‘ladi.

Falsafiy dunyoqarashning inson faoliyatini *nazorat qilish* vazifasi ham bor. Bunda dunyoqarashning jamoatchilik fikri tarzidagi ko‘rinishi nazarda tutiladi. Masalan, o‘zbek xalqining tarixiy rivojlanishi va ma’naviy hayot tarzida mahalla ijtimoiy nazoratning muhim instituti tarzida faoliyat ko‘rsatgan.

Darhaqiqat, o‘zbek mahallalarida bag‘rikenglik, o‘zaro mehr-oqibat, hamdardlik kabi noyob fazilatlar kamol topadi. Shuning uchun ham Islom Karimov uni «O‘zini o‘zi boshqarish maktabi... demokratiya darsxonasi», – deb ta’riflaydi1.

Falsafiy dunyoqarashning *birlashtirish* (kommunikativ) vazifasi turli dunyoqarash yo‘nalishlarini milliy va umuminsoniy g‘oyalari atrofida uyg‘unlashtirishi bilan xarakterlanadi. Turli manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lgani bois dunyoqarashlar o‘rtasida muayyan ziddiyatlar ro‘y berishi tabiiy. Bunday sharoitda falsafiy dunyoqarash ularni murosaga keltirishga xizmat qiladi.

Falsafiy dunyoqarash, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ijtimoiy-tarixiy tajribani umumlashtirish, jamiyat istiqbolini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lganligi uchun ham xalqni muayyan g‘oya atrofida birlashtiradi.

Masalan, tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, muayyan davrlarda falsafiy dunyoqarash inson tub manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lganligini, millat kelajagini belgilaydigan ozodlik g‘oyasi atrofida kishilarni

birlashtirganini ko‘ramiz. Bu hol mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurash davrida yaqqol namoyon bo‘lgan. Ushbu g‘oya (ozodlik falsafasi) dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida millatning turli tabaqalarini, e’tiqodi, iqtisodiy ahvoli va siyosiy mavqeidan qat’i nazar, birlashtirgan va umumiy kurashga safarbar qilgan.

Har qanday dunyoqarash inson ehtiyojlaridan kelib chiqadi, uning manfaatlariga mos keladi. Shu bilan birga, bir tomondan, dunyoqarash o‘z-o‘zidan, ya’ni stixiyali ravishda shakllanib qolmaydi. Aksincha, u turli ta’lim-tarbiya vositalarining maqsadga muvofiq holdagi faoliyati natijasida vujudga keladi. Ikkinci tomondan esa, falsafiy dunyoqarash, umuminsoniy tamaddun (sivilizatsiya) ta’siri o‘laroq shakllangan bo‘lsa, muayyan inson, ijtimoiy guruh yoki millatni tarbiyalashning turli imkoniyatlari va vositalarining mushtaraklashgan shaklidir.

Binobarin, falsafiy dunyoqarashning *tarbiyaviy* vazifasini yuqorida zikr etilgan boshqa vazifalarning asosi sifatida qarash kerak. Bu – kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bag‘rikenglik, murosa, har qanday ziddiyatlarni madaniy yo‘l bilan hal qilish, kelajakka umid va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat.

3-§. Mustaqillik va falsafiy dunyoqarashning yangilanish zarurati

Falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Ma’lumki, hayotdagi voqea-hodisalarining barchasi ijtimoiy ongda aks etadi. Taraqqiyot jarayonida davrlar o‘zgarishi bilan unga xos ma’naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Ammo bu o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Ayniqsa, inson tafakkurining o‘zgarishi, dunyoqarashning yangicha tamoyillarga ega bo‘lishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bu hol bizning kunlarimizda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimizda istiqlol g‘oyalariga asoslanadigan yangi dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifa bo‘lib turibdi. Zero, inson dunyoqarashini, uning asosiy tamoyillarini o‘zgartirmasdan, yangi jamiyatni qurish qiyin. Istiqlol talablari darajasida falsafiy tafakkurni yangilash vazifalarini bajarish g‘oyat murakkab bo‘lib, quyidagi bir qator muammolarni hal qilishni taqozo etmoqda:

- mustabid tuzum mafkurasining ijtimoiy, ma’naviy va falsafiy sohalardagi asoratlarini bartaraf etish;

- kishilar ongi va turmush tarzidan sobiq tuzumga xos g‘ayriinsoniy tamoyillarni siqib chiqarish;
- O‘zbekiston falsafasida jahon falsafiy tafakkuri yutuqlaridan yanada kengroq foydalanish;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonida nafaqat oddiy fuqaro, balki ziyoli va falsafa mutaxassislarining ongida hamon saqlanib kelayotgan loqaydlik va mutelik kabi kayfiyatlarga barham berish;
- ma’naviy merosimizni qayta tiklash va ijodiy rivojlantirish jarayonida buyuk ajodolarimiz falsafiy merosini yanada keng va chuqurroq o‘rganish;
- falsafiy adabiyotlarni milliy manfaatlarimizga yanada ko‘proq moslash, qo‘llanma va darsliklarimizda milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini aks ettirish;
- istiqlol talablariga mos keluvchi sog‘lom g‘oyali ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash zaruratiga mos tadqiqotlar olib borish, ular asosida ta’lim-tarbiyaning samarali usul va imkoniyatlarini izlab topish.
- jahon va Sharq xalqlari falsafiy merosini puxta va chuqur o‘rganish, bu jarayonda turli g‘oya va mafkuralarning davlatlar va xalqlar taqdiriga ta’sirini aniq ko‘rsatish va shu asosda istiqlol mafkurasining tamoyillarini kishilar ongiga singdirish.

Ana shu masalalarni uyg‘un holda hal qilish falsafiy dunyoqarashimizni yangilashga yordam beradi.

Istiqlolga erishganimizdan buyon tarixan qisqa davr o‘tgan bo‘lsada, mustaqil taraqqiyot mamlakatdagi ulkan imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishning yagona va muhim omili ekani o‘zining to‘liq isbotini topdi. Zero, faqat mustaqillikkina har bir xalqqa o‘z falsafasini erkin rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi. Mustaqillik yillarida falsafiy dunyoqarashning yangilanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy kabi barcha asoslar shakllandı.

Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi – serqirra jarayon. U juda keng ijtimoiy mazmunga ega bo‘lib, jamiyat ma’naviy hayoti, mafkurasi, madaniyati va ta’limi tizimidagi yangilanish, odamlarning ruhiy poklanishi, sobiq Ittifoqdan qolgan qaramlik kayfiyatidan xolos bo‘lish jarayonining tarkibiy qismidir.

Falsafiy dunyoqarash o‘zgarishining muhim jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi ijtimoiy jarayondir. Ya’ni u, avvalo, taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga

o‘tayotgan mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlardagi uzlucksiz o‘zgarishning tarkibiy qismidir. Falsafadagi yangilanish jamiyatdan, o‘z davridan, ro‘y berayotgan ijtimoiy jarayonlardan tashqarida sodir bo‘ladigan hodisalar yig‘indisi emas. Balki u o‘zida ana shu ijtimoiy jarayonlarning barcha asosiy xususiyatlarini aks ettiradi.

Ikkinchidan, mustaqillikka erishgan va uni mustahkamlashga harakat qilayotgan mamlakatimiz uchun bu tarixiy zaruratdir. Ya’ni u tasodifiy namoyon bo‘ladigan o‘tkinchi hodisa emas. Balki o‘tish davrining zaruriyati, jamiyatni tubdan isloh qilish, odamlarda yangicha tafakkurni shakllantirishdagi asosiy yo‘nalishlardan biridir.

Uchinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi nafaqat umumiy ma’naviy muhitning, balki har bir jamiyat a’zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o‘zgarishi hamdir. Shu ma’noda, u buyuk alloma bobomiz Abu Nasr Forobiy orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantiradigan va takomillash-tiradigan jarayondir¹. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, u g‘oyat murakkab ruhiy o‘zgarishlar, odamlarning qullik psixologiyasi va mustabid tuzumga xos mafkuraviy asoratlardan xalos bo‘lish jarayoni hamdir.

To‘rtinchidan, falsafiy ongning yangilanishi muayyan bir davrda amalga oshadi. Bu jarayon bizning mamlakatda o‘tish davriga to‘g‘ri kelmoqda. Ana shu davrda ijtimoiy muhitda yangi jihatlar vujudga keladi, odamlarning ruhiyati, qarashlarida tub o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Beshinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi inkor va vorislik jarayoni hamdir. Unda, bir tomondan, o‘zbek falsafasida azaldan mavjud bo‘lgan, hatto sobiq mustabid tuzum ham yo‘qota olmagan ko‘p jihatlarning saqlanib qolishi kuzatiladi. Ikkinci tomondan, yaqinginada ustuvor bo‘lgan ko‘pgina sinfiy-partiyaviy tamoyillar o‘tmishga aylanadi, inkor etiladi. Uchinchi tomondan esa, falsafiy tafakkurda yangi yo‘nalishlar o‘z o‘rnini topadi.

Mustaqillik odimlari va falsafaning yangilanishi uzviy bog‘liq jarayondir. Mamlakatning rivojlanish sur’ati yangicha mustaqil fikrlaydi-gan, ijtimoiy faol, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni alohida bosqichga olib chiqdi. Mulk shaklining xilmalligi, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga ehtiyoj, bozor munosabatlari sharoitida tadbirdorlikning kuchayishi, ishlab chiqarishga yangidan-yangi texnologiyalarning kirib kelishi jarayoni yuqori darajada tarbiyalangan va yuksak malakaga ega bo‘lgan mutaxassisni taqozo

etaryapti. Zero, yuksak malaka ayni paytda aqliy-ruhiy va jismoniy salohiyatlar uyg‘unlashgan taqdirdagina ko‘ngildagidek samara beradi.

Mustaqil davlatning oliy maqsadlarini amalga oshira oladigan mutaxassislarni shakllantirish uchun ularning shaxsiyati ijtimoiy talablarga javob bera oladigan tarzda kamolga yetgan bo‘lishi lozim. To‘g‘ri, inson jamiyatdagi o‘z o‘rni, Olloh ravo ko‘rgan taqdir haqida o‘ylashi, o‘z Vatanini sevishi, o‘z millati sha’nini ulug‘lash uchun yelib-yugurishi mumkin. Biroq ular aniq natija beradigan faoliyatga aylansagina ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Muayyan kishi jamiyatdagi o‘z o‘rni haqida o‘ylasa-yu, jamiyat oldidagi burchini anglab yetmasa, amalda burchiga sodiq ekanini namoyon etmasa yoki Vatanni sevish bilan cheklanib, uning ravnaqi uchun kurashmasa, millatiga munosib bo‘lish haqida o‘ylasa, yelib-yugursayu, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularining amaldagi isbotini namoyon eta olmasa, bundan na jamiyat, na Vatan, na millat naf topadi. Bunday kishining shaxsiyatida ijtimoiy burch, vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari zaif va faoliyatsiz bo‘lib qolaveradi.

Bunday shaxslar mustaqillik talablariga hozirjavoblik bilan maydonga chiqa olmaydi. Ma’naviy-axloqiy, ruhiy-jismoniy yetuk va faol shaxsgina jamiyat taraqqiyoti mazmunini, davlatning istiqbol yo‘lini, shaxs-jamiyat-davlat manfaatlarining uyg‘unligini to‘g‘ri tushunadi, shu yo‘lda hormay-tolmay mehnat qiladi.

Albatta, ma’naviy-axloqiy, ruhiy-jismoniy sog‘lom va yetuk kishilarni voyaga yetkazish oson emas. Buning uchun yillar mobaynida ter to‘kishga to‘g‘ri keladi. Bunda, avvalo, odamlar tafakkurini yangilash, istiqlol dunyoqarashini shakllantirish zarur. Binobarin, davr taqozo etayotgan keng qamrovli bilimga ega bo‘lish milliy va umuminsoniy madaniyatlardan, boy tarixdan, bugungi kundagi ulug‘vor bunyodkorlik ishlardan bahramandlik ularning qalbida Vatanga sadoqat va iftixor tuyg‘ulari kamol topishiga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy fan sohasidagi islohotlarning tezkor amalga oshirilishini talab etishi shubhasiz.

Tafakkuri istiqlol talablar darajasida yangilangan inson kim? U qanday ezgu va olajanob xususiyatlar bilan ajralib turadi? Istiqlol talablariga javob bera oladigan barkamol avlod qachon shakllanadi? Bu savollar – oddiy savollar emas. Ularning to‘g‘ri yechimini topish uchun bir necha yillar davomida yangi avlodni shakllantirish lozim bo‘ladi. Lekin hozirgi davrdagi tub o‘zgarishlar jarayonining tahlili asosida ham bu jarayonning ba’zi xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Mamlakatimiz bozor munosabatlari sari qadam qo‘yayotgan bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzimizda yuz berayotgan salmoqli o‘zgarishlar, shubhasizki, malakali, yetuk ma’naviyatli, fidoyi mutaxassis kadrlarni tayyorlashni talab etmoqda. Taraqqiyotimiz taqdirini ana shunday kadrlar hal etadi.

Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi va mafkuraviy jarayonlar uzbek bog‘liq. Falsafiy dunyoqarash ijtimoiy ong va mafkuradan ajralmasdir. Mafkura jamiyatdagi ma’naviy muhit qanday ekanini ko‘rsatib turadigan eng asosiy mezonlardan biri bo‘lsa, falsafa uni shakllantiradigan omillar sirasiga kiradi. Ammo eski qoliplarga o‘ralgan falsafiy dunyoqarash asosida yangi zamonning mafkuraviy talablariga javob berib bo‘ladimi? Yo‘q, albatta.

Mafkura jamiyatsiz paydo bo‘limganidek, ijtimoiy-siyosiy tuzum va uning ma’naviy hayotini ham mafkurasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Mafkura o‘z mohiyati, maqsadi, harakat yo‘nalishlari bilan jamiyatning bosh g‘oyasiga xizmat qiladi. U – jamiyat hayotining tarkibiy qismi, binobarin, uning bag‘rida shakllanadi, madaniy meros va qadriyatlar zaminida faoliyat ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish borasida ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun sobiq mustabid tuzum mafkurasi butunlay o‘tmishga aylandi. Diyorimizda milliy davlatchilik an’analaramiz qayta tiklanmoqda, ma’naviyat, madaniyat va ma’rifat yangi yuksaklikka ko‘tarilmoqda. «Ana shu jarayonning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?», «U hayotimizni qaysi tomonga eltadi?», «Biz bu jarayonda qanday ishtirok etishimiz lozim?» degan savollarga javob topish zarurati ijtimoiy tafakkurni o‘zgartirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Mustaqillik, milliy manfaatlarimizga mos mafkurani shakllantirishni kun tartibiga qo‘ydi. U xalqimizning azaliy an’analari, udumlari, tili, dili va ruhiyatiga asoslanib, ongimizga kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma’rifat tuyg‘ularini singdirishi lozim.

Shu bilan birga, bu «Mafkura xalqimizda, o‘zining qudrati va himoyasiga suyangan holda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mustaqil davlatlar orasida teng huquqli o‘laroq munosib o‘rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog‘i kerak»¹. Davlatimiz rahbarining ushbu fikrlarida milliy istiqlol mafkurasining dasturiy vazifalari o‘z ifodasini topgan. Mafkura dunyoqarashning

¹ Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. – Т., 1998. – Б.82.

asosini tashkil etadi, jamiyat va xalqning taraqqiyot yo‘lini belgilab beradi, jamiyat va millat rivojlanishidagi yetakchi g‘oyalarni ilgari suradi. Shu g‘oyalalar asosida insonlar faoliyati, orzu-intilishlari, istiqbol rejalarini aniqlashga yordam beradi.

Mafkura davlat, siyosat yoki muayyan ijtimoiy guruh manfaatlariga xizmat qiluvchi qarashlar, g‘oyalalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. U davlat, jamiyat yoki partiyalarning ijtimoiy barqarorligini, yashovchanligini g‘oyaviy jihatdan ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shu o‘rinda mafkura o‘zi mansub bo‘lgan jamiyat, millat yoki ijtimoiy guruhning harakat dasturiga g‘oyaviy yo‘nalish berishga qaratilgan targ‘ibotlar majmuiga ham o‘xshab ketadi.

Binobarin, jamiyat, millat yoki biron-bir guruhgaga tegishli asosiy ijtimoiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar ham mafkura orqali hosil qilinadi. Mafkura har bir davrning yetakchi g‘oyalalarini o‘zida ifoda etgani uchun ham u haqda fikr bildirish, uni dunyoqarashning shu sohadagi namoyishi deya qabul qilish mumkin.

Mafkura – jamiyat va xalqning taraqqiyot yo‘lini uzviy tarzda belgilab beruvchi g‘oyalalar va muayyan ijtimoiy qatlamlar manfaatlariga qaratilgan siyosiy, huquqiy, falsafiy, axloqiy, diniy va estetik qarashlar tizimidir. Ayni paytda uni shaxsiy darajadagi hissiy tasavvur, tushuncha va g‘oyalalar majmui bilan uyg‘un ma’lum bir maslak, ta’limot, dunyoqarashdir, deb talqin qilsa ham bo‘ladi.

Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi uchun istibdod va eski mustabid siyosat tufayli ongimizga singib ketgan mutelik, loqaydlik, boqimandalik, sustkashlik, mas’uliyatdan qochish kabi asoratlardan xalos bo‘lish darkor. Bu asoratlar ham osonlikcha bartaraf etilmaydi. Bunda, avvalo jamiyatning siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayotida yuz beradigan ijobiy o‘zgarishlar uni harakatlantiruvchi, taraqqiy ettiruvchi asosiy omil – inson tafakkuri, ruhiyati, his-tuyg‘ulariga samarali ta’sir etadi. Shu bilan bog‘liq ravishda, Vatan va xalq tarixi, ma’naviy-madaniy meros, ona tili, din, milliy turmush tarzi, milliy urf-odatlarni yangi davrning mohiyat-mazmunidan kelib chiqqan holda tiklash, boyitish va milliy g‘urur-iftixorning yuksalishida juda ulkan o‘rin tutadi.

Falsafiy dunyoqarashni yangilash zarurati bir qator yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

1. Avvalo, bu kelajagi buyuk davlatni barpo etish bilan bog‘liq. Bunda ana shu yaratilajak yangi jamiyat haqida, bozor munosabatlariiga

bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosa-batlarning qaror topa borishi, islohotlarning inson manfaatlariga xizmat qilishi, milliy uyg‘onish ijtimoiy taraqqiyot taqozosi, komil insonni voyaga yetkazish davr talabi ekani kabi dasturiy vazifalarning hayotiyligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni odamlar dunyoqarashida qaror toptirish zarur.

2. Falsafiy ongning yangilanishi mohiyat e’tibori bilan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish borasida iqtisodiy mustaqillikka erishish orqali siyosiy mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va aloqalarining o‘sib borishi, tinchlik, osoyishtalik, milliy totuvlik, bahamjihatlikka xizmat qiluvchi g‘oyalarga tayanadi. Uning hayotiyligi xalq irodasiga, ruhiyatiga, milliy tuyg‘ulari, orzu-tilishlariga mosligi bilan belgilanadi.

3. Albatta, falsafadagi yangilanish millat va Vatan manfaatlari, istiqbol rejalar, milliy qadriyatlarimiz ruhiga mos holda kechadi. Bu esa, o‘z navbatida, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayoni, davlatimizning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar to‘g‘risida xalqimizda to‘g‘ri tasavvur va tushunchalarni hosil qilib borish lozimligini ko‘rsatadi.

4. Falsafiy tafakkur yangilanishi taqozo etadigan eng muhim vazifa poklanish jarayoni odamlar ruhiyati va tafakkurida amaliy tus olishi uchun O‘zbekiston Konstitutsiyasida mujassam etilgan maqsad va g‘oyalarni amalga oshirish yo‘lida xizmat qilishdir. Bu maqsad va g‘oyalar omma manfaatlarini aks ettirgani bois ularni ma’naviy hayot tarzining tarkibiy qismiga aylantirish muhim ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda O‘zbekistonda qabul qilinayotgan qonun va boshqa hujjatlarning asl mohiyatini, ularda bayon qilingan g‘oya va xulosalar, takliflarni keng xalq ommasi ongiga yetkazish benihoya muhim va dolzarb ekanini ta’kidlash joiz. Chunki huquqiy jamiyat va ma’rifatli, barkamol inson tushunchalari o‘zaro bog‘liqdir.

Madaniy bozorni ham, ma’naviy sog‘lom jamiyatni ham ana shunday kishilar yarata oladi. Ularni voyaga yetkazmay turib, jamiyatdagi yangilanishning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish to‘g‘risida fikr yuritish qiyin.

5. Mamlakatimiz mustaqilligi, tinchligi, uning fuqarolari totuvligi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning qadriga yetish, jamiyatimiz hayot tarziga xavf solishi mumkin bo‘lgan tahdidlarga qarshi ogohlilikni kuchaytirishda falsafa va umuman, ijtimoiy fanlarning ahamiyati beqiyos. Shu bois, o‘z xalqi tarixini, o‘z milliy madaniyatini, urf-odat va

an'analarini yaxshi biladigan, milliy g'ururi yuksak avlodni tarbiyalash falsafaning muhim vazifasidir. Bu esa jamiyat a'zolarida fikr erkinligini tarbiyalashni taqozo qiladi.

6. Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi, mohiyat e'tiboriga ko'ra, insondan, uning ijtimoiy xususiyatlari takomillashuvidan chetda kechadigan jarayon emas. U nafaqat umumjamiyat miqyosidagi, balki har bir inson kamoloti uchun ham zarur shart-sharoit yaratadigan jarayondir. Shu ma'noda, u ham, jamiyatdagi boshqa o'zgarishlar kabi, avvalo, inson uchun, uning kamoli va hayot farovonligini ta'minlaydigan islohotdir.

Mamlakatimizda bu borada juda keng ko'lamli ishlar boshlab yuborildi. Bugun ijtimoiy fanlar rivojini zamon talablari darajasiga yetkazish borasida davlat va jamoat tashkilotlari, olim va ziyorilar oldida g'oyatda mas'uliyatli vazifalar turibdi. Birgina «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishning o'zi bir necha yillarga mo'ljallangan keng ko'lamli faoliyat yo'naliishlarini nazarda tutadi. Bugungi kunda siyosiy, mafkuraviy va ma'naviy sohalardagi taraqqiyot vazifalari o'zaro uyg'unlashib bormoqda, ta'sir doirasi ancha kengaymoqda. Ayniqsa, mafkura borasidagi nazariy faoliyat, targ'ibot va tashviqotni har tomonlama kuchaytirishga alohida ahamiyat berish zaruratga aylanib bormoqda.

Falsafiy dunyoqarash tizimini shakllantirish va rivojlantirish uchun muayyan imkoniyatlarga ega. Ular quyidagilarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi: birinchidan, mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o'rnatilgan; ikkinchidan, aholining siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy haq-huquqlari qonuniy asosda kafolatlangan; uchinchidan, jamiyatning barcha sohalarini demokratlashtirish va erkinlashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda; to'rtinchidan, mamlakat aholisining ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Bularning barchasi falsafiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini samarali hal qilishga asos bo'lmoqda. Galdagi vazifalar esa, ana shu imkoniyatlarni amaliy ishga aylantirishda har birimiz o'z mas'ulligimizni qay darajada sezishimiz va qanday faoliyat yuritishimizga bog'liq.

II BO‘LIM

FALSAFANING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY BOSQICHLAR

1-bob. FALSAFIY TAFAKKUR SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

1-§. Qadimgi Sharq va Antik dunyo falsafasi

Falsafa insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biridir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiyatiga xos, demak, uning o‘zi kabi qadimiydir. Sharq qadimiy madaniyat o‘chog‘i va jahon sivilizatsiyasining beshigi deya bejiz ta’riflamagan. G‘arb madaniyati tarixini o‘rganish jarayonida Yevrotsentrizm nazariyasiga og‘ib ketish g‘ayriilmiy bo‘lgani kabi masalaning Sharq bilan bog‘liq jihatini tahlil etganda ham Osiyotsentrizm ta’siriga tushmaslik lozim.

Falsafa jamiyatdagi quyidagi ehtiyojlar tufayli shakllana boshladi:

- 1) rivojlanayotgan olamga, insonga, uning ongiga, qarashlariga doir ta’limotlarni yaratish zaruriyat;
- 2) olamning boshlang‘ich asoslari va rivojlanishi qonunlarini ishlab chiqish kerakligi;

Z) olam haqidagi tafakkurning oqilona asoslangan uslubiga, mantiqiy fikrlashga va bilish nazariyasiga tug‘ilgan ehtiyojlarning paydo bo‘lganligi;

4) afsonaviy va diniy tasavvurlardagi xayoliy fikrlarga munosabat belgilash, odamlarning ilmiy bilishdagi, falsafiy tafakkur qilishdagi ongsizligiga barham berish zarurati.

Miloddan oldingi to‘rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, ya’ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar rivoj topgan.

Bobilda shu davrlardayoq odamlarning dunyoda ro‘y berib turadigan xilma-xil hodisa va jarayonlarga bo‘lgan munosabatlari va qiziqishlarini garchi sodda, yuzaki, ibtidoiy shaklda bo‘lsa-da, o‘zida aks ettirgan falsafiy qarashlar namoyon bo‘la boshlagan. Qadimgi Bobil adabiyotining ko‘zga ko‘ringan mashhur asarlaridan biri «Gil’gamesh haqidagi doston» bo‘lib, unda tuproq, suv, havo, issiqlik inson hyoti va tirikligining abadiy manbai ekanligi Gil’gameshning obihayot qidirib,

boshidan kechirgan sarguzashtlari va chekkan azob-uqubatlari, odamlarning tabiiy qonunlar asosida yashashi zarurligi, hayot va o‘lim sirlarini bilishga azaldan intilib kelganligi hikoya qilingan. Gil’gamesh haqidagi Bobil afsonasida qadimgi kishilarning baxt va farovonlikka, salomatlik va bardamlikka, o‘limni yengib, mangu hayot kechirishga, abadiy umr ato qiluvchi «obihayot», o‘simlik turli xil meva va ma’danlarni izlab topish haqidagi orzu-niyatlari o‘z ifodasini topgan.

«Adapta» haqidagi dostonda esa insoniyatning abadiy hayot to‘g‘risidagi fikrlari, abadiy yashashga bo‘lgan intilishlari o‘z ifodasini topgan. Unda «o‘lgan va qayta tirilgan» xudolarga, jumladan, Bobil xudosi Marduqqa nisbatan berilgan.

Inson o‘zini qurshab olgan tabiiy muhit bilan o‘zaro aloqadadir. Ushu muhit, koinot haqida o‘ylaydi, fikr yuritadi, yer yuzidagi hodisa va jarayonlarni koinot bilan bog‘lashga intiladi, samoviy sir-asrorlar haqida xayol suradi, faraz qiladi, har xil ertaklar, rivoyatlar, afsonalar to‘qiydilar. Bobilliklarning «Etapa» haqidagi afsonalari ana shu zaminda paydo bo‘lgan va yuqorida aytib o‘tilgan dostonlarda bo‘lgani kabi odamlarning Quyosh bilan, Oy va sayyoralar bilan qiziqqanligi, samoviy hodisalarning sir va sabablarini bilishga qiziqqanligini, Bobil xalqining tabiiy hodisalar mohiyatini, yilning fasllarga bo‘linib, o‘zgarib turishini, yil davomida tabiatda bo‘ladigan o‘zgarishlar boisi nimadan iborat ekanligini tushunib olishga bo‘lgan intilishlarini, shuningdek, ularning din va axloqqa doir falsafiy qarashlarini ilgari surgan asardir.

Qadimgi bobilliklarning «Jafokash avliyo haqida doston» va «Xo‘jayinning qul bilan suhbati» degan asarlarida yaxshilik bilan yomonlik, xo‘rlik bilan xo‘rlikning bir-biriga tubdan zid, qarama-qarshi va murosasizligi haqidagi falsafiy g‘oyalar ilgari suriladi. «Jafokash avliyo haqida doston»da baxt va baxtsizlik, adolat vaadolatsizlik to‘g‘risida, ularning sabablari, bartaraf etish yo‘llari xususidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar va g‘oyalar ilgari surilgan.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi o‘rtaga qo‘ygan talablar va inson amaliy faoliyati ehtiyojlari asosida Bobilda tabiat hodisalari mazmunini tushunib olish va ulardan turmushda foydalanish zaruriyati tobora kuchayib borgan. Mahsulot va mollarning miqdorini, og‘irligini o‘lchash, ishchi kuchlari sonini aniqlash, binolar hajmini belgilash, dalalarning yer sathini hisoblab chiqish zaruriyati eng qadimgi matematik hisoblarning paydo bo‘lishiga va bu sohaga tegishli bilimlar to‘planishi hamda dastlabki arifmetika va geometriya fanining paydo

bo‘lishiga olib kelgan, vaqt ni hisoblash zaruriyati taqvim paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Bu o‘z navbatida odamlardan astronomiya sohasida ma’lum bilimlarni talab qilgan. Bobilliklar Quyosh soatini, Quyosh ko‘rsatkichini va kunning 2 bo‘lakka bo‘linishini azaldan biliшган. Antik davr ma’lumotlariga ko‘ra, Bobilda matematika, arifmetika, geometriya, astronomiya bilan bir qatorda tibbiyat, tarix va musiqa, tasviriy san’at, astrologiya ham sekin-asta rivojlana boshlagan.

Qadimgi Sharq xalqlarining madaniyatlarini singari Bobil xalqi madaniyati, falsafasi, axloqi, urf-odatlari, dunyoqarashi ham asosan diniy g‘oyalar bilan sug‘orilgan edi. Odamlarda diniy e’tiqod kuchli bo‘lgan. Quyosh, Oy, yulduzlar xudo hisoblangan, ibodatxonalarda ularga topinganlar. Xalqlarning, davlatlarning, hukmdorlar va odamlarning kelgusidagi taqdirini yulduz va sayyoralar vaziyatlariga qarab oldindan aytib berish qadimgi Mesopotamiya va Bobilda astrologiya nomini olgan.

Bobilliklarning qadimgi madaniyati, diniy e’tiqodlari, falsafiy qarashlari, adabiy asarlari, afsona va rivoyatlari nasldan-naslga o‘tib Sharqdagi ko‘pgina xalqlarning madaniy-ma’naviy taraqqiyotiga, ijtimoiy-falsafiy fikrlari rivojiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan.

Bobil madaniyati singari Misr madaniyati ham jahon madaniyatining eng qadimgilaridan bo‘lib hisoblanadi. Qadimgi Misrda ilk madaniy yodgorliklar miloddan 4 ming ilgari vujudga kelgan. Qadimgi Misr mifologiyasida hamma narsa suvdan paydo bo‘lgan va hamma narsada havo bor, deyiladi. Shuning uchun ham misrliklar suvni odamga oziq-ovqat beruvchi dastlabki ulug‘ ne’mat, deb bilganlar. Suv ularga butun tabiatning asosi bo‘lib, ko‘ringan. Misrliklar hayot suvdan boshlanadi, deb bilib suvsiz hech qanday hayot bo‘lmasligini ko‘rib, suvni ulug‘lovchi qanchadan-qancha rivoyat va afsonalar to‘qiganlar. Ular Nil daryosini ilohiylashtirganlar, uni «odamlarga hayot baxsh etish uchun toshib turadigan Nil», deb ulug‘laganlar.

Misrliklar o‘zlarining dunyoviy va diniy-falsafiy poeziyalarida odamlarni bu dunyoning butun noz-ne’matlaridan to‘la bahramand bo‘lib yashashga, quvnoq, shod-xurram hayot kechirishga, o‘lim, oxirat haqida hadeb o‘ylayvermaslikka chaqirgan. Misrliklarning ilk falsafiy tasavvurlari haqida birmuncha ma’lumot beruvchi qadimiylar manbalardan biri «Nasihatnama»da bilimning xosiyati haqida, bilimdon kishining qadr-qimmati to‘g‘risida aytib o‘tilgan. «Agar sen bilimdon odam bo‘lsang, yozish-o‘qishni chuqr egallab, ko‘nglingga makkam jo qilib olsang, ana shunda har bir aytgan gaping hammaga manzur bo‘ladi».

Qadimgi misrliklarning halq og‘zaki ijodiyotida, ayniqsa, diniy-mifologik asarlarida tabiat hodisalari va tabiat kuchlari ilohiyulashtiriladi. O‘simplik va daraxtlarga topinish Misrda eng qadimgi davrlardayoq mavjud bo‘lgan. «Hayot osmon daraxti» to‘g‘risidagi qadimgi afsonada o‘simpliklar ramzi bo‘lgan daraxt insonning yer yuzidagi hayoti uchun zarurdir, degan fikr ilgari surilgan. Misrliklarning tabiatni, dunyoni uning o‘ziga asoslanib turib tushuntirish uchun qilgan urinishlari har holda sodda bo‘lsa-da, o‘z davri uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Kasalliklarni keltirib chiqargan, avj oldirib, kuchaytirib yuborgan sabablarini aniqlash, ularning oldini olish, inson salomatligini tiklash va mustahkamlashga bo‘lgan zaruriyat qadimgi Misrda tibbiyot fanini yuzaga keltirdi. Qadimgi misrliklar kasalliklarning juda ko‘p turlaridan, masalan bosh og‘rig‘i, sariq kasali, yo‘tal, qon ketish, bod va boshqa juda ko‘p kasalliklarni keltirib chiqaruvi omillarni bilganlar. Misrliklar diagnostika-tashxis sohasida katta tajriba to‘plaganlar. Misrda jarrohlik va ko‘z kasalliklarini davolash ancha rivojlangan. Ular insondagi ko‘pgina kasalliklar yurak qon aylanish tizimining qandayligiga bog‘liq ekanligini alohida ta’kidlashgan. Misrda tabiblikning siri yurak harakatini bilishdan boshlanadi, tomirlar butun a’zoyi badanga shundan tarqaladi, deb hisoblashgan.

Qadimgi Bobil va Misrdagi falsafiy qarashlarning vujudga kelishi va shakllanishiga xulosa qilib, shuni alohida ta’kidlash mumkinki, ularning yozma yodgorliklarida o‘lganlardan hech kim qaytib kelmaganligi, u dunyoning yo‘qligi, kishi tanasi o‘lgandan so‘ng chirib tuproqqa aylanishi, chin ma’nodagi hayot faqat yer yuzidagi hayot ekanligi ta’kidlanib, kishilar bu dunyoda baxt-saodat uchun kurashishi kerakligi ta’kidlangan. Bizning mil. avv. 2500-2000 yil burun Misr va Vavilonda stixiyali materializm vujudga keldi. Bu falsafiy qarashlar o‘sha davrdagi reaksiyon aristokratiyaning cheksiz hukmron mafkurasiga va hukmronligiga qarshi kurash olib bordi.

Falsafiy fikrlarning keyingi rivojlanish bosqichi qadimgi Hindiston va Xitoy mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida o‘z aksini topadi. Umuman olganda Qadimgi Bobil va Misr falsafasi Qadimgi Hindiston va Xitoy falsafasi rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu Sharq mamlakatlarining falsafiy qarashlari bir-birlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Qadimgi Hindiston falsafasi. Hindistonda dastlabki falsafiy qarashlar Hindiston madaniy merosining yozma yodgorligi bo‘lgan asosan 4 «Veda»da o‘z ifodasini topgan. Vedalarda diniy-falsafiy

shaklda hind falsafasining navbatdagi mazmuni, taraqqiyot yo‘lini belgilab bergen g‘oyalar bayon etilgan. Ularda «olami jon braxman va yakka shaxs joni-atmanning birligi haqidagi, jonning o‘lmasligi, uning tug‘ilishidan ikkinchi tug‘ilishga o‘tishi to‘g‘risidagi g‘oyalar ilgari suriladi. Hozir ham hindlarda tirik maxluqlar o‘tgan ajdodlarning qayta tirilib, shu maxluqlar qiyofasiga kirishidir, degan tasavvurlar bor. Bu vedalardan eng muhimi «Rigveda» miloddan avval 500 yil oldin vujudga kelgan. Rigveda (madhiyalar), «Yajurveda» (qurbanlik qilishlar), «Samoveda» (qo‘shiqlar), «Atxorveda» (duolar)dan iborat. Bu vedalar braxman dinining asosini tashkil qilib, bu idealistik oqim yo‘nalishining mazmuni shundan iboratki, birdan-bir real dunyoviy ruh braxman bo‘lib, moddiy dunyo esa uning ijodiy mahsulidir, – deb ta’kidlashadi. Vedalarni falsafa deb atash mushkul. Biz ular bilan tanishishda muayyan afsonaviy olamga g‘arq bo‘lamiz. Agar hind ma’naviy hayotida afsonadan logosga, ya’ni real ta’limotga o‘tish haqidagi qarashlar «Upanishad»larga tegishli deyish mumkin. «Upanishad»lar» veda dunyoqarashining tanqidiy jihatdan idrok etilishidir. Vedalar asosan madhiyalardan iborat bo‘lsa, «Upanishad»larga dalil-asoslar muvofiq keladi.

«Upanishad» atamasi donishmandning o‘z shogirdlariga ta’lim berishi jarayonini anglatadi. Vaqt o‘tishi bilan bu atama shu jarayonda beriladigan mazmunni ifodalaydigan falsafiy matnni ham ifodalaydigan bo‘ldi. Muayyan ma’noda «Upanishad»larni Platonning dialoglari bilan o‘xshatish mumkin. Upanishadlarning markaziy mavzularidan biri tug‘ilish va o‘limning abadiy «almashinushi» g‘oyasidir. Bunday g‘oya tirik mavjudotlarning o‘limdan keyin yana qayta tirilishini nazarda tutadigan, ular ruhlarning ko‘chib yurishi (reinkarnatsiya) haqidagi ta’limotga asos qilib olingan. Tug‘ilish bilan o‘lim o‘rtasidagi abadiy qayta tiklanib turadigan sikl sansara deyiladi. Aynan ana shunday siklda insonning eng teran «mohiyati» (atman) takror va takror qayta tiklanaveradi.

Upanishadlarning boshqa yana bir muhim qoidasi atman bilan braxmanning bir-biriga tenglashtirilishidir. Braxman absolut, hamma narsani qamrab oluvchi ilohiy sifatida tushunilgan. Atman bilan braxmanning bir-biriga tenglashtirilishi natijasida atman (inson joni) ham absalutdir degan tezis yuzaga keladi. Faqat ana shunday sharoitda individ o‘limdan keyingi yangi qayta tirilishlarga qodir bo‘ladi, deb ta’kidlanadi. Upanishadlarning reinkarnatsiyaga qayta tug‘ilishga ishonch, axloqiy

sababiylig g‘oyasi bilan chambarchas bog‘langandir. Axloqiy sababiylik deganda koinotningadolat bilan sug‘orilganligi tushuniladi. Har bir kishi o‘zi xizmat qilgan narsani oladigan olamda yashaydi, shuningdek, bu yerda yana keyingi hayotda yaxshiroq, holatga erishish imkoniyati ham mavjuddir. Boshqacha aytganda, saxovatpesha kishi uchun yaxshilikka, gunohkor odamga esa yomonlikka tomon istiqbollar ochiladi. Dunyodagi barcha nomukammalliklar va azob-uqubatlar odamning o‘z xattiharakatlarining oqibatidir. Biroq, muayyan tabaqaga mansublik odam uchun yaxshi va yomon bo‘lib hisoblanadigan narsani jiddiy darajada taqdim etadi. Shunday qilib, Upanishadlar tabaqali tizimni legitimlashtiradi.

Odamlar muayyan tabaqaga mansub bo‘lish huquqini o‘zlarining bundan oldingi hayotida ishlab topgan. Shuningdek, vedalarda diniy qarashlar bilan bir qatorda olam, odam va axloq haqida ayrim masalalar ham ilgari surilgan. Keyinchalik vedalarni turlicha talqin etuvchi maktablar vujudga kela boshladi.

Hindistonda vujudga kelgan diniy-idealistik oqimlarga vedanta, mimansa, sankhya, yoga, nyaya, vaysheshika maktablari kiradi.

Materialistik oqimlarga esa jaynizm, lokayata, chorvak maktablari kiradi.

Miloddan oldingi VII asrlarda Hindistonda «Lokoyata» (faqat – bu dunyonи e’tirof etuvchi kishilarning qarashlari) materialistik oqimi vujudga keladi. Lokoyata uz davrining hukmron diniy prinsiplarini qattiq tanqid qilib, din va idealizmning narigi dunyo to‘g‘risidagi davolarini rad etib, bu moddiy dunyoning yagonaligini e’tirof etishadi. Bu ta’limotning asoschisi Brixaspati bo‘lib, u Brixaspati o‘zining materialistik ta’limotida asketizmga (tarkidunyochilikka) qarshi kurashib, kishilarni yerdagi baxtli hayot kechirish uchun kurashishga chaqiradi. Ular yerdagi hayotdan boshqa hayotning bo‘lishi mumkin emas, degan fikrni ilgari suradilar.

Lokayata falsafiy oqimidan Chorvak falsafiy oqimi vujudga keladi. Charvak falsafiy oqimi izchil materialistik oqimdir. Charvak (hindcha «chor to‘rt, vak so‘z, ya’ni «to‘rt so‘z» demakdir) materialistik oqim sifatida miloddan oldingi VI asrlarda vujudga keldi.

Charvak falsafiy oqimi vakillarining ta’limoticha, olam –moddiydir. Moddiy olam to‘rt elementdan – suv, havo, tuproq va olovdan tashkil topgan. Tirik tabiat shu jumladan inson ham shu moddiy elementlardan tashkil topgan. Charvak vakillari bilish nazariyasi masalasini ham

materialistik hal qiladilar. Ularning fikricha, moddiy dunyoni bilishning, haqiqatning manbai sezgi va hissiy idrokdir. Inson va uning jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risida shunday fikrlarni ilgari surishadilar. Inson faqat bir marta yashaydi. Shuning uchun, u baxtli hayot kechirishga, o‘zining oqilona ehtiyoj va manfaatlarini qondirishga intilishi kerak. Yomonlik manbai jamiyatdagi shafqatsizlik vaadolatsizlik bilan bog‘liq. Diniy tasavvurlarning barcha tizimini, narigi dunyo va jonning ko‘chib yurishini inkor etib, unga qarshi chiqadi.

Qadimgi Xitoy falsafasi. Xitoydagi dastlabki falsafiy ta’limotlarda dunyo abadiy va u besh unsur – olov, suv, tuproq, havo, daraxt yoki metalldan tashkil topgan deb uqtiradi.

Miloddan oldingi VII-VI asrlarda Xitoyda «Dao» qonuniga binoan harakat qiluvchi «Si» elementining mavjudligi haqida fikr yuritiladi. Xitoy mutafakkirlari fikricha, tabiat hodisalari «Si» degen moddiy zarralardan tarkib topib, «Dao» degan obyektiv tabiiy qonuniyatga bo‘ysunadi.

«Daosizm» so‘zining o‘zi «dao» – qonun, «si» – materiya degan ma’noni anglatadi. Dunyoning asosini qonun bilan materiya tashkil qiladi. Daosizmning asoschisi Lao-szi bo‘lib, u dunyo abadiy harakat va o‘zgarishda bo‘ladi, – deb hisoblaydi. Masalan, Lao-szi bu haqda shunday degan: «Ulug‘ dao hamma yoqqa qarab oqadi. U o‘nga ham, sulga ham yoyilgan. U tufayli jami mavjudot tug‘iladi, bu mavjudot hamisha o‘zgarishda bo‘lib, bir joyda to‘xtab qolmaydi.

Daosizm dunyoda qarama-qarshiliklarning bir-biriga bog‘liqligi amal qiladi, tabiat hodisalari o‘z-o‘ziga zid holatlarda aylanib rivojlanadi, – degan fikr yuritadi. Ta’kidlanishicha, go‘zallik va xunuklik, balandlik va pastlik, yaxshilik va yomonlik, borliq va yo‘qlik, uzun va qisqalik, bir-birini tug‘diradi, birin-ketin keladi, bir-biriga bog‘liq bo‘ladi, tabiatdagi barcha mavjudot, barcha hodisalar qarama-qarshiliklarni o‘z ichiga oladi.

Daosizm vakillari bilishda hissiyot va amaliyotni ahamiyatini kamsitib, aqliy bilishni bo‘rttirib yuborishadi.

Miloddan oldingi V-III asrlarda vujudga kelgan Konfutsiychilik Qadimgi Xitoyda keng tarqalgan falsafiy ta’limotlardan bo‘lib hisoblanadi. Uning asoschisi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy mil. avv. 551-479-yillarda yashagan. U ta’limotida odamlarning hammasi tug‘ma xususiyatlariga ko‘ra bir-biriga yaqindir. Tug‘ilgandan keyin hosil qilgan xususiyatlariga ko‘ra ular bir-birlaridan farq qiladi.

Konfutsiyning falsafiy-axloqiy ta’limoti muayyan jamiyatdagi mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilishga qaratilgan, ya’ni jamiyatda osmondan yuborilgan «Jen» (insonparvarlik) qonuni amal qilinadi. Bu qonunni o‘rganib olish uchun inson «Li» ijtimoiy axloq normalariga amal qilishi, o‘zining jamiyatdagi darajasiga qarab ish tutishi lozim. Ana shu g‘oyalar eramiz boshida Xitoyda konfutsiychilik dini shakllanishiga sabab bo‘ldi. Konfutsiychilik kohinlik, mistikadan xoli bo‘lib, unda dini marosimlar asosini ajdodlar ruhiga sig‘inish tashkil etib, ibodatlari ham ancha qulay bo‘lib, u oilaviy doirada o‘tkaziladi, natijada, tarbiyada oilaning maqomi oshadi. I asridan boshlab, Xitoya buddachilik kirib kela boshladi va Xitoyda ijtimoiy-falsafiy qarashlar buddizm ta’limoti bilan sug‘orilgan.

Qadimgi Yunon va Rim falsafasi. Milodgacha VI asrdan boshlab Qadimgi Yunonistonda savdo va sanoat tez rivojlanib, shahar davlatlari paydo bo‘la boshladi. Milet shahari o‘zining qulay geografik sharoiti tufayli Yunoniston bilan Eron, Misr va Bobil hamda Qora dengiz mamlakatlari o‘rtasidagi savdo va madaniy aloqalar markaziga aylandi. Natijada dastlabki falsafiy ta’limot shu shaharda «Milet maktabi» bilan mashhur bo‘ldi. Milet maktabining asoschilari – Fales, Anaksimadr, Anaksimen olamning asosiga moddiy unsurni qo‘yadilar. Masalan, Fales uchun suv, Anaksimadr apeyron, Anasimen uchun havo bu moddiy olamning asosini tashkil qiladi. Barcha narsalar shu unsurlarning turlicha holatda namoyon bo‘lishidir. Ular olamning moddiyligi va manguligini isbotlashga urinadilar.

Geraklit (530-470-yillar) ulardan farqli ravishda olamdagи barcha narsalarning asosini olov tashkil qiladi, hatto kishi ongi olovning o‘tkinchi holat turidir deydi. Uning falsafiy, diqqatga sazovor fikri olamni doimiy harakat va jarayon sifatida olib qarashidir. Geraklit dialektik tafakkurga asoslanib, olamdagи hamma narsa o‘zgarishda, vujudga kelishda va barham topishida, deb qaraydi.

Pifagor (mil. avv. VI asr) raqamlar borliqning ibtidosi, matematika qonuniyatlari olam turmushining assosidir, – deb aytadi. Uning izdoshlari raqamlar sehri-jodusini, xususan, dastlabki *o‘n raqam* ilohiy hissalarga ega, deb ta’kidlashadi. Masalan, Filolayning fikricha, o‘nlik ilohiy, samoviy va insoniy hayotning faoliyati va ibtidosidir». Umuman pifogorizmga ko‘ra, ideal raqamlar xudo yaratgan narsalarning dastlabki qiyofasidir.

Demokrit (mil. avv. 460-370) atomistik nazariyaga asos soladi. Uning fikricha, olam moddiy bo‘lib, ong esa ikkilamchi moddiy

narsaning mahsulidir. U olamning doimiy harakatda ekanligini ta’kidlaydi. Olamdagи narsa va hodisalar atomlarning turlicha yo‘nalishidan tashkil topgan atomlar o‘zlarining fazodagi tartibsiz harakatlari jarayonida o‘zaro to‘qashib bir-birlarini parchalab boradi. Ikkinchi tomondan bir-biriga qo‘shilib, tuproq, suv, olov, o‘t va ulardan quyun shaklida harakatlanuvchi ko‘p dunyolarni vujudga keltirishni asoslashga urinadi.

Demokritning bilish nazariyasiga ko‘ra, bilish obyekti moddiy olam bo‘lib, ongimiz esa moddiy olamning sezgilar orqali in’ikos ettirishidan iborat. Uning fikricha, hissiy bilish orqali biz narsalarning (atomlarning qo‘shilishi tufayli mavjud bo‘lgan) sifat xususiyatlarini bilsak, aqliy bilish orqali sezgilarimiz bilan bevosita bilib bo‘lmaydigan hodisalarni bila olamiz. Aql yordami bilan atomlar (narsalar)ning mohiyati belgilanadi. Demokrit falsafa tarixida birinchi bo‘lib bilish jarayoni in’ikos jarayoni ekanligi haqidagi fikrni aytadi. Uning fikricha, kishilarning beshta sezgi a’zolari orqali hosil qilgan tushunchalari moddiy olamdagи narsa va hodisalarning obrazidir.

Demokrit qadimgi Yunonistonning qomusiy olimi bo‘lgan va fanning turli sohalari falsafa, fizika, matematika, biologiya, tibbiyat, pedagogika, ruhshunoslik, etika, mantiq va ijtimoiy hayot masalalariga doir fikrlarni ilgari suradi. Demokritning merosida insonni har tomonlama kamol toptirish, unda insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, odob-axloq, e’tiqod, vijdon va boshqa olijanob insoniy fazilatlarni shakllantirishga oid qimmatbaho fikrlar mavjuddir. Ular hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Levkip (mil. avv. 500–440-yillar) Demokrit bilan birgalikda atomistik nazariyaga asos soladi. U birinchi bo‘lib, sababiyat qonuni va yetarli asos qonuniga ta’rif beradi.

Qadimgi Yunonistonda Pifagor, Suqrot, Aflatun asos solgan falsafiy oqimlar idealistik dunyoqarashni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Aflatun (Platon) mil. avv. 427-377-yillar) ta’limoticha, olamda «g‘oya»lar dunyosi birlamchi bo‘lib, moddiy dunyo ikkilamchi, uning mahsulidir. «G‘oyalar dunyosi» Aflatunda moddiy olamdan ajralgan bo‘lib, uni mustaqil, moddiy dunyoni yaratgan ilohiy kuch deb biladi. Uning bilish nazariyasiga ko‘ra, bilish obyekti «g‘oyalar dunyosi»dir, moddiy dunyo va undagi narsa va hodisalar hissi bilishning manbaidir. Hissiy bilish haqiqat emas, chunki u orqali kishilar g‘oyani emas, balki moddiy buyumlarni sezadilar, ular to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Moddiy buyumlarning asosi va mohiyati bo‘lgan «g‘oyalar dunyosi»ni faqat sof tafakkur yordamida bilish mumkin.

Aflatun Yunonistondagi quldorlar aristokratiyasini davlatini eng adolatli va ideal deb hisoblaydi. U jamiyatni uch tabaqaga bo‘ladi. Davlat arboblari faylasuflar, soqchilar (harbiylar) hamda dehqonlar va hunarmandlar. Uning fikricha, davlat faylasuf – aristokratlar qo‘lida bo‘lishi kerak, harbiylar esa aristokratiya davlatini mustahkamlash uchun xizmat qilishlari kerak, davlat zo‘rlik va zulm majmuidan iborat bo‘lib, quldor uchun zarur bo‘lgan sharoitni yaratishdan iborat.

Aflatun ta’limotini birinchi bo‘lib tanqid qilgan uning vatandoshi Arastu (Aristotel mil. avv. 384-322-yillar)dir. Arastu asarlaridan «Metofizika», «Fizika», «Jon to‘g‘risida», «Analitika «Kategoriylar»», «Etika», Siyosat», «Ritorika va boshqa asarlari bizgacha yetib kelgan. Arastu Aflatunning g‘oyalar dunyosini asossiz deb, – g‘oyalar bilan narsalar o‘rtasida hech qanday farq yo‘q, – deb hisoblaydi. Uning fikricha, moddiy olam abadiy va obyektiv xarakterga ega bo‘lib, hech qanday Aflatun «g‘oya»siga muhtoj emas,-deb ta’kidlab, moddiy dunyoning obyektiv mavjudligini e’tirof etadi. Hamma narsaning asosida materiya yotadi, narsalar materiya va shakldan paydo bo‘ladi. Har bir narsa shakllangan materiyadir va shakl borliqning mohiyatidir. Materianing o‘zida rivojlanishning faqat imkoniyati bor, xolos, u shakllantirishga muhtojdir. Shakl tufayligina materiya imkoniyatdan voqelikka aylanadi. Haqiqiy borliq. materiya va shaklning birligidir. Bular bir-biriga o‘tib turadi, shaklsiz materiya yo‘q. Demak, shakl va materiya tushunchalari nisbiy xarakterga ega.

Arastuning fikricha, dunyoda to‘rt xil sabab bordir:

- 1) moddiy sabab yoki materiya (masalan, uy bunyod etish uchun zarur bo‘lgan qurilish materiallari);
- 2) shakli sabab yoki shakl (uy tuzilishi);
- 3) vujudga keltiruvchi sabab (uy quruvchi binokorlik san’ati);
- 4) so‘nggi sabab yoki maqsad (bitkazilgan bino).

U qadimgi dunyodagi sodda dialektik fikrni eng yorqin ifodalagan mutafakkirlardan biri bo‘lib, tabiatni ongli ravishda, o‘zgarishda, rivojlanishda deb qaraydi va buni u materianing shaklga ega bo‘lish jarayoni, imkoniyatni voqelikka aylana borishi deb tushunadi. Uning ta’limotida dialektikaga zid fikrlar ham mavjud bo‘lib, materiya passiv, shakl esa aktiv bo‘lib, narsani narsa qiluvchidir deydi. Uning bu fikrlari idealizm tomon og‘ishini anglatadi. U shaklning aktivligi haqida gapirib,

hamma shakllarning shakli-xudoning, dunyoviy ruxning, dastlabki turkining ijodi roldir,-deb ta'kidlaydi. Bu masalada u Platonga yaqin edi.

Arastu o'zining bilish nazariyasida Demokrit tarafdori bo'lib, uningcha, moddiy dunyo bilishning, sezgilarning, tajribaning asosidir. Sezgilar bizga ayrim aniq, narsalar haqida bilim bersalar, aqlimiz esa umumlashtirilgan bilimlar berishga qodir, deb ta'kidlaydi. Shuningdek, Arastu mantiq fanining barcha muhim masalalarini ishlab chiqadi va mantiq bilish uchun zarur bo'lgan tafakkur shakllari hamda isbotlash to'g'risidagi fandir, deb yozadi, Uning fikricha, fikrlar bog'liqligi mavjud obyektiv olam hodisalari bog'lanishlarining in'ikosidir.

Arastu kategoriylar, tushunchalar, mulohaza va xulosalar to'g'risidagi ta'limotlarni kashf etadi va falsafa tarixida birinchi bo'lib kategoriylar tizimini ishlab beradi. Shuning bilan birga u kategoriyalarning bir-biri bilan aloqadorligini, bir-biriga o'tishini isbotlab beradi. Arastu qadimgi yunon faylasuflari orasidagi eng yetuk olim sifatida jamiyatga oid masalalar haqida ham muhim fikrlar bildirgan.

Qadimgi Yunonstonning mashhur faylasuflaridan yana biri Epikur bo'lib, (mil.avv. 341-270-yillar) Demokritning atomistik nazariyasini rivojlantiradi. Demokrit asosan atomlarning shakl va miqdor jihatdan farqini ta'kidlagan bo'lsa, Epikur esa ularning hajmi va og'irligi jihatdan farqini ta'kidlaydi va atomistik materializmni yana bir qadam ilgari suradi. Epikur ta'limoticha, atomlar doim bo'shliqda harakat qiladi, harakat esa mangudir. Atomlar og'ir bo'lganidan hamma vaqt pastga tomon to'g'ri harakat qiladi. Bundan tashqari ular o'zaro to'qnashuv oqibatida to'g'ri yo'lidan chekinib yon tomonga ham harakat qilishi mumkin.

Epikur olam cheksiz, son-sanoqsiz bo'lib, ba'zilari biz yashayotgan dunyoga o'xshaydi, ba'zilari esa o'xshamaydi, deb ta'kidlaydi. Udining ashaddiy dushmani bo'lib, Xudo haqidagi turli fikrlarni puch deb hisoblaydi.

Afinaning buyuk faylasufi Suqrot (Sokrat mil. avv. 470-399-yillar) avvalo sufiylar shogirdi bo'lib, keyinchalik ularning asosiy nuqtai nazarlarini tanqid qiladi. Suqrot tadqiqotlari markazida inson hayoti, uning jamiyatdagi o'rni va maqsadi hamda adolatli ijtimoiy tuzum muammosi turadi. Falsafa odamlarga ezgulik bilan yovuzlikni anglab olishida yordam berishi kerak, – deb ta'kidlaydi.

Umuman Qadimgi Yunonistonda fan, adabiyot va san'at rivojlanishi bilan juda noyob falsafiy fikrlar, maktablar, oqimlar yuzaga keldi. Yunon falsafasi jahon sivilizatsiyasida alohida o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lib, dunyoga tanilgan faylasuflarni yetkazib berdi.

Qadimgi yunon siyosiy mustaqillikni qo‘ldan bergach, falsafaning rivojlanish jarayoni Rimga o‘tadi. Endi Qadimgi Rimda falsafiy fikrlarning rivojlanishini ko‘rib chiqamiz.

Qadimgi davrda Yunonistondan keyin falsafiy fikrlar rivojlangan ilg‘or mamlakatlardan biri Rim edi. Rimda siyosiy va mafkuraviy sohalarda demokratiya bilan aristokratiya o‘rtasida keskin kurash sharoitida qudlorlar sinfi demokratiya tarafdori eng yirik tibbiyotshunos olim, shoir va faylasuf-materialist Lukretsiy Tit Kar (mil. old. 99-55-yillarda yashagan) materializmi vujudga keldi. Lukretsiy materializmi Demokrit, Epikur, atomistik materializmning takomili va qadimgi Rim falsafasining eng yirik yutug‘i edi.

Lukretsiy o‘zining materialistik qarashlarini she’riy shaklda, asosan o‘zining «Buyumlarning tabiat nomli poemasida batafsil bayon etadi. Uning ta’limoticha, olamda jism va bo‘s sh fazodan boshqa hech narsa yo‘q. Olam undagi barcha narsa va hodisalar atomlardan iborat. Atomlar materiyaning mangu bo‘linmas, buzilmas, mayda harakatchan zarrachalari bo‘lib, ular hajm, shakl va og‘irlikka ega. Uning fikricha, materiya harakatsiz bo‘lmaydi. Atomlar uch xil harakat qiladi:

- 1) turtki natijasida vujudga kelgan harakatlar;
- 2) og‘irlik natijasida yuqorida pastga harakat;
- 3) atomlarning o‘z-o‘ziga to‘g‘ri yo‘ldan chekinishi.

Harakat manbai xudo emas, balki materiyadir. Atomning o‘z-o‘zidan harakati to‘g‘risidagi Lukretsiy mulohazasida dialektikaning elementi mavjudligi shubhasizdir.

Lukretsiy tabiatni materialistik asosda izohlab tabiatdagi hamma hodisalar atomlar harakati va o‘zgarishi oqibatida vujudga keladi, – deb ta’kidlaydi. Cheksiz atomlar o‘zlarining mangu harakatlari natijasida birlari bilan qo‘silib, yangi-yangi dunyolarni vujudga keltiradi.

Lukretsiy ta’limotidagi eng buyuk yutuqlaridan biri materiyaning, atomlarning saqlanish qonuni to‘g‘risidagi fikrlardir. Uningcha, materiya mangu, hech narsa yo‘qdan bor bo‘lmaydi, materiya atomlarining miqdori o‘zgarmas va mangu saqlanadi.

Lukretsiy ta’limotining yana bir yutug‘i uning makon va zamon to‘g‘risidagi fikridir. Makon va zamon narsalar bilan bog‘liq bo‘lib,

ularning borliq shaklidir. Uning fikricha, makon atom va predmetlar egallagan o'rindan iborat. Zamon – narsa va hodisalarning harakati tinchligi, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq.

Lukretsiy bilish nazariyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, moddiy olamni bilish mumkinligini e'tirof etadi. Uningcha, bilishning maqsadi buyumlarning tabiatini bilan tanishish, kishilarni olam to'g'risidagi diniy tasavvurlardan qutqarishdir»

Lukretsiy ta'limotiga zid keluvchi g'oyalarni tanqid qilib Plotin (mil. avv. 270-204-yillar) Rimda o'zining falsafiy mакtabini yaratadi. Plotin butun borliqning asosi va manbai deb yagona ilohiy kuchni – Xudoni hisoblaydi, qolgan narsalar shu ilohiy kuchning birin-ketin oqishining (emanatsiyasining) natijasidir. Uning fikricha, Quyosh o'zidan nur chiqargani kabi ilohiy (Xudo) ham o'zidan koinotning borlig'ini chiqarib yuboradi, bunga ruh, materiya ham kiradi. Inson jon va tana birligidan iborat. Inson hayotining oliy maqsadi – o'z jonining ilohiy kuch (Xudo) bilan qo'shilishiga erishuvidir. Kishi bunga ekstaz holatda erishadi, bu holatda kishining joni, ruhi hissi dunyodan va tanadan xolos bo'ladi.

Qadimgi Bobil va Misrda, Hindiston va Xitoyda, Yunoniston va Rimda vujudga kelgan falsafiy qarashlar, g'oyalari, bilimlar ular qanday shakllarda bo'lmasin, o'zidan keyingi Sharq va G'arbiy Yevropa mamlakatlarining fan va madaniyati rivojlanishiga katta ta'sirlar ko'rsatadi.

2-§. O'rta asrlar va yangi davr Yevropa falsafasi

Yevropada Qadimgi Yunon va Rimdan o'rta asrlar falsafasigacha, ya'ni miloddan oldingi I asrdan milodning XIV asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo'ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish mumkin: 1) Xristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi; 2) o'rta asrlarga kelib inkvizitsiyaning ustuvor yo'nali shiga aylanishi.

Falsafada skeptitsizm, agnostitsizm, neoplatonizm kabi idealistik oqimlar rivojlana boshladi. Feodolizm va cherkovning rasmiy dunyoqarashi sifatida teologiya va sxolastik falsafa o'rta asr davomida hukmronlik qildi.

Skeptitsizm – yunoncha razm solib qarovchi, tanqid qiluvchi degan ma'noni anglatadi. Falsafiy ma'noda obyektiv haqiqatga erishish mumkinligiga shubha bilan qarovchi ta'limot.

Agnostitsizm – moddiy olamni bilish mumkinligini inkor etuvchi yo‘nalish. Uning asoschilari ingliz faylasufi D.Yum va nemis faylasufi I.Kant hisoblanadi.

Neoplatonizm – III–IV asrlarda Rim imperiyasida bo‘lgan diniy-mistik falsafiy oqim bo‘lib, Aflatuning g‘oyalar dunyosi haqidagi ta’limotni rivojlantiradi. Teologiya – ilohiyot va xudo haqidagi ta’limotdir. Sxolastika – lotincha (maktab ma’nosini anglatadi) xristian dinini himoya qiluvchi falsafiy yo‘nalish.

Patristika – II-VIII asrlardagi xristian mutafakkirlarining diniy-falsafiy va siyosiy-sotsiologik doktrinasini ifodalovchi tushunchadir.

Feodalizm sxolastik falsafasida ikki asosiy oqim – ilg‘or diniga qarshi nominalizm va dinni himoya qiluvchi realizm o‘rtasida keskin kurash davom etdi. Bu 2 oqim o‘rtasidagi kurashning asosiy masalasi – umumiyl tushunchalar «Universaliyalar»ning mohiyati masalasi edi. Realizm vakillari Ansel’m Kenterberinskiy (1033-1109), Ioan Erugen Skot (815-877), Foma Akvinskiy (1225-1274). Ular fikricha, umumiyl tushunchalar – «uniyersaliyalar» real mavjud bo‘lib, ular mustaqil g‘oyaviy mohiyat sifatida predmetlarga, kishilarga nisbatan birlamchidir. Moddiy olamning predmetlari esa ikkilamchi, umumiyl tushunchalarning shakli ifodasidir deb ta’kidlashadi.

O‘rta asr diniy sxolastik falsafasining eng ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri F.Akvinskiy edi. U shaklni birlamchi, boshlang‘ich va faol ijod kuchi deb, moddiy predmetlarni esa, uning ijodiy mahsuli va passiv kuch deb ta’kidlaydi. Akvinskiy ta’limoticha, dunyoda turli shakllar bor, jon ham shu shakllardan biridir, shakllarning shakli esa – xudodir. Uningcha, jon birlamchi va o‘lmas bo‘lib, tana esa jondan ajralish bilan halok bo‘ladi.

F.Akvinskiy umumiyl tushuncha masalasida aqlni ikkiga bo‘ladi: 1) tabiatdan tashqari aql yoki «xudo aqli»; 2) tabiiy aql yoki kishi aqli. «Xudo aqli»dagi umumiyl tushunchani birlamchi, tabiiy aqlni esa ikkilamchi deb biladi.

Nominalizm vakillari: Ioan Rosselin (1265-1318), Duns Skott (1266-1308), Uilyam Okkam (1285-1349). Ularning fikricha, tabiatdagi yakka-yakka predmet, hodisalar ularning xususiyatlari real va obyektiv ravishda mavjuddir, umumiyl tushunchalar esa ikkilamchi, predmet-larning nomi tabiat va undagi predmetlar bo‘lmanida edi, ularning umumiyl, muhim tomonlarining in’ikosi bo‘lgan tushunchalar ham bo‘lman bo‘lur edi.

Realizm vakillarining falsafiy qarashlari idealizmga yaqin bo‘lsa, nominalizm tarafdarlarining qarashlari esa materializmga yaqindir.

Uyg‘onish davri falsafasi. XIV-XVI asrlar G‘arbiy Yevropada uyg‘onish davri hisoblanib, tabiiy fanlar sohasida kashfiyotlarga boy davrni o‘z ichiga oladi. Namoyandalari Nikolay Kopernik (1473-1543), Jordano Bruno (1548-1600), Galileo Galiley (1564-1642), Nikolay Kuzanskiy (1401-1464).

N.Kopernik falsafa va fan rivojlanishiga eng katta qissa qo‘shgan Uyg‘onish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimidir. N.Kopernik o‘zining fanda tub o‘zgarish yasagan geliosentrik ta’limoti bilan mashhur bo‘lgan. o‘zining «Osmon jismlarining gir aylanishi» nomli asarida o‘z davrigacha haqiqat hisoblanib kelgan, geosentrik nazariyani rad etib geliosentrik nazariyani kashf qiladi. Uning ta’limoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan Quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida Yerning o‘z o‘qi atrofida kundalik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi Yer emas Quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfiyoti dunyoga teologik qarashga zarba berib. Tabiatshunoslikda to‘ntarish yasadi.

Kopernikning geliosentrik nazariyasidan chuqur ilmiy xulosa chiqargan mutafakkirlardan biri Jordano Brunodir. U geliosentrik nazariyani himoya qilish va targ‘ib qilish bilan cheklanib qolmay, tabiatshunoslik tajribalarini hisobga orlib, bir necha muhim nazariy xulosalar qiladiki, ular falsafani yanada boyitadi. Uning ta’limotiga ko‘ra moddiy olam birlamchi bo‘lib, ong ikkilamchidir va moddiy olam mangu, u hech qanday xudo tomonidan yaratilgan emas, bordan yo‘q, yo‘qdan bor bo‘lmaydi, u so‘ngsiz va cheksiz, moddiy olam cheksiz turlarda ifoda etiladi, lekin bu cheksiz predmet va hodisalar bir-biri bilan o‘zaro aloqada, birlikdadir. Bruno ta’limotida, Quyosh sistemasidan tashqari yana sanoqsiz dunyolar, sayyoralar mavjud, bu dunyo bepoyon moddiy olamning kichik bir qismidir.

Galileo Galiley ta’limoticha, olamdagи barcha narsa va hodisalar moddiy asosga ega, olam benihoya, materiya abadiy, tabiat yagona bo‘lib, mexanika qonunlariga bo‘ysunadi. Kuzatish, tajriba tabiatni bilishning boshlang‘ich nuqtasidir. Hodisalar ichki zaruratini bilish esa, bilimning oliy bosqichimdir, deb hisoblaydi.

Uyg‘onish davrida Yevropa falsafasining rivojlanishiga katta qissa qo‘shgan nemis olimlaridan biri N.Kuzanskiydir. Uning ta’limoticha, Xudo hamma narsalarda mavjud, shuningdek, Hamma narsalar Xudoda

mavjud. Eng oliv haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki, tajriba asosida amalga oshadi. U bilish nazariyasining rivojlanishiga katta qissa qo'shadi.

Yangi davrda falsafiy tafakkur. XVI–XVIII asrlar G'arbiy Yevropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Tabiat fanlarining yanada rivojlangan davrga to'g'ri keladi. Matematika va mexanika fanlari rivojlanadi. Yangi davr falsafasi namoyandalari: Frencis Bekon (1561–1626), Tomas Gobbs (1588–1679), Rene Dekart (1569–1650), Benedikt Spinoza (1631–1677) Jorj Berkli (1685–1753), David Yum (1711–1776). Bu mutafakkirlardan ayimlarining falsafiy qarashlariga to'xtalib o'tamiz.

Frencis Bekon (1561–1626), Tomas Gobbs (1588–1679), Rene Dekart (1569–1650), Benedikt Spinoza (1631–1677), Jorj Berkli (1685–1753), Devid Yum (1711–1776).

Bekon yangi davr empirik ingliz materializmining asoschisidir. Tabiatni bilish manbai – tajribadir. Chunki sezgi orqali olam, haqidagi yig'ilgan dalillarni tajriba orqali tekshirish, aniqlash, kamchiliklarni bartaraf etish zarur.

Bekonning eng katta xizmati – induktiv bilish metodini ishlab chiqishidir. Bekonning induktiv metodi tabiatni tajriba asosida bilishga qaratilgan metod bo'lib, uning mohiyati: 1) dalillarni kuzatadigan; 2) ularni sistemalashtirish va turlarga bo'lishdan; 3) ularni keraksiz dalillardan tozalashdan; 4) voqealarni tarkibiy qismlarga bo'lishdan; 5) dalillarni tajribada tekshirib chiqishdan; 6) dalillarni umumlashtirishdan iborat.

Cheklanganligi: 1) tafakkurning bilish jarayonidagi ahamiyatini yetarli darajada tushunmaganligida; 2) bilishda dialektikani inkor etishida.

Ratsionalistik oqimning asoschisi fransuz mutafakkiri **Rene Dekart**. Uning ta'limoticha, bilishning birdan bir ilmiy metodi – ratsionalizmga asoslangan deduktiv metoddir. «Metod to'g'risida mulohazalar» asarida bilish usulini quyidagi qoidalarga asoslanishi zarurligini ko'rsatadi:

1) haqiqat deb faqat aql nuqtai nazaridan aniq, ravshan va shubhasiz bo'lgan nazariy xulosalarni qabul qilish mumkin;

2) har bir murakkab muammo yoki vazifani uning tarkibiy qismi bo'lgan ayrim muammo yoki vazifalarga bo'lish lozim;

3) metodik ravishda ma'lum va isbot qilinmaydigan noma'lumga va isbot qilinmaganga o'tib borish lozim;

4) tadqiqotning mantiqiy halqalaridan birortasi ham tushib qolmasligi lozim.

Demak bilishning birdan bir manbai va bilishimizning haqiqatlilik o‘lchovi ham tafakkurdir.

Dekart falsafasi dualistik falsafa. Olamning asosida bir-biridan mustaqil ikki substansiya yotadi. Birinchisi – «fikrlovchi substansiya» (xudo), ikkinchisi – moddiy substansiyadir.

«Men fikrlayman – demak: mavjudman» degan mazkur tezisni ilgari surdi.

Uning ta’limotini Tomas Gobbs takomillashtirgan va rivojlantirgan. U moddiylikni asosiy substansiya deb hisoblagan, materiyaning abadiylici, harakatning esa mexanik tarzda amalga oshishining tarafdori bo‘lgan olimdir. U matematik sifatida borliqning namoyon bo‘lishini geometriya fani nuqtai nazaridan tushuntirgan. Bilish nazariyasida Gobbs ko‘proq empirik jihatlarga o‘z e’tiborini qaratgan, sezgilarning bilimlar hosil qilish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan.

Ingliz falsafasida Jon Lokk qarashlari alohida o‘rin tutadi. U tajribani bilishning asosiy manbai, deb hisoblaydi. Bunda ichki va tashqi tajriba ajratib ko‘rsatiladi. Uning fikricha, bilish tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlardan iborat bo‘lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jarayonda hosil qilgan tushunchalari, g‘oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir.

Nemis klassik falsafasi. Immanuil Kant (1724-1804). Kant psixologik ta’limotida o‘sha davrda mavjud bo‘lgan metafizikani inkor etadi. Quyosh sistemasi kosmik fazodagi boshlang‘ich katta tumanlikdan, uning doimiy aylanma harakati oqibatidan kelib chiqqan birinchi turki emas, balki materiyadagi ichki ziddiyat – o‘zaro tortishish va itarish ziddiyati bunga sababdir. Quyosh sistemasi va yer ham tarixiy taraqqiyotning mevasi.

Kant falsafiy ta’limotining eng asosiy mohiyati uning mashhur «narsalar o‘zida» degan tezisida yaqqol namoyon bo‘ladi. Kantning ta’limoticha, bilishning zaruriy sharoitlari inson tafakkurining o‘zida jamlangan va bilishning asosini tashkil etadi. Shuning uchun Kantning narsalar haqida bizda shakllangan tasavvurlaridan, alohida narsalarning mavjudligini farqlagan. Biz dunyoni o‘z holicha bilmaymiz, aksincha o‘zimizning tasavvurimiz doirasida fahmlaymiz. Bizning bilishimizga esa tajribamizda uchragan hodisalargina ma’lum. «O‘z holicha mavjud bo‘lgan narsalar» bizning ongimizda tartibsiz xaotik ravishda ta’sir

qiladi. Tafakkurimiz ta'sirida esa bu tartibsiz ta'sirlarni muayyan bir tizimga keltiramiz. Biz tabiat qonunlari deb tasavvur qilgan holatimiz haqiqatda tabiatni harakatga keltiruvchi qonunlar emas, aksincha tafakkurimizning mahsuli (biz shunday deb faraz qilamiz va bu bog'liqlik)ni keltirib chiqarishga harakat qilamiz. Aslida narsalarning mohiyati ularning o'zlaridir. Ularni mutlaq oxirigacha bilib bo'lmaydi. Kant inson bilishi chegaralarining alohida axloqiy negizini ham ko'rgan. Uning fikricha, agar inson hamma narsani oxirigacha bilganda, unda vijdon, insof, burch degan alomatlarning ahamiyati ham qolmas edi. Kant agnostitsizmining mohiyati ham ana shundan iborat. Lekin, Kantning xizmati shundaki, u metafizika hukmron bo'lgan sharoitda qarama-qarshiliklar muammosini ko'ndalang qo'yadi. Kant oqilona fikrga dialektika xarakterli ekanligini yaxshi tushundi. U formal mantiqni tanqid qildi.

Nemis mumtoz falsafasining eng yirik vakili **G. Gegel** (1770-1831) edi. Dialektikani idealistik asosda targ'ib qilishning eng yuqori cho'qqisi Gegel falsafasida erishildi. Gegelda dialektika voqelikning barcha sohalarini mutlaq g'oyadan tabiatga va undan tarixiy jarayonlarga o'tishni o'z ichiga oladi.

Gegel dialektikasida harakatning umumiyligi shakllari tasavvur qilingan. Dialektika uchga bo'linadi: borliq, mohiyat, tushuncha. Borliq – fikrning eng dastlabki va mavhumiy shakli bo'lib, sifat, miqdor va me'yor tushunchalarida konkretlashadi. Borliqni oxirigacha ko'rib chiqib, uning o'zida o'ziga-o'zi qarshi turuvchi va in'ikos holat mohiyat kategoriyasini yuzaga keltirishni ta'kidlaydi. Go'yoki borliqning borliqqa in'ikosi mohiyatni keltirib chiqaradi. Mohiyat bilan hodisaning sintezi voqelik kategoriyasini keltirib chiqaradi. Lekin mohiyat borliqdan ajralgan holda bo'la olmaydi. o'zida borliqni ham, mohiyatni ham birlashtiruvchi dialektikaning keyingi bosqichini Gegel tushuncha deb bilgan.

Shunday qilib, rivojlanish mavhumlikdan konkretlikka hodisalarning ichki ziddiyatini hal qilinishi asosida ular sifatining bir holdan ikkinchi holatga o'tishi ekan. Bu holda rivojlanishning o'zi «mutlaq ruh»ning borliqdan mohiyatga, mohiyatdan tushunchaga boruvchi bosqichmabosqich rivojlanishidir. Gegel obyektiv idealist sifatida aynan tushunchada borliq va mohiyatning eng yuqori cho'qqisi deb bilgan. Tushuncha Gegelda ham subyekt, ham obyekt va mutlaq g'oya hamdir.

Gegelning fikricha, rivojlanishning har bir bosqichi o'z prinsipiga ega, ya'ni bir holatdan ikkinchi holatga o'tish, refleksiya (in'ikos) va

ichki rivojlanish. Rivojlanishning shu yo‘lida ilmiy tafakkur va falsafiy kategoriyalar tizimining barcha bosqichlarining dialektikasi ifodalanadi, ya’ni sifat, miqdor, me’yor, mohiyat va hodisa, ayniyat va tafovut, sabab va oqibat, tasodif va zaruriyat, imkoniyat, voqelik va hokazo. Gegel dialektikasining modeli sifatida obyektiv reallik emas, uni in’ikos etuvchi tafakkur namoyon bo‘ladi. Gegel ta’kidiga ko‘ra – dunyoda sodir bo‘layotgan barcha hodisalar obyektiv reallikda emas, balki g‘oyalarda ifodalanadi.

Gegel dialektikasi qanchalik qimmatli bo‘lmisin, u cheklangan edi. Chunki u olamning va bilishning taraqqiyoti tugallangan deb hisoblardi, unda taraqqiyot g‘oyasi faqat ruhiy-g‘oyaviy hodisalarga joriy etilgan. Bir qancha mantiqiy kategoriyalarni rivojlantirishda sxemalashtirilgan, chunonchi, triada va sun’iylik, yasamaviylik bo‘lgan; dialektik sxemalari tor, biqiq bo‘lgan; dialektikadan ilmiy, izchil ijtimoiy xulosalar chiqarilmagan.

Shuni aytish kerakki, Gegel falsafasining xarakterli xususiyati – bu uning reaksiyon idealistik falsafiy tizimi bilan ilg‘or dialektik uslub o‘rtasidagi qarama-qarshilik bo‘lgan.

Gegel falsafasi atrofida turli falsafiy maktablar va oqimlar vujudga keldi. Shulardan biri marksistik ta’limot. Asoschilar: K.Marks (1818-1883), F.Engels (1820-1895). Materialistik jihat va ateistik tamoyillar ustuvor bo‘lgan. Qarama-qarshiliklarning kurashi tamoyili mutlaqlashtirilgan o‘z ta’limotini ishlab chiqadi. Shuningdek, xilma-xil falsafiy yo‘nalishlar vujudga keldi va bugungi kunda faoliyat ko‘rsatmoqda. Endi falsafiy ta’limotlar tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan falsafiy oqimlar to‘g‘risida so‘z yuritamiz.

3-§. Hozirgi zamon falsafasi, uning asosiy oqimlari

Ma’lumki, hamma zamonlarda ham falsafa o‘z davrining dolzarb muammolarini qal etish yo‘llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og‘ir yo‘qotishlar davri ham bo‘ldi. Bu esa falsafiy fikr taraqqiyotida o‘z aksini topdi, uning turli yo‘nalish va oqimlari shug‘ullangan muammolarning salmog‘i, maqsad-muddaosini aniq belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xilma-xil oqim va yo‘nalishlar mavjud. o‘z

navbatida, bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo‘lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

An’anaviy falsafada, turli g‘oyaviy tizimlarga bo‘linishiga qaramay, muhim muammolarni qal etishda ma’lum bir umumiylit mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning ko‘p xilligi va o‘ziga xosligi, turli – tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanganligini yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bugungi kunga kelib ko‘pgina falsafiy oqimlar o‘zlarining an’anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta’kidlash maqsadida nomlariga «neo» yangi, zamonaviylashgan degan ma’noni anglatuvchi qo’shimchani qo’shganlar. Qo‘yida shu yo‘nalishlardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz.

Fanning jamiyat hayotidagi o‘rnini belgilash va unga nisbatan qarab, zamonaviy falsafiy ta’limotlarni asosan ikki yo‘nalishga ajratish mumkin. a) **ssiyentizm** (lot. scientia – fan) ya’ni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni qal etishi mumkinligini, ilm-fan taraqqiyotning doimiy ijobiliyigini asoslovchi falsafiy qarash. b) **antissiyentizm** – fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishni asoslovchi falsafiy qarash.

Neotomizm – XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo‘lib, u o‘rta asrlardagi F.Akvinskiyning ta’limotini qaytadan tikladi. F.Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta’limoti, demakdir. Bu ta’limotga ko‘ra, ilm va e’tiqod o‘rtasida to‘la muvofiqlik, uyg‘unlik bor. Ular bir-birini to‘ldirib turadi, har ikkinchi ham Xudo tomonidan berilgan haqiqat. Bu ta’limotga ko‘ra xudoning mavjudligini falsafa turli mantiqiy usullar orqali isbot qilishi lozim. Falsafaning vazifasi dinga xizmat qilishdan iboratdir.

Neokantchilik – I.Kant o‘z davrida qo‘yan ilmiy bilishning umumiyligi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta’limotga ko‘ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o‘zi uchun eng oliv maqsaddir. Shuning uchun inson hayotidan kimdir o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin mavjudot deganda, Kant izdoshlari o‘zi xohlagan ishlarini qiluvchi kishini emas, balki jamoatchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan, unga zid ish qilmaydigan, ammo o‘z haq-huquqlarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadi.

Neopozitivizm – oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalar. Tarafdorlari falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo‘la olmaydi. Falsafa – obyektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya’ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o‘rganib, tahlil qilib, ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solish kerak.

Strukturalizm – asosiy vakillari Levi Stross va Fuko. Bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdarlari narsa va hodisalarning strukturasini bilish uning obyektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblashadi.

Germenevtika – qadimgi yunon afsonalaridagi Xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi Germes nomi bilan ataladi. Germenevtika – tushunish, tushuntirish, tahlil etish g‘oyalariga asosiy diqqatni qaratadi. Falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma’nosini, mohiyatini kishilar o‘rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat, deb ta’kidlashadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Shuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma’nosini, mohiyatini kishilar o‘rtasidagi muloqotdan qidirishdan iboratdir.

Ekzistensial falsafa – tom ma’noda mavjud bo‘lmoq, demakdir. Ekzistensializm vakillari asosan ikki yo‘nalishga bo‘linadi. Biri dunyoviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (Yaspers, Marsel) bo‘lib, bunday bo‘linish nisbiydir. Bu falsafiy yo‘nalish nihoyatda xilma-xil yo‘nalishdagi ta’limotlarni insonning ma’naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g‘oyalari asosida umumlashtiradi.

Xaydeger, Sartr, Kamyulavrning ta’limotiga ko‘ra, inson o‘zining yaratish jarayonini o‘zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkendir. Demak, inson o‘z mohiyatini o‘zi erkin belgilaydi, uning kim bo‘lib yetishishi faqat uning o‘ziga bog‘liq. Erkinlik insonning o‘zi tomonidan yaratiladigan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi. Insonga berilgan imkoniyatlarni tanlash nihoyatda mas’uliyatlidir, chunki bunda inson o‘zi, boshqalarni hamda uni o‘rab turgan olamni ham qayta yaratadi.

Diniy ekzistensializm vakillari Yaspers va Marsel fikricha, inson o‘z erkin faoliyati davomida Xudoga qarab unga yetishish uchun, kamolot tomon harakat qiladi.

Pragmatizm – yunoncha «pragmatos» so‘zidan olingan bo‘lib, «ish», «xatti-harakat» degan ma’nolarini anglatadi. Yirik namoyandalari CH.Pirs, U.Djems, J.Dyui va boshqalar. Pragmatizm foydali faoliyatga

undovchi, «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bu falsafiy yo'nalihsning maqsadi insonga olamda o'z o'rnini topishga yordam berishdan iboratdir.

Pragmatizm falsafiy oqim sifatida AQSHda XIX asrning 70-yillarida va XX asrning ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrida mamlakatning ma'naviy hayotiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Pragmatizm falsafasi hozirgi kunga qadar ham AQSH, Kanada, Angliya, Avstraliya universitetlarida o'rganiladi.

Pragmatizm – an'anaviy klassik falsafaga qarama-qarshi o'laroq inson harakati, faoliyati muammosiga yangicha qarashni taklif qildi. Faoliyat bu inson hayotining asosini tashkil qiladi, holbuki shunday ekan uni amalga oshirishda uning ongida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi. Faoliyat maqsadga muvofiq ongli harakatdir. o'sha ongli harakatning mexanizmi, fikrlash tartibi qanday degan savol tug'iladi. Bu masalada pragmatizmning boshqa falsafadan farqi shundaki, bilish faoliyatini tashqi obyektiv voqelikka nisbatan qarashga qarshi chiqadi. Bu borda uning o'rniga kishi ichki ruhiy faoliyatiga e'tibor qaratishni tavsiya qiladi. Pirs eng avvalo bilim haqida emas, balki ishonch, e'tiqod haqida gapiresh lozim deydi. Bilishga qarshi bilmaslik yotgan bo'lsa, Pirsda ishonch-e'tiqodga qarshi shubhani qo'yadi. Shubhada inson harakatidagi sobitqadamlik yo'qoladi. Demak, Pirs oldingi falsafiy qarashlardan farqli o'laroq bilish jarayoni bilmaslikdan bilishga emas, aksincha shubhadan ishonchga, e'tiqodga borish deb hisoblaydi. E'tiqod deganda ham subyektiv ishonch emas, balki jamoa tomonidan tan olingan ijtimoiy e'tiqod haqida gap boradi. Demak, Pirsning fikricha, bu hamma tomonidan tan olingan va hamma uchun majburiy bo'lgan ishonchdir, e'tiqoddir.

Berkli falsafasida «mavjud bo'lmoq – demak idrok qilmoqdir» (yoki mavjud bo'lish – idrokda mavjud bo'lmoqdir) deyilgan bo'lsa, Pirsda esa bu ibora «mavjud bo'lmoq» so'zidan ozod etadi. U borliq haqida uning mavjudligi haqida emas, balki u haqidagi tushunchaning mazmuni va ma'nosi haqida gapireshni ma'qul ko'radi.

Xullas pragmatizm uchun xarakterli bo'lgan xususiyat shundaki, u yoki bu obyektlar haqidagi tushunchalarning ma'nosi va ahamiyati ular keltirib chiqargan amaliy natijalardan qidiriladi. Pirsning mashhur prinsipiga binoan obyekt tomonidan keltirib chiqarilgan oqibat haqidagi tushuncha mazkur obyekt haqidagi tushunchasidir. Pirs «amaliy oqibat»lar deganda nimani nazarda tutadi. Birinchi navbatda, ular hissiy

natijalar, ya’ni sezgillardir. Ikkinchidan esa, ular tushuncha tomonidan keltirilib chiqariladigan ma’lum amaliy harakatlardir.

Uilyam Jeyms pragmatizmni haqiqat nazariyasining o‘ziga xos uslubi sifatida qaraydi. Uslub sifatidagi olingan pragmatizm uslubi, Jeymsning ta’kidlashicha, har xil nazariyalar o‘rgatuvchi bahsni murosaga keltirish uchun ulardan keladigan foydani taqqoslab aniqlash zarur. Jeyms bu o‘rinda materializm bilan idealizm o‘rtasidagi kurashni idealizm foydasiga hal qildi. Materialistik qarash bo‘yicha dunyoning boshlang‘ich va oxirgi nuqtasini topish mumkin, ya’ni boshqacha qilib aytganda materializm insoniyat tarixi cheksiz emasligi, ya’ni zamonlar kelib hayot umuman yo‘q bo‘lib ketishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu esa hech qanday ongli o‘ylaydigan kishi uchun ma’lum bo‘lmaydi, bu bilan kelisha olmaydi. Idealizm, uning tasavvurida deizm institutlariga oxirgi nuqtada ham kelajakka intilishga ruhiy kuch beradi, demak idealizm inson kelajagini, manfaatini hal qilar ekan, modomiki shunday ekan idealizm ta’limoti haqiqatdir.

Falsafa tarixini o‘rganish bugungi kunda o‘zining muhimligi bilan ajralib turadi. Chunki, bugungi kunda mavjud falsafiy yo‘nalish va maktablar ta’limotlaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish va to‘g‘ri yo‘nalish olish davr talabidir. Shuningdek, III xodimlarining falsafiy bilimlarini va dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

2-bob. MARKAZIY OSIYO FALSAFASI VA UNING JAHON MADANIYATIDAGI O‘RNI

1-§. Markaziy Osiyoda dastlabki ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari. Diniy-falsafiy ta’limotlar

Jahon falsafasi tarixida Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy tafakkuri o‘ziga xos alohida xususiyatlarga egadir. Uning bu xususiyatlari Yunon, Misr, Hindiston, Xitoy falsafasi singari qadimiyligi bilangina emas, o‘z taraqqiyotida aniq fanlar sohasidagi buyuk tadqiqotlarga asoslanganligi, shuningdek, Markaziy Osiyo ma’naviyatiga kuchli ta’sir ko‘rgazgan diniy-falsafiy g‘oyalardan oziqlanganligi bilan ham belgilanadi. Bulardan tashqari qadimgi zamonlardanoq Markaziy Osiyo bo‘ylab, jumladan hozirgi O‘zbekiston hududidan o‘tgan Buyuk Ipak yo‘llari vositasida kechgan savdo-sotiq va madaniy aloqalar umuman ilm-fan, jumladan falsafa ilmi rivojiga katta hissa qo‘shtiradi. Xalqimiz falsafiy

tafakkurida o‘z ifodasini topgan bu omillarni o‘rganish, ularni tahlil etish diyorimizda madaniy o‘sish jarayonini, o‘zligimizni yanada teranroq anglashimiz uchun juda muhimdir.

Afsuski, xalqimiz tarixining keyingi bir yarim asrlik davrida bu ishni amalga oshirishning iloji bo‘lmadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘nggina umuman tariximiz, jumladan madaniyat, ilm-fan, qadriyatlarimiz teran va obyektiv tarzda o‘rganila boshlandi. Mustaqillikning o‘tgan yillari davomida Prezidentimiz I.Karimov tashabbusi va rahnamoligi bilan bu sohada katta ishlar qilindi. Lekin bular hali ishimizning boshlanishi. Oldimizdagи vazifalar ko‘lamni esa g‘oyatda keng va sermazmundir. Bu sohadagi izlanishlar, tadqiqotlar, shubhasiz, xalqimiz falsafiy tafakkuri dahosini tobora ravshan-lashtirishga xizmat qiladi.

Qadimgi Turon, jumladan hozirgi O‘zbekiston tuprog‘ida paydo bo‘lgan ilk ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarning ildizlari g‘oyatda uzoq tarix tumonati qatlamlariga singib ketgandir. Shuning uchun ham bu tarix ibtidosini aniq-ravshan belgilash g‘oyat qiyin, uni bizgacha yetib kelgan og‘zaki rivoyatlar, uzuq-yuluq yozma yodgorliklar, tarixiy obidalar yordamida bilib olishimiz mumkin.

Qadim davrlardan boshlab Markaziy Osiyo, jumladan hozirgi O‘zbekiston zaminida dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik xalq hayotida muhim o‘rin egallagan. Shunga bog‘liq ravishda sug‘orish inshootlari qurish, tirikchilik uchun zarur mehnat qurollari va asboblari tayyorlash kabi dastlabki bunyodkorlik harakatlari yuzaga kelib rivojana boshladi. Shu bilan birga dehqonchilik maydonlarini, sug‘oriladigan vodiylarni chetki qabilalar tomonidan tortib olish kabi xurujlariga yo‘l bermaslik, ularga qarshi kurash harakatlari boshlanadi. Bu bilan vatanparvarlik hissiyotining dastlabki kurtaklari yuzaga keladi.

Qadimgi davrning bu va boshqa g‘oya, xilma-xil hayot tarzi o‘sha davr xalq rivoyatlarida, afsonalarda, ertaklarda aks etmasdan qolmasdi, albatta. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo ijtimoiy g‘oyalaringin ilk namunalari xuddi ana shu qadimiylar, afsonalar, rivoyatlar, xalq maqollarida ifodalangandir. Bu asarlarda halollik, jasurlik, sadoqat, vatanparvarlik, ozodlik, mustaqillik kabi ijtimoiy g‘oyalar ilgari surilgan. Xalq bu g‘oyalarni e’zozlab, ularga sig‘inadi, ularning jamiyat hayotida tantana qilishga umid bog‘laydi.

O‘sha davrlarda yaratilgan xalq og‘zaki asarlari ichida Tumaris va Shiroq haqidagi dostonlar alohida o‘rinda turadi. «Tumaris» qadimiy

ajdodlarimiz orasida mashhur bo‘lgan qahramon ayollar haqidagi afsonadir. Dostonda ifodalananishicha, Eron shohi Kir O‘rta Osiyoga yovuz niyat bilan bostirib kiradi. O‘rta Osiyo aholisi, ayniqsa Tumaris boshchiligidagi massaget qabilalari Kirga qarshi qattiq kurashib, Kirni jang maydonida halok qiladilar. «Shiroq» afsonasi esa tarixiy voqealar asosida to‘qilgan bo‘lib, unda sak qabilasidan chiqqan otboqar Shiroqning jasorati, tadbirkorligi va erkparvarlik fazilatlari hikoya qilinadi. Shiroq o‘z qabilasi manfaatlarini himoya qilib, yakka o‘zi Eron shohi Doro lashkarlariga qarshi chiqadi, harbiy hiyla bilan Eron qo‘sishinlarini chalg‘itib, suvsiz, dasht-sahroga boshlab boradi va halokatga duchor qiladi. O‘zi halok bo‘lsa-da, qabiladoshlarini falokatdan qutqaradi. Yuqoridagi afsonalarning bosh mavzusi vatan manfaatlarini ulug‘lash bo‘lib, vatanparvarlik, bosqinchilarga qarshi kurash, mardlik va jasorat ko‘rsatish ularning g‘oyaviy mazmunini tashkil etadi. Ana shu jihatdan bu dostonlarni jahonga mashhur qadimgi yunonlarning «Iliada» va «Odisseya» afsonalariga qiyoslash mumkin.

To‘g‘ri, yuqorida qayd etilgan ijtimoiy g‘oyalar o‘ta sodda ko‘rinishda va mazmunda namoyon bo‘lgan. Lekin bu g‘oyalar, tushunchalar keyingi davrlar ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyotiga katta hissa qo‘sghanlar.

O‘rta Osiyoda, jumladan hozirgi O‘zbekiston zaminida tengi yo‘q ma’naviy boylik-yozuvning paydo bo‘lishi va turli-tuman, katta-kichik dinlarning shakllanib, el orasida tarqala boshlaganligi qadimgi davr ajdodlarimiz ijtimoiy-falsafiy qarashlarining birmuncha rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Shubha yo‘qli, bu o‘rinda qadimiy turk O‘rxun-runiy matnlari (yozuvlari) va Zardushtiylik dinining ahamiyati beadaddir. Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy-tarixiy tadqiqotlarning xulosalariga ko‘ra zardushtiylik ilk bor hozirgi O‘zbekiston hududida, Xorazm zaminida yuzaga kelgan. Uning din sifatida shakllanishi va mashhur bo‘lishi birnecha asrlarni o‘z ichiga oladi. U urug‘chilik tuzumi hukmronlik qilgan davrlarda shakllanib, O‘rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron hamda yaqin va O‘rta Sharq hududlarida tarqala boshlagan. Uning nisbatan kamol topgan davri sosoniylar hukmronligi zamoniga va milodiy VI asrga to‘g‘ri keladi. Bu davrda zardushtiylik kuchayib hukmron din darajasiga ko‘tarildi.

Zardushtiylik, albatta, diniy ta’limotdir. Lekin uning g‘oyalari, ayniqsa uning muqaddas kitobi – «Avesto» da ifodalangan qoida va g‘oyalar Zardushtiylikning sof diniy emas, balki dunyoviy g‘oyalarning, ijtimoiy-falsafiy ma’nolarning ham manbai bo‘lganligidan dalolat

beradilar. Shuning uchun ham «Avesto» ning ikki jihatini: diniy-mifologik va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini qayd qilmoq zarur.

«Avesto» ta’limotiga ko‘ra, dunyoda ikkita kuch: yaxshilik va yomonlik kuchlari mavjud bo‘lib, ular bir-birlariga abadiy va murosasiz dushmanlik qilib keladilar. Inson hayotini, uning baxti yoki baxtsizligini ana shu kurashning natijasi belgilab beradi. Ya’ni, kishilar o‘zlarining yaxshi xulqlari, rostgo‘yliklari, mehnatsevarligi bilan yaxshilikka moyilliklarini ko‘rsatishlari va bu harakatlari bilan yovuz kuchlarga qarshi kurashda Ezgu ruhlarga ko‘maklashishlari lozim. Agar kishilar bularning teskarisini qilsalar – yolg‘on gapirsalar, mehnat qilmasalar, insonga nomunosib harakatlar qilsalar, abadul-abad azob-uqubatda qoladilar.

«Avesto»da ta’kidlanishicha, mehnat faqat noz-ne’mat yaratish manbai emas, balki axloqiy yuksaklik, yaxshilik manbaidir. Shu boisdan inson saxovatli bo‘lishi uchun dastavval mehnat qilishi zarur. Ishyoqmaslik esa barcha nuqsonlarning manbaidir. «Avesto» targ‘ib etgan axloq-odob g‘oyalari quyidagi uchlik: Ezgu fikr, Ezgu so‘z, Ezgu amal mezonlari bilan baholanadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, zardushtiylik va uning muqaddas kitobi – «Avesto»diniy aqidalarni tashviq qilish, bilan bir qatorda o‘z davri uchun ilg‘or ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarni ham keng targ‘ib qilgan. Bu g‘oyalari orasida kishilarni insof-adolatga da’vat etish, ularni mehnat qilishga undash, rostgo‘y bo‘lish, yolg‘on so‘zlashdan tiyilish, bir so‘z bilan aytganda insonlarni axloq-odobga chaqirish kabilar muhim ahamiyatga egadir. Bu esa oddiy ma’naviy hodisa bo‘lmay, o‘sha davrlarda ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji holatini belgilovchi mezon hamdir.

II-III asrlariga kelib O‘rta Osiyoda quzdorlik tuzumi asta-sekin inqirozga yuz tutib, uning o‘rniga feodal munosabatlari shakllana boshladi. Ana shu davrda zardushtiylik ichida yangi oqim – Moniy ta’limoti yuzaga keldi. Moniy ta’limoti zardushtiylikning yaxshilik va yomonlik ta’limotiga asoslangan bo‘lib, keng xalq ommasi manfaatiga mos kelar edi. Uning ta’limoti keyinchalik mayda sektalarga bo‘linib, o‘z ta’sirini susaytirib yuboradi.

V-VI asrlarda O‘rta Osiyoda feodal siyosati va zulmiga qarshi bo‘lgan yangi diniy-falsafiy, harakat-mazdakizm oqimi vujudga kelgan. Mazdak nomi bilan bog‘liq bo‘lgan bu harakat asosan zardushtiylikning yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash g‘oyasiga asoslansa-da, u zardushtilikning hukmronlik roliga qarshi chiqdi. Mazdakiylar jamiyatda

hammaning barcha sohada tengligini targ‘ib qildilar, natijada Mazdak ta’limoti xalq ommasi ichida keng tarqaldi. Mazdak ta’limoti, shuningdek, xalqning tashqi bosqinchlarga qarshi mustaqillik uchun kurashga katta ta’sir ko’rsatdi.

2-§. Markaziy Osiyoda O‘rta asrlar falsafasi

IX-XII asrlar Markaziy Osiyoda, jumladan hozirgi O‘zbekiston zaminida yashagan xalqlar hayotida ijtimoiy-siyosiy hamda ilmiy-madaniy voqealarga boy davrlardan biri hisoblangan.

Bu davrning boshlarida yangi din-islom dini aqidalariga asoslangan qudratli Arab xalifaligi Markaziy Osiyo bekliklari, mayda feudal davlatlarini bosib olishga xuruj qila boshlaydi. Arab xalifaligi bundan oldin Arab zaminidagi deyarli barcha qabilaviy tuzulmalarni, feudal davlatchalarni o‘ziga bo‘ysundirib, kuchli davlatga aylangan va endi xalifalik hududini kengaytirish va yanada boyitish maqsadida Osiyo bekliklariga hujumga o‘tgan edi.

Xalifalik Markaziy Osiyo shaharlari va bekliklarini zabit etish va ularni o‘ziga bo‘ysundirishi bilan bu yerlarda islom dinini tarqata boshladi. Ammo qayd qilish kerakki, Xalifalik ham, uning mafkurasi hisoblanmish islom dini ham Markaziy Osiyo hududiga bemalol, silliqqina kirib kelgan emas. Xalifalikning zo‘ravonlik hujumlari, shuningdek, islom dinining bizning yurtimizga kirib kelishi keskin zarbalarga uchradi, xalq noroziliklariga, olomon qo‘zg‘olonlariga, ko‘plab olishuvlarga sabab bo‘ldi. Lekin, baribir, qariyb ikki asr davomida olib borilgan jangu jadallar, zo‘ravonliklar, imtiyozlar berish yo‘llari vositasida Misrdan tortib Xitoygacha bo‘lgan ulkan hududda Arab Xalifaligi tartiblari o‘rgatildi, shu bilan birga bu yerga islom dini kiritilib, rasmiy mafkuraga aylantirildi. Lekin Arab Xalifaligi hukmronligiga qarshi olib borilgan ozodlik kurashi hech bir vaqt to‘xtab qolmadı. Natijada va, ayniqsa, Gurek, Davoshta, Abumuslim, Muqanna va boshqalar boshchiligidagi ozodlik kurashlari tufayli Markaziy Osiyoda arab Xalifaligi hokimiyati yiqitildi.

IX asrning o‘rtalaridan boshlab mamlakatni idora qilish mahalliy feudal dinastiyalar – somoniylar, so‘ngra qoraxoniyalar, keyin g‘aznaviyalar, saljuqiyalar, xorazmshohlar qo‘liga o‘tdi.

Bu davr bizning xalqimiz tarixida ijtimoiy-siyosiy voqealar serobligi bilan birga, ilm-ma’rifat, ijtimoiy-falsafiy taraqqiyoti, madaniyat rivoji

avj olgan davrlardan biri sanaladi. Bu davrda qadimgi yunon faylasuflari-Aristotel, Galen, Gippokrat, Ariximed kabilarning merosi o‘rganila boshlandi. Xalifa Ma’mun tashabbusi bilan Bog‘dodda «Bayt-ul-Hikma» donolik uyi – ilm markazi (fanlar akademiyasi) tashkil topdi. Bu yerda asosan O‘rta Osiyodan olib keltirilgan olimlar kuchi bilan falakiyot, riyoziyot, tibbiyat, tarixshunoslik, kimyo, falsafa kabi fanlar sohalarida tadqiqotlar olib borildi.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo, jumladan hozirgi O‘zbekiston zamini arab istilosidan va bu yerga islom dini yetib kelmasidan oldin ham madaniyati, ilm-fani, o‘z davriga nisbatan rivojlangan maskan edi. Arab istilosi bu madaniyatni ma’lum darajada yakson qildi. Lekin Markaziy Osiyoda arab xalifaligi hukmronligi qulatilib, mamlakatga rahbarlik mahalliy feodal dinastiyalari qo‘liga o‘tgach, ilm-fanning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Xorazm, Buxoro, Hirotda-mahalliy xonliklarda ilmiy markazlar tashkil topdi.

Butun dunyoga dong taratgan buyuk yurtdoshlarimiz Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Al-Buxoriy, Abu Nosir Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar ana shu davrda ijod qildilar. Mahmud Koshg‘ariyning mashhur «Devoni lug‘atit-turk» asarining yaratilishi shu davrga to‘g‘ri keladi.

Bu davr ilm-fani taraqqiyotining o‘ziga xosligi o‘rganilganda, ilm-fanda dunyoviy ma’rifatga intilish, tabiatga qiziqish, tabiatshunoslik ilmlarining rivoji, aql kuchiga ishonish, insonni ulug‘lash, insonparvarlik, yuqori axloqiy qonun va qoidalarni namoyon etish, qomusiy ilm va bilimga intilish kabi xususiyatlarni bilib olish mumkin. Xullas, madaniyatda, ilm-fanda yoppasiga yuksalish, rivojlanish ko‘zga tashlanadi. Shu sababli bu davr Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Sharq Uyg‘onish davri nomi bilan ataladi.

Ana shu davrda yashab ijod etgan yurtdoshlarimizdan biri buyuk mutafakkir olim Abu Abdullo Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850)dir. Xorazmiy matematika, astronomiya, geografiya, tarix sohalarida birqancha shoh asarlar yaratdi. Bular orasida «Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» (Al-Jabr) «Astronomik zij», «Yer surati haqida kitob» kabilar dunyoda ayniqsa dong taratgandirlar.

Bu kitoblardan joy olgan matematika, astronomiyaga doir yechimlar, geografik yangiliklar dunyo ilm-fani, ayniqsa Yevropa ilmi taraqqiyotida favqulodda katta rol o‘ynadilar. Bu kitoblar o‘tgan ming yil davomida dunyoning barcha asosiy tillariga tarjima etildi va jahonning eng yirik universitetlarida o‘z sohalari bo‘yicha muhim darslik bo‘lib keldi.

Xorazmiyning «Al-jabr» kitobi asosida esa keyinchalik «Algebra» fani yuzaga keldi va rivojlandi. Matematik ilmda kibernetika, algoritm, informatika, kompyuterlashtirish kabi tushuncha va oqimlarning yuzaga kelishida ham Xorazmiy asarlarining hissalari salmoqli bo‘lgan. Shuning uchun ham kimyoning asosiy nazariyasi bo‘lgan davriy sistemaga Mendeleyev, nisbiylik nazariyasiga Eynshteyn asos solgan bo‘lsalar, tenglamalar nazariyasi sifatida algebrani al-Xorazmiy kashf etganligini butun jahon tan olgan.

O‘zbek xalqi ilm-fani va falsafasi tarixida buyuk olim Ahmad Ibn Muhammad Al-Farg‘oniyning ilmiy faoliyati muhim o‘rinda turadi. Al-Farg‘oniy Farg‘onada tug‘ilgan, ammo uning tug‘ilgan vaqt manbalarda ko‘rsatilmagan, uning 861-yilda vafot etganligi ma’lumdir. U, Al-Xorazmiy kabi, Bag‘dodda, «Bayt-ul Hikma» da faoliyat ko‘rsatgan va astronomiya sohasida jahonshumul asarlar yozib qoldirgan. U o‘zining «Astornomiya ilmining usullari haqidagi kitob», «Al-Farg‘oniy jadvallari», «Yetti iqlim hisobi» va boshqa kitoblarida yer, quyosh, sayyoralar, ularning harakatlari, osmon ekvatorining yer ekvatorining davomi ekanligi, yetti iqlim, yil fasllari haqida ilmiy asoslangan ko‘p xulosalarini bayon etadi.

Al-Xorazmiy va Al-Farg‘oniyning matematika hamda astronomiya sohasidagi tabiiy-ilmiy nazariya va kashfiyotlari o‘z davri falsafasini ilmiy xulosalar bilan boyitdi, atrof-muhitda muttasil sodir bo‘lib turadigan voqeа-hodisalar haqidagi mushohadalarni kengaytirdi va shu bilan keyingi davrlar falsafiy fikrlar rivojlanishiga muhim poydevor bo‘ldi.

Markaziy Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyotida buyuk ensiklopedik olim Abu Nosir Forobiyning (873-950) roli beqiyosdir. U yaqin va o‘rta Sharqda ilg‘or ijtimoiy-falsafiy oqimning asoschilaridan hisoblanadi. Forobiy falsafiy ta’limoti g‘oyat boy, ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari keng va teran, bu ta’limot va g‘oyalarning targ‘iboti sodda va yengildir. Shuning uchun ham Forobiy «Sharq Aristoteli» degan unvonga sazovor bo‘lgan mashhur mutafakkirdir. U, shuningdek, musulmon Sharqida Aristoteldan (ya’ni birinchi muallimdan) so‘ng «Ikkinchi muallim» (Muallimi soni) sifatida ham nom qozongan.

Forobiy yaratgan asarlarning soni 160 taga yetadi. Ularning bir qismi qadimgi yunon faylasuflari va tabiatshunoslari (Aristotel, Platon, Galen va boshqalar) ilmiy asarlarini sharhlash, targ‘ib qilishga bag‘ishlangan bo‘lsa, bir qismi o‘rta asr fanining tabiiy va ijtimoiy-falsafiy sohalariga, uning turli dolzarb masalalarini tadqiq qilishga,

tabiatshunoslik, musiqashunoslik, filologiya, jamiyatshunoslikning muhim sohalariga bag‘ishlangandir.

Forobiy o‘z falsafiy qarashlarini pantiyestik prinsip asosida tushuntiradi. Ya’ni, u o‘z nazariyalarida borliq va ilohiyotning (Ollohnning) birgalikda, bir butunlikda deb qarovchi ta’limotga suyanadi.

Demak, Forobiy moddiy borliq va ilohiyotni (Ollohn) bir butun birikma deb tushunadi. Shu bilan birga Forobiy bu birikmani tashkil etgan ikki qisimning har biri o‘ziga xos sifatlariga, belgilariga egaligini ta’kidlaydi. Chunonchi, birinchi qismi ya’ni moddiy dunyo ko‘plab belgi va xususiyatlarga, ya’ni sifat, miqdor, substansiya, zaruriyat, tasodif, son, makon, zamon kabilarga ega; ikkinchi qismi, ya’ni ilohiyot (Olloh) esa massaga ham, nasabga ham, ta’rifga ham ega emas, u mutlaqdir. Forobiy fikricha, yer va osmondagи jamiki sathlar jismdir, ya’ni moddadir. Hamma narsalar uchun umumiyl jism-olamdir, olamdan tashqarida hech narsa yo‘q. Olloh ham shu olamda, bizni o‘rab olgan moddiy dunyo ichida, unga singib ketib, moddiy borliq bilan birlikni tashkil etadi. O‘rta asr sharoitida bunchalik teran fikrga kelish va o‘z qarashlarini shu nazariya asosida tushuntirish falsafa uchun, uning kelgusi taraqqiyoti uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega edi.

Forobiy o‘zining ko‘pchilik o‘tmishdoshlaridan farqli o‘laroq, falsafaning fan sifatida mohiyatini kengroq va aniqroq tushunadi. Uning talqinida falsafa nazariy bilim doirasida asosiy o‘rinni egallaydi, falsafa borliqning mohiyati haqida, butun mavjud narsalarning mazmuni haqida mukammal va to‘liq bilim beradigan, o‘zining qonun va qoidalariga ega bo‘lgan fandir.

Forobiyning bilish haqidagi fikrlari ham muhimdir. Mutafakkirning qayd etishicha, tabiat odamdan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir. Shuning uchun ham odam o‘z bilimlarini tashqaridan, atrofidagi hodisalardan biladi. Forobiy bilish jarayonida inson aqlini ulug‘laydi.

Forobiy o‘rta asr sharoitida birinchilardan bo‘lib insonparvarlikka, adolatga asoslangan ijtimoiy tuzumni orzu qiladi. Uning «Fozil odamlar shahari» asari bevosita ana shu g‘oyani ifodalaydi.

Forobiyning qayd etilgan va boshqa ko‘p g‘oyalari keyinchalik sharq mutafakkirlari asarlarida rivojlantirildi, Yevropada XV-XVII asrlar Renessansi (Uyg‘onish) davri ilg‘or fikrlarining vujudga kelishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) o‘rni bag‘oyat kattadir. Ibn Sino faqat bizning

zaminimiz emas, butun musulmon Sharqi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrining buyuk namoyandasini, tibbiyat, falsafa, tabiiy-ilmiy fanlar, badiiy adabiyot sohalari bo'yicha ko'plab asarlar muallifi, mashhur qomusiy olim-mutafakkirdir. Ibn Sino ilm-fan sohasida shunchalik xizmatlari va mashhurligi tufayli Sharqda «Shayx ur-rais» («Olimlar boshlig'i») deb nom qozondi.

Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida dunyoga kelgan. Bu davrda Buxoro Somoniylar davlatining markaziy bo'lib, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan, ilmiy va madaniy jihatlardan taraqqiy etgan shaharlardan hisoblanadi. Bu hol yosh Sinoning dunyoqarashini shakllanishida va keyingi ilmiy, adabiy, amaliy faoliyatida katta ta'sir ko'rsatdi. Manbalarda ko'rsatilishicha, Ibn Sino 450 dan ortiq asar yozib qoldirgan bo'lsa-da, bizgacha ularning 100 tachasi yetib kelgan. Bular arab tilida yozilgan 5 tomlik qomusiy asar-»Al-Qonun fit-Tibb» («Tibb ilmi qonunlari»), o'rta asr ilmining barcha muhim sohalarini, xususan mantiq, fizika, matematika, metafizikani o'z ichiga olgan 18 tomlik «Kitob ash-Shifo», 20 jilddan iborat «Kitob al-Insaf», fors tilida yozilgan «Donishnama», falsafiy mazmundagi «Risola at-Tayr» (Qush tili), «Salomon va Ibsol», «Hay Ibn Yakzon» va boshqalardir.

«Tibb qonunlari» asari o'tgan ming yil davomida dunyoning barcha asosiy tillariga tarjima etilib, Yevropaning, shuningdek, boshqa qit'alar mamlakatlari universitetlarida tibbiyat bo'yicha asosiy darslik sifatida o'qitilib keldi. Olimning boshqa asarlari ham ko'p tillarga tarjima etilgan.

«Tibb qonunlari» o'zining tibbiyotdagi buyuk ahamiyatidan tashqari, falsafaning muhim masalalarini o'zida mujassamlashtirgan asardir. Unda inson tanasining boshqarib turuvchi qonunlarni, inson organizmi bilan muhit, tabiatning uzviy munosabati kabi falsafa uchun g'oyat muhim sanaladigan masalalar mukammal ravishda bayon etilgan.

«Tib qonunlari»da Ibn Sino, shuningdek, falsafaning bilish nazariyasi (gnoseologiya) xususida muhim fikrlarni bayon etgan. Bu masala inson fiziologiyasi va psixologiyasi asosida talqin etilib, hissiy bilish, sezgilar haqida falsafiy mushohadalar qilinadi. Ibn Sino sezgini tashqi va ichki sezgilarga ajratadi. Tashqi sezgilar insonni tashqi olam bilan bog'laydi: ular 5 ta-ko'rish, eshitish, tam-maza bilish, hid va teri sezgilaridir. Ichki sezgilar-umumiyligi, chunonchi, taxmin etuvchi, ifodalovchi, eslab qoluvchi (xotira), tasavvur etuvchi sezgilardir. Ichki sezgilar tashqi sezgilar ma'lumotlarini umumlashtirib, xotirada saqlash va so'ng tasavvur etish, taxmin qilish uchun xizmat qiladilar.

Ibn Sinoning falsafa fanining tarkibi haqidagi fikri ham diqqatga sazovordir. U falsafani ikki bo‘limga bo‘ladi. Birinchi bo‘lim nazariy falsafa hisoblanib, unga metofizika, matematika, tabiatshunoslik fanlari kiradi. Ikkinci bo‘lim amaliy falsafa hisoblanib, unga siyosat, huquq, iqtisod va axloqshunoslik kiradi. Shunga binoan amaliy falsafa ijtimoiy-siyosiy, davlat, jamiyat tuzilishi, vazifalari, jamoatni boshqarish, inson xulq-odoblari, jamoa va oilada axloq mezonlari kabi masalalar bilan shug‘ullanadi. Ibn Sino mantiq (logika) fanini ham falsafiy fan hisoblab, u bilishning asosiy vositasi, asbobi ekanligini uqdiradi.

Ibn Sinoning axloq, axloqiy tarbiya xususidagi fikrlari bizning zamonimizda ham o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Ibn Sino talqinicha, ta’lim-tarbiya aqliy tarbiya, yoshlarni ilm-fanga o‘rgatish; jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, yoshlarni ma’lum hunarga o‘rgatish kabilarni o‘z ichiga oladi. U aqliy va axloqiy tarbiyaga ayniqsa katta e’tibor beradi. Shuning uchun ham uning axloq xususidagi fikrlari oqilona va insonparvarlik xarakteriga ega. Ibn Sinoning axloq haqidagi, insoniylik, sadoqat, soflik, do‘stlik xususidagi tushunchalari uning badiiy asarlarida yaqqol namoyon etilgandir.

Chunonchi, Ibn Sino «Qush tili» asarida ikkiyuzlamachilik, yolg‘onchilik, xoinlik kabi xislatlarni qoralaydi, inson ustidan har qanday zo‘ravonliklarni inkor etadi. «Salomon va Ibsol» qissasida inson go‘zalligi, axloqi, pokligi, sofligi masalalari ifodalanadi. Xushbichim, aqlii, odobli, bahodir Ibsol akasi Salomonning xotini-yangasining ishqibozlik haqidagi taklifini rad etadi. Yanga Ibsolni ko‘ndirish uchun barcha hiylalarni ishga soladi: aldaydi, yolvoradi, eri Salomonga chaqib azob berdirtiradi, biroq maqsadga erisha olmaydi. Ko‘r muhabbat o‘tida yonib, ayshga tuzoq qo‘yan yanga ortiq chidab turolmaydi, tuhmat va bo‘hton hamda makr bilan Ibsolni o‘ldirtiradi.

Ibn Sino shoir sifatida ham mazmunli faoliyat ko‘rsatgan san’atkordir. Uning qalamiga mansub she’rlar-ruboiylar, qit’alar, g‘azallarda muhim ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar o‘z aksini topgan. Jumladan uning mana bu ruboiysi diqqatga sazovordir:

Hech bir gap qolmadni ma’lum bo‘limgan,
Juda oz sir qoldi mafhum bo‘limgan,
Bilimim haqida chuqur o‘ylasam,
Bildimki, hech narsa ma’lum bo‘limgan.

(*Ibn Sino. She’rlar va tibbiy doston. – T., 1981, B.48*)

Xullas, buyuk vatandoshimiz Abu Ali Ibn Sino o‘zining rang-barang va teran falsafiy, ijtimoiy, axloqiy, badiiy merosi bilan nafaqat musulmon Sharqi, Yevropa va, umuman, dunyo madaniyatiga katta hissa qo‘shgan qomusiy mutafakkirdir.

Yana bir vatandoshimiz-buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy (973-1048) jahon fani tarixida eng mashhur siymolar qatoridan joy olgan, o‘z davridagi deyarli barcha fanlar taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan, mashhur qomusiy olim, yirik faylasufdir.

Tarixiy manbalarning ma’lumotlari bo‘yicha Beruniy o‘z davri ilm-fanini puxta o‘zlashtirgan, ajoyib tadqiqotchi hamda tabiatni ziyraklik bilan kuzatuvchi olim bo‘lgan. Hindistonga qilgan safarlari natijasi o‘laroq bu mamlakat haqida, uning iqlimi, geografik va boshqa sharoitlari haqida, u yerda yashovchi xalqlar, elatlar to‘g‘risida asar yozgan. Hozirgacha ma’lum bo‘lgan dalillar bo‘yicha Beruniy umuman 152 asar yaratib qoldirgan. Shulardan eng mashhurlari «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Mas’ud qonuni», «Hindiston», «Geodeziya», «Minerologiya», «Saydana» kabilardir. Bu asarlar jahon fani tarixida ko‘plab tadqiqotchilar diqqatini o‘zlariga tortgan va jahon tillariga tarjima etilgan. Yuqoridagi asarlarning ko‘pi bizning zamonamizda o‘zbek va rus tillarida chop etilgandir.

Ko‘rib turganimizdek, Beruniy bevosita falsafaga doir asar yozmagan. Lekin u falsafaga oid tushunchalarni, qoida-qonunlarni, jamiyat va uni boshqarish masalalarini deyarli barcha asarlarida chuqr tahlil qilgan, ko‘plab falsafiy muammolarni hal etishda tabiatshunoslik va aniq fanlar xulosalaridan foydalangan. Chunonchi, «Hindiston» asarida musulmonlar bilan hindlarning urf-odatlari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib, bunday farqlanish geografik muhitning farqlanishiga bog‘liq, degan fikrga keladi. Tillarning turlicha bo‘lishining sababi ham odamlarning guruh-guruh bo‘lib turli geografik sharoitlarda yashashidandir, degan g‘oyani ilgari suradi. Beruniyning insoniyat hayotida va jamiyatda geografik omilning muhim rolini e’tirof etishi o‘z davri uchun katta ahamiyatga ega edi.

Beruniyning aql va mehnat haqidagi fikrlari ham e’tiborga molikdir. Aql va mehnat inson hayoti va ijtimoiy holatining mohiyatini tashkil etadi. «Geodeziya» asarida inson boshqa odamlar baxt-saodati haqida doimo o‘ylashi kerak, deydi va «muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir» degan fikrni bildiradi. Insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishidan,

shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanadi.

Beruniy ilm-fanni g‘oyat qadrlagan, unga umid bag‘ishlagan insondir. U ilm-fan saxovatli xizmatni o‘tashi mumkin deb hisoblaydi. «Mening butun fikri-yodim, qalbim bilimlarni targ‘ib qilishga qaratilgan, chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo‘ldim; buni men o‘zim uchun katta baxt deb hisoblayman»¹, deydi Beruniy. Chindan ham Abu Rayhon Beruniyning butun hayoti, ilmiy izlanish va kuzatishlari ilm-fan taraqqiyotiga sitqidildan xizmat qilishning namunasidir.

Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlari taraqqiyotida *tasavvuf* falsafasining yoki so‘fizim oqimlari (tariqatlari) g‘oyalarining o‘ziga xos o‘rin bor.

Tasavvuf falsafasi bevosita islom dinining mahsuli sifatida maydonga kelgan oqimlar majmuidir. U islom dini hukmron din mavqeiga ko‘tarilishi bilan islom dini doirasida, Qur‘on va Hadis g‘oyalariga mos ravishda yuzaga keldi. Arab xalifaligida uning yuzaga kelishi va tarqalishi VIII-IX asrlarga to‘g‘ri keladi. Tasavvuf falsafasining asosiy g‘oyasi Olloh visoliga yetishmoqlik, Olloh rahmatiga sazovor bo‘lishlik va Olloh ruhiga singib ketishlikdir. Ana shu g‘oyani targ‘ib qilish usuliga qarab so‘fiylik Markaziy Osiyoda uch tariqatga (yassaviylik, kubraviylik, naqshbandiylik) bo‘linadi.

X-XI asrlarda tasavvuf falsafasi o‘rta Osiyoda keng tarqala boshladи. O‘rta Osiyoda bu talimotning paydo bo‘lishi va tarqalishi yirik mutafakkir Hazrat Yusuf Hamadoniy (1048-1140) nomi bilan bog‘liqdir. Eronning Hamadon shahrida dunyoga kelgan Yusuf yoshligidanoq ilm-fanga qiziqadi, xalifalikning poytaxti Bog‘dodda ko‘zga ko‘ringan olimalardan tahsil oladi, xaloyiq orasida hadislар to‘plash maqsadida Isfahon, Balx, Hirot, Marv, Buxoro va Samarqand shaharlariga bir necha bor safarlar qiladi. So‘ngroq Marv va Buxoroda xonaqoh va madrasa qurdirib, turkigo‘y va forsigo‘y shogirdlar tayyorlaydi. Uning shogirdlari orasida Ahmad Yassaviy va Abduholiq G‘ijduvoniylar alohida ilmga chanqoqliklari, tasavvuf ta’limotiga berilganliklari bilan ajralib turar edilar. Keyinchalik, ustozи buzrukvorlari Yusuf Hamadoniy vafotidan (YU.Hamadoniy 92 yil umr ko‘rgan, qabri Marv shahrida) so‘ng ular Buxoroda bir qancha vaqt oldinma-ketin ustozlari ishini davom ettirganlar. So‘ng Ahmad Yassaviy o‘zi tug‘ilgan o‘lka-Turkistonda (hozirgi janubiy Qozog‘iston) tasavvufning «Yassaviya» tariqatiga,

¹ Беруний. Танланган асарлар. Т.2. – Т., Б.21.

Abduholiq G‘ijduvoniy esa Buxoroda «Naqshbandiya» tariqatiga boshchilik qilganlar.

«Yassaviya» tariqatining barcha aqidalari Xo‘ja Ahmad Yassaviyning asosiy asari «Devoni Hikmat»da mufassal bayon etilgan. «Devoni Hikmat» turkiyda (qadimgi o‘zbek tilida) she’riy yo‘l bilan oddiy, tushunarli, ravon yozilgan. Yassaviy o‘z asarlarini turkiy tilda yozganligi, birinchidan, xalqimiz madaniyatining nechog‘lik teran tarixiyligini namoyish qilishda, ikkinchidan, islomiy adabiyotning ko‘p millionli turkiy xalqlar madaniyatida mahkam joylashib olishida katta ahamiyatga ega edi. Bu Yassaviyning ham turkiy xalqlar madaniyati ham islom madaniyati oldidagi buyuk xizmatlaridan biri edi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Hazrat Alisher Navoiy Yassaviyga «Xo‘ja Ahmad Yassaviy-Turkiston mulkining shayxul-mashoyixidir» deb tavsif bergenliklari bechiz emasligini tushunib olish mumkin.

Hikmatda bayon etilishicha, inson Olloh yaratgan chog‘idagi musaffolikni saqlashi kerak. Lekin bu qiyin vazifa. Insonning bu dunyoda gunohga botishi, Olloh oldida aybdor bo‘lib qolishi oson. Uning nafsi, ya’ni insonning oddiy ehtiyojlari uni gunohga botishiga ko‘pincha sabab bo‘ladi. Shuning uchun «hikmat»-ta’limotiga ko‘ra, inson o‘zining azaliy pokligini saqlash maqsadida bu dunyodan yuz o‘girishi, o‘zini qiy Naydigan bu dunyo ehtiroslarini yengib, Olloh bilan yakka qolishi, umrini odamlardan uzoqda, uzlatda, yolg‘izlikda toat-ibodat bilan o‘tkazishi lozim. Yassaviy ijodining eng ta’sirli tomonlaridan biri ham ana shu tarkidunyochilik bo‘lib, doimiy ibodatnigina emas, balki xorlik va zorlikka chidash, hatto o‘zingni atayin azobu uqubatga duch etishni ham talab etadi. Bu-Oollohga yaqin bo‘lishning, o‘zingga u dunyoda saodatni ta’min etishning shartlaridan biridir.

Atoqli tadqiqotchi Izzat Sultonning ta’biri bilan aytganda to‘rt mavzu, yana ham to‘g‘rirog‘i – to‘rt maqsad umuman Yassaviy g‘oyaviy merosining asosini tashkil etadi.

Birinchisi-odamlarni Olloho ni tanishga, uning yaqini bo‘lishga da’vat etish; ikkinchisi – odamni Olloho ning eng aziz ijodi sifatida e’zozlash; uchinchisi – dunyodagi gunohni, ayniqsaadolatsizlikni qoralash, buadolatsizlikning qurboni bo‘lgan insonni himoya etish hamdaadolatga da’vat etish va, nihoyat, to‘rtinchisi – dunyoning dog‘larini insonga yuqtirmaslik uchun bu dunyodan nari turishga, ya’ni tarkidunyochilikka da’vat etishdir. Yassaviy tariqatining hamma boshqa g‘oyalari shu to‘rt mavzu yoki maqsad doirasidan uzoqqa ketmaydi¹.

¹Қаранг: Султон И. Баҳовуддин Нақшбанд абадияти. – Т., 1994. – Б.17.

XII asrda O‘rta Osiyoda vujudga kelgan yana bir yirik tasavvufiy tariqat – «kubroviya» musulmon olamidagi zabardast mutasavvirlardan biri, xorazmlik donishmand Shayx Najmuddin Kubro (1145-1221) nomi bilan bog‘liqdir. Bu tariqat Hodis va Shariatga asoslangan bo‘lib, o‘z davrida Xuroson, Movarounnahr, boshqa musulmon mamlakatlari orasida keng tarqaldi. Mazkur tariqat ixlosmandlari orasida Zikrning ovoz chiqarmasdan (Xufiya) ijro qilish usuli keng qo‘llangan. «Kubraviya» tariqatidan keyinchalik bir nechta kichik tariqatlar ajralib va ular Markaziy Osiyoning turli hududlarida faoliyat ko‘rsatganlar.

«Kubraviya» tariqatining odoblari o‘nta bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: 1) tavba; 2) dunyo mol-mulki va noz ne’matlaridan voz kechish; 3) qanoat; 4) Ollohga mutlaqo ishonish, unga chuqur va sidqidildan e’tiqod qilish; 5) uzlat. Tariqat ixlosmandi ko‘proq yolg‘iz qolishi, xaloyiqdan uzoqlashib, qalbini mustahkamlab, poklanib bormoq lozim; 6) tariqat ixlosmandi Olloh nomini doimo tilga olib, uning sha’niga sidqidildan zikr-samo‘ qilishi kerak; 7) tariqat ixlosmandi butun qalbi, bor vujudi bilan Ollohga murojaat qilib yurishi lozim; 8) sabr; 9) tariqat ixlosmandi har qanday pastkashliklardan, riyo va makru hiylanayranglardan xalos bo‘lmog‘i shart; 10) rido – tariqat ixlosmandi Olloh vasliga yetgach, o‘zini Olloh-taoloni tanigan hisoblamog‘i lozim.

XII-XIV asrlarda O‘rta Osiyoda va keyinchalik dunyoning boshqa ko‘p musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan tasavvuf oqimi-bu «Naqshbandiya» tariqatidir. Bu tariqay «Xojagon» nomi bilan ham mashhurdir. «Naqshbandiya» tariqatining asoslanishi va dastlabki davrlari Abduholiq G‘ijduvoniy (tug‘ilgan yili noma'lum, 1220-yilda vafot etgan) nomi bilan bog‘liqdir. Abduholiq Buxoro yaqinidagi G‘ijduvon shahrida tug‘ilib, Buxoroda Yusuf Hamadoniy va so‘ngroq Ahmad Yassaviydan ta’lim olgan. Ustozi Yusuf Hamadoniy vafotidan so‘ng bir qancha vaqt Buxoroda uning vazifasini ado etgan, so‘ng «naqshbandiya» tariqatini asoslab, unga boshchilik qilgan.

«Naqshbandiya» tariqatining keyingi rivoji va butun musulmon olamiga tarqalib ketishi Xojai Buzurg, ya’ni Xoja Bahouddin Naqshband (1318-1389) nomi bilan bog‘liqdir. Bahouddin Naqshband Buxoro yonidagi Qasri Hinduvan (keyinchalik qasri Orifon deb atalgan) qishlog‘ida tug‘iladi. Yosh Bahouddin o‘sha davrdagi otoqli mutasavvif Said Amir Kuloldan ta’lim oladi. So‘ng umrining ko‘p qismini «Naqshbandiya» tariqatining rivojiga va bu sohada shogirdlar tayyorlash ishiga bag‘ishladi. U naqshbandiyaning ikkinchi asoschisi sifatida bu

tariqatni XIV asrda har tomonlama puxtaladi, mustahkamladi va uning butun musulmon Sharqiga tarqalib ketishi yo‘lida tinimsiz mehnat qildi.

«Naqshbandiya» ta’limotining asosida ixtiyoriy ravishdagi faqirlik yotadi. Lekin bu, «faqirlik» boshqa tariqatlar tashviq etgan «faqirlik»dan tubdan farq qiladi. Chunonchi, Naqshband ta’limoti targ‘ib qilgan faqirlik odamlardan uzoqda, panada («faqir kishi panada» naqli ham shundan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin) yashashi emas, balki odamlar orasida bo‘lishni, mehnat qilishni, jamiyat uchun foydali ish qilishni taqozo etadi. Shu sababli «naqshbandi» tariqati tarkidunyochilikka va xilvatda yashash qoidasiga keskin qarshi chiqadi. «Naqshbandiya» tariqati yo‘lini tutganlar tarkidunyo qilish, xilvatda, xalqdan uzoqda bo‘lish emas, balki qalbda Olloohni jo qilib, mehnat qilishlari, dunyonи obod etishlari zarurdir. «Naqshbandiya» tariqatining «Dil ba yoru, dastba kor» (Dil yor-Oolloh bilan, qo‘l esa ish bilan band bo‘lsin) degan mashhur shiori ham yuqoridaq qoidaga aynan mos keladi. Bu esa butun tasavvuf ta’limotida nihoyatda progressiv hodisa edi.

«Naqshbandiyli» ta’limoti, shuningdek, boshqalar mehnati bilan kun kechirishni, tekinxo‘rlikni, ijtimoiy zulm va istibdodni qat’iyan qoralaydi. Bu ta’limot asoschilar kishilarni faqat o‘z qo‘l kuchi, peshona teri bilan halol mehnat qilib kun kechirishga chaqirganlar. Naqshbandiyilar odamlarni savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik, badiiy adabiyot, musiqa, ilm-ma’rifat, xattotlik, naqqoshlik, quruvchilik kabi barcha foydali va xayrli yumushlar bilan shug‘ullanishga da’vat etganlar.

Shunday qilib, naqshbandiya tariqati uzoq fikriy rivojning natijasi o‘larоq maydonga keladi, o‘rtа asrlardagi ijtimoiy va ruhiy taraqqiyotning cho‘qqisi sifatida shakllanadi.

Naqshbandiya tariqatining mafkura sifatida uzul-kesil shakllanishida uch buyuk shaxs-Yassaviy, Abduholiq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband alohida xizmat ko‘rsatdilar. Agar Yassaviy jamiyatni Olloohni tanishga o‘rgatgan va bu yo‘lda tarkidunyochilikni odат etishga da’vat qilgan bo‘lsa, agar Abduholiq G‘ijduvoniy, xuddi Yassaviydek, Olloohni tanishga da’vat etish bilan birga, buning uchun tarkidunyo shart emasligini tushuntirgan va Ollohga yaqin bo‘lishning boshqa yo‘li-»bu dunyoga» faol munosabat va insonning axloq mukammalligi va tozaligi yo‘li mavjud ekanini kashf etgan bo‘lsa, Bahouddin Naqshband, xuddi Yassaviydek, Ollohning tanishning inson uchun zarurligini ukdiradi, lekin bu yo‘lda tarkidunyochilikni uzil-kesil rad etadi.

Bahouddin Naqshband o‘z ta’limotida Ollohga yaqin bo‘lishning to‘g‘ri va eng samarali yo‘li-jamiyat saodati uchun yashash, buniyodkorlik, savob ishlar va mukammal axloq ekanini tasdiq etuvchi mafkurani eng izchil va yorqin ifoda etadi.

3-§. Amir Temur davri ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari va ularning keyingi davrlar falsafasi rivojlanishidagi ahamiyati

Markaziy Osiyoda XIV-XV asrlar ijtimoiy-falsafiy fikrlarning rivojlanishi Amir Temur va temuriylar sultanati davriga to‘g‘ri keladi.

Ma‘lumki, Amir Temur (1336-1405) va temuriylar sultanati davrida faqat Markaziy Osiyoda emas, O‘rta Sharqdagi hududlarning katta qismini egallagan Buyuk Temur Davlati o‘lkalarining barchasida turmush ko‘tarinkiligi ko‘zga tashlanadi. Savdo-sotiq, xalqlar va o‘lkalar orasida o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar tobora rivojlanadi. Bu davrgacha u yer-bu yerda ko‘zga tashlanib turgan ko‘chmanchilik barham topib, sultanatning barcha o‘lkalarida o‘troq turmush tarzi qaror topadi. Shaharlar obodonchiliga e’tibor kuchayadi. Kosibchilik, hunarmandchilik taraqqiy etadi. Dehqonchilik rivojlanishi bilan suv inshoatlari qurilishi rivoj topadi.

Sultanat hayotidagi bunday yuksak ko‘tarinkilikka mos ravishda fan, madaniyat, san’at oldingi davrlarga nisbatan beqiyos darajada o‘sadi. Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda ilm-fan va madaniyatning yuksalishi ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik avj oladi; jamiyat manfaati yo‘lida mehnat qilish odat tusiga kiradi. Bu chinakam buyuk yuksalish davri edi.

Ma’naviyatning bu qadar yuksalishi o‘z-o‘zidan bo‘lmadi, albatta. Bunga birinchidan, IX-XII asrlarda kechgan buyuk Sharq uyg‘onishi (Renessans) davri ilmiy va madaniy kashfiyotlari; ikkinchidan, Amir Temur tomonidan Movaraunahrda bunyod etilgan qudratli va markazlashgan davlat tartib va qoidalari asos bo‘ldi. Bularidan tashqari, Amir Temur davriga kelib yana ikki muhim ijtimoiy-siyosiy omil paydo bo‘lgan ediki, bu omillarsiz XIV-XV asrlar madaniyatining bu qadar gurkurab rivojlanishi mumkin emas edi. Bularning birinchisi Amir Temur davri ma’naviyatining asosi qilib Bahovuddin Naqshband tariqati ta’limotlarining olinganligi va, ikkinchisi, ilm-fan, madaniyat, sanat, ma’rifat taraqqiyotiga bevosita Amir Temurning o‘zi rahnamolik va boshchilik qilganligi edi.

Birinchi manba, ya’ni Bahovuddin Naqshband ta’limotlarining Amir Temur davri ma’naviyatining asos etib tanlanishining madaniyat ravnaqi uchun ahamiyati g‘oyatda ulkan edi.

Buning mohiyati shunda ediki, Bahovuddin Naqshband o‘z ta’limotida jamiyat saodati uchun yashashni, bunyodkorlik, savob ishlar qilishlikni, mukammal axloqqa erishishni targ‘ib qilar edi. Binobarin, naqshbandiya tariqati yo‘lini tutganlar tarkidunyo qilish, xalqdan, jamiyatdan uzoqda bo‘lish emas, balki qalbda Olloohni jo qilib, mehnat qilishlari, dunyonи obod etishlari zarurdir. Naqshbandiya tariqatining «dil ba yoru, dastba kor» (diling Ollohdaru qo‘ling mehnatda bo‘lsin) degan asosiy qoidasi ham yuqoridagi g‘oyaga aynan mos keladi.

Naqshband ta’limoti, shuningdek, boshqalar mehnati hisobiga kun kechirishni, tekinxo‘rlikni, ijtimoiy zulm va istibdodni qat’iyan qoralaydi. Bu ta’limot kishilarni faqat o‘z kuchi, peshona teri bilan halol mehnat qilib kun kechirishga chaqirgan, odamlarni savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik, adabiyot, ilm-ma’rifat, xattotlik, naqqoshlik, bunyodkorlik va hokazo barcha foydali va xayrli yumushlar bilan shug‘ullanishga da’vat etgan.

Ma’naviyat taraqqiyotining ikkinchi muhim manbai, ya’ni fan-madaniyat rivojiga bevosita sohibqironning o‘zi rahnamolik qilganligi ham g‘oyatda katta ahamiyatga molik bo‘lgan hodisa edi. Gap shundaki, mamlakatda ilm-fan, madaniyatni rivojlantirish ishlarini farmon va qarorlar chiqarish yo‘li bilan ham, ehtimol, uddalasa bo‘lar edi. Lekin Amir Temur boshqacha yo‘l tutdi. Madaniyat, fan, san’at taraqqiyotini, me’morchilik va hunarmandchilik ravnaqini, eng muhimi, san’atkor, hunarmand atalmish ijodkorning nozik qalb torlarini ishga solishda yurtboshi shaxsiyatining ma’naviyatga bo‘lgan qalb qo‘ri kuchining nechog‘lik muhimligini chuqur angladi. Shu sabab, Amir Temur ma’naviyat muammolarini qaror va ko‘rsatmalardan tashqari, bevosita shaxsiy homiyligi hamda rahnamoligi usullari bilan hal etish yo‘lini tanladi. Voqeal, madaniyat tarixida hali shoyon bo‘lmagan bu yo‘l Hazrat Sohibqiron davrida madaniyat yuksalishining ichki kuchiga, ma’naviyat taraqqiyotining muhim va qudratli omiliga aylandi.

Shunday qilib, Amir Temur davri ma’naviyatining yuqoridagi ikki asosiy omili ilm-fan, madaniyat, san’at taraqqiyotining qudratli vositasi bo‘lib xizmat qildi. Bu omillar Sohibqiron hukmronligi davrida madaniyat yuksalishiga nechog‘lik hissa qo‘shgan bo‘lsalar, keyinchalik, temuriylar saltanati davrlarida ham jamiyat madaniyatining o‘sishiga shunchalar ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Amir Temur davri ma’naviyati faqat axloqiy-madaniy hodisa bo‘lib qolmasdan jamiyat mafkurasining shakllanishi va rivojlanishi uchun ham asos bo‘ldi. Bu bilan u jamiyat mafkurasi sifatida Amir Temur davlati ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol ravishda o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Bu ta’sir avvalambor Amir Temur davlati siyosatida ayniqsa ravshan ko‘rindi. Siyosatda haqiqat qaror topib, odil jamiyat qurish g‘oyasi tasdiq etildi. Sohibqiron bu g‘oyani yanada takomillashtirib va unga aniqlik kiritib «Adolat kuchda emas, kuch-adolatdadir» degan mashhur hamda bu davrgacha davlatlar tajribasida asosiy g‘oya sifatida qo‘llanilmagan qoidani kashf etdi

Davlatniadolat yuzasidan boshqarishning yo‘lga qo‘yilishi davlat ishlarini, shuningdek, jamiyat voqeа-hodisalarini ana shu mezon bilan baholashni taqozo etar edi. Shu maqsadda davlatni boshqarish masalalari maxsus tashkil etilgan (hozirgi parlament bosqichlarini eslatuvchi) katta va kichik kengashlar muhokamasiga qo‘yiladigan bo‘ldi. Kengashlar oralig‘ida pishib-yetilgan shoshilinch masalalar esa favqulodda maslahat kengashlarida hal etilishi joriy etildi. Mamlakatda qat’iy tartib-intizom o‘rnatildi. Adolat oldida barcha: shoh ham, fuqaro ham tenglashtirildi. Ta’lim-tarbiya shu asosda olib borildi. Va, nihoyat, adolat qoidasi yo‘rig‘ida «Temur tuzuklari» maydonga keldi. «Temur tuzuklari» Temur davlatini boshqarishning asosiy yo‘llanmasi sifatida xizmat qildi.

Amir Temur davri ma’naviyati va bu ma’naviyat asosida yuzaga kelgan mafkura Sohibqiron harbiy yurishlarining maqsadlari va yakuniy natijalarini ham belgilab berdi.

Harbiy yurishlarining asosiy maqsadi-Markaziy Osiyoda birlashgan qudratli davlat tuzish, mintaqada tinchlik, barqarorlik o‘rnatish, obodonchilik ishlarini yo‘lga qo‘yish, fan-madaniyatni rivojlantirish va hokazolar edi. Bunday yuksalishga erishmoq uchun mayda, qabilachilik asosida tashkil topgan davlatlarni birlashtirish, ular o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, janjallarga chek qo‘yish, ipak yo‘lini qayta tiklab uzoq-yaqin va xorijiy o‘lkalar o‘rtasida savdo-sotiqni rivojlantirish, madaniy aloqalarni kuchaytirish zarur edi. Ana shu maqsadlarda olib borilgan harbiy yurishlar natijasida Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqning katta qisimlarini o‘z ichiga olgan ulkan mintaqada Buyuk davlat-Temur imperiyasi yuzaga keldi. Bu bilan mintaqada urush-janjallar barham topdi; xo‘jalikni, savdo-sotiqni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratildi; fan, madaniyat, san’at rivojiga keng yo‘l ochildi. Eng muhim-Buyuk imperiyaning barcha hududlarida adolat hukmronligi o‘rnatildi.

Bularning barchasi asosida Amir Temur davri ma’naviyati va bu ma’naviyat mazmunida tashkil topgan jamiyat mafkurasi yotar edi. Bu esa o‘z davri ilm-fani va madaniyatining gurkurab rivojlanishiga keng yo‘l ochib o‘zining buyuk samarasini berdi. Bu samara Amir Temur zamonasida shakllangan va keyinchalik temuriylar davrida rivojlangan quyidagi to‘rt yo‘nalishdagi buyuk maktablarda o‘z ifodasini topdi. Bular Mirza Ulug‘bek boshchiligidagi fan taraqqiyoti, Alisher Navoiy rahnamoligidagi adabiyotlar, Abdulqodir Marog‘iy ustozligidagi musiqa san’ati, Komoliddin Behzod yetakchiligidagi rassomlik san’ati maktablari edi.

Bu yo‘nalishlardagi ilm-fan, adabiyot, san’at asarlarida insonning mohiyati, uning ijtimoiy sifatlari, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, mehnatsevarlik, san’atga, hunarga, madaniyatga ishtiyoy qabi falsafiy g‘oyalar ifoda etiladi. Shuningdek, bu asarlarda jamiyat falsafasiga oid, odil jamiyat, odil podshoh, inson erkinligi, tinchlik, totuvlik, obodonchilik qabi ilg‘or g‘oyalar targ‘ib qilinadi.

Tabiiyki, bunday qulay shart-sharoitda ko‘plab fan va madaniyat, san’at va hunarmandlik, naqqoshlik va me’morchilik ilmi va amaliyotining buyuk namoyandalari yetishib chiqdilar. Chunonchi, buyuk olim va davlat arbobi Mirza Ulug‘bek, xalqimizning mutafakkir shoiri va davlat arbobi Alisher Navoiy, buyuk daho shoir Abdurahmon Jomiy va boshqa ko‘p allomalar ana shu davrda yashab ijod etdilar.

Buyuk olim va davlat arbobi Muhammad Tarog‘ay Ulug‘bek (1394-1449) astronomiya va matematika sohalarida jahonshumul ahamiyatga ega bo‘lgan kashfiyotlar qildi. U Samarqandda hokimlik qilgan davrda ilm-fan rivojiga katta e’tibor berdi. O‘z zamonasida jahonda eng yirik hisoblangan Samarqand rasadxonasi-observatoriyasini, Sharqning yirik dorulfununi hisoblangan madrasani qurdirdi, XV asr fanlar akademiyasi hisoblangan astronomiya-matematika ilmiy mакtabiga asos soldi. Uning «Ziji Ko‘ragoniy» asari jahon astronomiya fanida buyuk asarlardan biridir.

Mirzo Ulug‘bek o‘zining astronomiya va matematika sohalaridagi tadqiqotlari bilan Markaziy Osiyoda ijtimoiy-falsafiy qarashlar rivojiga katta hissa qo‘shdi. U fanda kuzatish usuliga katta e’tibor berdi, ilmiy tadqiqotda matematik vositalar va mantiqiy usullar rolini alohida qayd etdi. Shunisi diqqatga sazovorki, Ulug‘bekning astronomik hisob-kitoblari hozirgi davr astronomik hisob-kitoblarga juda yaqindir.

Mirzo Ulug‘bek buyuk ma’rifatparvar hamdir. U ilmli bo‘lish, ilmiy haqiqatni yechish inson uchun oliy fazilat ekanligini alohida ta’kidlaydi,

ana shu asosda ma'rifatli hayot, ma'rifatli jamiyat g'oyalarini ilgari suradi. Ulug'bekning «Ilm olish har bir musulmon yigit va qiz uchun farzdir» degan shiori keyingi davrlar ma'rifati uchun g'oyat katta ma'naviy ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu davrning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiydir (1441-1501). Alisher Navoiyning ijodi boy va ko'p qirralidir. Unda borliq va uning mohiyati, inson va inson hayotining mazmuni haqida chuqur falsafiy mulohazalar, insonning baxt-saodat haqidagi orzu-umidlari,adolat va axloqiy kamolot, komil inson va fozil jamoa, ularga yetish yo'llari va choralar xususidagi g'oyalar o'z ifodasini topgan.

Navoiyning ijodi o'zining g'oyaviy mazmuniga ko'ra serqirra bo'lib, unda axloq masalasi muhim o'rinda turadi. Shoir o'zining «Xamsa» asaridagi dostonlarda inson axloqining bir ko'rinishi bo'lган ishq-muhabbatni yuksak ijtimoiy-axloqiy tushuncha darajasiga ko'taradi. Ishq-muhabbat Navoiy talqinida Farhod, Majnun va boshqa romantik qahramonlarning boshqaruvchi va tartibga soluvchi asosiy omildir. Navoiy qahramonlari uchun ishq-bu inson qalbini turli illatlar va hayvoniy hissiyotlar ta'siridan tozalovchi, insonda yuksak ma'naviy tuyg'ular uyg'otuvchi qudratli ruh yoki axloqiy kuchdir. Xullas, ishq-muhabbat Navoiy talqinida insonni ma'naviy takomillikka olib keluvchi manbalardan biridir.

Navoiy, shuningdek, insonning mehnatsevarligini, axloqliliginini, donishmandligini yuqori baholaydi, xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikni, do'stlikni ulug'laydi. Navoiy asarlarida XV asrning eng progressiv g'oyalari o'z aksini topdi. Shoir yozadi:

Aql ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil.

Navoiy inson go'zalligini xalqparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda talqin etadi. Navoiyning tushunishicha, odobli kishining yoshi kichik bo'lsa-da, uning el-yurt orasidagi martabasi balanddir. Shoir «Mahbubul-qulub» asarida odob «ushoqlarni ko'zga ulug' qilur, atvorni xalq ulug' bilur», deb yozadi.

Mutafakkir go'zal kishi odamlarga yaxshilik qilishi, saxovatli va himmatli bo'lishi kerak, deydi. Shoirning fikricha, yaxshilik insoniyat bog'ining shirin mevasi, odamiylik kishvarining sof gavharidir. Birovga yaxshilikni ravo ko'rmagan, saxovatsiz kishilarni Navoiy mevasiz daraxtga, gavharsiz sadafga o'xshatadi. Kishilarni saxovatli bo'lishga, odamlarga madad berishga chaqiradi. Bu xislatlarni insonning yuksak fazilatlaridan biri deb hisoblaydi.

Navoiyning xushmuomalalik, shirinso‘zlik, muloyim takallumli bo‘lish haqidagi fikrlari ham inson go‘zalligi to‘g‘risidagi tushunchalarning ajralmas qismidir. Shoir so‘zning inson hayotidagi katta ahamiyatini yaxshi tushunadi. Har bir so‘zni o‘ylab, o‘z o‘rnida ishlatishga targ‘ib qiladi. «Mahbubul-qulub» da yozadi:

Ma’dani inson gavhari so‘zdurur,
Gulshani odam samari so‘zdurur.

Navoiy kishilarni rost so‘zlashga, mazmunli gapirishni urinishga undashi bilan birga, yomon tildan, qo‘pol so‘zdan saqlanishni talab qiladi. «Mahbubul-qulub»da «Muloyim takallum vahshiylarni ulfat sari boshqarur; fusungar-afsun bilan ilonni inidan chiqarur», deydi.

Navoiy dunyoqarashi tasavvuf falsafasi, aniqrog‘i, Naqshbandiylik falsafasi ta’sirida shakllandi. Tasavvuf falsafasi bo‘yicha ilohiyot va koinot, ilohiyot va inson, ilohiylik va dunyoviylik, xullas, butun borliq va Olloh bir-birlari bilan o‘zaro uzviy ravishda bog‘liqdir. Bu bog‘lanish «vahdat-vujud» yoki panteizm, ya’ni borliq va ilohning (Ollohning) birligi, bir butunligi g‘oyasida ifodalanadi. Navoiy ijodining butun mohiyati ana shu g‘oyaga-borliq va Ollohning yaxlitligi, birligi g‘oyasiga asoslangandir. Bu esa o‘sha davr ijtimoiy-falsafiy qarashlar taraqqiyoti uchun, oddiy materialistik tushunchalarning rivoji uchun katta omil edi.

Navoiyning falsafiy dunyoqarashida hurfikrlik yoki Ezgu fikrlilik g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Navoiy yaratgan badiiy obrazlar sofdir, mard, oljanob insonlar bo‘lishi birga Ezgulik nuqtai nazaridan fikrlovchi shaxslardir. Ularning bu xususiyatlari insonga nisbatan muhabbatda, mavjud ijtimoiy munosabatlarni Ezgulik tomon o‘zgartirilishiga qaratilgan ideal kurash xususidagi g‘oyalarda ifodalanadi.

Navoiyning bu va boshqa ilg‘or ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari o‘z davrida va undan keyin ham uzoq muddat Markaziy Osiyoda ilg‘or fikrlar taraqqiyotiga katta ta’sir etib keldi.

Shunday qilib, Amir Temur va temuriylar davrida jamiyatda qaror topgan ma’naviyat, insonparvarlik, obodonchilik, bunyodkorlik, jamiyat manfaati uchun mehnat qilish g‘oyalari, ilm-ma’rifatga, san’at va hunarga o‘chlik va hokazo hayotiy ishtiyоqlarning faolligi o‘z davri falsafasida g‘oyatda ilg‘or falsafiy mushohadalar hamda ilmiy-falsafiy yo‘nalishlarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Bunday yo‘nalishlarning biri inson falsafasi mavzui edi. Inson mohiyati, uning aql-zakovati, hayotda tutgan o‘rni, odobi va hokazo

fazilatlari falsafiy mavzu sifatida talqin etildi; inson va jamiyat, insonlar munosabatlari, inson va mehnat, hunar, san'at, madaniyat va hokazo sohalar o'tgan tarixiy davrlarga nisbatan chuqurroq va har tomonlama o'rganila boshlandi.

Bu davr falsafasida jamiyat ilmiga ham kengroq, ham teranroq ahamiyat berildi. Odil podshoh va odil jamiyat masalasi faqat nazariy yoki badiiy shakllarda emas, amaldagi siyosiy, Amir Temur va temuriylar davlatlari boshqarish tajribalarida ham o'z ifodasini topa oldi. Ana shu g'oyaning amalda ko'rinishi sifatida tinchlik, totuvlik, obodonchilik falsafasi oldinga surildi.

Amir Temur davri falsafasining yana bir muhim yo'nalishi huquq falsafasidir. Bu yo'nalishning yuzaga kelishi va rivojlanishi «Temur tuzuklari» kitobining yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Kitobda ilgari surilgan asosiy falsafiy g'oya «adolat» mezoniga nisbatan yondashuvda o'z ifodasini topdi. Sohibqiron tomonidan kashf etilgan va bu mahalgacha davlatlar tajribasida ommalashmagan «Kuch – adolatdadir» qoidasi jamiyatning barcha huquqiy hodisalarini, ularni falsafiy mushohada qilish yo'llarini asoslab berdi.

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda temuriylar hukmronligi yemirilib, Shayboniyxon hukmronligi o'rnatildi. Shayboniyxon hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. 1510-yilda Shayboniyxonning halok bo'lishi u tuzgan davlatning tobora zaiflashib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada Buxoroni ashtarxoniyilar egalladilar. Shundan so'ng birin-ketin Buxoro, Xorazm va XVIII asrning oxirida Qo'qon xonliklari vujudga keldi. Bunday siyosiy tarqoqlik, o'zaro urushlar ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'sir etdi, albatta. Lekin, qanday bo'lmasin, ijtimoiy-falsafiy fikrlar harakati to'xtab qolgani yo'q. Ijtimoiy fikrlar rivojlanishi jarayonida Alisher Navoiyning ilg'or g'oyalari muhim o'rinda turmoqda edi. Bu davrda ilg'or ijtimoiy fikrlarni imkon darajasida o'stirishda Mirzajon Sheroziy, Yusuf Qorabog'iy, Muhammad Sharif Buxoriy, Inoyatullo Buxoriy, Xusayn Xalxoliy va boshqalar o'z hissalarini qo'shdilar. Ular falsafa, tarix, tilshunoslik va boshqa sohalarga oid bir qator asarlarning mualliflari bo'lishlari bilan bir qatorda, o'z o'tmishdoshlari asarlariga sharh va izohlar yozish bilan o'z ijtimoiy hamda falsafiy fikrlarini bayon etganlar.

Bu davrda O'rta Osiyodagi falsafiy tafakkur rivojini tadqiqotchilar ikki asosiy yo'nalishga bo'ladilar. Birinchisi O'rta Osiyoning o'zida kechgan yo'nalish. Ikkinchisi-Hindistonda boburiylar davridagi O'rta

Osiyolik mutafakkirlarning ijodidan tashkil topgan yo‘nalishlardir. Ikkinci yo‘nalishga mansub mutafakkirlar davr taqozosi yoki boburiylar sulolasi da’vati tufayli Hindistonga borib o‘troq bo‘lib qolgan o‘rtalos osiyoliklar bo‘lib, Movarounnahr va Xuroson falsafiy maktabi tarbiyasini olgan (yoki o‘qib o‘rgangan) allomalar edilar. Shuning uchun ularning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari O‘rtalos Osiyo ilg‘or ijtimoiy fikrlarning mantiqiy bo‘lagi hisoblanar edi. Shunga ko‘ra, bu yo‘nalish bo‘yicha ijod etgan mutafakkirlar merosi bevosita O‘rtalos Osiyo falsafiy tafakkurining tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bu mutafakkirlar orasida Abdulqodir Mirzo Bedil (1644-1721)ning badiy, ijtimoiy, huquqiy, falsafiy merosi ayniqsa diqqatga loyiqdir.

Bedil nasabiga ko‘ra, o‘zbekning barlos qavmidandir. U Hindistonda, Bengaliyaning Azimobod shaharida dunyoga kelgan. Uning hayoti murakkab bir davrga – Hindistonda boburiylar hukmronligi oxirlab borib, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, ayniqsa Angliyaning Hindistonga nisbatan kolonial urushlari boshlanayotgan davrga to‘g‘ri keladi. U madrasada birmuncha tahsil ko‘rgach, Mirza Avrangzeb o‘g‘li Muhammad A‘zamshoh harbiy kuchlariga xizmatga kiradi. Keyinchalik bu xizmatdan ketib, qolgan umrida tamomila she’riy ijod va falsafa bilan shug‘ullanadi va 1721-yilda Dehlida vafot etadi.

Mirzo Bedil o‘zining ijodiy faoliyati davomida 16 kitobdan iborat «Kulliyot», «Chor unsur», «Irfon», (bilim), «Nuqot» (Hikmatli so‘zlar) kabi falsafiy asarlar, «Ruboiyot», «G‘azaliyot» kabi she’riy to‘plamlar yaratdi. Bedil g‘oyalari nihoyat teran, murakkab va so‘z san’atining o‘tkir hamda pinhoniy usullari asosida bayon etilgan. Shuning uchun o‘z davrida va undan keyin ham Bedil asarlarini o‘qish hamda ularning mazmunini tushuntirib berish yuksak san’at hisoblangan.

Bedilning dunyoning birligi haqidagi fikrlari g‘oyat muhimdir. Uning talqinicha, bir niholdan chiqqan meva ikki xil bo‘lmaganidek, haqiqat ham ikkiga bo‘linmaydi, ya’ni haqiqat-dunyo ikkiga bo‘linmaydi, u yaxlit birlikdan iboratdir. Bedil dunyoni tashqi ko‘rinishidan moddiy, ichki mohiyati jihatidan esa ilohiydir, deb tushuntiradi. Mutafakkir «Vahdati vujud», ya’ni falsafadagi panteizmning ma’nosini oddiy misolda yorqin tushuntiradi. Bir ruboysiда shishagar o‘z do‘konidan tashqarida hech vaqt ijod qilmaganidek, odamlar pari deb xayol qilgan xudo (Olloh) ham tabiatning o‘zidadir, deydi.

Bedil ta’limotida dialektikaning ajoyib namunalarini ko‘rish mumkin. U dunyoning abadiyligini tan oladi, uni hamisha harakatda

ekanligini uqdirdi. Bu jarayonda esa konkret narsalar, jumladan insonlar ham o'tkinchi ekanligini, gapirib, ko'p misollar bilan o'z fikrini asoslaydi.

Bedilning bilish haqidagi fikrlari ham e'tiborga molikdir. Uning fikricha, hissiy bilish va aqliy bilish bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir butunlikni tashkil etadi. Shu bilan birga Bedil bilishning hissiy bilishdan boshlanishini alohida ta'kidlaydi.

Bedilning ijtimoiy qarashlari xususida shuni aytish lozimki, u adolatsiz davlat, adolatsiz jamiyatni qoralab, odil jamiyat, odillik sultanatni orzu qildi.

O'rta Osiyo ijtimoiy fikrlari rivojlanishi tarixida o'ziga yarasha hissa qo'shganlardan biri hur fikrli shoir va mutafakkir Boborahim Mashrabdir (1653-1711). Mashrabdan boy badiiy meros qolgan. Uning ko'plab g'azal va ruboilyari, muxammas va musaddasları xalq orasida mashhurdir.

Mashrab o'z zamonasida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan tasavvufning qalandarlik oqimiga e'tiqod qiladi va bu ko'p hollarda uning ijtimoiy tushunchasi mazmunini belgilaydi. U o'zining she'rlarida ilohiy sevgini, Ollohga muhabbatini jozibali ifodalaydi. Shu bilan birga, dunyo tashvishlarini, insoniy fazilatlarni, xalq ommasi ahvolini yaxshilash muammolarini ham kuylaydi.

Mashrab yaxshi fazilatlarni Ollohdan qidiradi. Uning fikricha, Ollohni sevgan kishi insonlarni ham sevishi, o'zida go'zal fazilatlarni mujassamlantirgan bo'lishi lozim.

Mashrabning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tushunchalari ham e'tiborga sazovordir. U o'zi yashagan davrda hokimlardan adolatli chora-tadbirlarni kutadi. Ularga murojaat qilib, xalq to'g'risida g'amxo'rlik qilishni, ularning arz-dodiga qulog solishni so'raydi. Odamlarni yaramas xatti-harakatlaridan, yomon qiliqlardan, xususan, takabburlikdan, yolg'on so'zlashdan saqlanishga undaydi.

Mashrab dunyoqarashi murakkab va qarama-qarshi xususiyatlarga egadir. Bir tarafdan u adolatli jamiyat haqida xayol qiladi, inson va uning eng yaxshi fazilatlarini kuylaydi. Ikkinci tarafdan, haqiqat va adolatga erishish mushkulligini tushungan shoir ruhiy tushkunlik va umidsizlikka tushadi, tarkidunyochilik g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlar yozadi, o'zi yashayotgan zamondan zorlanadi, kishilarni bu jafokash va foniy dunyodan yuz o'girishga, oxirat umidida yashashga da'vat qiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlari tarixida yangi-mustamlaka davri boshlandi. Chor Rossiyasi 60-70 yillar davomida yerli

xalqlarning norozilik kurashlarini qurol va zo'ravonlik bilan bostirib, O'rta Osiyoning katta qismini bosib oldilar. Buxoro va Xiva xonliklari rus chorizmining mustamlakachilik siyosati ta'sirida bo'lsa-da, XX asr boshigacha o'zining yarim mustaqilligini saqlab qoldi

Chor hukumati mustamlaka hududlaridan to'liq va har tomonlama foydalanish, xom ashyni ko'proq olib ketish, xalqni itoatda saqlash maqsadlarida Turkistonga sanoatni olib kira boshladi, dastlabki ishlash bo'yicha kichik sanoat korxonalari (paxta zavodlari) qurila boshlandi. Yangi binolar, telefon, elektr, pochta, telegraf paydo bo'ldi. Xomashyoni tashib olib ketish maqsadida temir yo'l qurilib, markaz bilan mustamlaka o'lkasi o'rtasida poyezdlar qatnay boshladi.

O'lka hayotidagi bu yangiliklar garchand asosan o'lkadan ko'proq xom ashyni o'ng'ay yo'l bilan olib chiqish uchun qilingan bo'lsa-da, bu hol ijtimoiy va madaniy hayotda o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada Turkiston ma'naviy hayotida ma'rifatparvarlik harakati vujudga kelib, rivoj topa boshladi.

Shu davrda yashab ijod etgan xalqimizning ko'zga ko'ringan ma'rifatparvarlari Ahmad Donish, Furqat, Muqimiyl, Zavqiy, shuningdek, qoraqalpoq mutafakkiri Berdimurod Berdaq va boshqalar o'z asarlarida adolatli tuzumni, davlat hukmdorlarining odil va donishmand bo'lishlarini tashviq qildilar, xalqni ma'rifatga, ilm olishga, dunyo tillarini o'rganishga chorladilar.

Bu davr ma'naviy hayotidagi yana bir oqim jadidizmdir. Jadidizm Sovet davrida noto'g'ri talqin etilib, millatchilik oqimi deb qoralanib kelindi. Aslida esa jadidizm ma'rifatparvarlik harakatining yo'nalishi bo'lib, uning namoyandalari mamlakatni feudal qoloqlikdan chiqarish, milliy mustaqillikka erishish uchun kurashda jonbozlik ko'rsatganlar. Jadidizmning ko'zga ko'ringan namoyandalari Behbudiy, Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori va boshqalarning ijodiy g'oyalari hamda amaliy faoliyatlari ana shunga qaratilgan edi.

4-§. Markaziy Osiyo falsafasining jahon madaniyati taraqqiyotidagi o'rni

O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosi uchun Vatan tarixi kabi, uning falsafasi, ilm-fani, qadriyatlari tarixini bilish zarurdir. Faqat tarixni yoki, aksincha, faqat falsafa yoki faqat madaniyat tarixini bilish biryoqlamalikdir. Biryoqlamalik esa, har qanday bir tomonlama hodisa singari, nomukammalikdir. Shuning uchun Vatan tarixi va madaniyati

tarixini bir xilda o‘rganish, bilish, vatanparvarlik tuyg‘usining muhim ko‘rinishi sifatida ham farz, ham qarzdir.

Xalqimiz tarixini, uning madaniyati, qadriyatlari tarixini, jumladan falsafa tarixini o‘rganish O‘zbekiston mustaqillikka chiqqanidan so‘ng ayniqla zaruriy ehtiyojga aylandi. Zero, o‘z xalqi tarixini, uning madaniyatini, dunyo madaniyatiga qo‘sghan hissasini bilmasdan turib zamonaviy, adolat qoidalariga asoslangan milliy mustaqil davlat, fuqaroviylar odil jamiyat qurib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov o‘zining deyarli barcha nutq, maqola va asarlarida har birimizni tarixni, madaniyatimiz tarixini, qadriyatlarimizni o‘rganishga da’vat etmoqda. «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida Prezidentimiz bu masalaga yana bir to‘xtab o‘tdi. «Vatan», millat taqdiri hal bo‘ladigan qaltis vaziyatlarda, – deydi I.Karimov, – to‘g‘ri yo‘lni tanlay olish uchun avvalo tarixni va hayotning achchiq-chuchugini bilish kerak...». Shu mavzuni davom ettirib, Prezident yana bunday dedi: «...millat, davlat, jamiyat taqdiri hal bo‘layotgan pallada o‘zligimizni anglash, ma’naviy ildizlarimizni unutmaslik katta ahamiyatga ega».

Shuning uchun o‘z xalqi tarixi, madaniyati, qadriyatlarini bilish barcha kasb-kor egalari, jumladan ichki ishlar xizmatida bo‘lgan xodimlar uchun fuqaroviylar vazifalardan biridir.

Kasb-kor talablari nuqtai nazaridan ham falsafa tarixini o‘rganishning ahamiyati kattadir. Gap shundaki, huquqni himoya etuvchi tashkilotlar, jumladan ichki ishlar tizimidagi idoralar xodimlari o‘z faoliyatlarida asosan joriy davrdagi huquq normalari, zamonaviy qonunlar va boshqa qonun kuchiga ega bo‘lgan hujjatlardan foydalanadilar. Falsafa tarixidan olingan saboqlar esa hujjatlarning tarixiy mohiyatini boyitilishiga yordam beradilar.

Falsafa tarixini o‘rganishning eng muhim ahamiyati falsafa fanining umumiyligi xususiyatidan kelib chiqadi. Ma’lumki, falsafa va uning tarixi dunyoqarash bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy ta’limot va ilmdir. Shu xususida ham umuman falsafadan, jumladan uning tarixidan xabardor bo‘lgan har bir xizmatchi, xodim, mas’ul rahbar, jumladan, III xodimlari o‘z oldilarida turgan xilma-xil voqeа-hodisalar, konkret masalalarga kengroq dunyoqarash, nazariy asoslari nuqtai nazaridan yondashadilar. Bu hol esa, masala va muammolarning odilona hal etishning muhim omillaridan biridir.

Xulosa. Markaziy Osiyoda, jumladan hozirgi O‘zbekiston tuprog‘ida falsafiy tafakkurning yuzaga kelishi va rivojlanishi o‘ziga xos tarixiy va

ijtimoiy xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar xalqimiz tarixi bosqichlarining ma’naviy mazmuni hamda ijtimoiy-siyosiy holatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Lekin bosib o‘tilgan tarixiy yo‘l va ma’naviy olam qanchalik rango-rang va o‘zgaruvchan bo‘lmashin, xalqimiz dahosi bilan yuzaga kelgan falsafiy g‘oyalar, tushunchalar falsafiy tafakkur o‘z taraqqiyoti davomida o‘ziga xos umumiy sifatlarni yetiltirib keldi. Bu umumiy sifatlar quyidagi xulosalarda o‘z ifodasini topgandir:

– Markaziy Osiyoda falsafiy tafakkur tarixi jahon falsafasi tarixiy taraqqiyotining ajralmas va mazmunan boy qismidir.

– hozirgi zamon falsafasining asosiy ilmiy-nazariy yo‘nalishlaridan biri-inson falsafasi masalalariga Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri tarixida qadimgi davrlardayoq e’tibor ajratildi. Bu o‘rinda inson axloqiga ahamiyat berilganligini qayd etish lozim. Inson falsafasi bilan bog‘liq holda odil jamiyat, odil hukmron g‘oyasi targ‘ib etildi.

– bilish jarayoni bo‘yicha o‘ziga xos ta’limotni targ‘ib etdi. Sezgilar yordamida bilish, aqliy bilish va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik haqidagi g‘oyalari ilmiy falsafaning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

– Markaziy Osiyo falsafasi oddiy dialektikaning rivojlanishiga muayyan hissa qo‘sghan. Bu o‘rinda inson tanasi hayotiy faoliyatining aniq va muayyan qonun hamda tartiblari asosida harakatga kelishi haqidagi, jism va sayyoralarning harakati muayyan tartib-qoidalarga bo‘ysunishi haqidagi g‘oyalarni ta’kidlash lozim.

– Markaziy Osiyo falsafasidagi «Vahdati-vujud» va «Vahdati-mavjud» ta’limotlari vositasida panteizm falsafasi tahlil etildi. Bu bilan moddiy olam va ilohiy kuch (xudo, Olloh) bir butun yaxlitlikni tashkil etadi, degan g‘oya ilgari surildi.

– Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri taraqqiyotida so‘filik diniy-falsafiy ta’limot-tasavvuf falsafasi g‘oyalari o‘ziga xos alohida ahamiyatga egadir. Tasavvuf falsafasining yuqori cho‘qqisi bo‘lgan Bahovuddin Naqshband g‘oyalari diniy-falsafiy bilimlarning tor doirasidan chiqib, ijtimoiy-ma’naviy fikrlar taraqqiyoti yuqori pog‘onasiga ko‘tarildi, insonning mohiyati, hayot mazmuni haqida ilg‘or ta’limotni ilgari surdi va shu bilan Markaziy Osiyoda islam targ‘iboti hamda komil inson targ‘ibotiga yangicha, sifatiy o‘zgarish kiritdi.

– Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri yuqoridagi xususiyatlari bilan jahon falsafasi taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

III BO‘LIM

DUNYONI FALSAFIY TUSHUNISH

1-bob. FALSAFADA BORLIQ MUAMMOSI

1-§. Borliq va uning asosiy shakllari

Ma’lumki, falsafa bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, shulardan biri ontologiya hisoblanadi. Ontologiya so‘zi yunoncha «ontos» (mavjudlik, borliq) va «logos» (ta’limot) so‘zining birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, borliq haqidagi ta’limot deganini anglatadi. Bu atamani birinchi bor 1513-yilda R.Gokleniusning «Falsafa lug‘ati»da, so‘ngra X.Volf (1679-1754)ning falsafaga oid darsliklarida qo‘llanilgan.

Ontologiyaning borliq haqidagi ta’limot sifatida fanga kirib kelishi uzoq tarixga ega bo‘lib, «borliq», «voqelik», «materiya», «substansiya», «substrat» kabi bir qator tushunchalarning tahlil qilinishi bilan kuzatilgan. Jumladan, birinchi bor «borliq» tushunchasini falsafaga qadimgi yunon mutafakkiri Parmenid olib kirgan. Uning fikricha, real voqelik mavjud ekan, demakki borliq ham mavjud, olam faqat borliqdan iborat undan boshqa hech narsa yo‘q. Borliq na o‘z ibtidosiga na nihoyasiga ega va shuning uchun ham u abadiy va yagonadir.

Yana bir faylasuf Aflatun borliq va butun tabiatni g‘oyalar mahsuli deb talqin qiladi. Moddiy dunyo o‘tkinchi, g‘oyalar dunyosi esa o‘zgarmas va abadiydir. Aflatunning shogirdi Aristotel o‘z ustozining «Mutlaq g‘oyasini» qattiq tanqid ostiga oladi. Shu o‘rinda Aristotelga tegishli quyidagi mashhur tarixiy iborani yod olsak o‘rinli bo‘ladi: «Aflatun do‘stim bo‘lsa ham haqiqat menga qadrliroqdir». Aristotel «g‘oyalar»ning foydasizligini, uning sababiy bog‘lanishini inkor etadi. Aristotelning borliq haqidagi ta’limotida moddiy narsalarning obyektiv mavjudligi tan olinadi. Narsalarning mohiyati g‘oyalarda emas, ularning o‘zidadir. Fransuz faylasufi Rene Dekartda borliq sifatida boshlang‘ich ruh, fikrlovchi «men»da o‘z ifodasini topmoqda. Bu o‘rinda uning «Men fikrlayapman demak men mavjudman» degan mashhur tarixiy iborasini eslasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dekartda borliq moddiy hamda ma’naviy (ruhiy) substansiya shaklida namoyon bo‘ladi.

Moddiy substansiya borliqning ko‘lami bilan, ma’naviy substansiya esa tafakkur bilan belgilanadi. Yana bir boshqa faylasuf Jorj Berkli

«hamma narsalar bu bizning sezgilarimiz kompleksidan iboratdir», – degan shiorni o’rtaga tashlaydi. Uning fikricha, real narsalar o’z holicha obyektiv reallikda mavjud bo’lmaydi, faqat inson fikridagina o’z realligini topishi mumkin. Nemis faylasufi Gegel borliqni mavhumlik, «mutlaq ruh»ning namoyon bo’lishi deb ta’riflaydi.

Markaziy Osiyo falsafasida ham borliq muammosiga e’tibor kuchli bo’lgan. Zardushtiylik ta’limotida borliq quyosh va olovning hosilasidir, alangalanib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil qiladi, u borliqqa jon baxsh etadi deb hisoblangan. Islom ta’limotida borliq – ilohiy voqelikdir. Bu borada vahdadi – vujud va vahdadi mavjud ta’limotlari bo’lgan. Forobiy fikricha, ilk borliq bu Olloohning o’zidir, u azaliydir. Beruniy fikricha, borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi va hokazo. Biz borliq haqidagi bunday ta’riflarni cheksiz keltirishimiz mumkin, lekin maqsadimiz borliq haqidagi tushunchalarni emas, aksincha borliq haqidagi ta’limotning mohiyatini anglab olishdan iboratdir. Shuning uchun shu yerda qisqacha xotima yasab, quyidagi xulosaga kelsak o’rinli bo’ladi. Demak, faylasuflar borliqni o’rganishda unga materialistik va idealistik, dualistik hamda plyurealistik nuqtai nazardan baho berishga harakat qilib kelishgan ekan. Masalan, yaqin-yaqinlargacha sobiq sovet tuzumi hukmron bo’lgan davrlarda ilmiy adabiyotlarda borliqni obyektiv reallik, materiya tushunchalari bilan aynanlashtirib tushuntirishga harakat qilingan. Jumladan, 1983-yilda Moskvada nashr qilingan «Falsafiy ensiklopedik lug’at»da ta’riflanishicha, «borliq insonga bog’liq bo’lmagan holda mavjud bo’lgan obyektiv olamni ifodalovchi falsafiy tushunchadir»¹.

Ko’rib turganimizdek, bu yerda «borliq» «obyektiv reallik» tushunchasi bilan aynanlashtirib tushuntirilmoxda. Aslida esa borliq inson ongiga bog’liq bo’lmagan obyektiv narsa, hodisa va jarayonlarnigina emas, balki inson ongingin ijodiy mahsuli bo’lmish uning fantaziyalarini ham o’z ichiga qamrab oladi. Shu hodisani quyida kengroq tushuntirib berishga harakat qilamiz. Atrofdagi barcha narsalar va hodisalar o’zgaruvchan va o’zaro aloqadorlikdadir. Hattoki Misrdagi piramidalar ham oldingi holatiday emas, balki o’zgargandir. Shuni ham ta’kidlash lozimki ko’pgina narsalar va hodisalar bizgacha mavjud bo’lgan, hozir ham bor, bizdan keyin. ham ming yillar mavjud bo’lishi mumkin. Ba’zi narsa va hodisalar yaqinda vujudga kelgan bo’lishi

¹ Философский энциклопедический словарь. – М., 1983. – С.69.

mumkin va biroz vaqt mavjud bo‘lishi mumkin. Ba’zi bir narsa va hodisalar uzoq mavjud bo‘lib turmasdan qisqa davr mavjud bo‘lishi mumkin.

Ba’zi bir narsa va hodisalar esa ma’lum bir soatlar, daqiqalar, soniyalar mavjud bo‘lib turishi mumkin. Ushbu olamdagи narsa va hodisalarning murakkabliklarini tushunish uchun fanda biz yuqorida murojaat qilgan «voqelik» (reallik) tushunchasi kiritilgan.

Voqelik – narsa va hodisalarning o‘tmishda, hozirgi va kelgusidagi holatlarining majmuasi. Voqelik juda murakkab, chunki narsa va hodisalarning holati doimo o‘zgarishdadir. Tabiatdagи narsalar, hodisalar va jarayonlar, inson xatti-harakatlari, davlat tizimi vujudga keladi, yo‘q bo‘ladi, ba’zan ular uzoq vaqt saqlanib qolishi ham mumkin. Shuning uchun doimo voqelikda vujudga kelish, shakllanish, mavjud bo‘lish, yo‘q bo‘lishga o‘rin bor.

Voqelik obyektiv va subyektiv bo‘ladi.

Narsalar, aytaylik tog‘ jinsidagi olmos kristali inson paydo bo‘lguncha million yillar ilgari vujudga kelgan bo‘lishi mumkin. Biz u haqda hech narsa bilmasligimiz mumkin. U bizning ongimizga bog‘liq bo‘lman holda, undan tashqarida mavjud bo‘ladi.

Bunday inson ongidan tashqaridagi barcha narsalarni qamrab olgan reallik obyektiv voqelik hisoblanadi.

Ximik olim olmos kristallari qanday atom va ionlardan tuzilganligini, ular o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjudligini, sun’iy olmos tayyorlashda bo‘ladigan fizikaviy, ximik, texnologik jarayonlarni bilishi mumkin. Ammo u sun’iy olmos hali tabiatda yo‘q u faqat olimning miyasida fikrlar shaklida mavjud.

Demak, bu bizni ongimizda, tafakkurimizda bo‘lganligi uchun subyektiv voqelik hisoblanadi. U fikr, tasavvur, tushuncha, timsol (obraz), ilmiy va noilmiy bilimlar shaklida bo‘ladi.

Borliq obyektiv va subyektiv voqelik birligidan iboratdir. Borliq moddiylikni, ma’naviylikni, o‘tmishni, kelajakni, o‘limni, hayotni, rujni va jismni qamrab oluvchi tushunchadir. Atrofimizdagи odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g‘oyalar, o‘y xayollarimizning biri, ularning barchasi birday mavjuddir, ular turli tarzda va shakllarda namoyon bo‘lib, ularning hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, «borliq» tushunchasiga kiradi. Xulosa sifatida quyidagi ta’rifni keltirishimiz mumkin:

Borliq – yuqori darajadagi umumi abstraksiya bo‘lib, shu bois, mavjudlik belgisiga ega bo‘lgan barcha narsalarni, ya’ni moddiy jismlar,

jarayonlar, hodisalar, ular o‘rtasidagi munosabat, xususiyat, aloqadorliklar va hatto inson fantaziyasini ham o‘z ichiga qamrab oluvchi o‘ta keng tushunchadir.

Adabiyotlarda «borliq» tushunchasiga ta’rif berilayotganda uni mavjudlik va reallik tushunchalar bilan taqqoslagan holda tahlil qilishib, mavjudlikni borliqning hozirgi paytda namoyon bo‘lib turgan qismi, reallikni esa mavjudlikning hammaga ayon bo‘lgan ular tomonidan tan olingan qismi deyishadi va o‘z navbatida har ikkalasini ham borliqda jamlanuvchi tushuncha sifatida baholashadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, borliq vogelikning eng umumiyligi, ichki va tashqi, mohiyati va mazmuniga aloqador barcha jihatlarini aks ettirsa, yana bir kategoriya mavjudlik esa vogelikning tashqi, ko‘zga tashlanadigan, shakliga aloqador va tajriba vositasida bilib olinadigan tomonini ifodalaydi. Mavjudlik lot. *exsisto* (ekzistensiya) so‘zidan olingan bo‘lib, mavjudman degan ma’noni anglatgan. Falsafada mavjudlik falsafasini yoqlovchi ekzistensializm deb nomlanuvchi butun bir ta’limot bor. Borliqning muayyan obyektida va ayni vaqtda mavjud holda mujassamlangan qismini ifodalashda reallik deb ataluvchi yana bir tushuncha ishlatiladi.

Borliqning asosiy shakllari quyidagilardan iborat: moddiy predmetlar, jarayonlar borlig‘i, inson borlig‘i, ma’naviy borliq, ijtimoiy borliq.

Moddiy predmetlar borlig‘iga tabiatdagi barcha narsalar, eng mayda zarrachalardan tortib to Yer, quyosh, koinotgacha kiradi. Ikkinci tabiat ham moddiy borliqqa kiradi.

Inson borlig‘iga muayyan bir ijtimoiy guruh, tabaqa, sinfga mansublik, o‘ziga xos manfaatga ega bo‘lgan, o‘zligini anglay biladigan shaxslar kiradi.

Ma’naviy borliqqa inson tomonidan yaratilgan qadriyatlar majmuasi, ya’ni madaniyat, til, ilm-fan, axloq-odob qoidalari kabilalar kiradi.

Ijtimoiy borliq jamiyat hodisalarining barcha turlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Borliqni o‘rganishda yuqorida biz sanab o‘tgan shakllari asosida adabiyotlarda yana g‘oyaviy borliq, aktual va potensial borliq, real va virtual borliq hamda tabiiy borliq kabi shakllari ajratib ko‘rsatiladi1.

Bundan tashqari, falsafa tarixida borliq kategoriyasini tahlil qilishganda «substansiya» va «substrat» tushunchalariga murojaat qilishadi. Substansiya (lot. substansia – mohiyat, asosda yotuvchi narsa)

muayyan narsalar, voqealar, hodisalar va jarayonlar xilma-xilligining ichki birligida namoyon bo‘luvchi mohiyat.

Substansiyanı tahlil qilishda falsafada ontologik va gnoseologik yo‘nalishlar farqlaniladi. Ontologik yondashuvga ko‘ra substansiya borliqning eng tub asosini tashkil qiluvchi muayyanlik deb ta’riflanadi. Masalan, F.Bekonda substansiya borliqning muayyan shakli bilan aynanlashtirilgan. R.Dekart borliqning asosida bir biridan mustaqil bo‘lgan ikki xil borliqning ko‘lami bilan ifodalanuvchi moddiy va tafakkur bilan belgilanuvchi ma’naviy substansiya ajratiladi. B.Spinozada esa tafakkur va ko‘lam – ikki xil mustaqil substansiya emas, balki yagona substansianing ikki xil atributi sifatida ko‘rsatiladi va hokazo.

Gnoseologik yondashuvga ko‘ra, substansiya olamning asosida yotuvchi shartli g‘oyalardan iboratdir (J.Lokk). J.Berkli esa ham moddiy ham ma’naviy substansianing mavjudligini inkor etgan va u substansiya deb dunyoni idrok qilishning gipotetik assotsiatsiyasini anglagan. Gegelda «mutlaq g‘oya» va «mutlaq ruh» substansiya deb qaralgan.

Hozirgi zamon falsafasining ekzistensialistlar singari yo‘nalish tarafdorlari substansiya kategoriyasiga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lib, ularning fikricha, bu kategoriya borliqning mohiyati haqidagi tasavvurni juda ham primitivlashtirib yuboradi.

Borliqni tahlil qilishda substrat (lot. substratum – asos, to‘shama, taglik) narsa va hodisalarning umumiyligi moddiy asosi; nisbatan oddiy va sifat jihatdan elementar bo‘lgan moddiy yoki g‘oyaviy tuzilmalar majmuasi.

Falsafada substrat sifatida mutlaq elementar va bo‘linmas asoslar tushunilgan. Masalan, Pifagorda son – miqdor, Geraklitda – olov, Falesda – suv, Anaksimenda – havo, Demokritda – atom va hokazo.

Falsafada borliq kategoriyasini tahlil qilishganda yana «yo‘qlik» tushunchasiga ham murojaat qilishadi. Xo‘sh, yo‘qlik nima? Bu tushunchani qanday tahlil qilish mumkin? Darhaqiqat, borliq bu muayyan narsalar shaklida va muayyan sifatiy holda mavjud bo‘lgan yaxlit obyektiv va subyektiv reallikdir.

Yo‘qlikni ta’riflash esa bir muncha mushkulroq. Agar borliq mutlaq bo‘lsa yo‘qlik esa nisbiy tushuncha bo‘lib, makonga va vaqtga nisbatan ifodalanadi. Masalan, yo‘qlik deb, o‘tmishdagi va kelajakdagi hodisalarning hozirgi zamonda yo‘qligini aytishadi. Yo‘qlikni gnoseologik ma’noda ham tushunish mumkin, ya’ni bilimlarimiz chegarasining doimiy ravishda kengayib borishi, bugun ma’lum bo‘lmagan sir-

asrlarning ertaga ma'lum bo'lishi (o'tmishda materiyaning modda va maydon ko'rinishga ega bo'lishi ma'lum bo'lmaganligi, yoki bugungi kunda fizik vakuum xususiyatlarining bizga ma'lum bo'lmagan tomonlari va boshqalar) bilan izohlashimiz mumkin. Demak, borliq mutlaq bo'lib, yo'qlik nisbiy tabiatga ega bo'lgan hodisa ekanligi haqidagi to'g'ri xulosaga kelishimiz mumkin.

2-§. Hozirgi zamon fani materiya haqida

Obyektiv borliq hamisha harakat qilib turuvchi materiyadan iborat. Moddiy dunyo xilma-xildir, unda sodir bo'ladigan hodisalar ham turlitumandir. Ularning asosini nima tashkil qiladi degan savol ko'pgina kishilarni qiziqtirib kelgan. Falsafadagi ikkita oqim bu savolga ikki xil javob berishgan.

Idealizm vakillari narsa va hodisalar asosini sezgi, ilohiy iroda yoki mutlaq g'oya tashkil etadi deb tushuntirishgan.

Materialistlar esa hodisalarni tabiiy tushuntirishga harakat qilishgan. O'tmishdagi materialistlar materiyani real narsalar va hodisalarning biror aniq shakllari bilan taqqoslashga harakat qilganlar. Fales dunyoning asosini suv tashkil qiladi degan. Geraklit esa hamma narsaning asosini olov tashkil qiladi deydi. Ba'zi materialistlar dunyoning asosini, barcha narsa va hodisalarning asosini to'rtta element tashkil qiladi deyishgan. Bular: suv, olov, havo, tuproq. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda materiyaga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: Materiya obyektiv reallikni ifodalovchi falsafiy kategoriya bo'lib, bu obyektiv reallikni inson o'z sezgilari bilan idrok qiladi va u bizning sezgilarimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir, bizning sezgilarimiz undan nusxa, surat oladi, uni aks ettiradi.

Ta'rifda materiya ongimizning obyektiv manbai ekanligi va uni bilish mumkinligi ta'kidlanishi bilan birga, o'tmishdagi falsafiy sistemalardan farqli, materiya hissiy qabul qilinadigan jismlardan, moddalar, zarralardan va hokazolardan iborat etib qo'ymaydi.

Materiyaning falsafiy tushunchasi uning tuzilishi va xususiyatlari to'g'risidagi tabiiy-ilmiy tasavvur bilan aralashtirib yubormaslikni talab qiladi. Chunki materiyaning falsafiy tushunchasi mutlaq xarakterga ega bo'lib, fandagi yangi-yangi kashfiyotlar uni tasdiqlab boradi, lekin mohiyatini o'zgartirmaydi. Materiyaning tuzilishi va xususiyatlari to'g'risidagi tabiiy-ilmiy tasavvur esa fan taraqqiyoti bilan o'zgarib, kengayib boradi.

Materianing falsafiy tushunchasini uning tabiiy-ilmiy tasavvuridan farqini tushuna olmagan ba’zi tabiatshunos va faylasuflar materiya yo‘q bo‘ldi degan fikrga borishdi. Buning sababi XX asr boshlarida fizika fanida bo‘lgan yangiliklar edi. Atomning o‘z navbatida yanada mayda zarrachalarga – elektron, protonlarga bo‘linib ketishini kashf etilishi «materiya yo‘qoldi» deb xulosa chiqarishlariga olib keldi.

Materiya yo‘q bo‘lmaydi, uning tuzilishi haqidagi eski tasavvurlarimiz yo‘q bo‘ladi, uning xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarimiz chegaralari kengayadi, uning tuzilishi va xususiyatlari to‘g‘risida chuqurroq tasavvur vujudga keladi.

Materianing tuzilishi haqidagi hozirgi zamon ilmiy tasavvurlari uning tizimli tarzda tashkil topganligi to‘g‘risidagi g‘oyaga asoslangan. Masalan, har qanday makrojismni muayyan molekulalar majmui sifatida qarash mumkin. Har qanday molekula ham tizimdir. U atomlar va ular o‘rtasidagi muayyan aloqalardan iboratdir. Har bir atomning yadrosi o‘z navbatida ichki tarkibga ega. Oddiy misol, vodorod atomida yadro bir zarra hajmiga teng keladigan protondan iborat. Nisbatan murakkab atomlar yadrosi proton va o‘zaro ta’sir qiluvchi va neytronlardan tashkil topadi. Proton va neytronlar ham murakkab tuzilmalardir. Ular tarkibida ham o‘ziga xos elementlar – kvarklar mavjud.

Tirik tabiatni o‘rganganimizda ham, biz materianing tizimli tuzilishini ko‘ramiz. Masalan: hujayra va undan tashkil topgan organizmlar murakkab tizimlardir. Jamiyatda ham ko‘p miqdordagi o‘zaro tutashuvchi tizimlarning tiplari mavjuddir: odam, oila, turli kollektivlar, birlashmalar va tashkilotlar, partiyalar, sinflar, millatlar, davlatlar, davlatlarning tizimlari va yaxlit jamiyat ham.

Moddiy olamning har qanday obyekti yagona va takrorlanmasdir. Lekin obyektlar qanchalik yagona va takrorlanmas bo‘lmisin, ular tuzulishida umumiyl belgilar bor. Masalan: atomlarning juda ko‘p turlari bor, lekin ular bir tipda tuzilgan (atomda yadro va elektron qobig‘i bo‘lishi kerak). Turli makrojismlarda, hujayralarda, ular dan tuzilgan tirik organizmlarda ham umumiyl belgilar topish mumkin. Tuzilmalardagi umumiyl belgilarning mavjudligi turli obyektlarni muayyan moddiy tizimlar turkumiga birlashtirish imkoniyatini beradi. Bu turkumlarni ko‘pincha materiya tuzilishining darajalari yoki materianing turlari deb atashadi.

Materianing hamma turlari genetik ravishda bog‘langan, ya’ni ularning har biri boshqasidan kelib chiqadi, rivojlanadi. Hozirgi zamon

fani materianing tuzilishini uning darajalari iyerarxiyasi tarzida tasavvur qilishni o'rgatadi. Unga ko'ra materiya tuzilishi ***tashkiliy strukturaviy va miqyosiy strukturaviy*** darajalariga bo'linadi.

1) ***materianing tashkiliy-struktura darajalari*** – moddiy sistemalarning tashkiliy jihatdan uyushganligi va faolligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Bu darajalar fazo-vaqt strukturasining sifatiy xususiyatlari bilan farq qiladi. Ular notirik daraja (notirik tabiat), organik daraja – (tirik tabiat) va sotsial daraja (jamiyat) deb yuritiladi.

Notirik tabiat darajasida atom yadrosi, yadro, atom va molekulalar majmuasi, molekular birikmalar, jismlar, yer shari, osmon jismlari, quyosh sistemasi va boshqa planetar sistemalar, yulduzlar to'pi, gallaktika, metagallaktika va koinatning quyi darajada uyushgan fazo-vaqt aloqadorliklari namoyon bo'ladi.

Notirik tabiat darajasiga nisbatan uyushganroq va faolroq fazo-vaqt sistemasi organik daraja deyiladi. Tirik tabiatni o'rganganimizda ham, biz materianing tizimli tuzilishini ko'ramiz. Unga organik molekular sistemalar, tirik organizmlarning xilma-xil ko'rinishlari, bir hujayrali suv o'tlari va sodda jonivorlardan tortib, murakkab tuzilgan umurtqalilar-gacha, sodda hayvonlardan to maymunlar va odamlargacha kiradi.

Odamlardan tashkil topgan turli murakkablikdagi ijtimoiy sistemalar sotsial darajaga mansubdir. Jamiyatda ham ko'p miqdordagi o'zaro tutashuvchi tizimlarning tiplari mavjuddir: odam, oila, turli kollektivlar, birlashmalar va tashkilotlar, partiyalar, sinflar, millatlar, davlatlar, davlatlarning tizimlari va yaxlit jamiyat ham.

Yuqorida aytilgan tashkiliy-struktura darajalari bir-biridan moddiy aloqadorliklar sifati va miqdoriga ko'ra, unda yetakchilik qiluvchi harakat shakliga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, noorganik daraja mexanik, fizik, ximiyaviy va geologik harakat shakllari faoliyat ko'rsatsa, organik darajada yuqoridagi harakat shakllariga biologik harakat qo'shiladi va u mazkur darajada yetakchilik qiladi, sotsial darajada yana bir harakat shakli – ijtimoiy harakat faoliyati ko'rsatib, u ushbu darajada yetakchilik qiladi.

2) ***materianing miqyosiy-struktura darajalari***. Bu moddiy sistemalarning bir-biridan mazkur sistemada hukmronlik qiluvchi fundamental kuchlar bilan farq qiluvchi darajalardir. Ular: *mikrodunyo, makrodunyo va megadunyolarga* bo'linadi.

Mikrodunyoda kuchli va kuchsiz yadroviy o'zaro ta'sir kuchlari hukmronlik qiladi. Bu kuchlarning ta'sir doirasi atom yadrosi va atom

o‘lchovi bilan chegaralangandir. Kuchli yadroviy o‘zaro ta’sirlar atom yadrosining tarkibiy qismlari bo‘lgan proton va neytronlarning yaxlitligini, kuchsiz yadroviy o‘zaro ta’sirlar atom strukturasining yaxlitligini ta’minlaydi. Bu kuchlar tufayli mikrodunyo o‘zining strukturaviy yaxlitiligini saqlaydi. Makrodunyoning strukturaviy yaxlitligi esa elektromagnit o‘zaro ta’sirlari bilan saqlanadi.

Elektromagnit o‘zaro ta’sir kuchlari atomlar va molekular brikmalarning, moddiy jismlarning strukturaviy yaxlitligini ta’minlaydi. Shu kuch tufayli yerda hayot mavjud, yorug‘lik mavjud. Megadunyo – gravitatsion o‘zaro ta’sirlar kuchi bilan chegaralangan eng katta moddiy obyekt, ya’ni koinot. Yer shari va uning atrofida oyning aylanishi, sayyoralarning quyosh atrofida aylanishini ta’minlovchi, Gallaktikaning muayyan tuzilishga egaligiga, butun koinotning fazo-vaqt strukturasi tartibining mavjudligiga gravitatsion o‘zaro ta’sir kuchlari mas’uldir. Bu kuchlar bo‘limganda edi, dunyodagi hozirgi tartib va munosabatlar ham bo‘limgan, mikro-, makro- va megadunyolar ham shakllanmagan bo‘lar edi.

Fandagi mavjud talqinga ko‘ra materiya yana modda va maydon ko‘rinishlarga ham bo‘linadi. Obyektiv reallikning koinot qa’ridan tortib to elementar zarrachalar va antizarrachalargacha (elektronlar, pozitronlar, protonlar, antiprotonlar, neytronlar va hokazo) materianing moddasimon ko‘rinishiga ega. Materianing nomoddasimon maydon ko‘rinishiga turli xil fizik (elektromagnit, gravitatsion) maydon va nurlanishlar kiradi. Modda bilan antimodda to‘qashganda materianing annigiliyatsiya (lot. annihilation – hech nimaga aylanishi) hodisasi sodir bo‘ladi, ya’ni materiya moddasimon ko‘rinishdan nomodda ko‘rinishiga – maydon va nurlanishga aylanadi. Fizik vakuumdagi elektromagnit maydonini muayyan intensivlikdagi nurlanishlar bilan hujum qilinganda mazkur vakuumda zarracha va antizarrachalar hosil bo‘ladi, ya’ni materianing maydon ko‘rinishi modda ko‘rinishiga aylanadi.

Ikkinchi savolga xulosa qilib shuni aytish lozimki materiya obyektiv reallikni ifodalovchi moddiy obyektlarga xos eng umumiyl tushuncha, falsafiy kategoriya bo‘lib, olamda mavjud bo‘lgan konkret moddiy obyektlar materianing muayyan konkret ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqorida guvoh bo‘lganimizdek, hozirgi zamon fani materiyani o‘rganishda tizimli yondashib uni strukturaviy daraja va muayyan ko‘rinishlarga ega bo‘lgan turlarga qarab tasniflaydi.

3-§. Harakat, makon va zamon kategoriyalarining mohiyati hamda ularning yuridik fani va amaliyoti uchun ahamiyati

Tabiat va jamiyatdagi hamma narsa harakat va rivojlanishda, o‘zgarish va o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Hech bir tinch turgan narsa yo‘q. Olamdagi narsalar harakatda bo‘lib, biri ikkinchisiga aylanadi, biri ikkinchisidan paydo bo‘ladi. Butun tabiat – eng kichik zarradan tortib quyoshgacha, odamzodgacha doimo paydo bo‘lish va yo‘q bo‘lish, uzluksiz oqish, beto‘xtov harakat qilish va o‘zgarish holatini kechirib turadi. Har qanday obyekt uni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro ta’siri tufayli mavjud bo‘la oladi. Masalan, atom yadro va atomning qobig‘ini tashkil etuvchi elektronlarning o‘zaro ta’siri tufayli mavjud; tirik organizmlar ularni tashkil etuvchi molekulalar, hujayralar va organizmlarning o‘zaro ta’siri tufayli mavjud. Shuningdek, obyektlar tashqi muhit bilan ham o‘zaro ta’sirda bo‘ladilar. Ular boshqa murakkab sistemalarning elementlari bo‘lishi ham mumkin. Masalan: atom tarkibiga kiruvchi yadro va elektronlar molekulani tashkil qiluvchi qismlari bo‘lishi mumkin, molekulalardan esa makrojisimlar tashkil topadi. Shunday qilib materiyaning tarkibga egaligi, ham ichki, ham tashqi o‘zaro ta’sirni ko‘zda tutadi. O‘zaro ta’sir moddiy obyektlarning xossalari, munosabatlari, holatlarining o‘zgarishiga olib keladi. Umumiy tarzda olingan bu o‘zgarishlar moddiy olam borlig‘ining ajralmas xususiyatidir.

O‘zgarish falsafada «harakat» tushunchasida ifodalanadi. Materiyaning harakati deganda, jismlarning makonda o‘rin almashishigina emas, balki har qanday o‘zaro ta’sir va o‘zaro ta’sir natijasida bo‘ladigan o‘zgarishlarni tushunish lozim. Harakat – eng oddiy mayda zarrachalarning o‘zaro aylanishi, metagalaktikaning kengayishi, organizmlar hujayralarida modda almashinuvi, ijtimoiy hayotda odamlarning faoliyat almashinuvidir.

Harakat bu har qanday o‘zaro ta’sir va o‘zaro ta’sir natijasida bo‘ladigan o‘zgarishlardir. Materiya harakatsiz bo‘la olmaydi. Har qanday obyekt, unda harakatning muayyan tiplari mujassamlashgani uchun ham mavjuddir. Harakat to‘xtaganda obyekt ham o‘z mavjudligini tugatadi, u boshqa obyektga aylanadi. Boshqacha aytganda, harakat materiyaning ichki timsolidir, atributi hisoblanadi. U materiyaning o‘zi singari mutlaqdir. Harakatsiz materiya hech qayerda va hech qachon bo‘lgan emas va bo‘lishi mumkin emas.

Kuzatilayotgan u yoki bu predmetning tinchlik, sukonat holati

deyilganda, mazkur predmetning muayyan fazoviy konfiguratsiyaga ega ekanligi, muayyan tarkibga ega ekanligi, bu tarkib barqarorligini saqlay olishi, o‘z elementlari muayyan majmuini takror hosil qila olishi tushuniladi. Lekin aytaylik, oddiy elementdan tortib tirik organizmlargacha, elektron mikroskop bilan kuzatilganda, ularning hammasi muayyan zarrachalarning to‘xtovsiz harakatidan iboratligini payqash mumkin. Bu bizning tanamiz va ruhimizga (ya’ni, kechinmalar, fikrlar, tuyg‘ular hosil bo‘lishi) ham taalluqlidir. Amerikalik faylasuf S.Cheyz bir vaqtlar quyidagi antiqa misol farazni aytgan edi: «Men o‘tloqda yayrab yurgan sigir ko‘rayotgan bo‘lsam-da, aslida u mutlaqo sigir emas, balki elektronlarning talvasali raqsidir». Bu o‘xshatishda ma’lum ma’noda to‘g‘ri fikr bor, faqat shuni esda tutish lozimki, hujayralarni tashkil etuvchi elektronlarning tarkibi va harakati vaqtida takror hosil qilinadi. Harakat tiplar va usullarining ana shunday «vaqtda takrorlanishi» tufayli mavjud bo‘lgan predmet, boshqa obyektlardan farqli o‘laroq o‘ziga xos obyekt sifatida mavjuddir. Shunday qilib, «tinchlik» tushunchasi predmetning barqarorligini, uning sifatlari saqlanib qolishini ta’minlovchi harakat holatlarining ifodalanishidir. Shuning uchun ham tinchlik nisbiy, harakat mutlaq, u materiyaning ajralmas xususiyati, atributidir. Harakatni materiyadan ajratishga harakatlar ham bo‘lgan. Masalan, idealistlar harakatni materiyadan ajratib, uni materiyaga tashqaridan berilgan kuch deb qaraydilar. Nyuton sayyoralar quyosh atrofida harakat qilishini ta’kidlab, bu harakatning manbai ilohiy birinchi turtki deb hisoblar edi. Energetizm vakillari materiya va harakat bog‘liqligini inkor etuvchi energetizm nazariyasi bilan chiqdilar, ular materiyasiz harakat bo‘lishi mumkin deb e’tirof etadilar. Haqiqatda esa, energiya materiyaning xossasi, bu xossa esa harakatning miqdoriy me’yoridan iboratdir.

Materiya o‘ziga xos ichki qarama-qarshiliklarga ko‘ra harakat qiladi. Harakat – obyektiv reallikda ro‘y beradigan har qanday o‘zgarishdir.

«Harakat»ni «rivojlanish» tushunchasi bilan aynanlashtirmaslik lozim. Rivojlanish – bu faqat sifat o‘zgarishlar natijasi, ilgarilab boruvchi o‘zgarishlardir. Bunday o‘zgarishlar natijasida eskining o‘rnida yangi paydo bo‘ladi, quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga o‘tish sodir bo‘ladi. «Harakat» tushunchasi «rivojlanish» tushunchasidan kengroq tushunchadir.

Materiyaning aniq harakat shakllari mavjud. Materiyaning harakat shakllari va ularning o‘zaro aloqasi haqidagi g‘oya XIX asrda ilgari surilgan.

Materiyaning harakat shakllari quyidagi prinsiplarga asoslangan:

- 1) harakat shakllari materiya tuzilmasining muayyan moddiy darajasi bilan bog'liq;
- 2) harakat shakllari o'rtasida genetik aloqa mavjud, ya'ni harakatning shakli quyi shakllaridan kelib chiqadi;
- 3) harakatning yuqori shakllari sifat jihatdan o'ziga xosdir va ular quyi shakllari bilan tenglashtirilmasligi lozim.

Yuqoridagi prinsiplardan kelib chiqqan holda harakat quyidagicha klassifikatsiyalanadi: mexanik, fizik, ximik, biologik, ijtimoiy.

Keltirilgan harakat shakllarini materiya taraqqiyotining uchta eng muhim bosqichiga muvofiq uch turkumga bo'lish mumkin:

- notirk tabiatdagi harakat shakllari (mexanik, fizik, ximik);
- tirik tabiatdagi harakat shakli (biologik);
- jamiyatdagi harakat shakli (ijtimoiy).

Savolning davomida «makon» va «zamon» tushunchalarining tahliliga o'tamiz. Kundalik turmush tasavvurlarimizda makon va zamon tushunarli va oddiy narsalarga o'xshab ko'rindi. Lekin bular aslida ancha murakkab narsalar bo'lib, hozirgi zamon tabiatshunosligi va ijtimoiy fanlariga murojaat qilishni talab etadi.

Xo'sh «makon» va «zamon» nima?

Atrof-muhitni kuzatganda shuni payqashimiz mumkinki, har bir obyekt uni tashkil qiluvchi elementlardan o'ziga xos saranjomlikda, bir-biriga nisbatan muayyan tartibda joylashgan. Bu obyektlarni ko'lamga (bo'yi, eni, balandligi) ega ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari har bir obyekt boshqa obyektlar orasida muayyan joyni egallaydi, ular bilan chegaradoshdir. Moddiy dunyoning tarkibiy tuzilishini ko'rsatuvchi bu eng umumi xususiyatlар – ya'ni obyektlarning ko'lamga egaligi, boshqalar orasida joy egallashi, boshqalar bilan chegaradoshligi makonning eng umumi xususiyatidir.

Makonning xususiyatlari haqida gapirar ekanmiz, makon – bu eng avvalo turli xil material tizimlarning o'lchamliligi, tarkibiyligi va o'zaro joylashuvining ifodalanishi ekanligini o'zimiz uchun aniq tasavvur qilib olishimiz lozim.

Makon – borliqning asosiy mavjudlik shakllaridan biri bo'lib, u obyektlarning o'zaro joylashish tartibi, ko'لامи, hajmi, o'lchamlari, obyektni tashkil etuvchi nuqtalarning o'zaro joylashish vaziyati kabi xususiyatlarini ifodalovchi falsafiy tushunchadir.

«Makon» tushunchasini ikki xil nuqtai nazardan talqin qiluvchi substansiyaviy va relyatsiyaviy konsepsiylar mavjud. Substansional

konsepsiya bo‘yicha makon narsalar joylashadigan joy, mutlaq, o‘zgarmas, mustaqil substansiadir. Bu yerda I.Nyuton ta’limotining ifodalanishini ko‘rishimiz mumkin. Relyatsiyaviy konsepsiya bo‘yicha, makon obyektlarning tashkil etuvchi nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibini ifoda etib, u borliqning nisbiy barqaror xususiyatlari majmuasidir. Bunday tahlilda relyativistik fizika tamoyillariga mos kelishini ko‘rishimiz mumkin.

Makonning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirganimizda uni ikkiga, ya’ni borliqning sifatiy fazoviy xususiyatlarini ifodalovchi topologik xususiyatlarga, va borliqning miqdoriy fazoviy xususiyatlarini ifodalovchi metrik xususiyatlarga bo‘linadi. Makonning metrik xususiyatlariga: ko‘lam, bir jinslilik, izotroplik, egrilanganlik kiradi. Makonning topologik xususiyatlariga o‘lchamlilik, uzlucksizlik, bog‘langanlik, yo‘nalganlik, kompaktlik kiradi.

Makonning umumiyligi xususiyatlariga – ko‘lamlilik, o‘zaro aloqadorlik, uzlucksizlik, uch o‘lchamlilik kiradi.

Makonning o‘ziga xos maxsus xususiyatlariga – simmetriya va asimetriya, konkret shakl va o‘lcham, joylashuvi, narsalar o‘rtasidagi masofa, turli tizimlarni ajratuvchi chegaralar kiradi.

Moddiy dunyo tarkibga ega bo‘lgan obyektlarning o‘zidangina iborat emas. Bu obyektlar doimo o‘zgarishda va rivojlanishda, ular muayyan bosqichlarda amalga oshadigan jarayonlardan iboratdir.

«Zamon haqidagi tasavvur va zamon» tushunchasi moddiy olam harakat va rivojlanish jarayonida bo‘lganligi uchun ma’noga ega, agar materiya harakat qilmasa edi, «zamon» tushunchasining ma’nosini qolmas edi.

Kundalik hayotda va amaliyotda «zamon» tushunchasi turli harakatning jarayonlarini taqqoslash, o‘xshatish tufayli tashkil topadi. Masalan: biz «ma’ruza bir yarim soat davom etadi», – deb aytamiz. Bu shuni bildiradiki, murakkab, birin-ketin keladigan o‘ziga xos jarayonlar, notiq o‘qiydigan matn, tinglovchilarning bu matnni yozishlari va anglab olishlari bir butun, yaxlit tarzda olinib, boshqa jarayon – soat millarining harakati va buning natijasida soat va minut millarining oldinga ketishi bilan o‘xhatiladi, taqqoslanadi.

Zamon (vaqt) uchun biz qandaydir davriy, ya’ni takrorlanib turadigan biror jarayonni olamiz va uni etalon tarzida qabul qilib, boshqa davriy bo‘lmagan, murakkabroq jarayonlar bilan solishtiramiz. Yerning quyosh atrofidagi harakati bir yildir. Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi

zamonni sutkalarga bo‘ladi. Zamon uchun katta birliklar ham kiritish mumkin. Aytaylik, bir galaktika yili – 200 mln yil, ya’ni bu yerning quyosh bilan birgalikda galaktika markazini bir marta aylanishidir.

Insonda zamonni intuitiv his qilish qobiliyati ham bor, lekin u buni hamma vaqt o‘zi anglayvermaydi. Buni eksperimental tarzda tasdiqlash mumkin. Surdakamera (maxsus bekik kamera)da kosmonavtlar bilan uchish oldidan tajriba o‘tkazilgan. Tajribada shu narsa ma’lum bo‘lganki, aksariyat kosmonavtlar zamonning kechishini to‘g‘ri qayd qilganlar. Bunda ular soat muddatini 1-3 min., sutka muddati yarim soat atrofida xato bilan ko‘rsatishgan.

Zamonni intuitiv sezgisi nimaga asoslanadi?

Bizning organizmimizda turli davriy jarayonlar sodir bo‘lib turib, ular soat rolini bajarishadi. Ularga qarab tashqi jarayonlarning davomligi go‘yo o‘lchanadi. Shu narsa ma’lum bo‘ldiki, har bir organizmnning ichida o‘ziga xos biologik soatlar bor ekan, ularning funksiyasini ma’lum davrda jonlanadigan va so‘nadigan hujayralar va ayrim a’zolarning faoliyati tufayli amalga oshiriladi. Masalan, sutkaning turli davrlarida jigar, buyrak, o‘pka, yurak turlicha intensivlikda ishlar ekan. ularning o‘zlarini ritmi mavjud. Mutaxassislarning aytishicha, tunning soat ikki va to‘rtlar orasida organizmni har qanday zaharlovchi moddalardan tozalovchi jigarning faoliyati oshar ekan. Tungi soat to‘rtda esa organizm faolligi pasayar ekan. Sutkaning shu paytida o‘limlarning ko‘p miqdori sodir bo‘lishi ham bejiz emas.

Zamon – materiyaning mavjudlik shakli bo‘lib, moddiy dunyodagi jarayonlarning uzlusizligi va ular holati o‘zgarishlarining ketma-ket davomiyligini ifodalab beruvchi falsafiy kategoriadir.

Makon va zamon eng umumiy mavhum tushunchalar bo‘lib, ularda borliqning tarkibiy tizimi va o‘zgaruvchanligi o‘z ifodasini topgan. Makon va zamon – materiyaning mavjudlik shakllari. Makon va zamondan tashqarida materiya bo‘lmaganidek, materiyadan ajralgani holda makon va zamon ham yo‘qdir. Faqat mavhum tasavvurdagina (abstraksiyadagina) biz ularni moddiy olamdan ajratishimiz mumkin. Makon va zamonning materiya bilan o‘zaro aloqadorligini A.Eynshteyn kashf qilgan maxsus nisbiylik nazariyasi ham isbotlab beradi. Yorug‘lik tezligiga yaqin bo‘lgan tezlik sharoitida harakatdagi jismning bo‘yi tezlik oshib borgan sari harakatsiz jism bo‘yiga nisbatan qisqarishi, zamonning sekinlashuvi sezilar ekan.

Makon va zamon to‘rt o‘lchamlidir. Shulardan uchtasi makonga, bittasi zamonga tegishlidir. Jismning makondagi holatini (ko‘lamin)

ko'rsatish uchun uch o'lcham (bo'yi, eni, balandligi), zamonning muddatini ko'rsatish uchun bir o'lcham kifoyadir. Zamonning bir o'lchamliligi uning faqat bir yo'nalishda, ya'ni o'tmishdan kelajakka qarab sodir bo'lishida o'z ifodasini topadi.

Zamonning umumiyligida xususiyatlari – obyektlilik, materianing ajralmas atributi ekanligi, davomiylik, ortga qaytmaslik, o'tmishdan kelajakka qarab rivojlanish kabilalar kiradi.

Zamonning o'ziga xos maxsus xususiyatlari – paydo bo'lish va bir sifatdan boshqa sifatga o'tishda aniq davriylik, bir o'lchamlilik, nisbiylik, rivojlanish sur'ati, holatlarning o'zgarish tezligi, tizim tuzilmasi (strukturasi) dagi turli sikllar o'rtasidagi vaqt munosabatdorligi kabilalar kiradi.

Mustaqil O'zbekiston sharoitida yuz berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va boshqa sohalardagi o'zgarishlar zamondan unumli foydalanishni, qilinishi kerak bo'lgan ishlarni o'z vaqtida bajarishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida III xodimlari faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyatning oldini olish yoki sodir etilgan jinoyatni bartaraf etishda zamonning o'rni juda kattadir va undan unumli foydalanish kerakdir.

Shunday qilib bugun biz borliq, materiya singari olamni falsafiy tushunishning boshlang'ich kategoriyalari, hamda materianing yashash usuli – harakat, materianing mavjudlik shakllari bo'lgan – «makon» va «zamon» tushunchalari haqida tasavvurga ega bo'ldik. Olamni ilmiy-falsafiy manzarasini ishlab chiqishda bu kategoriyalar prinsipial ahamiyatga ega.

2-bob. TABIATNING FALSAFIY TAHLILI

1-§. «Tabiat» tushunchasi, uning mohiyati

Tabiat falsafada ishlatiladigan asosiy tushunchalardan biridir. U keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Bu haqda falsafa fanlari doktori B.A.Voronovich shunday deydi: «Falsafiy adabiyotda “tabiat” tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Keng ma'noda tabiat bu – obyektiv reallikdir, dunyoda esa harakatdagi materiyadan boshqa narsa yo'q. Tabiatning oliy mahsuli va bir qismi insondir. Mehnat tufayli u tabiatdan ajralib chiqdi va ijtimoiy inson bo'ldi. Tor ma'noda, tabiat bu – insonni o'rabi turgan har xil ko'rinishdagi hodisalar olami. Shu ma'noda

tabiat o‘zida obyektiv reallikni ifoda etadigan tushuncha, obyektiv reallik jamiyatga, uning ongi va faoliyatiga bog‘liq bo‘laman holda mavjud. Nimaiki jamiyat bo‘lmasa tabiatdir»¹. Insonni qurshab turgan tabiatni, uning paydo bo‘lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini falsafiy nuqtai nazardan fahmlash, ilmiy bilish amaliyotida katta ahamiyat kasb etadi. Tabiat benihoyat xilma-xil shakl va ko‘rinishlarda bo‘lib, insonni qurshab turgan moddiy olam, butun borliqni o‘z ichiga qamrab oladi. U keng ma’noda olganda materiya, koinot tushunchalarini ham ifodalaydi. Keng ma’nodagi tabiat – bu harakatdagi materiyaning rang-barangliligi, uning xususiyatlari va holatidir. Keng ma’nodagi «tabiat» tushunchasi bu moddiy olamni, jamiyat va insonni ham qamrab oladi.

Tor ma’nodagi tabiat – bu moddiy dunyo, u materiya harakatining ijtimoiy shaklini o‘zida qamrab olmagan.

Agar biz «tabiat» tushunchasini tor ma’noda, ya’ni inson va jamiyatni o‘rab turgan tabiiy geografik hodisa sifatida talqin qilsak, u holda bu tushuncha butunlay boshqa ma’no kasb etadi. Bu holda tabiat deganda inson yashashi uchun yaratilgan jamiyatdan tashqari mavjud butun moddiy dunyo tushuniladi. Bu tabiiy sharoitlar o‘ziga quyidagi komponentlarni qamrab oladi:

- 1) iqlim;
- 2) joyning tuzilishi (relyef);
- 3) yerning hosildorlik darajasi;
- 4) o‘simplik va hayvonlar;
- 5) foydali qazilmalar va boshqa xomashyo manbalarining mavjudligi;
- 6) suv resurslari va boshqalar.

Tabiatning obyekt va hodisalari – bu uzoq yulduzlar shu’lasi, mayda elementar zarrachalar, bepoyon okean, dengiz va o‘rmonlar, daryolardir. Bu yerdagi hayotning cheksiz rang-barangliligidir. Quruqlik, koinot ham «tabiat» tushunchasiga kiradi. Shu nuqtai nazardan «tabiat» «materiya» tushunchasiga yaqindir. Shuning uchun tabiat bu turli-tuman ko‘rinishdagi va shakllardagi materiyadir.

Agar tabiat uning har xil shakllarida olib qaralsa, uni materiya deyish mumkin. Ammo tabiat ko‘pincha cheklangan ma’noda, inson mavjudligining tabiiy sharoitlari majmuasi sifatida ishlataladi.

Tabiat inson mehnati qaratilgan soha, inson mehnatining predmeti, mehnat vositalari va oziq-ovqat zamini deb tavsiflanadi. Inson jismoniy

¹ Воронович Б.А. Философские проблемы взаимодействия общества и природы. – М., 1982.

va ma'naviy jihatdan tabiat bilan bog'langan, ya'ni tabiat insonning ham jismoniy, ham ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi.

Antik davrda tabiat qandaydir harakatlanuvchi, o'zgaruvchi bir butun narsa deb tushunilgan. Antik davr faylasuflarining fikricha, «koinot» tushunchasi «tabiat» tushunchasini ham qamrab oladi. Shu bilan birga koinot xaosga qarama-qarshi qo'yilgan va hajm jihatidan keng, yaxshi tashkil topgan va takomillashgan narsa deb talqin qilingan.

Sharq falsafasi va islom ta'limotida, o'rta asrlar xristianlikda Ollohamma narsaning ibtidosi, materiyani ham, tabiatni ham Tangri taolo – Xudo yaratgan, deyiladi. Xristianlikda tabiat Olloham tomonidan yaratilgan va insonga nisbatan takomillashmagan, inson esa undan yuqoriroq va u ruhga ega deb tushuntirilgan.

Keyinchalik tabiatni o'rganadigan – tabiatshunoslik fani vujudga kelgan. Uyg'onish davrida tabiatga munosabat o'zgarib borgan. Inson o'zi uchun tabiatni go'zalligini, maftunkorligini ocha boshlagan. Tabiat moddiy va ma'naviy talablarni qondirish manbai ekanligini ko'ra boshlagan. Insonni tabiatga stixiyali yondashuvi cheklanib, aqliy yondashuvning ahamiyati oshib borgan. Jamiyat va tabiat munosabatlarda aqliylik va insonparvarlikning roli oshgan.

Inson va tabiat munosabatlari haqida «atrof-muhit» tushunchasi bizga to'laroq tasavvur beradi.

Odatda atrof muhit ikkiga bo'linadi: tabiiy atrof muhit va sun'iy atrof muhit. Tabiiy atrof muhit geosfera va biosferani qamrab oladi. Insonga bog'liq bo'lman holda paydo bo'lgan va mavjud bo'lib turgan moddiy tizimlar tabiiy atrof-muhitga kiradi va ular inson faoliyati obyekti bo'lishi mumkin. Kosmik texnologiya rivojlanishi va koinotni o'zlashtira boshlanishi natijasida quyosh tizimining bir qismi ham tabiiy atrof muhitga kiritila boshlandi. Ilgarilari tabiiy atrof muhit deganda faqat geografik muhit tushunilar edi. Bu albatta noto'g'ri. Tabiiy atrof muhit rivojlanuvchi tizimdir.

Inson yashaydigan tabiiy atrof muhit ikki guruhga bo'linadi:

- a) inson hayoti uchun zarur tabiiy manbalar (yovvoyi o'simliklar, mevalar, hayvonlar va hokazo);
- b) mehnat predmeti bo'lgan tabiiy boyliklar (ko'mir, neft, shamol va oqayotgan suv energiyasi va hokazo).

Dastlab insonlarda birinchi guruh tabiiy atrof muhit katta qiziqish uyg'otgan, keyinchalik ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida tabiiy atrof muhitning ikkinchi guruhiga qiziqish kuchaygan.

O‘zbekistonda ikkinchi guruh juda boy va rang-barangdir. I.A. Karimov o‘zining «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida bu haqda gapirgan¹.

«O‘zbekiston o‘z yeri osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi – bu yerda mashhur Mendeleyev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma’dan namoyon bo‘lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular yuzga yaqin mineral-xom ashyo turlarini o‘z ichiga oladi... G‘oyat muhim strategik manbalar – neft va gaz kondensati, tabiiy gaz bo‘yicha 155 ta istiqbolli kon, qimmatbaho metallar bo‘yicha – 40 dan ortiq, rangli, nodir va radioaktiv metallar bo‘yicha – 40, konchilik – kimyo xom ashyosi bo‘yicha 15 ta kon qidirib topilgan. Qidirib topilgan gaz zaxiralari 2 trillion kubometrga yaqin, ko‘mir 2 mlrd tonnadan ortiq, 160 dan ortiq neft koni mavjud»².

Inson o‘z ehtiyojini qondirish uchun tabiat bilan munosabatga kirisha boshlagan, ya’ni ishlab chiqarish vujudga kelgan. Ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida inson o‘z yashashi uchun zarur bo‘lgan narsalarni yarata boshlagan va sun’iy atrof muhit vujudga kelgan yoki ikkilamchi tabiat.

Ikkilamchi tabiat nafaqat jonsiz predmetlar, balki tirik organizmlar: o‘simgiklar, hayvonlarni ham qamrab oladi. Bunday o‘simgik yoki hayvon turlarini inson sun’iy tanlash yoki gen injeneriyasi yordamida yaratgan. Masalan, qadimgi Gretsiyada olmaning 2 turi mavjud bo‘lgan. Hozir esa 2000 dan ziyod navi yetishtirildi. Vatani Amerika bo‘lgan makkajo‘xorining 3000 dan oshiq navi mavjud. Vatani Afrika bo‘lgan tarvuzning 170 dan ortiq navi ko‘pgina davlatlarda keng tarqalgan. Bularni hammasini inson yaratgan.

Jamiyat rivojlangan sari ikkilamchi tabiat o‘sib boryapti. Buni quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin. Inson tomonidan sun’iy yaratilgan jonsiz predmetlar va tirik organizmlar majmuasi texnomassa deyiladi. Inson tomonidan o‘zlashtirilmagan tirik organizmlar majmuasi biomassa deyiladi. Amalga oshirilgan hisoblar shuni ko‘rsatadiki inson tomonidan har yili yaratilayotgan texnomassa taxminan 10^{13-14} tonnani tashkil qiladi, biomassa esa 10^{11-12} tonnani tashkil qiladi. Bundan ko‘rinayaptiki

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997.

² O‘sha joyda.

insoniyat o'nlab, yuzlab marta ko'proq bo'lgan texnomassani yaratayapti. Demak sun'iy atrof muhit tabiiy atrof muhitni sekin asta qoplab olyapti.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, tabiiy atrof muhit insonni boqib, kiyintiribgina qolmasdan, u axloqiy va estetik munosabatlar obyekti hamdir. Biz tabiatdan, hayvonot va o'simliklar dunyosidan zavq olamiz, pullar va bog'lar tashkil qilganmiz, o'z maqsadlarimizga muvofiq hayvon turlarini yetishtirganmiz.

Hamisha inson noma'lum narsa bilan to'qnash kelganda ongida u narsa «jonlimi yoki jonsizmi» aniqlab oladi. Ibtidoiy jamoa tuzumida animizm ta'limoti keng tarqalgan, ya'ni inson, hayvon, daraxt va toshlar ruhga ega, tirik deb qaralgan. Ruh tanadan chiqmaguncha tirik hisoblanadi. Tirik va notirik tabiat o'rtasida farqni ajratib olishda inson hamisha hayotning paydo bo'lishi muammozi bilan to'qnash keladi. Hayotning paydo bo'lishi bu planetamida tadrijiy taraqqiyotning natijasidir. Ilmiy tasavvurlar shuni ko'rsatadiki, Yerda bundan 3,8 mldr yil ilgari hayot belgilari paydo bo'lgan, 2 mldr yil ilgari dastlabki hujayralar paydo bo'lgan. Shu hujayralar fotosinteze amalga oshirgan, ya'ni Quyosh energiyasidan foydalanib ximiyaviy reaksiyalar amalga oshishi natijasida kislorod ajralib chiqqan. Keyinchalik atmosfera o'zgargan va uning ximiyaviy tarkibi hayotni Yer yuzida tarqalishiga imkon bergen. Bu esa biosferani vujudga keltirgan.

Tabiat tirik va notirik (jonli va jonsiz) tabiatga bo'linadi. Modda almashinuv qobiliyatiga ega bo'lgan va o'zini o'zi qayta tiklay oladigan narsalar majmuasi tirik tabiat deyiladi. Hozirgi paytda tirik tabiat to'g'risida bilimlarni kishilar biologiya fanidan olishadi. Olimlarning fikricha, Yer shari vujudga kelganiga 4,6 mldr yil bo'lgan. Insoniyat tarixiga 2.5-3 mln yil bo'lgan. 1959-1960-yillar Tanzaniyada, 1967-1973-yillar Efiopiyada, 1970-yillar oxirlarida Keniyada kishilarning qoldiqlari topilganligi yuqorida fikrlarni isbotlaydi.

Hayot tabiat taraqqiyotining ma'lum bosqichidagi ko'rinishidir. Jonli tabiat moddiy olamning kichik bir qismini tashkil etgani uchun unga xos bo'lgan xususiyatlarni jonsiz olamga mexanik ravishda yoyib bo'lmaydi.

Ilmiy falsafa jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasida o'tib bo'lmaydigan to'siq yo'q, deb ta'lim beradi. Ular bir-biridan sifat jihatidan farq qilishiga qaramay, bir-biri bilan bog'liq hamdir. Jonli tabiat abadiy mavjud bo'lgan emas, balki jonsiz tabiat taraqqiyotining

ma'lum bir bosqichida, ma'lum bir obyektiv sharoitlar asosida ham yagona moddiy substansiya – materiya yotadi. Demak, jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasida asosiy bog'lanish ularning moddiy birligida yaqqol ko'rindi.

Jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasidagi moddiy birlik ularning kimyoviy tarkibida ham juda aniq ko'rindi. Odam organizmidagi kislorod, uglerod, oltingugurt, azot, kalsiy, fosfor, magniy, natriy, kaliy, xlor, temir singari elementlarni jonsiz tabiatda ham uchratish mumkin. Organizmlarni tashkil etuvchi oqsil tarkibida ham shunday elementlar bor.

Jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasidagi umumiyligi tomonlardan tashqari ularning har biriga xos bo'lgan farqli tomonlari ham mavjud. Jonli organizmlarning asosiy xususiyati shuki, ular tashqi muhit bilan modda almashinadi. Bu esa materiyaning murakkab va yuqori shakllariga tegishli bo'lgan xususiyatdir.

Tirik jismlarning eng muhim xususiyati – moddalar almashinuvidan, jonli tuzilishlarning buzilishi va yangidan tuzilishidan, assimilatsiya dissimilatsiyadan iborat. Ana shular organik jismlar yashashining asosiy shartidir. Hayot oqsil jismlarning yashash usulidir, bu yashash usuli esa o'z mohiyati bilan mazkur jismlarning kimyoviy tarkibiy qismlarining doimo o'z-o'zini yangilab turishdan iborat.

Tabiat taraqqiyotining yuksak cho'qqisi jonli organizmlarning kelib chiqishidan iborat. Bir hujayrali organizmlarning vujudga kelishi organizmlar taraqqiyotidagi dastlabki bosqichdir. Dastlab vujudga kelgan organizmlar o'zining tuzilishi va xususiyati jihatidan hozirgi hayvon va o'simliklarning eng soddalari bo'lgan. Organik birikmalarining bir necha million yil davom etgan taraqqiyoti natijasida hayvonlarning hozirgi turlari vujudga kelgan.

Jonli tabiat insonning paydo bo'lishi uchun hamma zarur shart-sharoitni hozirlaydi. Tabiatning tarkibiy qismi bo'lgan odam jonli organizmlarning uzoq vaqt davomida ro'y bergan taraqqiyotining qonuniy mahsulidir. Odamning paydo bo'lishini jonli tabiatning taraqqiyotidan ajratib bo'lmaydi. Diniy ta'limotlarda odamni Olloh taolo yaratgan deyiladi. Masalan, Mirzo.Ulugbekning «To'rt ulus tarixi» asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Tangri taolo odamni suv bilan tuproqdan yaratgan, «Odam allayhissalomning yaratilishini muharram ul ehrom oshuro oyi uchinchi kuni, juma kuni soat 11 da; birinchi tole' bo'yicha Jadi va Zuhrad darajasida, Mushtariy Huda, Mirrix Xamalda,

Qamar saratonda, Shams Asadda, Atorud Sumbulada, Zuhro Mezonda paytida bug‘doyrang kishi chehrasida» baland qomatli va jingalak sochli qilib yaratdi. Yaratgan Tangri hazrati Odamga bihishtdan joy berdi. Havvoni u uyqusirab turganda chap biqinidan yaratdi».

Ilmiy falsafa tabiiy fanlarga asoslanib, odam tabiatning ajralmas qismi, uning oliy mahsulidir deb hisoblaydi.

Ongdan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lmagan holda obyektiv mavjud bo‘lgan tabiatning na boshi, na oxiri, na ibtidosi va na intihosi bor.

Hozirgi zamon fanlari olamning, tabiatning cheksiz, benihoyaligi to‘g‘risida yangidan-yangi dalillar bermoqda. Fan sohasidagi yutuqlarning ko‘rsatishicha, bizning galaktikamiz koinotda yagona emas, balki cheksiz yulduzlar tizimining biridir. Bizning galaktikamizdan tashqarida joylashgan son-sanoqsiz yulduzlar tizimi mavjud.

Tabiat, butun moddiy olam doimiy harakatda, to‘xtovsiz o‘zgarish va rivojlanishdadir. Koinotdagi jismlar Oy, Quyosh, sayyoralar, meteoritlar fazoda doimiy ravishda harakatda. Tabiatning, materiyaning fazoda cheksiz va vaqtda abadiy bo‘lgan tinimsiz harakati jarayonida ba’zi bir narsalar yemiriladi, yangilari paydo bo‘ladi.

Jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi aloqadorlik zaminida mehnat yotadi. Mehnat avvalo, odam bilan tabiat o‘rtasida yuz beradigan jarayondir, odam shu jarayonda o‘z faoliyati bilan o‘zi ila tabiat o‘rtasida moddalar ayirboshlanishiga vositachilik qiladi, bu ayirboshlashni tabiatga soladi va nazorat qiladi. Odamning o‘zi tabiat kuchi sifatida tabiat moddasiga qarama-qarshi turadi. Odam tabiat moddasini o‘zi hayoti uchun yaroqli bo‘lgan ma’lum bir shaklda o‘zlashtirishi uchun o‘z tabiiy kuchlarini: qo‘l va oyoqlarini, bosh va barmoqlarini harakatga keltiradi. Shu harakat vositasi bilan tashqi tabiatga ta’sir qilib va uni o‘zgartirib, odam shu bilan birga o‘z tabiatini ham o‘zgartiradi. Kishilar moddiy yaratish, mehnat qilish asosida tabiat kuchlariga ta’sir etganlar, madaniyat tarixini, ijtimoiy munosabatlar dunyosini yaratishga muvaffaq bo‘lganlar.

Odamlar moddiy ne’matlar ishlab chiqarish natijasidagi tabiat kuchlarini yengishga muvaffaq bo‘lganlar. Hayvon, parrandalar, o‘simgulkarni, har xil giyohlarni yeydilar, ular tirikchilik vositalarini tabiatdan tayyor holda oladilar. Shuning uchun ham ular tabiatga mutlaq qaramdirlar. Odam esa tabiatga faol ta’sir ko‘rsatadi. Mehnat yordamida inson tabiat kuchlaridan o‘z maqsadi yo‘lida foydalanadi. Kishilar tabiatdagи narsalarni o‘zgartirib mehnat qurollarini va tirikchilik

vositalarini tayyorlaydilar. Odamning hayvondan farq qiladigan muhim tomonlaridan biri ham ana shunda.

Sirdan qaraganda ba’zi bir hayvonlar mehnat qilganday bo‘lib ko‘rinadi. Ular ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat qurolidan emas, balki o‘zlarining tabiiy a’zolari – tirnoqlari, qoziq tishlari, o‘tkir ko‘zlaridan foydalanadilar. Birorta ham hayvon hech qachon, hatto eng oddiy mehnat qurolini yaratgan emas. Mehnat qurolini yasash va undan foydalanish faqat insonga xos xususiyatdir. Mehnat quroli tabiatning insonga hadyasi emas, balki u inson aqliy va jismoniy mehnatining natijasidir.

Mehnat – kishilarning maqsadga muvofiq faoliyatidir. Mehnat tufayli odamning ehtiyoji qondiriladi. Mehnat tabiat yaratgan narsalarni inson o‘zlashtirib olishidir, inson bilan tabiat o‘rtasida moddalar almashinishing umumiyligi shartidir, inson hayotining abadiy tabiiy shartidir.

Mehnat, ishlab chiqarish insonning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllantirishning, uning tabiatdan ajralib chiqishning negizidir. Insonlar tirikchilik uchun zarur vositalarni ishlab chiqara boshlashlari bilanoq o‘zlarini hayvondan farq eta boshlaydilar. Mehnat qilish natijasida odam o‘zining tabiiy a’zolari faoliyatini o‘zgartiradi, muskullari, paylari, tog‘aylari, oyoq va qo‘llari rivojlanadi. Shuningdek, odamning aqliy va jismoniy qobiliyatлари ham rivojlanadi, miyasi va sezgi a’zolari taraqqiy etadi. Beshta sezgi mehnatning ijtimoiy munosabatlarning inson amaliy faoliyatining mahsulidir.

Inson tabiat farzandi sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, lekin insonga xos deb e’tirof etilgan xususiyatlar hammasiga u jamiyatda bevosita aralashishi, ta’lim-tarbiya olish, mehnat qilish orqali erishdi.

Mehnatning roli va ahamiyati ayniqsa ikki narsada kuchliroq seziladi. Birinchidan, inson ajdodlari organizmi mehnat ta’sirida biologik mavjudotga xos bo‘lgan belgilardan ijtimoiy mazmunga xos tomonga o‘zgara boshladи. Ikkinchidan, mehnat gapirish aloqa o‘rnatish, ijtimoiy tajriba orttirish, inson ongi, tili va tafakkurining paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun ham asos bo‘ldi.

Insonning tabiatga ta’siri ijtimoiy taraqqiyot mobaynida hozirgi davrdagidek bo‘lgan emas. Hozirgi paytda insonning yashash maskanining tabiiy muhit o‘zgarmoqda. Bu muhit inson sivilizatsiyasining bir qismiga aylandi. Boshqacha aytganda «ikkinchchi tabiat» insoniyat madaniy dunyosini vujudga keltirdi, ya’ni shunday narsalar va jarayonlar

vujudga keltirildiki, ularning tabiatda tayyor holda mavjud bo‘lishi u yoqda tursin hatto ular tabiatning o‘z kuchlari ta’siri ostida ham paydo bo‘la olmaydi. Bundan endilikda tabiat o‘z mavjudligining obyektiv xususiyatini yo‘qotdi degan ma’no kelib chiqmaydi albatta. Tabiat ilgarilari obyektiv va birlamchi bo‘lganidek, hozir va bundan keyin ham shundayligicha qolaveradi.

Yuqorida aytilganlardan quyidagi xulosaga kelishi mumkin,

– inson va insoniyat dunyosi tabiatdan ajralmasdir, uning oliy mahsulidir;

– kishini tabiat vujudga keltirgan bo‘lsa, uni jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar kamol toptirdi va unga ijtimoiy qiyofa berdi;

– odamning o‘zini ham, uning ongini ham mehnat yaratdi va rivojlanirdi;

– tabiiy muhit inson Amaliy faoliyati jarayonida behad o‘zgarib «insonning anorganik tanasi»ga aylandi.

2-§. Tabiat borlig‘ining struktura darajalari

Biz tevarak atrofimizga nazar tashlasak, umuman borliqqa emas, balki, muayyan jismlarga, narsa va hodisalarga ko‘zimiz tushadi. Siz bilan biz inson sifatida Yer sharida istiqomat qilamiz, o‘zimizga mos keluvchi o‘lchovlar bilan ish yuritamiz. Biz odatlangan o‘lchovdagi kattaliklarni makroskopik kattaliklar, deb hisoblaymiz va bu **makrodunyonи** tashkil qiladi.

Shu nuqtai nazardan, borliqning struktura darajalarini miqyosiy-struktura va tashkiliy-struktura darajalariga ajratamiz. Borliqdagi obyektlar miqyosi bilan farq qiluvchi uchta miqyosiy struktura darajalariga ajraladi. Ular: mikrodunyo, makrodunyo va megadunyo. **Mikrodunyo** atom miqyosidan kichik bo‘lgan dunyodir. Bu dunyoga atom strukturasi va elementar zarrachalar, atom yadrosi, kvarklar, kernlar kiradi. Bu dunyoning yaxlitligini va turg‘unligini saqlab turuvchi ikkita fundamental kuch mavjuddir, ular kuchli va kuchsiz yadroviy o‘zaro ta’sirlardir.

Kuchli o‘zaro ta’sirlar atom yadrosining strukturaviy yaxlitligini saqlab tursa, kuchsiz o‘zaro ta’sirlar atom strukturasining yaxlitligini ta’minlaydi. Molekulalar tuzilishidan tortib, Yer sharining yaxlitligini saqlashgacha xizmat qiluvchi kuch elektromagnit o‘zaro ta’sirlaridir.

Elektromagnit o‘zaro ta’sirlari tufayli molekulali birikmalar va Yerdagi barcha hayotiy jarayonlar o‘zining strukturaviy birliklarini

saqlaydi. Agar elektromagnit o‘zaro ta’sirlari bo‘lmaganda edi – quyosh nurlari (ya’ni elektromagnit nurlanishlari) Yerga yetib kelmagan bo‘lar edi va Yerda hayotiy jarayonlar shakllanmagan bo‘lar edi.

Yer, uning tabiiy yo‘ldoshi Oy va boshqa sayyoralar quyosh atrofida harakatlanadi. Bu sistemaning va umuman butun Koinotning strukturaviy yaxlitligi esa gravitatsion o‘zaro ta’sirlari tufayli saqlanadi.

Gravitatsion o‘zaro ta’sirlari biriktirib turgan dunyo – megadunyo deb ataladi. Ular bir-biri bilan chambarchas bog‘langandir, shuningdek, ular bir-biriga almashinishi ham mumkin. Hozir megadunyo hisoblangan koinotimiz bundan 15-20 mldr yil muqaddam o‘ta kichik mikroskopik obyekt bo‘lgan, degan taxminlar bor. Shuningdek, biz mikroobyekt deb hisoblayotgan elementar zarracha neytron o‘zining ichida milliardlab yulduz va galaktikalariga ega bo‘lgan butun boshli Koinot bo‘lishi va aksincha, diametri bir necha milliard yorug‘lik yiliga teng bo‘lgan ulkan Koinotimiz ham chetdan kuzatayotgan kishiga o‘ta kichik elementar zarracha hisoblanishi ham mumkin. Borliqning strukturaviy tuzilishini uning sifatiy rivojlanishi nuqtai nazaridan olib qarasak, moddiy olam bu holda ham uchta darajaga ajraladi. Uning tashkiliy struktura darajalarini: anorganik dunyo (notirk tabiat), organik dunyo (tirk tabiat) va ijtimoiy dunyo (jamiyat)ga ajratiladi. Ular bir-biridan xilma-xilligi, uyushganligi, nisbiy mustaqilligi va faolligi bilan farq qiladi.

Anorganik dunyo yoki notirk tabiatda fizikaviy va ximiyaviy aloqadorliklar hukmronlik qiladi, shu tufayli notirk tabiatdagi qonuniyatlar shu tabiat fanlari doirasida cheklangan bo‘lib, tirk dunyoga nisbatan sust va tashkiliy uyushganligi past darajada bo‘ladi.

Tirk tabiatda ya’ni organik dunyoda esa biologik aloqadorliklar ham qatnashganligi sababli uning uyushganlik darajasi yuqoriyoq, faolroq va murakkabroq tuzilgan bo‘ladi.

Ijtimoiy dunyo darajasida esa, yuqorida aytilgan aloqadorliklardan tashqari, jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy aloqadorliklar ham ishtirok etadi. Bunday dunyoning tuzilishi nihoyatda murakkab bo‘lib, borliq bu darajada o‘zining o‘ta uyushganligini, nisbiy mustaqilligini va yuqori darajada faolligini namoyish qiladi. Bu dunyoning strukturaviy elementi bo‘lgan har bir inson jamiyatga xos bo‘lgan barcha aloqadorliklarni o‘zida aks ettiradi va ijtimoiy munosabatlarda, aloqadorliklarda ongli ravishda, maqsadga binoan, muayyan mo‘ljallarni oldindan belgilagan holda harakat qiladi.

3-§. Tabiat va jamiyat munosabatlari

Kishilik jamiyati moddiy olamning tabiatning ko‘p mingyillik tadrijiy taraqqiyotining qonuniy mahsulidir. U taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida insonlar jamoasi kelib chiqqan davrda yuzaga kelgan. Demak jamiyat tarixi va uning taraqqiyoti inson ma’lum jamoaga birlashib mehnat qilgan. Ishlab chiqarish quollarini yaratgan. Ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllangan davrdan boshlanadi.

Jamiyat tarixiy kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar tarixidir. Jamiyat rivojlanishi esa shu munosabatlarning o‘sishi va takomillashishi shaklida bo‘ladi. Jamiyat tarixi tabiat rivojlanishi tarixinining ma’lum bir davridan boshlanadi.

Shunday qilib inson va jamiyat tabiatning ajralmas bir qismi bo‘lishi bilan birga uning alohida ongli qismidir. Jamiyat hamisha tabiat bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Inson har doim tabiat bag‘rida yashaydi. Biz butun borlig‘imiz bilan tabiatnikimiz va uning ichida yashaymiz va ularning to‘g‘ri foydalana bilamiz. Inson hech qachon tabiatdan tashqarida u bilan aloqa va munosabatda bo‘lmasdan turib yashay olmaydi. Tabiat bilan jamiyat, tabiat bilan inson, tabiat tarixi bilan jamiyat tarixi dialektik birlikda ta’sir va aks ta’sirdadir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. alohida inson umuman jamiyat va insoniyat dunyosi ham nazariy, jismoniy, Amaliy jihatdan tabiat bilan uzviy aloqadorlikda yashaydi.

Tabiat – tabiiy resurslar manbaidir. Tabiiy resurslar, ya’ni yonilg‘i, nafas olinadigan havo, ichiladigan suv, har xil xom-ashyolar bo‘lmasa inson jamiyat yashay olmaydi. Sanoat qishloq xo‘jaligi va madaniyatni yuksaltirib bo‘lmaydi. Tabiat biz uchun moddiy ne’matlarning birinchi manbai sifatida ham sog‘liq, shodlik, hayot qiziqishining va har bir kishidagi ma’naviy boyliklarning bitmas-tuganmas manbai sifatida ham o‘zining g‘oyat zo‘r ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi.

Tabiatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan yer insonlarning oziq-ovqat manbai, uning dastlabki mehnat vositalarining xazinasidir. Yer insonni boqadi. Ingliz olimi Vilyam Peti aytganidek mehnat boylikning «otasi» bo‘lsa, yer uning «onasi»dir. Odamlar bir necha ming yillar davomida uning issiq bag‘rida undi, voyaga yetdi. Insonning kundalik hayoti va sevinchlari ham yer tufaylidir. Shunday ekan inson uchun g‘oyat darajada muhim va zarur bo‘lgan yerni e’zozlamaslik mumkin emas. tabiiy muhit jamiyat taraqqiyotiga ta’sir

etuvchi omil sifatida ikki katta turkumga bo‘linadi. Ulardan biri tirikchilik vositalaridan iborat tabiiy boyliklar, ya’ni yerning hosildorligi, o‘rmonlarda hayvonlarning suvda baliqning ko‘pligidan iborat bo‘lsa, ikkinchisi mehnat vositalari (mavjud sharsharalar, kema qatnaydigan daryolar, daraxtlar, ko‘mir, neft, gaz va boshqalar)dir. Kishilik jamiyatining boshlang‘ich davrida tashqi tabiiy sharoitlarning birinchi xili jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichida ikkinchi xili ham hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Tabiiy sharoit jamiyat taraqqiyotiga ikki xil ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, tirikchilik vositalari va tabiiy manbalarga boy bo‘lgan mamlakatlarda yashovchi xalqlar o‘z tirikchiliklari uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni tayyorlashda mablag‘ va kuchni bunday tabiiy qulayliklarga ega bo‘lmagan xalqlarga qaraganda ancha kam sarflaydi. Qulay tabiiy sharoitlar jamiyat taraqqiyotiga ma’lum darajada yordam beradi. Qondirilishi mutlaq zarur bo‘lgan tabiiy ehtiyojlarning miqdori naqadar kam bo‘lsa, yerning tabiiy hosildorligi naqadar ko‘p bo‘lsa va iqlim naqadar qulay bo‘lsa ishlab chiqaruvchi hayotning saqlanish va takror hosil qilinishi uchun zarur bo‘lgan ish vaqt shuncha kam bo‘ladi. Demak, uning boshqalarga ketadigan ortiqcha mehnati, uning o‘ziga ketadigan ortiqcha mehnati uning o‘ziga ketadigan mehnatiga nisbatan shuncha ko‘p bo‘lishi mumkin. Aksincha, tabiiy sharoit noqulay bo‘lib, kishilarning asosiy vaqt, mablag‘ va mehnati tirikchilik vositalarini yaratishga ko‘proq sarf bo‘lsa, u holda jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari nisbatan sekinroq rivojlanadi. Noqulay tabiiy sharoit jamiyat taraqqiyotiga bir muncha salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qadimgi davrda tirikchilik vositalarining tabiiy manbalariga boy bo‘lgan joylar jamiyat taraqqiyotiga katta qulaylik tug‘dirgan. Shuning uchun ham Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, O‘rta Osiyo, Kavkazorti, O‘rta Yer dengizi o‘lkalari madaniyatning eng qadimgi markazlari bo‘lgan.

Madaniyatning ibridoiy jamoa tuzumida keyingi yuqori bosqichlarida odamlarning tabiatga bo‘lgan ta’siri kuchayib, tabiat resurslaridan foydalanish imkoniyatlari ancha kengaydi. Buning asosiy sababi ishlab chiqaruvchi kuchlarining Fan-texnika, madaniyatning rivojlanib borganligidadir.

Sotsiologiya fanida geografik determinizm deb atalgan nazariyaga muvofiq jamiyatning iqtisodiy tuzumini ham uning ijtimoiy va siyosiy tuzilishini ham belgilaydigan narsa geografik muhitdir. Masalan, fransuz

olimi Monteskye «Qonunlar ruhi to‘g‘risida» degan asarida kapitalistik mamlakatlardagi millionlarcha ommanning boshiga tushayotgan azob-uqubatlarining asl sababi tabiiy sabalardir deydi. Iqlim hukmronligi uningcha hamma hukmronliklardan kuchliroqdir. Biroq geografik determinizm tarafdarlari nima uchun bir xil tabiiy sharoit mavjud bo‘lgani holda ba’zi mamlakatlar tezroq rivojlanadiyu, ba’zilari sekinroq rivojlanadi degan masalani tushuntirib berolmaydi. Darhaqiqat, tabiiy sharoitlar ijtimoiy taraqqiyotning borishini tezlashtirishi, unga turki berishi ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Lekin jamiyatning qiyofasini ijtimoiy tizimning xususiyatini bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tishni belgilab beruvchi kuch bo‘la olmaydi. Chunki jamiyatning o‘zgarishi va rivojlanishi tabiiy sharoitlaring o‘zgarishiga qaraganda tezroq sodir bo‘ladi. Tabiiy sharoitlarning sezilarli darajada o‘zgarishi uchun ko‘p yillar kerak bo‘lsa, jamiyat hayotida tub o‘zgarishlar bo‘lishi uchun qisqa bir tarixiy muddat kifoya qiladi.

Tabiat va jamiyat o‘zaro munosabat sohalari bular – biosfera, Yerning hayot tarqalgan qismi biosfera deb ataladi. **Biosfera** tirik organizmlarning hayot kechirish muhitidir. Agar Yer shari quyoshga yaqinroq joylashganida, yer yuzasidagi harorat ko‘tarilib ketgan bo‘lar edi va oqibatda yerdagi namlik, suv yo‘qolar edi. Agar u quyoshdan uzoqda joylashganida, yer yuzasidagi harorat pasayib, hamma joy mangu muzlik bilan qoplanar edi. Xullas, har ikkala holatda ham yer yuzasida hayotning paydo bo‘lishiga imkoniyat yo‘qolgan bo‘lardi. Yana boshqa holni olaylik: quyosh sistemasi Galaktika markaziga yanada yaqinroq joylashganda edi, yer yuzasida kuchli gravitatsiya ta’sirida narsalarning vazni og‘irlashib, insondek murakkab jonzodning, balki umuman hayotning paydo bo‘lishiga sharoit bo‘lmagan bo‘lar edi. Aksincha, quyosh sistemasi Galaktikamiz markazidan hozirgiga nisbatan chetda joylashganda ham, gravitatsiya kuchining zaifligi ayrim ximiyaviy va biologik jarayonlarning ro‘y berishiga xalaqit bergen bo‘lar edi. Buning oqibatida yer yuzasida hayot paydo bo‘lmash edi. Demak, inson o‘zi uchun eng qulay bo‘lgan joyda yashaydi va bunga shukur qilsa arziydi.

Inson aql-idrokining olamga ta’sir ko‘rsatish chegarasi **noosfera** deb ataladi. Inson o‘zligini anglamas ekan, uning sayyoramizga halokatli ta’siri kuchaygandan kuchayib, oxir-oqibatda uning o‘zini ham halokatga olib borishi mumkin, degan ilmiy bashoratlar bor. haqiqatan ham inson faoliyati aql-idrok bilan oqilona boshqarilmas ekan, u yer yuzining halokatini tezlashtirishi muqarrardir.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Insonning tabiat bilan aloqasi inson yerda paydo bo‘lgan vaqtlardanoq yuzaga kelgan bo‘lib, bu zaruriy obyektiv aloqadorlik o‘z ahamiyatini bundan keyin ham hech qachon yo‘qotmaydi.
2. Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqadorlik jamiyatning tabiatga, tabiatning esa jamiyatga ta’siri kishilar ongi va irodasiga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv qonuniyatdir.
3. Jamiyat bilan tabiatning obyektiv aloqadorligi tabiiy sharoitlarning jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri jahondagi ayrim bir xalqlar va mamlakatlarga taalluqligina bo‘lib qolmay, balki butun insoniyat uchun barcha jamiyatlar va mamlakatlar uchun bir xilda umumiyydir.
4. Tabiiy muhit insonning moddiy ne’matlar ishlab chiqarish faoliyatining doimiy va abadiy zaruriy shartidir.

4-§. Ekologik muammo va uning bartaraf etish yo‘llari

«Ekologiya» so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, «oikos» – «turar-joy», «yashash muhiti», «logos» esa «ta’limot» ma’nolarini anglatadi. Ekologiya tirik organizmlar bilan atrof muhit munosabatlarini o‘rganuvchi fandir. Yana qisqacha ta’rif berilsa: – ekologiya – jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi fan.

Odam paydo bo‘lgan davrdan to hozirga qadar tabiatga ta’sir qilib uni batamom o‘zgartirib yubordi. Keyingi ming yilliklar davomida inson faoliyati natijasida yer shari yuzasi iqlimi, o‘simgi, hayvonot dunyosining tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketganligi bunga misol bo‘la oladi. E’tirof etish kerakki, insonning istiqbolni o‘ylamay qilgan xata-harakatlari ko‘r-ko‘rona qilmishlari tufayli tabiat behad ozor chekdi, ko‘p narsalardan abadiy judo bo‘ldi. Har xil kosmik changlar, issiqlik elektr stansiyalari, avtomobillar sonining tez o‘sib borishi, radioaktiv moddalar va boshqalar ta’siri ostida barcha jonli mavjudotning hayot manbai bo‘lgan havo toqat qilib bo‘lmaydigan daraja ifloslanmoqda. Bunday dahshatli hodisalar dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida tez-tez bo‘lib turibdi. Atrof-muhitning radioaktiv va kimyoviy chiqindilar bilan bulg‘anishi aholining chorva mollarining, parrandalarning daryo va ko‘llardagi suv omborlari va okeanlardagi baliq va boshqa jonivorlarning ko‘plab zaharlanishga sabab bo‘lmoqda. Olimlar havo,

suvgan va yer ustining zaharlanishi shu tariqa davom etadigan bo'lsa sivilizatsiya halok bo'lishi mumkin deyishmoqda. Akademik A.YE.Fersmanning fikricha, agar atmosfera tarkibidagi karbonad angidrid miqdori ikki baravar ko'paysa, bu narsa yer yuzidagi haroratning 4 darajaga ko'tarilishiga olib boradi. Uning hisobicha bu voqealardan keyin sodir bo'lishi kerak.

Suv ta'minotining an'anaviy manbalari hisoblangan daryolar, ko'lllar, shimoliy qutb muzliklari, dengizlar, suv omborlari ifloslanmoqda. Insoniyatning eng katta oziq-ovqat manbai bo'lgan jahon okeanlari ham hozirgi vaqtida inson sivilizatsiyasi qurboni bo'lmoqda. Har yili jahon okeaniga o'n million tonnagacha miqdorda neft va neft mahsulotlari kelib tushadi. Masalan, Meksika ko'rfazidagi dengiz osti quvurlaridan oqib chiqqan neft (2010-yil).

Inson o'zining ko'p asrlik xo'jalik faoliyatida yetmish ikki hayvon turini butunlay yo'q qilib yubordi. O'zimizning O'zbekistonda ham Turon yo'lbarsi, yo'l-yo'lli sirtlon kabi hayvonlar yo'q bo'lib ketdi. Oqquyruq, qoraquloq, Ustyurt qo'yłari, Buxoro bug'usi, oq tirnoqli qo'ng'ir ayiq kabilar esa yo'q bo'lish arafasida turibdi.

XX asr o'rtalarigacha hatto yaqin-yaqinlargacha ham inson tabiatga hokim, uni istaganicha o'zgartirishi, irodasiga bo'ysundirishi mumkin degan noto'g'ri fikr ustunlik qilib keldi. O'sha sharoitlarda shu fikr dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida, jumladan o'zimizda ham qo'llab-quvvatlandi. Tabiatni iqtisodiyot talablariga moslashtirib o'zgartirish avj olib ketdi. Qancha-qancha loyihalar vujudga keldi, daryo va ko'llardagi baliqlar, parrandalar, hayvonlar ehtiyojidan ortiqcha ovlandi va ko'pchiligi hozir yo'q bo'lib ketdi. Bir paytlar Amudaryoning o'zidagina 140 dan ortiq baliq turi bo'lganligiga endi ishonish qiyin. O'rmonlarga nisbatan ham ko'r-ko'rona munosabatda bo'lishi tufayli yer sharida 100 yil avvalgi 7200 million gektar o'rmondan hozir 4100 million gektar o'rmon qoldi. Shu sababli ham tabiatni muhofaza qilish bugungi kunda insoniyat oldida turgan dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Inson tabiatida o'ziga kerakli narsalarni olish bilan bir qatorda unga har xil ishlab chiqarish chiqindilarini tashlab, tabiatni zaharlamoqda. Industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bir kishi hisobiga har yili tabiatdan 30 tonna modda olinib, uning atiga 1-1,5% iste'mol mahsulotlari sifatida foydalanilmoqda. Qolganlari esa chiqindi sifatida tashlab yuborilmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra har yili atmosferaga 200 million tonnadan ziyod is gazi, qariyb 150 million tonna oltingugurt

oksiidi, 53 million tonna azod oksidi, 50 million tonnadan ortiqroq har xil uglevodlar chiqarilmoqda. Jahon sanoati har yili tabiatga 32 milliard m³ ifloslangan suv, 70 million tonna zaharli gazlar va 250 million tonna changni chiqarib tashlamoqda.

Oqibatda biosfera o‘z-o‘zini tozalashga ojiz bo‘lib qolmoqda. Hozir atmosferada zaharlangan (uglekislota) gazning miqdori qariyb 20%ni tashkil etadi. Ularning hammasi inson sog‘lig‘iga ta’sir etib ular o‘rtasida rak va boshqa kasalliklar soni yildan yilga ortib ketmoqda. Hozirgi paytda dunyo bo‘yicha 500 ming kishi rak bilan kasallangan bo‘lsa, uning 60 % atrof-muhitdagi har xil konserogen moddalarning ko‘payishi natijasida hosil bo‘lgan.

Tabiiy muhitni muhofaza etishni yoki boshqacha aytganimizda ekologik xavfsizlikka alohida e’tibor berishni paysalga solib bo‘lmaydi. Bu sohadagi hozirgi ahvol tahlikali bo‘lib turibdi. Vaziyat zudlik bilan harakat qilishni taqozo etmoqda.

Tabiatga mehr-muhabbat bilan yondashish, tevarak-atrofni, suvni, havoni tuproqni, hayvonotu nabototni asrab-avaylash haqida islom ta’limotida ham muhim g‘oyalar mavjud. Biz yashayotgan koinotdagi yer yuzidagi barcha noz-ne’matlarning qadriga yetish, ularni e’zozlash, ularni asrash, iflos qilmaslik har bir mo‘min-musulmonning burchidir.

Qur’ondagi oyatlarda payg‘ambarimiz hadislarida hayvonot olami, nabotot olami va atrofimizda o‘rab turgan boshqa narsalarni to‘la-to‘kis himoya qilish, saqlash, ularni buzmaslik, isrof qilmaslik to‘g‘risida ko‘pgina maslahatlar mavjud, ularni doim esda tutishimiz kerak.

Mamlakatimizning taraqqiyot va demokratiya yo‘lidan izchil borishida O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan boy tabiiy resurslarga tayaniadi. Mustaqil taraqqiyotning ilk kunlaridanoq ulardan oqilona foydalanish va kelgusi avlod uchun sof atrof tabiiy muhitni asrab avaylash yo‘lidan borilmoqda. Bu mamlakatimiz aholisining ma’naboy va sog‘lom hayotini ta’minlashdagi asosiy shart va omillardan biridir.

Mamlakatimiz tabiati, aniqroq uning suv va tuprog‘i haqida muayyanroq to‘xtalsak. Suv – sayyoramiz bioxilma-xilligini, ekotizimning tiriklik manbaidir. Yer sharining 71% suv bilan qoplangan. Ichimlik (chuchuk) suvi umumiy suv miqdorining 2% ga yaqinini tashkil qiladi. Yer kurramizda hayotning boqiyligi ko‘p jihatdan yerdagi suv manbalari, ayniqsa chuchuk, ichimlik suv zaxiralarini asrash, ifloslantirmaslik, tejab-tergab foydalanishimizga bog‘liqdir. Keyingi yuz yillikda insoniyatning xo‘jasizlarcha munosabati tufayli suv zaxiralari

kamayib ketyapti. Oqibatda insoniyat suv resurslarining ijtimoiy, iqtisodiy muammolariga duch kelyapti.

Mamlakatimizda suv resurslari zaxiralarini muhofaza qilish transchegaraviy suv manbalaridan foydalanish, undan tejab-tergab, oqilona foydalanish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Yer osti va yer usti chuchuk ichimlik suv zaxiralarini muhofaza qilish, ulardan samarali foydalanish borasida respublika Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi sa’y-harakati bilan muayyan ishlar amalga oshirildi. Masalan, Yer osti suvlari hosil bo‘ladigan zonalarga alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maqomini berish va daryolarning suvni muhofaza qilish zonasini va qirg‘oq bo‘yi polosasini, shuningdek, transchegaraviy daryolar – Amudaryo va Sirdaryoning respublika hududidan oqib o‘tuvchi qismlarida suvni muhofaza qilish mintaqalari va qirg‘oq bo‘yi polosalari belgilash to‘g‘risida Hukumat qarorlari qabul qilinib, tegishli vazirliklar, qo‘mitalar mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, shuningdek, korxonaga va tashkilotlar tomonidan bajarishlari lozim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan.

Yurtimizda asosan 77 ta manbada chuchuk yer osti ichimlik suvlari mavjud bo‘lib, ularning umumiyligi zaxirasi 57,6 mln.m / sutkani tashkil etadi. Yer osti suv zaxiralarining 34,5 foizi Farg‘ona vodiysida, 24,6 foizi Toshkent viloyatida, 18 foizi Samarqand viloyatida, 9 foizi Surxondaryo viloyatida, 5,5 foizi Qashqadaryo viloyatida, 7 foizi atrofidagisi esa qolgan viloyatlarda hosil bo‘ladi. Yurtimizning tabiiy suv manbalari – milliy boyligimiz. Uni asrash, avaylash, tejab foydalanish, kelajak avlodlarimizga sof holda yetkazish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Yer – xalq boyligi, qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Tabiat komponentlari – tog‘ jinslari, suv, havo, tuproq, o‘simplik va hayvonot dunyosi o‘ziga xos xususiyatlari bilan tabiiy va antropogen ta’sirlarda rivojlanishi, sifat va tarkibiy o‘zgarishi kuzatilsa-da, ular o‘zaro uzviy bog‘langandir. Ular o‘rtasida to‘xtovsiz modda almashinushi amalga oshadi va natijada tabiiy hududiy komplekslar hosil bo‘ladi.

Insoniyat tarixi davomida 2 mlrd gektardan ortiq unumdon tuproqli yerlar yaroqsiz holga keltirilgan. Har yili sayyoramizdagagi qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli yerlar maydoni sho‘r bosishi, cho‘lga aylanishi, yemirilishi natijasida 5-7 mln gektarga kamaymoqda.

Yer yuzida dehqonchilik maqsadlarida ishlatiladigan maydonlar mavjud yerlar hududining 10 foizini tashkil qiladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, sayyoramizning foydali yerlariga zamonaviy agrotexnika bilan ishlov berilsa, yer yuzida 40 mldr aholi o'rtacha ta'minot bilan yashashi mumkinligi qayd etilgan.

Yer yuzi tuproq qatlaming hozirgi holati birinchi navbatda, kishilik jamiyatining faoliyati bilan belgilanadi. Inson tuproqlarning hosildorligini oshirishi, yerlarning holatini yaxshilashi mumkin. Shu bilan birga, shahar va yo'llarning qurilishi atrof muhitning ifloslanishi, agrotexnik tadbirlarning talabga javob bermasligi natijasida tuproqlar bevosita yo'q qilinishi, yaroqsiz holga kelishi, yemirilishi mumkin. Tabiatdan foydalanish to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini belgilovchi mezonni aniqlash juda murakkab.

Insonlar qadimdan yer qa'ridan kerakli foydali qazilmalarni qazib olib ishlatib kelganlar. Jamiyat tarixi asosiy ishlatilgan qazilmalar nomiga mos ravishda «tosh davri», «bronza davri», «temir davri» – deb nomlangan. Vaqt o'tishi bilan foydali qazilmalarni qidirib topish va ishlatish sur'atlari ham oshib bordi. Hozirgi kunda insoniyat ehtiyojlari uchun yiliga 120 mldr tonnadan ortiq foydali qazilmalar, tog' jinslariga solinmoqda. Insoniyat ehtiyojlarining o'sishi natijasida foydali qazilmalarni qidirish, ishlatish hajmi ortib bormoqda. Hozirgi davrda insoniyat foydalanadigan minerallar va tog' jinslarining soni 3500dan ortiqdir. Ulardan 250 turi mineral xom ashylar: yoqilg'i va energetik xom ashyo – neft, gaz, ko'mir, uran va boshqalar, kimyoviy xom ashylar, qurilish materiallaridir. Qazib olish jarayonida texnologiyaning talabga to'la javob bermasligi natijasida ko'mirning 45 foizi, neftning 60 foizigacha, metallarning 25 foizigacha qolib ketadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ekologik muammolarni hal qilish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish borasida O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida respublika va viloyat ahamiyatiga molik 19 ta chuchuk yer osti suvlari hosil bo'ladigan jami 407,36 ming hektar maydonga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomi berilgan.

Tabiatni asrash, ekologiyani yaxshilash maqsadida 2008-yil 2-avgustda mamlakatimiz ekolog olimlari, shu yo'nalishda ish olib borayotgan tashkilotlar va faol jamoatchilikning tashabbusi asosida «O'zbekiston ekologik harakati»ning tuzilganligi bugungi davrning

dolzarb talabi hisoblanadi. Ekoharakat – O‘zbekiston fuqarolarining bugungi va kelajak avlodi qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish, sog‘lijni saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizligini ta’minlashga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish va ularga so‘zsiz rioya etilishiga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda bevosita faol ishtirok etishga hamda bu borada jamiyatning barcha sa'y-harakatlarini safarbar qilishga intiluvchi mamlakat fuqarolari va tashkilotlarni ixtiyoriylik asosida birlashtiruvchi ommaviy jamoat harakatidir.

«Sog‘lom muhit – inson salomatligi» g‘oyasi Ekoharakatning asosiy shiori etib qabul qilingan. Sog‘lom atrof-muhit muhofazasi davlatimiz, jamiyatimiz va har bir fuqaroning vazifasi bo‘lishi kerak.

Ekoharakatning o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunlari, boshqa qonun va qonunosti hujjatlari hamda o‘zining Ustavi va Dasturiga muvofiq ravishda amalga oshiradi.

Ekoharakat o‘z faoliyatini ixtiyoriylik, qonuniylik, o‘zini-o‘zi boshqarish va oshkorlik tamoyillariga asoslangan holda olib boradi.

Ekoharakat hozirgi kunda globallashib borayotgan ekologik muammolarni faqat xo‘jalik faoliyatida resurs tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish va sohada qonunchilikni takomillashtirish bilangina hal etish mumkin emasligini e’tirof etadi. Ekoharakat aholining ekologik ta’lim va tarbiya tizimini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘sib kelmoqda.

BORLIQNING ALOQADORLIGI VA RIVOJLANISH QONUNLARI

1-bob. FALSAFIY QONUNLAR VA ULARNING YURIDIK QONUNLAR BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI

1-§. Dialektika rivojlanish haqidagi ta’limot

Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o‘zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib turishi, rivojlanishi, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va o‘zaro ta’sir kabi masalalar qadimdan mutafakkirlar, olimlar, faylasuflar o‘rtasida turli bahs, munozara, tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Chunki ular to‘g‘risida aniq bilimga ega bo‘lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to‘g‘risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo‘lish qiyin.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar, ya’ni eng mayda zarrachallardan tortib to Yer, Quyosh, Koinotgacha barchasi, shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o‘zgarish va rivojlanishdadir. Ular o‘rtasida abadiy o‘zaro bog‘liqlik, o‘zaro ta’sir va aloqadorlik mavjud. Olamda o‘z-o‘zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o‘zgarish ham yuz bermaydi. Bog‘lanishlarning turlari. Biz narsa va hodisalarning harakati, o‘zgarishi va rivojlanishiga ular o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqadorlik, ta’sir va aks ta’sir asos bo‘ladi, deymiz. Albatta, olamdagи har qanday bog‘lanish ham rivojlanishga sabab bo‘lavermaydi. Chunki bu bog‘lanishlarning ko‘lami, mohiyati, ta’sir kuchi va doirasi turlicha. Bog‘lanishlarning ana shu xususiyatlariga qarab, zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo‘lmagan va hokazo bog‘lanishlarga ajratish mumkin.

Shuningdek, olamda boshqa voqeа yoki hodisalardan alohida, ular bilan bog‘liq, o‘zaro aloqadorlikda va ta’sirda bo‘lmagan birorta ham voqeа yoki hodisa mavjud emas. Demak, o‘zaro bog‘lanish va ta’sir natijasida narsa-hodisalarda o‘zgarish sodir bo‘ladi. Har qanday o‘zgarish esa bu albatta harakatni yuzaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, harakat bu eng avvalo olamdagи har qanday o‘zgarishdir.

«Harakat» tushunchasi «Borliq falsafasi» mavzuida yoritilganligi sababli, bu yerda uning quyidagi qisqa ta’rifi bilan cheklanamiz: harakat deb olamdagи har qanday o‘zgarishga aytildi.

«Rivojlanish» tushunchasi esa quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi harakatni ifodalaydi. Lekin bu jarayon goh to‘g‘ri chiziqli, goh asta-sekin kengayib boradigan spiralsimon shakldagi harakatdan iborat bo‘lishi mumkin. Aynan shunday o‘zgarishlar, harakat va rivojlanishni e’tirof etishda turli xil ta’limotlar yuzaga kelgan. Eng qadimiy ta’limotlardan biri dialektika hisoblanadi.

«Dialektika» tushunchasi (yunon. «dialektika» so‘zidan olingan bo‘lib, suhbat olib borish, bahslashuv san’ati degan ma’noni anglatadi) falsafa tarixida turli ma’nolarda foydalanib kelingan. Bahslashuv san’ati qadimgi grek madaniyatida vujudga keldi. Bahslashuv san’atining falsafiy ifodasi qadimgi grek mutafakkiri Suqrot (mil. avv. 469-399) ta’limotida yuqori cho‘qqisiga yetdi. Tarixda Suqrot har qanday haqiqatning mezoni «dialog», yangi savol-javob usuli ekanligini targ‘ibot qilgan mutafakkir sifatida kelgan. Suqrot o‘zidan keyin birorta ham qo‘l yozma qoldirmaganligi tufayli, uning qarashlari asosan shogirdlari tomonidan tartiblashtirilib, ta’limot sifatida tizimlashtirildi. Xususan, Aflatun (mil. avv. 427-347) Suqrot uslublarini-tushunchalarni tahlil qilish va umumlashtirish dialektikaning asosi sifatida o‘z asarlarida targ‘ibot qilgan. Bu faylasuflar tasavvurida bahslashuv natijasida yangi g‘oyalar paydo bo‘ladi. Bunday yondashish evristik yondashish deb ham atalgan.

Dialektikani bahslashuv san’ati sifatida o‘rta asrlar davrida fransuz faylasufi Pyer Abelyar (1079-1142) «Ha va yo‘q» nomli kitobida eng yuqori cho‘qqisiga yetkazdi. Savol-javob usulida tuzilgan mazkur kitobda bahslashuv san’ati din peshvolarining kishilarni ishontira olish mahoratini ko‘rsatkich mezoni deb qaralgan. Ko‘rib turibmizki, dialektika dastlab mutafakkirlar tomonidan bahslashuv san’ati, notiqlik mahoratining ko‘rsatkichi sifatida tasavvur qilingan ekan. Boshqacha qilib aytilganda, dialektika – «savol-javob» vositasi orqali bahs olib borish qobiliyati, shuningdek, tushunchalarni tahlil qilish, narsalarni tur va jinslarga tasniflash mahorati deb tushunilgan.

Aflatun o‘z idealistik tizimining dialektika uslubi bilan sug‘orilgan holda mashhur «Parmenid» va «Sofist» dialoglarida quyidagi mazmunda izohlagan, ya’ni har qanday mavjudlik o‘z ziddiyatlilik g‘oyalariga ega. Narsalar dunyosi o‘tkinchi, vaqtincha ko‘rimsiz, ammo g‘oyalar dunyosi doimiy, o‘zgarmas, chin go‘zal dunyodir. Narsalar dunyosi g‘oyalar dunyosining xira ko‘lankasi, soyasi bo‘lib namoyon bo‘ladi. Borliq bir butun va xilma-xil, abadiy va o‘tkinchi, o‘zgarmas va o‘zgaruvchan,

sokinlikda va harakatdadır. Aynan shu ziddiyat ruxni, g‘oyani fikrlashga undovchi zaruriy shartdir, deb ta’kidlaydi. Uzoq vaqtlar davomida koinot, o‘simlik, hayvonlar, insonlar o‘zgarmas va barqaror hisoblangan. Dastlab, qadimgi faylasuflar borliqni harakatga xos o‘zgaruvchanlik xususiyatini ilmiy xulosalarsiz primitiv holda bo‘lsa-da, lekin tan olingen. Geraklit fikricha, dunyo jonli olov obrazi sifatida tasavvur qilingan. «Oqar suvgaga ikki marta oyoqni qo‘yib bo‘lmaydi» degan mashhur tarixiy ibora ham Geraklitga tegishli bo‘lgan. Bu va shunga o‘xshash barcha fikrlar oddiy hayotiy kuzatishga asoslangan bo‘lgan. Qadimgi grek madaniyatida inson hayoti go‘zallikdan bahramand olish deb tasavvur qilinar edi. Bu g‘oyaga dunyoning oxiri borligi, inson o‘limi kabi holatlar hech sig‘mas edi. Bu ziddiyatli holatdan chiqishni greklar hayotni, o‘zgaruvchanlikni doiraviy, siklik holda tasavvur qilish bilan bog‘lashdi. Hamma narsa o‘zgarishda, lekin muayyan doira ichida sodir bo‘ladi.

Geraklit ta’limoticha, olam, koinot hech kim orqali na inson, na xudo orqali yaratilgan emas, lekin abadiy alanga oluvchi va so‘nib turuvchi olov bizdan oldin, biz bilan va bizdan keyin ham bo‘ladi. Demak, hayot, o‘zgarish, harakat doirasi ichida abadiy siklik aylana borar ekan. Greklar rivojlanishni, bir biriga o‘tuvchi, bir holatdan ikkinchi holatga aylanuvchi doiraviy harakat deb tushunishgan. Lekin rivojlanishni tubdan farq qiluvchi yangi sifatiy sakrash darajasi sifatida tasavvur qila olishmagan.

Dialektikani faqatgina babs emas, balki sifatiy yangi bosqichni ifodalovchi sakrash sifatida ko‘rish dastlab xristian falsafasida o‘z aksini topdi. Dindor faylasuf Avgustin jamiyat hayotini insonning tug‘ilishidan to o‘limigacha bo‘lgan bosqichlarga qiyoslaydi. Ya’ni inson tug‘ilishi Avgustinda tarix paydo bo‘lishi bilan, o‘limi esa oxir zamon bilan tenglashtiriladi. Diniy izohda bo‘lsa-da, bu tasavvur Antik dunyoda shakllangan hayotning siklik modelini bartaraf etdi. Demak, hayot oddiydan murakkabga va doimo kelajakka tomon yo‘naltirilgan ekan.

Rivojlanish g‘oyasini Dekart (1596-1650) yanada yuqoriyoq cho‘qqiga yetkazdi. Xudo olamni yarata turib unga turtki bergen (dindorlar tilida jon ato etgan) va shundan buyon dunyo rivojlanishda, yangilanishda va o‘zgarishdadır. Fransuz ma’rifatparvarlari Volter va Russo tarixiy rivojlanish g‘oyalarini ilgari surishgan. Lekin jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchini ruhiy omillar (axloqiy, diniy va hokazo)da deb bilishgan.

Nemis klassik (mumtoz) falsafasining namoyandalari I.Kant (1724-1804) va Gegelda (1770-1831) dialektikani idealistik asosda tushunish yuqori cho‘qqisiga yetdi. Kantda dialektika inson aqli, idroki olamning sir-asrorini butunlay mutlaq egallab ololmasligini isbotlash vositasi sifatida ifodalanadi. Uning fikricha, bilimlar hissiy tajribaga va inson aqliy faoliyatiga asoslanadi. Lekin aqlning yuqori shakllari xudo, aql, erkinlik bunday xislatlarga ega emas. Shuning uchun ham inson aqli idrok qila olmagan holatlarni dialektika izohlab beradi.

Dialektikani idealistik asosda targ‘ib qilishning eng yuqori cho‘qqisi – Gegel falsafasida erishildi. Gegel dialektikani voqelikning barcha sohalarini «mutlaq g‘oya»dan tabiatga va undan tarixiy jarayonlarga o‘tishni o‘z ichiga oladi.

Gegel dialektikasida harakatning umumiyligi shakllari tasavvur qilingan. Dialektika uchga bo‘linadi: Borliq, mohiyat va tushuncha. Borliq fikrning eng dastlabki va mavhumiy shakli bo‘lib, sifat, miqdor va me’yor tushunchalarida konkretlashadi. Borliqni oxirigacha ko‘rib chiqib, uning o‘zida o‘ziga o‘zi qarshi turuvchi va in’ikos etuvchi holat mohiyat kategoriyasini yuzaga keltirishni ta’kidlaydi. Go‘yoki borliqning borliqqa in’ikosi mohiyatni keltirib chiqaradi. Mohiyat bilan hodisaning sintezi voqelik kategoriyasini keltirib chiqaradi. Lekin mohiyat borliqdan ajralgan holda bo‘la olmaydi. O‘zida borliqni ham, mohiyatni ham birlashtiruvchi dialektikaning bosqichini Gegel tushuncha deb bilgan1

Shunday qilib, mavhumlikdan konkretlikka, hodisalarning ichki ziddiyatlarini xal qilinishi asosida ular sifatining bir holdan ikkinchi holatga o‘tishi ekan. Bu holda rivojlanishning o‘zi «mutlaq rux»ning borliqdan mohiyatga, mohiyatdan tushunchaga boruvchi bosqichma-bosqich rivojlanishidir. Gegel obyektiv idealist sifatida aynan tushunchani borliq va mohiyatning eng yuqori cho‘qqisi deb bilgan. Tushuncha Gegelda ham subyekt ham obyekt va mutlaq g‘oyadir.

Gegelning fikricha, rivojlanishning har bir bosqichi o‘z prinsipiiga ega, ya’ni bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish, refleksiya (in’ikos) va ichki rivojlanish. Rivojlanishning shu yo‘lida ilmiy tafakkur va falsafiy kategoriyalar tizimining barcha bosqichlarining dialektikasi ifodalanadi, ya’ni sifat, miqdor, me’yor, mohiyat va hodisa, ayniyat va tafovut, sabab va oqibat, tasodif va zaruriyat, imkoniyat va voqelik va hokazo.

Gegel dialektikasining modeli sifatida obyektiv reallik emas, uni aks etuvchi tafakkur, namoyon bo‘ladi. Gegelning ta’kidlashicha, dunyoda sodir bo‘layotgan barcha hodisalar obyektiv reallikda emas, balki g‘oyalarda ifodalanadi.

Gegel dialektikasi qanchalik qimmatli bo‘lmasin, u cheklangan edi. Chunki u olamning va bilishning taraqqiyoti tugallangan deb hisoblanadi, unda taraqqiyot g‘oyasi faqat g‘oyaviy hodisalarga joriy etilgan, bir qancha mantiqiy kategoriyalarni rivojlantirishda sxemaviylik, chunonchi, triada va sun‘iylik, yasamalik bo‘lgan, dialektik sxemalari tor, biqiq bo‘lgan va bu dialektikadan ilmiy, ijtimoiy xulosalar chiqarilmagan.

Gegel dialektikasidan keyin maydonga kelgan materialistik dialektika narsa hodisalarning umumiyligi, munosabati, o‘zaro ta’siri, bir-birini taqozo, inkor etishi haqida nazariyani yaratdi.

Materialistik dialektikaning nazariy asosi bo‘lib, borliq haqidagi obyektiv dialektik ta’limot, dialektik materializm asosida qurilgan bilish nazariyasi va mantiq hisoblanadi. Demak, materialistik dialektika o‘z fundamental nazariy asosiga ega bo‘lgan muayyan murakkab tizimni tashkil etuvchi eng ilg‘or, g‘oyat ilmiy, buyuk ahamiyatli ta’limot ekan. Biz ma’ruzamiz davomida mazkur murakkab tizimning mohiyatini ochib borishga harakat qilamiz. Hozirda esa yuqorida aytganlarimizga qisqacha xulosa qilsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Birinchidan, dialektika dastlab paydo bo‘lganda bahslashuv san’ati sifatida tan olingan bo‘lib, haqiqatga borishning asosiy vositasi sifatida tasavvur qilingan. Keyinchalik, madaniyat, fan taraqqiyotida sekin-asta dunyoni bilishning uslubi sifatida ifodalangan.

Ikkinchidan, dialektika ta’limot sifatida uch xil tarixiy ko‘rinishida shakllanib, stixiyali dialektika, idealistik dialektika va materialistik dialektika bosqichlarini bosib o‘tgan.

Uchinchidan, dialektika dunyoni tasavvur qilishda qo‘llaniladigan tafakkurning o‘ziga xos shunday uslubiki, unda barcha hodisalar o‘zaro bog‘liq bo‘lgan holda turli xil aloqalarda, qarama-qarshi kuchlar va yo‘nalishlarning bir-birini taqozo qiluvchi munosabatlarida namoyon bo‘ladi deb izohlanadi.

Dunyoni bilishning dialektik usuliga qarshi tafakkur usuli falsafa tarixida metafizika deb yuritilgan. Metafizika grekchadan olingan bo‘lib, tom ma’noda fizikadan keyin degan ma’noni anglatadi. Miloddan oldingi I asrda mutafakkir Andronik Rodosskiy Aristotelning rejasiz, tartibsiz yozilgan falsafiy traktlarni umumlashtirgan holda tartibga solib 14 kitob holida yaratgan mazkur to‘plamni «Metafizika» nomi bilan belgiladi. Shu tariqa metafizika atamasi birinchi bor ishlatila boshladi. Keyinchalik «metafizika» tushunchasini dialektikaga qarshi uslub sifatida birinchi bor Gegel ishlatgan. Metafizikaga bir tomonlamalik, mavhumlik, butunning tarkibidagi biron-bir holatni mutlaqlashtirish xosdir.

Metafizika – dialektikaga qarshi bo‘lgan tafakkurning shunday uslubiki, unda rivojlanishning manbai ichki ziddiyatlardan emas, balki alohida, tugallangan va o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan jism, hodisa va jarayonlarning oddiy o‘rin almashuvidan iboratdir deb izohlanadi.

Metafizika – Spinoza, Leybnis, Karl Liney kabi mutafakkirlarning qarashlarida o‘z ifodasini topgan.

Dogmatizm (grekcha «qotib qolganlik» ma’nosini anglatadi) – metafizik tafakkur ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, o‘zgarmas tushunchalar, formulalar asosida o‘rganilayotgan obyektning joyi vaqtiga tegishli bo‘lgan aniq sharoitlarini hisobga olmagan holda biron-bir tomonini mutlaqlashtirish, shuningdek, narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni inkor etishdir.

Sofistika (grekcha «ustomonlik bilan bahslashuv» ma’nosini anglatadi) – metafizik tafakkurning bir ko‘rinishi bo‘lib, unda ma’lum maqsadga bo‘ysundirilgan haqiqat sirtdan qaraganda go‘yoki shakli to‘g‘ri, lekin haqiqatda bahs obyektini ifodala olmaydigan soxta dalillar asosida isbotlanadi.

Sofistikaga xos sifatlardan biri – hodisalarni ularning o‘zaro aloqadorliklaridan yilib olgan holda, bir guruh hodisalarga tatbiq qilish, yoki bir tarixiy davrga oid jarayonlarni boshqa bir tarixiy davrga moslashtirish.

Eklektika (grekcha «tanlayman») muhim va muhim bo‘lmagan, asosiy va ikkinchi darajali bog‘lanishlar o‘rtasidagi farqni hisobga olmaydigan, tasodifiy metodologik uslub bo‘lib, narsa va hodisalarning turli tomonlari va hodisalarini mexanik ravishda birlashtirishga asoslanadi. Grek faylasufi Potamon birinchi bo‘lib, bu iborani ishlatgan va o‘z mifikini shu nom bilan atagan. Materialistlar bilan idealistlarni, dialektiklar bilan metafiziklarni birlashtirishga harakat qilgan revisionistlar ham eklektiklarning davomchilaridir.

XX asrda rivojlanish haqida dialektikadan farq qiluvchi sinergetika deb nomlanuvchi yangi ta’limot vujudga keldi. Sinergetika (yunoncha «sunergia» – hamkorlik, hamjihatlik) – sistemalarning o‘z-o‘zidan tashkil bo‘lish nazariyasi, o‘z-o‘zini boshqarish, hozirgi zamon nazariyasi, nochiziqli hodisalarni o‘rganish, dunyonи yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy –iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish, tafakkur uslubi.

Sinergetika XX asrning 60-70-yillarida I.Prigojin, G.Xaken, I.Stengers, G.Nikolis, A.Klimintovich tomonidan asosiy ilmiy yo‘nalish sifatida shakllantira borildi. Sinergetika asosan fizikaviy, kimyoviy,

biologik hodisalardagi hamda iqtisodiy, texnikaviy, ijtimoiy murakkab jarayonlardagi o‘z-o‘zidan tashkil bo‘lish, o‘z-o‘zining boshqarilishi, tartiblikdan tartibsizlikka (xaos) o‘tish, chiziqli va nochiziqli kabi holatlarning yo‘nalish qonuniyatini topishga intiladi. Boshqacha qilib aytganda sinergetika taraqqiyot jarayonida beqaror holat bilan barqaror holat, muvozanatsizlik bilan muvozanat o‘rtasidagi qonuniyatga, tartiblilik bilan tartibsizlik, chiziqlilik bilan chiziqsizlik orasidagi aloqadorlik shaklining mazmuniga tayanadi. Sinergetika ta’limotining asoschilaridan biri I.Prigojin «Beqarorlik falsafasi» asaridagi fikricha, shu vaqtga qadar, «beqarorlik» tushunchasiga yetarli e’tibor berilmagan. Lekin bugungi zamon fani esa beqarorlikni borliqning muhim jihatni deb hisoblaydi. Masalan, mayatnik harakatini e’tibor bersak, uning bir me’yorda tebranishini kuzatish mumkin, agar mayatnikni to‘xtatsak, u dastlabki barqaror holatga qaytadi, agar to‘xtatib qo‘ysak, u yo o‘ng tomonga, yo chap tomonga og‘ib turadi. Bu beqarorlik holatidir. Beqarorlik hodisalarning sababiy bog‘lanishini bilishning yangi imkoniyatgina emas, balki ilmiy jarayonning insoniylashishidan ham dalolatdir. Uning mohiyati shundan iboratki, ilmiy bilish jarayoniga inson faoliyati qo‘shilgani bois u insoniylashgan jarayondir. Inson o‘z navbatida, shu ilmiy jarayonning tobora butun bir jihatidir.

Beqarorlik hodisasini o‘rganish, insonning shu davrga qadar bilmagan ko‘p tomonlarni tushunishga, jumladan, fan imkoniyatlarning cheklanganligini anglashga imkon yaratdi. Chunki fan shu vaqtgacha ko‘proq barqarorlik hodisasiga e’tibor berib kelgan. Buning sababi – barqarorlik determinlashgan dunyoni inson tomonidan to‘liq nazorat qilishi va boshqarishi uchun imkon beradi. Shu bilan birga, barqarorlik tabiatdagi ko‘pgina hodisalar mohiyatiga bir tomonlama yondashish ekanini kuzatish qiyin emas. Biroq bundan tabiat va jamiyatda faqat beqarorlik yoki barqarorlik ayrim holda mavjud ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha beqarorlik va barqarorlik ayni bir paytda paydo bo‘ladi va yashaydi. Sinergetik ta’limotga ko‘ra, har qanday eski tuzilma, yangi tuzilma bilan almashinar ekan, dastavval, beqarorlik, xaos yuz beradi, tizimdagi unsurlar barqarorligiga putur yetadi. Bu nuqtadagi holatni o‘zgarishida oddiy tasodif ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Sinergetikada o‘z-o‘zini tashkillashtirish deb muvozanatda bo‘lma-gan ochiq tizimlarning oddiy tashkillashtirishdan murakkab tashkillash-tirilgan holatlarga spontan tarzda o‘tish jarayoni tushuniladi. Qayd etiladiki, taraqqiyot tartibsizlik (xaoslik) tufayli amalga oshadi. Hozirgi

zamon faniga ma'lum bo'lishicha, ko'pgina tizimlarning rivojlanishi nochiziqli mohiyatga egadir, bu holda har bir tizimning evolutsiyaviy jarayonida ko'p variantlik rivojlanish imkoniyatlari mavjud va ular qaytarilmaslik tabiatiga ega.

2-§. «Qonun» tushunchasi, uning mohiyati va falsafiy talqini

Qonun – muayyan shart-sharoitda narsalar voqealar rivojinining xususiyati va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lum bir qat'iy natijani taqozo etadigan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiylar, nisbiy, barqaror munosabatlari.

Qonunlar quyidagi xususiyatlarga ega: eng muhim belgilarni aks etadi, umumiylar munosabatlarni ifodalaydi, zaruriylik, majburiylik, barqarorlik, takrorlanuvchanlik.

Qonunlar amal qilish doirasiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

Eng umumiylar qonunlar – tabiat, jamiyat, tafakkurning istisnosiz barcha obyektlariga xos bo'lgan universal, falsafiy qonunlardir. Ular tabiat, jamiyat taraqqiyotining umumiylar hamma yerda, doim mavjud bo'lgan xossalari, mayllari o'rtasidagi umumiylar, zaruriy, barqaror ichki takrorlanib turuvchi, muhim obyektiv bog'lanishlarni ifodalaydi.

Umumiylar qonunlar – moddalarning saqlanish va aylanish qonuni; butun olam tortishish qonuni va hokazolar.

Xususiy qonunlar – fizikada Kulon qonuni, Mendeleyevning kimyoviy elementlarining davriy sistemasi, huquqshunoslikda fuqarolik qonuni, saylovlar haqidagi qonun, jinoyat kodeksi va boshqalar.

Namoyon bo'lishiga ko'ra qonunlar ikki guruhga bo'linadi:

1) dinamik qonunlar – mutlaq ma'nodagi sababiy, zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydi;

2) statistik qonunlar – mutlaq ma'nodagi zaruriy qonunlar emas, ular ehtimollik sababiga muvofiq bo'lgan bog'lanishlarni ifodalaydi. Masalan: nishonga otilgan o'qning mo'ljalga tegish ehtimoli va hokazo.

Qonuniyat – qonunning tasodifiy sharoitlar qamrovida konkret hodisa jarayonlarda ifodalanishi. Masalan, organizm tuzilishi va biron-biri badiiy asarning yaratilishi, har biri uchun umumiylar bo'lgan biologik yoki estetik qonunlar asosida namoyon bo'ladi. Lekin shu bilan birga har bir hodisa bu umumiylar qonunlardan tashqari xususiy qonunlarga ham egadir. Shu tasodifiy qonunlarning takrorlanish ehtimoli qonuniyatda ifodalanadi.

Har qanday fanning asosini uning qonunlari tashkil etadi. Jumladan, falsafa fanining qonunlari, eng umumiyligida sifatida tabiat, jamiyat va inson tafakkurining umumiyligida bog'lanishlarini o'zida ifodalaydi. Falsafaning uch qonuni bor:

- 1) miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'zaro o'tish qonuni;
- 2) qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni;
- 3) inkorni inkor qonuni. Bu qonunlar haqida fikrlarimizni quyida batafsilroq davom ettiramiz.

Hozir esa falsafiy qonunlar bilan sohaviy qonunlarni tushunishdagi farqni ko'rsatish maqsadida huquqiy qonunlar misolida ko'rsatib berishga harakat qilamiz. Shu o'rinda huquqshunoslik fani va amaliyotida «qonun» tushunchasiga qanday yondashilishi haqida bir og'iz to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Huquqshunoslikda amal qiladigan qonunlar jamiyatda mavjud huquqiy munosabatlarni shakllantirish va kishilarning bu jarayonda xatti-harakatlarini tartibga solishga qaratilgan bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, huquqshunoslik qonunlari fuqarolarning ma'lum bir jamiyatdagi xatti-harakatlarini boshqarib turish hamda ularning huquq va majburiyatlarini belgilab berish uchun mavjud hokimiyat qarori bilan ta'sis etiladi.

Huquq nuqtai nazaridan qonun – bu oliy yuridik kuchga ega bo'lган, davlatning qonun chiqaruvchi organ tomonidan yoki aholi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri, referendum o'tkazishning talablariga muvofiq qabul qilingan va o'zida qonunning amal qilish hududi, muddati va shaxslar doirasida huquqiy munosabatlar subyektlari faoliyatining umumiyligini namunasini mujassamlashtirgan normativ-huquqiy hujjatdir1.

Huquqshunoslikda qonunlar bir necha mezon va usullarga ko'ra tasniflanadi. Davlat tuzilishiga ko'ra, mavjud normalar xususiyati va qabul qilinish tartibiga ko'ra, tarmoqlarga ko'ra, qonun shakliga ko'ra, huquqiy tartibga solish mexanizmiga ko'ra, huquqiy tartibga solish predmetiga ko'ra va hokazo. Jumladan, mohiyati va yuridik kuchiga ko'ra qonunlar – konstitutsiyaviy va oddiy qonunlar, ular o'z navbatida joriy va kodifikatsiya qilingan qonunlarga bo'linadi. Yana bitta katta guruh qonunlar turkumiga tartibga solish ko'lami va obyekti bo'yicha tasniflangan umumiyligida maxsus qonunlar kiradi. Umumiyligida qonunlar ijtimoiy munosabatlarning keng sohasini tartibga soladi, ularga kodekslar kiradi. Maxsus qonunlar esa ijtimoiy munosabatlarning cheklangan miqdorini tartibga soladi (Garov to'g'risidagi qonun, Banklar va bank tizimi haqidagi qonunlar). Bundan tashqari davriy qonunlarga budget

qonunlari, favqulodda qonunlarga harbiy qonunlar kiradi.

Huquqshunoslikda «qonun» tushunchasidan tashqari qonun osti hujjatlar degan tushuncha ham yuritiladi. Qonun osti hujjatlar o‘z navbatida:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari;
- O‘zbekiston hukumatining qarorlari;
- Boshqa ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlari;
- Mahalliy davlat hokimiyatining normativ hujjatlari kabilarga bo‘linadi.

Biz bu yo‘sindagi tahlilimizni yana ham chuqurroq davom ettirishimiz mumkin. Lekin bizning maqsadimiz huquqshunoslik qonunlari misolida eng umumiyoq bo‘lgan falsafiy qonunlar bilan xususiy qonunlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik masalasini ko‘rsatish edi. Aynan shu ma’noda tahlilimizdan ayon bo‘lganidek, qonunlar o‘rtasidagi faqat amal qilish doirasiga ko‘ra farq bo‘lishi mumkin ekan. Lekin shu o‘rinda har qanday qonun uchun eng muhim belgilarni aks etish, umumiyoq munosabatlarni ifodalash, zaruriylik, majburiylik, barqarorlik va takrorlanuvchanglik kabi umumiyoq tamoyillar ham xos bo‘lishi muqarrar ekanligiga amin bo‘ldik.

3-§. Falsafiy qonunlarning huquqshunoslik fani va amaliyoti uchun metodologik ahamiyati

Voqelik va o‘zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyat dialektikasi. Olamdagi har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o‘zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo‘lishi ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora, kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaradlari, yaxshilik va yomonlik,adolat va jaholat va hokazo. Qarama-qarshi tomonlar bir-birini inkor etadi va shu bilan birga biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmaydi. Faraz qilaylik, magnitning manfiy zaradi bo‘lmasa, u holda ushbu narsa magnit bo‘lolmaydi. Borliq narsa, voqe-hodisalarning turli-tumanligidan iborat. Lekin narsalar qanchalik xilmoxil, turli-tuman bo‘lmasin, ular o‘rtasida yaqinlik, aynanlik mavjuddir. Masalan, stol va stul sifat jihatidan turli narsalardir. Lekin baribir ular o‘rtasida o‘xshash tomonlar, belgilar bor. Aytaylik, ularning yo rangi yoki bir xil materialdan yasalganligi yoki bo‘lmasa, vazni o‘xshash

bo‘lishi mumkin va hokazo. «Ayniyat» tushunchasi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xhash tomonlarni ifodalaydi. Shu bilan birga, narsa-hodisalar bir-biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlar, belgilarga ham egadir. Aynan bir xil bo‘lgan narsaning o‘zi yo‘q. Hatto daraxtning bir shoxida yonma-yon turgan 2 barg ham bir-biridan farq qiluvchi ba’zi jihatlarga ega. Hech bo‘lmaganda, ular bir-biridan makondagi o‘rni bilan farq qiladi. Hayotdan misol keltiradigan bo‘lsak, bir-biriga tashqi tomondan tamomila o‘xhash bo‘lgan Hasan va Husanlarda ham juda ko‘p farq qiluvchi xususiyatlar bor. Masalan, ularda fe'l-atvor, qiziqish turi, dunyoqarashlar har xil bo‘lishi, ya’ni ularning ichki dunyolari farq qilishi mumkin. Demak, tafovut narsa-hodisalarning farq qiluvchi tomonlarini ifodalovchi tushunchadir.

Qarama-qarshilik deb esa, narsa, voqeа-hodisalarning bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining o‘zaro munosabatiga aytildi. Qarama-qarshiliklar o‘rtasidagi munosabatni ziddiyat degan tushuncha ifodalaydi. Ko‘p hollarda ayniyat va tafovutning zidligi va ularning bir maxrajga kelishi, me’yoriy o‘zgarishlar tufayli rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraqqiyot shu ma’noda ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va hal qilinishidan iborat bo‘lgan abadiy va azaliy murakkab jarayondir. Sobiq Ittifoqning mafkurasi darajasiga ko‘tarilgan marksizmda asosan ziddiyatga ko‘proq e’tibor berilar edi. U mutlaqlashtirilar va jamiyatga ko‘chirilib, asosan, antagonistik ziddiyatlar to‘g‘risida gapirilar va ularning yechilishi insoniyatni baxtli hayotga olib boradi, deya xayol qilinar edi. Holbuki, insoniyat paydo bo‘libdiki, uning hayotida ayniyat va tafovut ham, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ham mavjud bo‘lib kelmoqda. Odamzod ziddiyatlar kamroq bo‘lgan, kishilarning xilma-xil intilish va maqsadlari, bir-biridan farq qiladigan g‘oyalari uyg‘unlashgan, barqarorlik ustuvor bo‘lgan jamiyatni qurish uchun bosh qotirib kelmoqda.

Anu shunday intilishlar fanda «Konfliktologiya» (konflikt – ziddiyat, logos – ta’limot) deb ataladigan falsafiy yo‘nalish paydo bo‘lishiga olib kelgan. Bu soha bilan shug‘ullanadigan olim va mutaxassislar konfliktologlar deb ataladi. Ular konfliktlarni keltirib chiqarish emas, balki ularning oldini olish va jamiyat uchun foydali tarzda hal qilish yo‘llari va usullari ustida bosh qotirishadi.

Har bir ziddiyatning aniqlanishi, hal qilinishi o‘zgarishga, yangilanishga, bir sifatdan ikkinchi sifatga, eskidan yangiga o‘tishga

sabab bo‘ladi. Olam turli-tuman bo‘lganligi uchun ziddiyatlar ham xilma-xildir.

Masalan, ichki va tashqi ziddiyatlar, asosiy va asosiy bo‘lmagan ziddiyatlar mavjud. Ular o‘rtasida farq bo‘lgani bilan birga, mutlaq chegara ham yo‘q. Chunki amalda, hayotda ular bir-biriga o‘tishi, birlashish ketishi va taraqqiyotda turli xil o‘rin tutishlari mumkin.

Olamning mavjudligi – miqdor va sifat voqeligi tarzida. Taraqqiyotda tadrijiylik tamoyili. Olamning mavjudligi – miqdor va sifat voqeligi tarzida ham namoyon bo‘ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo‘lmagan miqdoriy o‘zgarishlar asta-sekin to‘plana borib, taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida me’yorni buzadi va sakrash yo‘li bilan tub sifat o‘zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o‘z sifati bilan ajralib turadi. Sifat – narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo‘lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalarydi. Sifat narsa qanday bo‘lsa, uni shundayligicha ko‘rsatib beradi, jismning barcha tashqi xossalarini bog‘liqlikda namoyon qiladi.

Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o‘xshashligi yoki o‘xshamasligini ifodalarydi. U keng ma’noda narsalarning turli-tuman xossalari yig‘indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma’nodagi tushunchalar emas. Sifatning o‘zgarishi, muqarrar sur’atda, xossaning o‘zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o‘zgarishi har doim sifatning o‘zgarishiga ta’sir etavermaydi, ayrim xossalar narsalarning sifatiga ta’sir etmasdan yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Narsalar sifat muayyanligidan tashqari, bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. Miqdor predmetning hajmi, o‘lchovi, og‘irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o‘z solishtirma og‘irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidangina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdoorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo‘lgan, ya’ni sifati bo‘lib miqdori, miqdori bo‘lib aksincha, sifati bo‘lmagan narsaning o‘zi yo‘q. Miqdor va sifatning birligi, o‘zaro bog‘liqligi

«me'yor» tushunchasida ifodalanadi. Me'yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo'limgan holatga olib keladi.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o'zgarishlari xosdir. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'rtasida qat'iy qonuniyat mavjud bo'lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan tub sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi sodir bo'ladi. Olamdagi barcha o'zgarishlar asta-sekin sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlaridan boshlanadi. Miqdor o'zgarishlari muayyan chegarada sifatning barqarorligiga ta'sir etmaydi. Miqdoriy o'zgarishlar chegaradan chiqishi bilan barqarorligi buziladi. Natijada sifat yo'qolib, yangi sifat yuzaga keladi. Taraqqiyot jarayonida miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga o'tishi bilan birga sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga ham o'tadi. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lishiga qaramay, ular ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Chunonchi: birinchidan, miqdor o'zgarishlari doimo yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o'zgarishlariga o'tish faqat ma'lum bir davrda boshlanadi; ikkinchidan, miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha narsalarga muhim ta'sir ko'rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100° gacha suyuqlik holatini yo'qotmaydi, keyin esa buqqa aylanadi, sifatini o'zgartiradi. Demak, sifat o'zgarishlari hodisalarni tubdan o'zgartirib, uning boshqa hodisaga aylanishini taqozo qiladi; uchinchidan, miqdor o'zgarishlari asta-sekin amalga oshadi va ko'p hollarda sezilmasdan o'tadi. Sifat o'zgarishlari esa ancha tez, ayrim holatda to'satdan sodir bo'ladi; to'rtinchidan, sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga qaraganda tub o'zgarish bo'lib hisoblanadi.

Sakrash nima? Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo'lib, taraqqiyotning uzluksiz ko'rinishiga qaraganda ancha tez o'tadigan jarayondir.

Sakrash miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrash narsa va hodisalarning uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo'lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Sakrash birdaniga, to'satdan bo'ladigan holatgina emas, balki yangi sifat elementlari ko'payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrashning turlari o‘z xarakteriga ko‘ra tabiat va jamiyatda xilmal-xil bo‘lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o‘ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo‘q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o‘rnatadigan ijtimoiy jarayonlar, tadrijiy rivojlanish orqali amalga oshadi. Bunday sakrashlarni ikki turga bo‘lish mumkin: birinchisi – portlash yo‘li bilan bo‘ladigan sakrashlar, ikkinchisi sekin-asta, tadrijiy yo‘l bilan bo‘ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda narsa va hodisalarning yangi sifatga o‘tishi nihoyatda tezlik bilan yuz beradi va kutilmagan natijalarni, tasodifiy jarayonlarni boshlab yuborishi, hatto salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Sakrashning ikkinchi turida esa, eski sifat elementlarining asta-sekin yo‘qolib borishi va yangi sifat elementlarining asta-sekin to‘planishi natijasida yangi sifat paydo bo‘ladi. Shunday qilib sakrash quyidagi jihatlarga ega:

- sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan obyektiv va qonuniy jarayondir;
- sakrash tadrijiylikning uzilib, miqdor o‘zgarishlaridan tub sifat o‘zgarishlariga o‘tishidir;
- sakrash eskini tugatish va yangi sifatga mos keladigan holatlarning vujudga kelishi tufayli paydo bo‘ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;
- sakrash olamning rivojlanib, ilgarilab borishidir.

O‘zgarish va rivojlanish jarayonida o‘z-o‘zini inkor etish tamoyili. Vorislik va yangilanish. Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog‘liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o‘tish turli shakllarda sodir bo‘ladi. Har bir narsa, hodisa o‘zining aniq inkor qilish usuliga, o‘z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Demak, har qanday o‘zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zaro bir-biriga o‘tishi orqali sodir bo‘ladigan jarayonlardan iborat. Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo‘lib turadi. Bundagi eskining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

Inkorni inkor qonunini birinchi marta nemis faylasufi Gegel izohlab bergen. Lekin Gegel bu qonunni tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuni deb bilmasdan, balki «mutlaq g‘oya»ning rivojlanish qonuni sifatida: tasvirlaydi. Gegel «mutlaq g‘oya»ning rivojlanishini izohlaganda quyidagi ketma-ketlikni keltiradi: boshlang‘ichi (tezis), inkor (antitezis), inkorni inkor (sintez) bosqichlari orqali g‘oya o‘z-o‘ziga qarab taraqqiy

qiladi. Mana shu yerda Gegelning dialektikasi (aniqrog‘i uning dialektikasining «chin mag‘zi») bilan metafizik, idealistik tizimi o‘rtasidagi ziddiyat ko‘zga yaqqol tashlanadi. Buasosiy ziddiyat ayniqsa uning inkorni inkor qonunini tushunishga kuchli ravishda salbiy ta’sir etgan edi. Bir tomondan, Gegel inkorni inkor qonuni orqali rivojlanishning olg‘a qarab borish xarakterini ko‘rsatmoqchi bo‘lsa, ikinchi tomondan, u o‘z falsafiy tizimida rivojlanishga chek qo‘yadi va natijada uningcha rivojlanish bir doira ichida aylana borishdan iborat bo‘lib qoladi.

Gegelning inkorni inkor qonunini tushunishdagi muhim xatoliklaridan biri, bu qonunni triada shaklida izohlanishidadir. Gegel inkor etishning triadadan boshqa shakllarining bo‘lishi mumkinligini e’tirof etgan va inkor etishni faqat triadadan iborat deb qarovchi formalistlarni qattiq tanqid qilgan bo‘lsa-da, lekin o‘zi ham bir butun idealistik tizimini izohlashda rivojlanishni triada shaklida bir doirada aylanishdan iborat qilib qo‘yadi.

To‘g‘ri tashqi ko‘rinishdan moddiy dunyodagi juda ko‘p narsa va hodisalarda harakat, o‘zgarish va rivojlanish go‘yoki triadadan iborat bo‘lib ko‘rinadi. Lekin moddiy dunyodagi triada (uchlik) yo‘li bilan rivojlanish, bilish usulining faqatgina yuzaki va tashqi tomonini tashkil qiladi. Tabiat va jamiyatdagi hamma narsa va hodisalarni sun’iy yo‘l bilan triada shaklida ifoda qilish mumkin (masalan, har bir narsada tug‘ilish, rivojlanish va o‘lishni ko‘rish mumkin). Lekin bu usulda har bir narsa va hodisaning taraqqiyotini ilmiy tushuntirish mumkin emas. Chunki inkor etish formalarini faqat triada bilan sun’iy ravishda cheklash, dialektik metodning narsa va hodisalarni konkret, tarixiy nuqtai nazardan o‘rganish haqidagi asosiy qoidasini buzishga olib keladi va natijada dialektika formalizm bilan almashadi, g‘ayri-ilmiy xulosalarga olib boradi.

Moddiy dunyoning taraqqiyoti g‘oyatda murakkab, inkor etishning shakllari ham turli tumandir. «Triada» inkorni inkor qonunining bir shaklinigina tashkil etish mumkin. Chunki, moddiy dunyoda rivojlanish, bir holatdan boshqasiga o‘tish, ya’ni inkor etish shakllarida har birining o‘ziga xos xususiyatlari bordir.

Gegel dialektik inkori quyidagi xususiyatlarga ega:

1) inkor Gegelda bir jarayonning cheksiz ifodalishidir. Bilish jarayonida oldingi inkor navbatdagi inkorga zamin bo‘lib xizmat qiladi;

2) inkorni inkor quruq inkor bo‘lmasdan, balki ilgarigi taraqqiyotning bir tomonlamaliklarini «olib tashlovchi» va ularni yangi asosda birlashtiruvchi bo‘lib chiqadi;

3) inkorni inkor ichki ziddiyatlarni ochish shaklidir, bu ziddiyatlarni ochish natijasida eskinining yemirilishi va yangining paydo bo‘lishi sodir bo‘ladi.

Gegel dialektikasining kamchiliklari:

1) olam, tabiat va jamiyatdagi oldin mavjud bo‘lgan «mutlaq g‘oya», «dunyoviy ruh»ning mahsuli deb izohlanadi;

2) inkorni inkor qonuni «mutlaq g‘oya»ning xarakterini ifodalaydi;

3) inkorni inkor qonuni qarama-qarshiliklar kurashidan iborat bo‘lmay, balki murosaga keltirish dialektikasidir, ya’ni uch bosqich go‘yo oldingi ikki bosqichning qarama-qarshiligi murosaga keltiradi;

4) taraqqiyotning umumiy shakli «tezis, antitezis, sintez» triadasi orqali ifodalanadi.

Aslida hozirgi kun ilmining eng obyektiv deb hisoblangan yondashuviga ko‘ra dialektik inkor – oddiy yoki tag-tomiri bilan inkor etish emas, aksincha o‘zining umr boqiyligi bilan taraqqiyotning keyingi bosqichiga o‘ta olgan eng ijobiy sifatlar asosida taraqqiyotning oldingidan yuqoriroq, istiqbolli kelajagini e’tirof etish.

O‘zgarish va rivojlanish jarayonida o‘z-o‘zini inkor etish tamoyili nihoyatda muhim. Bunda vorislik – eskinining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo‘ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi inkorni inkor qonunining mohiyatini bildiradi.

Mazkur qonunga muvofiq obyektiv voqelikdagи narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskinining yangi tomonidan inkor qilinishi ro‘y beradi. Biroq, aksariyat hollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi. «Inkor» tushunchasi kundalik ongda «yo‘q», so‘zi bilan qo‘silib ketadi, inkor qilmoq – «yo‘q» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to‘g‘ridan-to‘g‘ri «yo‘q» degani emas, ya’ni narsani mavjud emas, deb e’lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo‘qotib tashlamoq emas. Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo‘lmasdan, balki eskinining bag‘rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihat mavjud: birinchisi, eskinining o‘rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo‘lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog‘liq ekanligini ham ifodalaydi. Inkorni inkor qonunini tushunish uchun uni nega shunday deb atalishini izohlamoq lozim. Falsafaning bu ta’limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi olamdagи narsa va hodisalarning doimiy ravishda

o‘zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga ko‘ra, har bir mavjud bo‘lgan narsa va hodisa o‘zigacha bo‘lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o‘zi ham sharoitning o‘zgarishi, vaqtning o‘tishi bilan inkor etilishga mahkumdir. Demak, har bir narsa va hodisaning o‘zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko‘proq inkor etishlar bilan amalgalashadi. Insoniyat tarixi – avlodlar almashinuvni tarixidir, deyilganida ham ana shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning muayyan halqasida, ya’ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba’zi belgilar takrorlanadi. Masalan, don o‘simlikdan yana donlarga aylanadi, keyinroq yana o‘simlikka va hokazo.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to‘g‘ri chiziq shaklida emas, doira shaklida bo‘ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang‘ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo‘lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo‘lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo‘ladi. Bu spiralning har bir yangi o‘rami oldingi o‘ramiga nisbatan yuqoriroq bosqichda yuzaga keladi.

Dialektik inkor yangi bilan eski o‘rtasidagi bog‘lanishni butkul rad qiladi, deb tushunmaslik kerak. Yangi qanchalik ilg‘or bo‘lmisin, u yo‘q joydan paydo bo‘lmaydi, balki eskining qobig‘ida asta-sekin shakllanadi.

Shuning uchun ham ko‘p hollarda eskidan yangiga o‘tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom ettiriladi. Demak, yangi bilan eski o‘rtasida vorislik mavjuddir. Inkorni inkor qonuni taraqqiyotda vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana shundan iborat.

Inkorni inkor qonuni mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida ro‘y berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi jamiyatni barpo etishga qaratilgan o‘zgarishlar hamma narsani butunlay yo‘q qilishni bildirmaydi. Aksincha, bu – xalqimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma’naviy yutuqlarni saqlab qolib, ularni yanada boyitib, rivojlantirishdan iboratdir.

Mazkur jarayonning asosiy tamoyili Islom Karimovning yangisini qurmasdan, eskini buzmaslik lozimligi to‘g‘risidagi xulosasida yaqqol o‘z asosini topgan.

2-bob. FALSAFA KATEGORIYALARI VA ULARNING HUQUQIY KATEGORIYALAR BILAN O'ZARO ALOQADORLIGI

1-§. «Kategoriya» tushunchasi. Falsafa kategoriyalari va ularning bilishdagi roli

Har qanday fanning o‘ziga xos qonunlari va asosiy tushunchalari bo‘ladi. Masalan, fizikada fizik qonunlar, og‘irlik, tezlik, kuch kabi tushunchalarga juda ko‘p duch kelish mumkin. Ularning aksariyati bu fan tarixida chuqur iz qoldirgan mashhur olimlarning nomi bilan bog‘langan. Masalan, fizikada Nyuton, Faradey, Avagadro va hokazo. Matematikani esa Pifagor, al-Xorazmiy, Karl Gausning qonunlarisiz tasavvur qilish qiyin. Xuddi shunday falsafaning fanlik maqomini belgilaydigan asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi ham bor. Ularni o‘rganishdan avval, qonun va kategoriya tushunchalarining mazmunini aniqlab olish zarur. An’anaviy tavsiflarga ko‘ra, «Qonun» falsafiy kategoriya sifatida narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, doimiy takrorlanib turuvchi, ichki o‘zaro bog‘lanishlar, aloqalar, munosabatlarning mantiqiy ifodasi ekanligini ko‘rib o‘tdik. Endi kategoriyalarning mohiyati va mazmuni bilan qisqa tanishaylik.

Kategoriya o‘zi nima? Bu so‘z qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko‘rsatish», degan ma’nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardanoq ilmiy tadqiqot yo‘nalishiga aylangan. Falsafa tarixida ularni birinchi bo‘lib, Arastu ta’riflab bergen. U o‘zining «Kategoriyalar» degan asarida ularni obyektiv voqelikning umumlashgan in’ikosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususan, uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substansiya), «miqdor», «sifat», «munosabat», «o‘rin», «vaqt», «holat», «mavqe», «harakat», «azob-uqubat». Bu turkumlashtirish, o‘z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Keyinchalik Arastu «Metafizika» asarida «mohiyat», «holat» va «munosabat» kategoriyalarini ham izohlagan.

Umuman, kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida o‘rganishni aynan Arastu boshlab bergenligi e’tirof qilinadi. Ma’lumki, ungacha Yunonistonda ko‘proq politika va ritorika (notiqlik san’ati) fanlari sistemalashgan, ya’ni fan sifatida tizimga tushirilgan edi. Chunki o‘sha davrda qo‘sinni, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirlarini bilish katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Ammo o'sha davrlarda falsafaning qonunlari, kategoriyalari va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga tushirilmagan, izchil bayon qilingan bilimlar sistemasi sifatida shakllantirilmagan edi. Hatto Yunonistonning mashhur olimi va mutafakkiri Suqrotni ham ana shunday, hali go'yoki shakllanmagan fan bilan shug'ullangani va yoshlarni bu ilm yo'liga boshlab, ularning noto'g'ri tarbiyasiga sabab bo'lganlikda ayblagan ham edilar. Bu hol Suqrotning buyuk shogirdi Arastuning mazkur fanni aniq sistema tarzida ifodalashga kirishishi uchun turki bo'lgan. Olim falsafaning qonun va kategoriyalarini birinchi marta sistemalashtirgan, ta'riflagan va falsafani fan darajasiga ko'targan. O'sha davrdan boshlab falsafa o'z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega bo'lgan fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va ibn Sinolar ham katta ahamiyat bergenlar.

XVII-XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriylar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Xususan, I.Kant qarashlarida kategoriylar «sifat» (reallik, inkor, chegaralash), «miqdor» (birlik, ko'plik, yaxlitlik), «munosabat» (substansiya va xususiyat, sabab va harakat, o'zaro ta'sir), «modallik» (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqelik va novoqelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli o'laroq, Xegel esa mantiqiy kategoriyalarni: «borliq» (sifat, miqdor, me'yor), «mohiyat» (asos, hodisa, mavjudlik), «tushuncha» (obyektiv, subyektiv, absolut g'oya) tarzida izohlagan.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflari bor: 1) obyektiv voqelikning in'ikosi; 2) narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli; 3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha; 4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy – mantiqiy bilish darajalaridan biri. Ko'pchilik mutaxassislar kategoriylar olam, undagi narsa va voqealar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qo'shiladilar. Bu ma'noda borliq, voqelik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning ana shunday kategoriyalaridir.

2-§. Voqelikning tuzilishi va umumiylar aloqadorligini aks ettiruvchi kategoriylar

Falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra, «juft kategoriylar» deb ataladigan umumiylar bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalov-

chi tushunchalar ham bor. Ular narsa va hodisalarning muayyan yo‘nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog‘lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog‘lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydigan umumiylar qonuniyat tarzida vujudga kelgan. Alohidilik, xususiylik, umumiylar. Ular narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon-zamon munosabatlarini konkret tarzda namoyon qiladi. Umumiylar – olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo‘layotgan narsa-hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarning mushtaraklashgan holda namoyon bo‘lishidir. Alohidilik va umumiylar o‘rtasidagi bog‘lanish, aloqadorlik va munosabat «xususiylik» kategoriysi orqali ifodalanadi. Birinchidan, bu kategoriyalarning mazmuni olamning birligi, ularning mantiqiy ifodasi konkretlik bo‘lib hisoblanadi. Ikkinchidan, «alohidalik», «xususiylik», «umumiylar» narsa va hodisalarning makon-zamon konkretligini ifodalaydigan, nisbatan mustaqil mantiqiy tushunchalar tarzidagina namoyon bo‘lishi mumkin. Zero, ularning nisbatan mustaqilligi, ichki birligining namoyon bo‘lish shaklidir. Falsafiy adabiyotlarda, bilishning umumiylar tendensiyasini alohidalikdan xususiylikka va shu bosqich orqali umumiylar o‘tish tarzida yoki aksincha, izohlash keng tarqalgan. Vaholanki, falsafiy bilishning asosiy xususiyati va maqsadi har qanday alohidalikning individual xususiyatlarini umumiylardan farqlashdan iboratdir. Masalan, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish jamiyat taraqqiyotining umumiylar qonuniyati bo‘lsa ham, bu jarayon turli ijtimoiytarixiy makon va zamonda har bir davlat uchun o‘ziga xos bo‘lgan modelni taqozo qiladi. Alohidalikning umumiylardan fargini aniqlash asosida, maxsus usul va vositalarini qo‘llash bozor strategiyasi va taktikasining milliy xususiyatlarini belgilashga yordam beradi. Alohidilik yoki, ba’zi falsafiy adabiyotlarda ko‘rsatilganidek, yakkalikni muayyan xossa hamda xususiyatga ega bo‘lgan narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha aytganda, har qanday hodisa va narsaning ichki sifat muayyanligi, individualligi deyish mumkin.

Antik falsafada alohidilik kategoriyasining mazmuni muayyan turg‘unlikka ega bo‘lgan birlik sifatida qaralagan (Aflatun, Arastu). Xegel, alohidalikni voqealarning zaruriy shakli, makon va zamondagi tafovutlarning namoyon bo‘lish momenti sifatida qaraydi. Falsafada

milliylik va umuminsoniylik masalasida alohidalikning umumiylidandan farqini mutlaqlashtirish natijasida muayyan qarashlar vujudga kelishi mumkin (bu haqda «Osiyotsentrizm» va «Yevropatsentrizm» to‘g‘risida eslash kifoya). Vaholanki, umuminsoniyat sivilizatsiyasining tadrijiy rivojlanishida muayyan ichki birlik mavjud bo‘lib, madaniyat tarixida har bir xalq, millat o‘z o‘rni va ahamiyatini namoyon qiladi. Shuning uchun umuminsoniyat sivilizatsiyasi tarkibidagi milliy madaniyatni mutlaqlashtirish, muayyan siyosiy manfaatlarga asoslangan bo‘lib, buyuk davlatchilik, shovinistik qarashlardan boshqa narsa emas. Bu XX asrning 30-yillarida fashizm mafkurasini shakllantirgan asosiy sabablardan biri edi.

Alohidalikni, umumiyl qonuniyatlar tarkibidagi, elementlarning individual rivojlanish jarayoni sifatida olib qarash kerak. Chunki har qanday umumiyl, dastlab voqelikning alohidaligi tarzida vujudga keladi. Shunga ko‘ra, har qanday sistema o‘z tarkibidagi nisbatan yangi, alohida hodisalarning individual rivojlanishisiz sodir bo‘la olmaydi. Shunday qilib, alohidalik voqelik rivojlanishining xilma-xil shakllarini vujudga keltiradi.

Narsa va hodisalarda alohidaliklarning konkret xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar, bir tomondan, umumiyl kni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinci tomondan esa, umumiyl kning konkretligi alohidaliklar sistemasi tarzida namoyon bo‘ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning nisbatan to‘laqonli bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, muayyan jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy munosabatlari o‘ziga xos bo‘lgan yo‘nalishlarini vujudga keltirgan. Ya’ni, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, diniy ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy munosabatlar umumiyl madaniyat tarkibida «iqtisodiy madaniyat», «huquqiy madaniyat», «siyosiy madaniyat», «ekologik madaniyat» va boshqa nisbatan mustaqil yo‘nalishlarga asos bo‘lgan. Bu madaniyat yo‘nalishlari nisbatan mustaqil bo‘lsa ham, bir-birini taqozo qiladi. Ularning ichki birligi va rivojlanish tendensiyasi umuminsoniyat sivilizatsiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan bo‘lib, umumiyl taraqqiyot darajasiga mos keladi.

Falsafaning bu kategoriysi bilan «butun», «qism» «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik va muayyan farqlar mavjud. Ya’ni «alohidalik», «xususiylik», «umumiyl» narsa va hodisalar rivojlanish jarayonidagi bog‘lanish, aloqadorlik munosabatlarining yaxlitligini nisbatan mustaqil ifodalash bo‘lsa,

«butun», «qism», «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari esa, ularning makon va zamondagi bog‘lanish munosabatlarini jarayon tarzida ifodalashdir. Shu nuqtai nazardan, butunni – umumiylilik, qismni yoki elementni – alohidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi. Shuningdek, muayyan o‘xshashlik bo‘lishiga qaramasdan, sistemani umumiylilik tarzida qabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiyliklarning majmui ham bo‘lishi mumkin. Umuman, narsa va hodisalarini tarkibiy jihatdan «butun», «qism», «element» larga ajratish bilishga xos nisbiy hodisa bo‘lib, uning samaradorligini ta’minlaydigan zaruriy shartdir. Shunga ko‘ra, yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki usuli sifatida olib qaralishi kerak.

Sistema, struktura, element falsafaning muhim kategoriyalaridan hisoblanadi. Sistema grekcha so‘z bo‘lib, mantiqiy ma’nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma’nolarni anglatadi.

Sistema kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilgan elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi. Shu nuqtai nazardan, bilish jarayonidagi sistemalashtirish, nazariy faoliyat sifatida, ularning tashkil qilingan tarkibiy elementlarini tarixiy-mantiqiy izchil tartibga keltirish bilan izohланади.

Xususan, bu elementlarning funksional faoliyatini, ahamiyatiga ko‘ra turkumlashtirish, muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki insonning borliqni bilish faoliyati sistema strukturasidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi obyektiv qonuniyatlarini o‘rganish asosida, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan. Ya’ni, insonning obyektiv reallikni nazariy bilishga asoslangan, tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish faoliyatları samaradorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan unumli foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Sistema – narsa va hodisalarning bog‘lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa hodisalar bog‘lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta’minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lot. tuzilish, tartib) sistemani tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg‘un bog‘lanish, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi mavjud falsafiy qarashlarda strukturani sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil qilgan ele-

mentlarning strukturaviy tuzilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollarini belgilab turadi.

Masalan, tabiatdagi atomlarning tarkibiy tuzilishlari xususiyatlariga qarab, moddiy olamning xilma-xil ko‘rinishlari, DNK yoki RNKlarning o‘zaro ichki munosabatlari, xromosomalar xilma-xilligi, tirik organizmlar turli-tumanligi aniqlangan. Ular umumlashgan holda, moddiy olamning obyektiv realligi tarzida mavjud bo‘lsa ham, moddiylikning konkret strukturasiga ega bo‘lgan sistemalardir. Borliqni tashkil qilgan elementlarning munosabatlariga, makon va zamon xususiyatlariga qarab, ularni «ichki struktura» va «tashqi struktura»ga ajratish mumkin.

Element sistemani tashkil qilgan strukturaning o‘zaro bog‘lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta’minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret ko‘rinishlari tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo‘lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalarning ongli munosabatlari tarzida ko‘zga tashlanadi. Ya’ni, jamiyatning axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlari strukturaviy tuzilishni tashkil qilgan. O‘z navbatida, sistemani to‘laligicha bilish, uning stukturaviy tuzilishidagi har bir elementning funksional faoliyatini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, insonlarning narsa hamda hodisalarga muayyan manfaatlari va ehtiyojlariga ko‘ra yondashishiga qarab, har bir elementni nisbatan mustaqil sistema sifatida olib qarash mumkin. Masalan, ma’naviyat jamiyat strukturasida, uni tashkil qiluvchi muhim elementlarning biri hisoblanadi, lekin ma’naviyatni, maxsus ijtimoiy hodisa sifatida alohida olib tahlil qiladigan bo‘lsak, uning ichki elementlardan iborat mustaqil sistemaligini ko‘ramiz. Shunga ko‘ra, sistema, struktura va element nisbiy tushunchalar bo‘lib, kategoriyalar sifatida, unga bo‘lgan munosabat doirasida konkretlashadi.

Shuning uchun «sistema», «struktura», «element» kabi falsafiy kategoriyalar narsa va hodisalarni bilishga sistemali yondashish, strukturaviy tahlil usullarining umummetodologik asosi hisoblanadi.

Elementlarni sistemani tashkil qilishdagi strukturaviy ahamiyatiga ko‘ra: muhim va muhim bo‘lmasligi, asosiy va asosiy bo‘lmasligi elementlarga ajratib o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki har qanday konkret element, muayyan sistemada makon-zamon xususiyatlariga ko‘ra, o‘z ahamiyatiga ega bo‘ladi. Biroq, ularning ahamiyatini, yuqorida ko‘rsatilganidek, turkumlashtirish mutlaqo nisbiy hamda shartli

xarakterga ega bo‘lib, muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishdan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra, konkret makon va zamonda sistemani tashkil qilishdaki, elementlarning ahamiyati strukturaviy funksiyasida muqobililiklar vujudga kelib turishi bilan izohlanadi. Ya’ni, sistemadagi uning xarakterini belgilab turgan muhim element, ma’lum vaqtga kelib muhim bo‘lmagan elementga aylanishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin.

Umuman, falsafaning sistema, struktura, element kategoriyalari narsa va hodisalarining mazmunini, shaklini ochib berishda metodologik asos bo‘ladi.

3-§. Determinizmning umumiyligi aloqadorliklarini ifodalovchi kategoriyalar

Falsafa fanidagi an'anaviy tarzda yozilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalaridan farqli o‘laroq, bu kategoriyalarni qiyosiy tahlil qilishimizdan maqsad, boshqa juft kategoriyalarning mazmunini ochib berish imkoniyatini yaratishdir. Chunki, «mohiyat va hodisa», «mazmun va shakl», «sabab» va oqibat», «zaruriyat va tasodif», «imkoniyat va voqelik» kategoriyalarining mazmuni, yuqorida ko‘rsatilgan «alohidalik», «xususiylik» «umumiylilik», «butun», «qism», «struktura», «element», kategoriyalari mazmuni bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun biz falsafa kategoriyalarini bir-birini taqozo qiluvchi, nisbatan mustaqil bilish usullarining yaxlit sistemasi tarzida olib qarashni lozim topdik. Lekin, buning uchun har bir kategoriyaning mazmunini alohida tahlil qilish zarur.

«Mohiyat va hodisa» kategoriyasini olib ko‘raylik. Mohiyat-o‘zida alohidalik, maxsuslik, umumiyliking mazmunini, sababini, zaruriyatini, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura, element tarzida namoyon qiladi. Hodisa esa, ularning bog‘lanishi, aloqadorlik va munosabatlarining namoyon bo‘lishidir. Mohiyatni alohidalik, maxsuslik, umumiylilik, butun, qismga mos kelishiga qarab, turkumlashtirib o‘rganish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, subyekt nazarida ahamiyatiga va funksiyasiga ko‘ra, asosiy va asosiy bo‘lmagan, nisbatan barqaror yoki o‘zgaruvchan mohiyatlarga ajratib, ularning rivojlanishi jarayonida o‘rnini almashtirib turishlarini e’tiborga olish zarur.

Narsa va hodisalarining mohiyatini bilish ularning inson ehtiyojlarini qondirish vazifasi va maqsadlarini konkretlashtirishdan iborat. Masalan, jamiyat ustqurmasining siyosiy elementi bo‘lgan davlatning maqsadi va

vazifasi, ularni amalga oshirish usul hamda vositalari mamlakat hududida yashayotgan kishilarning muayyan hayot sharoitlarini ta'minlashdan iborat bo'lib, uning mohiyatini tashkil qiladi.

Shunga ko'ra, har qanday mohiyatni odamlarning manfaatlari va ehtiyojlariga, sivilizatsiya kelajagiga bog'lab tahlil qilgandagina, u ahamiyatga ega bo'ladi.

Narsa va hodisalarni bilish hamda o'zgartirishga inson muayyan ehtiyojlar asosida yondashadi. Bu yondashish subyektiv xarakterga ega bo'lib, uning konkret ehtiyojlari va manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi.

Masalan, chanqagan kishi uchun suv uning chanqovini qondirish, fizik uchun-agregat holati, elektr tokini o'tkazishi yoki optik xususiyatlari, ximik uchun, uning N₂O kimyoviy birikma sifati, tegirmonchi uchun tegirmon parragini aylantirish xususiyatlari asosiy mohiyat hisoblanadi.

Narsa va hodisalar doimiy rivojlanib turishi jarayonida, ularning mohiyati ham, shunga mos tarzda hodisa ham o'zgarib turadi. Mohiyatdagi har qanday juz'iy o'zgarish ham, uning muqarrar o'zgargan hodisasida ifodalanadi. Masalan, suvning elektr tokini o'tkazish xususiyati, uning temperaturasiga bog'liqligi aniqlangan. Agar biz suvning temperaturasini ma'lum darajada ko'tarsak, uning elektr tokini o'tkazish

xususiyatini o'lchaydigan asboblar bu o'zgarishlarni qayd qilmasligi mumkin. Lekin, bundan suvning mohiyatini ifodalaydigan elektr tokini o'tkazuvchanlik xususiyati yo'qolgan, degan xulosa kelib chiqmaydi.

Narsa va hodisalarning mohiyat va hodisa tarzida bog'lanishlari makon va zamondagi muayyan konkretligi bilan ajralib turadi. Mohiyat va hodisa o'z xususiyatlariga ko'ra sistema, struktura va elementlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shuning uchun har qanday hodisani va mohiyatni tahlil qilishda aniq tamoyillarga asoslanish lozim.

Mazmun va shakl. Falsafada mazmun va shakl kategoriysi narsa, hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazmun – narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishi bo'lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.

Shakl esa – sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishlari, aloqadorliklari, munosabatlarining ifodalanishidir.

Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va shakl o‘rtasidagi bog‘lanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish an’anaviy xarakterga ega. Ya’ni, mazmunning o‘zgarishi shaklning o‘zgarishiga olib keladi, degan xulosa ustuvor bo‘lgan. Vaholanki, sistemaning elementlari strukturaviy bog‘lanishlarsiz, aloqadorliklarsiz mavjud bo‘lish mumkin bo‘lmaganidek, mazmun va shakl ham bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi. Biz faqat nisbatan mustaqil bo‘lgan mazmun va shaklni bilish xususiyatiga qarab, shunday mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakldagi har qanday juz’iy o‘zgarish ham bir-biridagi o‘zgarishlarni taqozo qiladi, faqatgina biz ularni bilib olgan yoki bilmagan bo‘lishimiz mumkin. Masalan, suvning agregat holati, shakli o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi. Ya’ni, suv bug‘ holatida chanqoqni qondirmaydi, o‘simliklarni sug‘orish uchun yaramaydi.

Bundan tashqari, elementlarning strukturaviy bog‘lanishlari sistemaning xarakterini belgilashidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, strukturaviy bog‘lanishlar shakl sifatida sistemaning mazmunini ham belgilab turadi. Shunga ko‘ra, shaklni mazmunga nisbatan «ikkilamchi» deyish noo‘rindir. Bunga ijtimoiy hayotdan misol keltiradigan bo‘lsak, demokratiya boshqarishning shakli sifatida jamiyatning mazmunini belgilab turadi.

Falsafada mazmun va shakl kategoriyasini boshqa kategoriyalar tizimidan ajratib olib, nisbatan mustaqil tahlil qilganda, unga insonlarning muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishlarini alohida e’tiborga olish kerak. Bu umuman mazmun va shaklning obyektiv xarakteriga putur yetkaza olmasa ham, ularni baholashdagi subyektiv, muqobil qarashlarda o‘z ifodasini topadi.

Sabab va oqibat. Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga ko‘ra, ularning mazmuni va shakli o‘zgarib turadi. O‘z navbatida, har qanday sistemaning elementlari o‘rtasidagi strukturaviy bog‘lanish konkret mazmunga ega bo‘lib, unga mos mazmunlarda o‘z ifodasini topadi.

Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakl o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘lanish, munosabatning xarakteri muayyan sababga asoslanadi. Ya’ni, narsa va hodisalarning sistema shaklida namoyon bo‘lishi, muayyan sabab oqibatidir.

Demak, narsa va hodisalarning tadrijiy rivojlanishi sabab-oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, sabab – biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir. Narsa va

hodisalarning rivojlanishi jarayonidagi sabab va oqibat munosabatlarini bilishda, ularning makon va zamondagi tarixiy va mantiqiy izchilligi muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, har qanday sabab avvalgi hodisalar yoki ularning rivojlanish oqibati tarzida namoyon bo‘ladi. Ikkinci tomondan esa, bu oqibat keyingi rivojlanishning sababi hisoblanadi.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi asos bo‘lgan sabablar tizimi mavjud. Ularni shartli ravishda: asosiy va asosiy bo‘lmagan, muhim va muhim bo‘lmagan sabablarga ajratish mumkin.

Sababning mohiyati avvalgi hodisalarning oqibati sifatida vujudga kelayotgan hodisalar uchun sababligidadir. Shunga ko‘ra, sababni bir vaqtning o‘zida oqibat tarzida qarash mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, har qanday oqibat sabab tarzida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, sababni narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon va zamondagi davriy takrorlanishdan farqlash kerak. Chunki, sabab mavjudlikning genetik bog‘lanishlarini, aloqadorliklarini ifodalashi bilan birgalikda, ularning istiqbollarini ham belgilab beradi. Gegel tili bilan aytganda, sabab-mohiyatning harakatdagi mavjudlik holatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1) uning *obyektiv xarakteri* narsa va hodisalarning ichki, tarkibiy elementlari munosabatlariga xos bo‘lib, mohiyatning real mavjudlik holatini ifodalaydi;

2) *sababning konkretligi* narsa-hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqadi, hamda uning individualligini ta’minlaydi;

3) *sabab umumiy xarakterga ega* bo‘lib, hech qanday narsa va hodisaning rivojlanishi sababsiz sodir bo‘lmaydi;

4) *sabab zaruriy* bo‘lib, muqarrar ravishda, muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi;

5) *sababning uzluksizligi*, bir tomondan, turli sabablarning izchil bog‘lanishlarini, munosabatlarini, ikkinchi tomondan, har bir sababning oqibat tarzida oldingi sabab bilan bog‘liqligini xarakterlaydi.

Zaruriyat va tasodif. Obyektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif kategoriysi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. Zaruriyat – narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa – zaruriyatning namoyon bo‘lish shaklidir.

Zaruriyat va tasodif kategoriysi olamni falsafiy bilishning mushtarakligini va samaradorligini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan,

zaruriyatni turkumlashtirganda, uning makon va zamondagi strukturaviy tuzilishini tashkil qilgan elementlarini sistemali-strukturali tahlil qilish lozim. Shuningdek, zaruriyatni sabab-oqibat munosabatlari tarzida tushunish lozim. Zaruriyat narsa va hodisalarning muqarrar rivojlanish qonuniyatdan kelib chiqadi hamda obyektiv sabablar tizimiga asoslanadi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi tarixiy obyektiv zaruriyatdir, uning «o'zbek modeli» asosida amalga oshirilishi zaruriyatning konkret namoyon bo'lishidir. Bunda tasodif «subyektivlashtirilgan» jarayon sifatida ko'zga tashlansa ham, obyektiv hodisadir. Chunki, O'zbekistonning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishining milliy xususiyatlari, bozor munosabatlariga o'tishning xarakterini belgilab beradi.

Zaruriyatlar tabiiy-tarixiy rivojlanishning obyektiv qonuniyatlaridan kelib chiqib, doimiy o'zgarib turadi. Zaruriyatlarning tasodiflari tarzida namoyon bo'lishi, o'z navbatida, boshqa hodisalar uchun zaruriyat maqomiga ega bo'ladi. Bundan ko'rinish turibdiki, zaruriyat va tasodif o'rtasidagi bog'lanishlar sabab-oqibat munosabatlari xarakteriga mos keladi.

Zaruriyat va tasodif, kategoriyasiga boshqa kategoriylar kabi, uni aniqlash va baholashga muayyan subyekt ehtiyojlari, manfaatlari nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsa, muqobil qarashlar vujudga keladi.

Masalan, sobiq Ittifoqning parchalanib, mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, ayrim nazariyotchilar tomonidan tasodifiy hodisa deb baholanib, uning zaruriy, obyektiv qonuniy xarakteri inkor etilmoqda.

Vaholanki, jamiyat taraqqiyotida hech qanday imperianing abadiy bo'lmasligini tarixiy tajribalar doimiy isbotlab kelgan. Demak, bunda biz zaruriyatni ko'rib turibmiz.

Zaruriyat va tasodifning aloqadorligi, bog'lanishi shundaki, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi, ya'ni zaruriyatning muqarrarligi tasodifga ham xosdir. Shuning uchun falsafiy adabiyotlarda tasodiflarning muqarrarligi, tarixiyligi, sababiyligini, qonuniyligini inkor qiluvchi qarashlar g'ayriilmiydir.

Imkoniyat va voqelik – falsafaning muhim kategoriylaridir. Imkoniyat narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish tendensiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Voqelik esa, shu qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bo'lishidir. Imkoniyat va voqelik kategoriyasini ham, bilishning umumiyligi

mantiqiy tamoyillariga ko‘ra, boshqa kategoriylar bilan bog‘liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyat narsa va hodisalar rivojlanish jarayonining ichki birligini ifodalaydi va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, sabablarini, zaruriy qonuniyatlarini, mohiyatini o‘zida mujassamlashtirgan.

Imkoniyatning voqelikka aylanishi qonuniy hodisadir. Uning real, formal, mavhum imkoniyat deb ataladigan shakllari bor. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin demokratik huquqiy jamiyat qurishi uchun real imkoniyatlar vujudga keldi. Bunday imkoniyatlar I.A. Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ko‘rsatib berildi.

Imkoniyat kategoriyasini, uning shart-sharoiti bilan aralashtirmaslik kerak. Shart-sharoitlar oqibat, tasodif, hodisa sifatidagina imkoniyatga ta’sir qiladigan omillar majmuasidan iborat. Mavjud voqelik tarixiy genezisiga ko‘ra, o‘zida boshqa voqelikning imkoniyatlarini mujassamlashtirgan bo‘ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichi real voqelik sifatida, uning keyingi rivojlanish imkoniyatlarini namoyon qiladi va hokazo.

DUNYONI ANGLASH FALSAFASI

1-bob. FALSAFADA ONG, G‘OYA VA MAFKURA MASALALARI. HUQUQIY ONG IJTIMOIY ONGNING BIR TURI SIFATIDA

1-§. Ongning paydo bo‘lishi va ijtimoiy-tarixiy mohiyati

Ong nima? Inson azal-azaldan o‘zigagina xos bo‘lgan ongning nima ekanligi to‘g‘risida o‘ylab, bahslashib keladi. Bu bahslarning bir jihat, ong tabiat mahsulimi yoki inson ongi ilohiy yaratilganmi degan masaladan iborat. Ikkinchi jihat esa, inson dunyoni doimo bir xil anglaganmi, ya’ni asrlar davomida inson ongi takomillashib kelganmi yoki hamon o‘sha-o‘shami degan muammo bilan bog‘liq.

«O‘zingni bilsang, olamni bilasan», – degan edi Suqrot. Aforizmga aylanib ketgan bu fikr ortida olam kabi inson ham siru sinoatlarga boy, u o‘zini bilish orqali olam mohiyatini anglashga yo‘l ochishi mumkin, degan g‘oya yotibdi. Shu ma’noda, inson o‘zini tashqi olamdan ajratib, alohida bir mo‘jiza va tadqiqot mavzui sifatida o‘rganishga harakat qila boshlagan paytdan buyon uni o‘ylantirib kelayotgan muammolardan biri ongning mohiyati, uning kelib chiqishi masalasidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ongning tabiatini anglash masalasi – eng qadimiy falsafiy masalalardan biri, deyish mumkin. Garchand ong va uning turli xususiyatlari insonga xos hodisa sifatida psixologiya, adabiyot, sotsiologiya kabi fanlarning tadqiqot mavzui doirasiga kirgan bo‘lsa-da, ongning mohiyati, uning turli ko‘rinishlari o‘rtasidagi munosabat kabi masalalarni o‘rganish bilan aynan falsafa shug‘ullanadi.

Falsafa tarixida ong olamni vujudga keltiruvchi dunyoviy aql, mutlaq ruh sifatida, ya’ni Gegelning fikricha, Ollohning kuchini sinonimi sifatida, yoki ko‘zga ko‘rinmas, olamni aks ettiruvchi, olamni ideal modelini yaratuvchi miyaning funksiyasi sifatida talqin qilingan (materializm).

Ongning mohiyati masalasi eng qadimiy muammolardan biri ekan, uni anglash jarayonida turli xil javoblar bo‘lganligi tabiiy. Bu savolga eng qadimiy javob diniy va mifologik qarashlar doirasida berilgan.

Ongni diniy tushunish uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo‘jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi.

Ko‘pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning mittigina aks etishi, uning namoyon bo‘lish shakli tarzida tavsiflanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir. Jon o‘lishi bilan ong ham o‘ladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo‘lsada, ular hamon o‘zining ko‘plab tarafdarlariga ega. Zero, u olam va odamning yaratilganligi masalasi bilan bevosita bog‘liqdir. Kimda-kim olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati ekanligini tan olishi tabiiy.

Ong moddiylikning miyada aks etishi deb tushunishda, uning mohiyati inson tanasi faoliyati bilan bog‘lab talqin etiladi. Bunday qarashlar ham qadimiy ildizlarga ega. XVIII asrga kelib ongni bevosita inson miyasi faoliyati bilan bog‘lashga harakat qilgan qarashlar ham shakllandi. Ayni paytda materialistik yo‘nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo‘lgan. Falsafa tarixida «**Vulgar materializm**» deb nom olgan oqim namoyandalarining qarashlari bunga misol bo‘la oladi. Ularning fikricha, xuddi jigar safro ishlab chiqargani kabi, miya ham ongni ishlab chiqaradi. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, balki moddiy hodisa, degan xulosa chiqadi. Vaholanki, safroni ko‘rish mumkin, ammo ongni ko‘rib ham, ushlab ham, o‘lchab ham bo‘lmaydi.

XX asrda ong olamni miyada in’ikos etishi degan talqin biroz o‘zgardi. Ong olamni, atrof muhitni in’ikosi emas, in’ikos miyaning bir funksiyasi degan fikrlar paydo bo‘ldi.

Ong bor, u mavjud, ong borliqni bizda namoyon bo‘lishidir. Ong so‘zsiz hisoblash tizimidir. Biz olam haqida nimani bilsak, ular bizga ong orqali berilgan. Bizga predmetlarning o‘zi berilmagan, balki borliqning subyektiv obrazi berilgan. Olamni bilishga kirishishimizdan oldin, u ma’lum obrazlar orqali bizga tushunarlidir, tasniflangan, turlarga bo‘lingan. Unda ma’lum bir – chapdan, o‘ngdan, ko‘p, kam degan o‘lchovlar mavjud. Olam hamisha baholangan, talqin qilingan. Agar biz yulduzli osmonga qaraydigan bo‘lsak, biz oldingi avlodlarning ongi unga avvalroq qaratilganligini ko‘ramiz, ya’ni biz bilamizki, yulduzlar yorug‘ligiga qarab bir nechta sinflarga bo‘linadi, yorug‘lik eng yaqin yulduzdan ham ko‘p yillar davomida keladi, uzoqroqda joylashgan ba’zi yulduzlar hozir so‘ngan, lekin ularning yorug‘ligi endi kelyapti va hokazo. Olamda ong tomonidan qamrab olinmagan narsa, hodisa yo‘q. Ong va borliqni bir-biridan ajratgan faylasuflar ongni o‘zi ham borliq ekanini, borliqning bir ko‘rinishi ekanini tushunishmagan. Olam ongsiz

to‘liq bo‘lmaydi. Ong xuddi olamni qurishni to‘ldiradi, ong orqali uning go‘zalligi ochiladi. Ong barcha bilimlarning va olamni anglashning manbai.

Xo‘sh, ong tarixan qachon va qanday omillar ta’sirida shakllangan? U haqiqatan ham miya bilan bog‘liqmi?

Ong tarixi insonning inson bo‘lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog‘liqdir. Uzoq vaqt davomida inson, uning ongi planetar, ya’ni Yer shari doirasidagi hodisa sifatida qarab kelindi. Hozirgi zamon fani masalaga kengroq doirada yondashish zarurligini ko‘rsatmoqda. Chunki fan dalillari inson paydo bo‘lishini faqat Yerda kechgan jarayonlar bilan cheklab qo‘yish to‘g‘ri emasligini, u koinot evolutsiyasining tabiiy hosilasi ekanligini tobora chuqurroq isbotlamoqda.

Inson biologik va ijtimoiy harakatning tashuvchisi ekan, harakat shakllari o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni, uning yuqori shakllari quyi shakllariga bog‘liqligini, tayanishini, ulardan o‘sib chiqishini unutmaslik lozim. Boshqacha aytganda, ular o‘rtasida uzviy aloqadorlik mavjud.

Ong tarixi quyosh sistemasi va unda millionlab yillar davomida sodir bo‘lgan o‘zgarishlardan ham ayricha olib qaralishi mumkin emas. Aynan mana shu jihatdan olganda, ongning shakllanishini kosmik hodisa sifatida qarash ham mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ongga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Ong – bu yuksak darajada tashkil topgan materiya – inson miyasining xossasi.

2-§. In’ikos, uning mohiyati va shakllari

In’ikos shakllari evolutsiyasi va ong. Ong in’ikosning oliy shaklidir. Xo‘sh, in’ikos deganda nima tushuniladi. In’ikos muayyan ta’sir natijasida paydo bo‘ladi. Buning uchun esa, hech bo‘limganda, ikkita obyekt bo‘lishi va ular o‘rtasida o‘zaro ta’sir bo‘lishi lozim. In’ikos predmet, moddiy hodisalarning o‘zaro ta’siri natijasida bo‘ladigan o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirishdir. Eng umumiy ma’noda, har qanday predmetlarning u bilan ta’sirlashuvda bo‘lgan boshqa predmetlarning ta’sirini muayyan tarzda aks ettirishi bilan bog‘liq xossasiga in’ikos deyiladi.

Masalan: Qumda yurgan odamning oyoq izlari qoladi. Silliqqina suv yuzasida atrofdagi predmetlar – uy, odamlar, daraxtlar aks etadi. Bu hodisalarning hammasida bir predmetning ikkinchi predmetga ta’siri natijasida ikkinchi predmetda sodir bo‘lgan tashqi o‘zgarishlarni ko‘rish

mumkin. Ammo in'ikos faqat ushbu o'zgarishlarda ifodalanmay, balki u o'zaro ta'sir qilayotgan narsalarning ichki jarayonlari bilan ham bog'liq. Masalan: ikki predmetning o'zaro ta'siri natijasida ularda ichki, tarkibiy o'zgarishlar ham bo'ladi.

In'ikos bo'lishi uchun predmetlararo o'zaro ta'sir va o'zgarish bo'lishi shart. In'ikos tashqi ta'sirga mos, adekvat o'zgarishlar majmuasidir. Shunday ekan har qanday o'zgarish emas, faqat tashqi ta'sirga mos o'zgarishlar in'ikosga kiradi.

In'ikosning ichki asosi obyektlarning sabab-oqibat munosabatlaridir. Sababiy bog'lanishlar obyektivdir. O'zaro ta'sir natijasida bir hodisadan ikkinchisiga modda yoki energiya, ular asosida tarkib ham o'tadi. Bir hodisaning tarkibiy o'zgarishlarini o'zaro ta'sir natijasida ikkinchisiga o'tishi in'ikosning mohiyatini tashkil qiladi. Taraqqiyot natijasida in'ikos ham rivojlanib kelyapti va u o'ziga xos shakllarda takomillashib boryapti.

In'ikosning shakllari:

- notirk tabiatda in'ikos;
- tirik tabiatda in'ikos;
- psixik in'ikos;
- ong.

In'ikosning quyi shakli – notirk tabiatdagi in'ikos hisoblanadi, oliv shakli esa – ongdir.

Notirk tabiatdagi in'ikos – ong vujudga kelishining asosidir. Noorganik tabiatdagi in'ikos fizikaviy – ximiyaviy o'zgarishlarning majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. In'ikosning asosiy xususiyati – uning faolligidir. In'ikosning faolligi notirk tabiatda ham uchraydi. Inson ongida in'ikos faolligi o'zining oliy shakliga erishadi.

Tirik tabiatda biologik in'ikosning shakli bu seskanish (sezgi)dir. Sezgi o'simliklarda ham mayjuddir, u o'simliklar faolligini ta'minlaydi. Masalan, kungaboqarning nurga nisbatan tovlanishi yoki chivintutarning gulga qo'ngan hasharotlarni ushlashi. O'simliklar har qanday omillar ta'siriga javob bermaydi, balki biologik ahamiyatga ega bo'lganlarigagina javob beradi. Shu bilan birga o'simliklar bu omillarni izlamaydi, agar ular bevosita organizmga ta'sir qilmasa. Masalan: O'simlik o'ziga bevosita qaratilmagan nurga e'tibor bermaydi. O'simliklarni faolligi qanchalik sodda bo'lmasin, ular uchun yetarlidir.

Hayvonot dunyosi vujudga kelgandan keyin xatti-harakat ham shakllangan. Hayvonlar xatti-harakati tufayli o'ziga zarur bo'lган

narsalarni topib olishgan. Buning natijasida in'ikos shakli ham o'zgargan. Masalan: bir hujayrali organizmlarni trubkadagi suvga solib uni bir tomonini qizdirlasak, issiqqa ta'sirlanuvchi bir hujayrali organizmlar trubkaning qizdirilgan tomoniga o'tadi, ya'ni ta'sir qilayotgan narsaga nisbatan aks ta'sir paydo bo'lyapti.

Tirik organizmlar rivojining yuqoriroq bosqichida endi ta'sir qilayotgan narsaga yaqinlashish yoki uzoqlashish bilan cheklanib qolinmaydi. Tashqi ta'sirni qabul qilgan hayvon turi murakkab harakatlarni bajara boshlaydi. Bu xatti-harakatlarda maqsadga muvofiqlik paydo bo'ladi. Ularni biz instinctiv xatti-harakatlar deymiz. Instinkt bir turni hammasiga taalluqli bo'lgan avloddan-avlodga beriladigan murakkab xatti-harakatlardir. U oddiy psixik in'ikos, sezgini vujudga kelishi bilan bog'liq. Tirik mavjudotlar sezgilar yordamida predmetlarning alohida xususiyatlarini aks ettira borgan. Masalan: Pashsha suvni yaltillashini, qurbaqa hasharotlarni harakatlanishini sezadi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, instinct ma'lum bir tor sharoitlarda maqsadga muvofiq bo'ladi. Sharoit o'zgarishi bilan hayvon faoliyatidagi maqsadga muvofiqlik yo'qoladi. Agar suv sathini oyna bilan almashtirsak ham pashsha urug' qo'yaveradi. Agar asalari qurgan inini tagini teshib qo'ysak ham ular asal bilan to'ldiraveradi.

Keyinchalik hayvonlarda hissiy qabul qilish paydo bo'lgan. Hissiy qabul qilish tufayli hayvonlar narsa va hodisalarni to'laligicha, jamlikda, uning shakli va kattaligini ham aks ettiradi.

Taraqqiyotni yanada yuqoriroq bosqichida hayvonlar tashqi olamdag'i predmetlararo murakkab munosabatlarni ham aks ettira boshlagan. Bu hayvonlardagi tafakkurning elementi hisoblanadi. Ushbu hodisani olimlar maymunlar ustida o'tkazishgan tajribasida kuzatishgan. Oldin qafas ichida maymunni qo'li yetmaydigan qilib primanka qo'yishgan. Maymun primankani qo'li bilan olishga harakat qiladi. Qo'li yetmagach, tayoq yordamida primankani oladi. Tajribani davom etkazishib, primankani tayoq bilan ham yetmaydigan joyga qo'yishadi. Shunda maymun yana boshqa tayoq topib, ularni bir-biriga ulab primankani olishga harakat qiladi. Ushbu murakkab harakat murakkab holatning in'ikosidir. Maymun primanka, bambuk tayoqchalar, o'zini katagi va xatti-harakati o'rtaсидаги munosabatni tushunmaganda, yuqoridagi murakkab harakatni amalga oshirmagan bo'lar edi.

Shu ma'noda in'ikos hamma joyda mavjud. Ayni paytda har bir holatda u o'ziga xos xususiyatga egadir. Chunonchi, notirik tabiatdagi

in’ikos bilan tirik tabiatdagi in’ikos bir-biridan tubdan farq qiladi. Notirik tabiatda in’ikos oddiyligi bilan ajralib tursa, tirik tabiatda u murakkab xarakter kasb etadi. Shu bilan birga, notirik tabiatda in’ikos sustligi, tirik tabiatda esa, faolligi bilan ajralib turadi. Tirik tabiatda in’ikos tashqi ta’sir natijalaridan faol foydalanishni keltirib chiqaruvchi axborotli in’ikos shaklini oladi.

Ayni paytda axborotli in’ikosning o‘zi tirik tabiatning har bir darajasida yanada murakkablashib, o‘ziga xoslik kasb etadi. Mana shunday murakkablashuv jarayoni psixik in’ikosning shakllanishiga zamin yaratdi.

Aynan psixik in’ikos darajasida voqelikka faol munosabat ham shakllanadi, in’ikosning ilgarilab borishidan esa, o‘z navbatida, uning o‘ziga xos, yuqori shakli bo‘lgan ongning paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratdi.

Ong vujudga kelishi uchun faqat biologik qonunlarning o‘zi yetarli emas. Yangi predmetli-amaliy faoliyat – mehnat zarurdir. Mehnat qilish jarayonida inson ongi shakllana boshlagan. Mehnat inson va tabiat o‘rtasida amalga oshadigan jarayondir. Bu jarayonda inson modda almashinuvini boshqaradi va nazorat qiladi. Moddiy faoliyat asosida inson ongi o‘sadi. Mehnat jarayonida rivojlangan qo‘l butun organizmni, shu jumladan miyaning ham takomillashuviga ta’sir ko‘rsatgan. Mehnat faoliyati ta’sirida miyaning rivojlanib borishi munosabati bilan insonning sezgi a’zolari ham takomillashib borgan. Masalan: badan bilan sezish tobora aniqroq va nozikroq bo‘lib borgan, qulqoq inson nutqining eng nozik tafovutlari va o‘xshashliklarini eshitishga qodir bo‘lgan. Ko‘z o‘tkirroq ko‘radigan bo‘ldi.

Ongning tarkibi qanday? Inson ongi nafaqat tabiat mahsuli, balki jamiyat mahsuli hamdir. Shuning uchun ong murakkab tarkibga, tuzilishga ega.

Har xil bilimlar, ehtiyojlar, his-tuyg‘ular ong tarkibiga kiradi. Ongning asosini bilimlar tashkil qiladi. Ongning tarkibi bir butun tizimni tashkil qiladi, ya’ni alohida elementlardan tashkil topgan tizimdir. Uning elementlari o‘zaro qonuniy munosabatlarda bo‘lishadi.

Sezgi, hissiy qabul qilish (idrok), tasavvur, tushuncha, tafakkur ongning yadrosini tashkil qiladi.

Ongning asosiy funksiyasi inson xatti-harakatlarini xayolan boshqarish, tartiblashtirish, ularni ketma-ketligini nazorat qilish va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan xatti-harakatlarni loyihalashtirishdir.

Ongning shakllari: fikr, shubha, e'tiqod, ishonch, bilim.

Ong va miya. Ong inson miyasi bilan bog'liqdir. Ong miyasiz bo'lmaydi. Lekin ong miyaning qaysi jihat bilan bog'liq? Miyaning og'irligigami, miya va tana og'irligining nisbatigami, miyaning hajmigami?

Ong miyaning og'irligiga bog'liq emasligini mutafakkirlar allaqachon aniqlashgan. Ong miya og'irligining tana og'irligi nisbatiga hech qanday aloqasi yo'q. Masalan: Kit miyasining og'irligi tana og'irligidan 500 marta kam, arslonniki 150 marta kam. Bundan arslon kitga nisbatan ongli degan fikr kelib chiqmaydi. Inson miyasining og'irligi tana og'irligiga nisbatan 60-65 marta kam. Shimpanze miyasining hajmi 400 sm³, avstralopitekniki 600 sm³, pitekantropniki 850 sm³, neandertalniki 1100 sm³, hozirgi odamlarniki 1400 sm³ tashkil qiladi. Inson ongi qisman miya hajmiga ham bog'liq emas.

Inson miyasi nozik, murakkab tuzilishga ega bo'lgan tizimdir. Aynan uning murakkabligi ong paydo bo'lishi mumkinligining asosiy shartidir. Bunday holat ham uzoq davom etgan evolutsiyaning tabiiy hosilasidir.

Ammo yuksak darajada tashkil topgan miyaning o'zi ham hali ong paydo bo'lishi uchun yetarli emasligini unutmaslik lozim. Bu miya normal funksional faoliyat ko'rsatishi zarur. Va nihoyat, normal funksional faoliyat ko'rsatuvchi miya sohibi ijtimoiy munosabatlarga tortilgan bo'lishi shart.

Shu o'rinda vulgar materialistlar qarashlariga yana bir marta murojaat qilish lozim. Agar ular haq bo'lganida edi, hayvonot olamiga tushib qolgan inson bolalarida ham ong shakllangan bo'lishi kerak edi. Ular hayvonlar orasida bo'lganida ham jigar safro ishlab chiqaraveradi. Ammo, miya ongni ishlab chiqarmaydi.

Bundan ongning ijtimoiy-ruhiy hodisa ekanligi va u faqat jamiyatdagina shakllanishi mumkinligi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

Ong va ruhiyat (psixika). Ong psixik in'ikosning o'ziga xos, yuksak shaklidir. Ammo, bu psixika va ong tushunchalarini aynanlashtirish uchun asos bo'la olmaydi. Negaki, psixika hayvonlarga ham xosdir. Gap inson psixikasi haqida ketganda ham, u «ong» tushunchasiga nisbatan keng qamrovvlilik kasb etishini unutmaslik lozim.

Z.Freyd fikricha, psixika ongsizlik, ong osti hodisalarini va ongning o'zidan iborat uch qatlamdan tashkil topgan. Inson hayoti va faoliyatida ong bilan bir qatorda ongsizlik va ong osti hodisalari ham muhim ahamiyatga ega.

Psixologlar fikricha, inson farzandining kamol topa borishi bilan bir qatorda ko'plab funksiyalar ong nazorati ostidan chiqib avtomatik xarakter kasb etishi bilan xarakterlanadi. Aytaylik, birinchi marta mashinaga o'tirganimizda, birinchi marta surat olayotganimizda deyarli barcha harakatlrimiz ongning qattiq nazorati ostida bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan esa ko'pgina harakatlarni ongsiz tarzda, anglamagan holda bajara boshlaymiz. Bunday holat inson faoliyatining xilma-xil sohalari, yo'nalishlarida, ularga ongning faol tarzda aralashishini, ya'ni qayta faoliyatni o'z nazoratiga olishi mumkinligini inkor etmaydi. Xattiharakatlarning ongsizlik sohasiga ko'chishi bir tomondan ong «yuki»ning yengillashishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, ongning asosiy kuchi, quvvati, «diqqati»ni, inson hayoti uchun muhim bo'lgan harakat, jarayonlarga qaratilishiga imkoniyat yaratadi.

Ongsizlik doirasiga ong nazoratidan tashqarida qolgan sezgi, tasavvur, instinct va intuitsiya kabi hodisalar ham kiradi. Ana shu xususiyatlarni inobatga oladigan bo'lsak, ongsizlik ong mavjudligi va rivojlanishining tabiiy sharti deyish mumkin. Ong osti hodisalari ham psixik jarayonlarning muhim bo'g'inidir. Z.Freyd fikricha, ular ongsizlik bilan ong o'rtasidagi chegaraviy sohadir. «Gap tagida gap bor, kosa tagida nim kosa» naqlida ong ostiga xos bo'lgan xususiyatlar ifodalangan, deyish mumkin. Negaki, har qanday faoliyatimizda ayni vaqtda biz uchun ahamiyati bo'lmas halatlar bo'ladi.

Ammo, bu ular kuzatishdan, nazoratdan chetda qoladi, degani emas. Biz uchun ahamiyatli xarakter kasb etganda, ular ong ostidan ong sferasiga ko'chishi mumkin. Masalan, biror joyga borayotganda, asosan, maqsadga tomon harakat qilinadi, ammo yo'lda uchragan boshqa narsa va hodisalar ham kuzatiladi, esda qoladi. Ana shulardan kelib chiqqan holda, ong osti inson ongli faoliyatining o'ziga xos kuzatuvchisi, zarur bo'lgan hollarda senzori sifatida chiqishdek sifatlarga ega, deyish mumkin.

Ongning tuzilishi. Ong o'zaro aloqada bo'lgan turli unsur (element)lardan tashkil topgan murakkab ma'naviy tuzilishga ega.

Ong in'ikosning o'ziga xos shakli ekan, avvalo, unda aks ettiriladigan obyekt haqidagi muayyan bilimlar hissiy va ratsional shaklda o'z ifodasini topadi. Demak, bilim ong tuzilishining asosiy unsuridir. Shuning uchun ham bilimlarning boyib, chuqurlashib borishi ong rivojlanishini xarakterlaydigan muhim belgi sifatida yuzaga chiqadi.

Ong tuzilishining yana bir unsuri xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan kechinmalardir. Ularda in'ikos obyektiga munosabat

gavdalanadi. Bilimlarimizning chuqurligi va ko'lamliligi, hissiyotlari-mizning namoyon bo'lishi yoki bo'lmasligi intilishimiz – irodamizga bog'liq. Iroda kuchi olamni anglash jarayonida yuzaga keladigan har qanday to'siqlarni yengib o'tishga, ko'zlangan maqsad yo'lida timmay harakat qilishga yo'l ochadi.

Iroda tabiatning in'omi emas ekan, uni tarbiyalash, kamol toptirish shaxs hayotida, uning jamiyatdagi o'z o'mini topishida muhim ahamiyatga ega. Zero, irodasizlik eng ulug' niyat va maqsadlarni barbod qilibgina qolmay, insonning to'g'ri yo'lidan toyib ketishiga va turli salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga olib kelishi ham mumkin.

Bilimlar, ehtiyojlar, his-tuyg'ular ong tarkibiga kiradi. Ongning tarkibi bir butun tizimni tashkil qiladi, ya'ni alohida elementlardan tashkil topgan tizimdir.

Sezgi, hissiy qabul qilish, tasavvur, tushuncha, tafakkur ongning yadrosini tashkil qiladi.

Ong va til. Til ongning insongagina xosligini isbotlovchi omillardan biridir. Xo'sh, til deganda o'zi nima tushuniladi? Til, bu eng avvalo, muayyan belgilar tizimi demakdir. Ammo, tilning xususiyatlarini shu bilangina cheklash to'g'ri emas. Negaki, muayyan belgilar tizimi hayvonlarga ham xos, ular yordamida jonzodlar o'rtasida muayyan axborot almashinushi sodir bo'ladi.

Aytaylik, kabutarlarining «muhabbat» raqsi, jonzodlarning xavf-xatar paydo bo'lganda turli tovush – belgilar yordamida bir-birini ogohlantirishi, ayrim hayvonlarning o'zi yashaydigan hududni turli yo'llar bilan «chegaralab» chiqishi ana shunday belgilar tizimining o'ziga xos ko'rinishlaridir. Lekin, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, bu belgi – signallar tizimi uzoq davom etgan evolutsiya davomida hosil qilingan reflekslar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Xatti-harakat yoki boshqa belgilar yordamida uzatilayotgan axborotning mazmuni muayyan vaziyatdagi holat bilan belgilangan bo'ladi. Bundan farqli o'laroq inson nutqi, tili muayyan vaziyat, makon va zamondan xoli bo'lishi, unga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Boshqacha aytganda, u o'zida o'tmishni, hozirgi holatni va istiqbolni ham ifodalashi mumkin. Bu inson tilining belgilar tizimi sifatida hayvonot dunyosida amal qiladigan belgilardan tub farqini ko'rsatuvchi muhim xususiyatidir.

Til qayd qilinganidek, belgilar tizimidir. Fan yuksak taraqqiy qilgan hayvonlarda axborot uzatishga xizmat qiladigan murakkab belgilar tizimi mavjud ekanligi va u hayvonot olami evolutsiyasi bilan bir paytda takomillashib borganligini isbotlamoqda. Demak, til yo'q joydan,

birdaniga paydo bo‘lib qolmagan. Ong in’ikos shakllarining uzoq davom etgan evolutsiyasining tabiiy hosilasi bo‘lganidek, u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan inson nutqi ham axborot uzatishga xizmat qiladigan belgilarning murakkablashib borishi jarayonining zaruriy natijasidir.

Demak, til belgilar tizimi sifatida kelib chiqishidan qat’i nazar faqat insongagina xos va u ong bilan uzviy bog‘liqdir. Negaki, tilda ong gavdalanadi. Til yordamidagina ong kishining o‘zi va boshqalar uchun voqelikka aylanadi. Tilda ifodalanayotgan ma’no-mazmunning anglanishi insonning umumiylar bilim darajasi, qiziqishi, qobiliyati, muayyan sharoitdagi kayfiyati kabi omillarga ham bog‘liq bo‘ladi. Til fikrlash quroli, muloqot vositasi sifatida doimiy takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Ayni paytda insoniyat biz kundalik hayotda qo‘llaydigan tabiiy til bilan bir qatorda muloqotning rang-barangligini ta’minlaydigan, fikrni ifodalashga xizmat qiladigan o‘ziga xos imoshoralar raqs, musiqa «tiliga» ham ega. Shunday bo‘lsa-da, ular so‘zga ko‘chgandagina anglashiladi, undagi mazmun tushunarli bo‘ladi.

Shu bilan birga milliy tillar bilan bir qatorda ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishida muhim rol o‘ynaydigan internatsional til-fan tili, uning tushunchalari va formulalari ham borligini unutmaslik kerak. XX asrda qo‘llanish doirasi tobora kengayib borayotgan elektron hisoblash mashinalarining «beysik», «fortran» kabi tillari yaratildi. Kompyuterlarning ijtimoiy hayotdagi roli tez o‘sib borayotgan hozirgi davrda bu «til»lar axborotlarning uzatilishi hamda qabul qilinishida katta ahamiyat kasb etmoqda va vaqt bu jarayonlarning yanada tezlashayotganligini ko‘rsatmoqda.

Ong va til munosabati haqida gap ketar ekan, til o‘ziga xos tarixiy xotira rolini o‘tashini ham unutmaslik kerak. Bu milliy tillar misolida ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi. Zero, millat tilida uning o‘zligi, bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, tafakkur tarzi aks etadi, mustahkamlanadi. «Ona tili, – deb yozadi Prezidentimiz, bu millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar».

Shunday ekan, mustaqillik sharoitida milliy tilimiz rivojiga alohida e’tibor berilayotganligi milliy o‘zligimizni anglashimizning o‘tish jarayonida milliy istiqbolimizni belgilashning uzviy qismi sifatida qaralmog‘i lozim.

O‘z-o‘zini anglash, uning shakllari. Inson obyektiv voqelikni aks ettirish bilan bir qatorda o‘zi haqida fikr yuritish, ruhida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarini nazariy tahlil qilishdek qobiliyatga ham ega. O‘zini o‘zgalardan ajrata bilish, o‘ziga munosabat,

imkoniyatlarini baholash o‘z-o‘zini anglash sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini anglashda o‘zini bilish, baholash va tartibga solishdek unsurlarni ajratish mumkin.

Bu unsurlar o‘z-o‘zini anglashning sohibiga – subyektiga ko‘ra farqlanuvchi muayyan shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatga xosdir.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi haqida gap ketar ekan, u o‘zini alohida organizm, oila, ijtimoiy guruh, millat, madaniyatga mansubligini va yuqoridagi xususiyatlaridan qat‘i nazar alohida va betakror «men» sifatida anglashdek bosqichlarni bosib o‘tishini ta’kidlash zarur.

Insonning kamol topish jarayoni, o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi o‘ziga xos xarakter kasb etadi.

Masalan, dastlabki davrda bolada avvalo, boshqalar tomonidan berilgan tasavvur va baholar ustunlik qiladi. Bolaning tafakkuri o‘sishi bilan, u olamni mustaqil anglay boshlaydi va o‘zining imkoniyatlarini o‘zi baholashga o‘rganib boradi. Aynan mana shu davrda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan tarbiya muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki, aynan mana shu tarbiya ta’sirida bolada o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash ham yoki unga ortiqcha baho berib yuborish holati ham shakllanib qolishi mumkin.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayonida u mansub bo‘lgan madaniyatning o‘rni nihoyatda katta. Zero, aynan madaniyat xalq, millat to‘plagan tajriba, bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan holda shaxs dunyoqarashi shakllanishiga faol ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun ham shaxs madaniyati, xulq-odobi, ongi, o‘z-o‘zini anglashining darajasini belgilovchi indikator sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayoniga turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy omillar ham kuchli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ana shunday xilma-xil ta’sirlar mavjudligi shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, baholashi va faoliyatini tartibga solishi, nazorat qilishini ta’minlaydi. Aks holda ozgina iqtisodiy qiyinchilik, kichkinagini ijtimoiy muammo shaxs hayotini izdan chiqarib yuborishi, turli xil ta’sirlar domiga tortishi mumkin. «Mana shunday bir vaziyatda odam, – deb yozadi I.Karimov, – o‘z mustaqil fikriga, sobit e’tiqodiga, o‘zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlarga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishi amri-mahol»¹⁵. Buni tushunib olish bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash tobora keskinlashib va intensivlashib borayotgan bir sharoitda ayniqsa muhimdir.

Ong va axborot. Keyingi yillarda «Informatsion portlash» tushunchasi ham tez-tez ishlatilmoqda. XX asrning eng muhim

yutuqlaridan biri bu kompyuterlarning yaratilganligidir. Ularning yaratilishi bir tomondan inson ongi, tafakkuri, kuch-qudratining, ikkinchi tomondan, ana shu kuchga tushadigan yukning yengillashishiga xizmat qiladigan vositani yaratish yo‘lidagi urinishlarning natijasi bo‘ldi. Asrimizning o‘rtasida paydo bo‘lgan bu vosita shiddatli rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Dastlab sekundiga minglab operatsiyalar bajara oladigan kompyuterlar bo‘lgan bo‘lsa, ularning bugungi avlodi 10 millionlab murakkab operatsiyalarni qoyilmaqom qilib uddalaydi.

Xo‘sh, bularning inson ongi va tafakkurining mohiyati bilan nima aloqasi bor? Gap shundaki, EHM lar ham inson tafakkuriga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlarga, uning tobora ko‘proq ega bo‘lib borishi, EHM fikrlay oladimi, agar inson o‘ziga xos xususiyatlarini ularga tobora ko‘proq ko‘chirib boraversa, oxir oqibatda, bir vaqt kelib, u o‘zi yaratgan ana shu qurolning quliga aylanib qolmaydimi, degan savollarning kun tartibiga qo‘yilishiga olib keldi. Aytaylik, kompyuter albatta oldindan programmalashtirilgan operatsiyalarni, millionlab marta tez bajarishi mumkin. Ularning «xotira» qudrati nihoyatda yuksak va hokazo. Ammo bular EHMLarning fikrlashidan, ularning inson ustidan hukmronlik qilishidan dalolat beradimi? Albatta, yo‘q. Kompyuterlar qanchalik murakkab operatsiyalarni bajarmasinlar, inson tomonidan programmalashtirilgan jarayonlarnigina amalga oshiradilar, undan tashqariga chiqa olmaydilar. Insonning fikrlash jarayoni ongsizlik, onglilik, kechinmalar, ijod kabi hodisalarni qamrab oladi. Kompyuter esa bunday xususiyatlarga ega emas. Shunday ekan, kompyuterlar insonning muayyan yo‘nalishlardagi aqliy faoliyatini yengillashtirishga xizmat qiladi va o‘zining yaratuvchisi ustidan hukmron bo‘la olmaydi.

Ayrim tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, hozirgi davrda fan sohasida erishilgan natijalar har o‘n yilda, informatsiya olish esa har 3-4 yilda ikki barobarga oshmoqda. Ana shunday sharoitda inson ongi, uning xotira qudrati bu axborotlarni o‘zlashtira oladimi, degan savol ko‘ndalang bo‘lmoqda. Yangi bilimlar, axborot oqimi unchalik kuchli bo‘lmagan yaqin o‘tmishda tirishqoq kishi insoniyat bilimi erishgan asosiy natijalarni o‘zlashtira olar edi. Bugungi kunda faqat fanning turli yo‘nalishlari bo‘yicha yiliga bir necha million kitob nashr etilmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, inson eng yangi adabiyotlarni o‘rganib borishga harakat qilganda ham, uning har bir o‘qigan betiga o‘n ming o‘qilmagan sahifa to‘g‘ri kelar ekan.

Kishilarning paydo bo‘lgan yangi kitoblarning aksariyatini jismonan o‘qib ulgurmaganligi «informatsion portlash» keltirib chiqarayotgan

oqibatlarning bir ko‘rinishi, xolos. Masalaning yana bir jihat borki, bu inson to‘plagan bilim, axborotning ma’naviy eskirishi, keraksiz bo‘lib qolayotganligidir. Bunday eskirish sur’ati tobora tezlashib bormoqda. Masalan, oliy – ta’lim sohasida bu jarayon olti – yetti yil, kompyuter texnologiyasi sohasida esa bir yil davomida sodir bo‘layotganligi haqida fikrlar bildirilmoqda. Bu agar siz oliy o‘quv yurtini bitirganingizga yetti yil bo‘lgan bo‘lsa, o‘z vaqtida olgan bilimlaringizning aksariyati bugungi kun talabiga javob bermasligini bildiradi. Ana shunday sharoitda kishilarning o‘z bilimlarini yuqori darajada ushlab turishlari ulardan doimiy diqqat-e’tiborni, o‘z ustida ishlashni talab qiladi. Aks holda, ta’lim dargohini eng yuqori natijalar bilan bitirgan mutaxassis ham tez orada chalasavod bo‘lib qolishi mumkin.

Umumlashtirib aytganimizda, ongning mohiyatini, uning koinot evolutsiyasining tabiiy natijasi ekanligini tushunish, u bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni ilmiy talqin etish olam va odam birligini anglash imkonini beradi. Ayni paytda, ongning mohiyatini anglash insonning o‘zligini, yashashdan maqsadi, hayotining ma’no-mazmuni kabi masalalarni chuqurroq tushunishga yo‘l ochadi. Bu ong va u bilan bog‘liq masalalar amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

3-§. Huquqiy ong ijtimoiy ongning bir turi sifatida

Ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong ilmiy falsafaning asosiy tushunchalaridan, fundamental kategoriyalardan hisoblanadi. Ijtimoiy ong borliqqa bog‘likdir. Ijtimoiy borliq rivojlanishi jarayonida ijtimoiy ong paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

Ijtimoiy borliq – bu kishilarning tabiatga, bir-birlariga moddiy munosabatlaridir. Ijtimoiy borliq – bu kishilarni moddiy munosabatlarining majmuasidir.

Kishilik jamiyat shakllanishi bilan ijtimoiy borliq ham vujudga keladi.

Ijtimoiy ong esa tarixiy jarayonning ma’naviy tomoni hisoblanadi.

Ijtimoiy ong ma’lum ichki tarkibga, shakllarga va darajalariga ega bo‘lgan bir butun ma’naviy hodisadir.

Ijtimoiy ong jamiyatning atributidir. Ijtimoiy ong jamiyatda yashovchi kishilarning ongidir. Ijtimoiy ong ijtimoiy borliqni in’ikos etadi.

Ijtimoiy ong – bu jamiyatda mavjud bo‘lgan g‘oyalar, nazariyalar, his – tuyg‘u, kayfiyatlar, urf-odat va udumlar majmuasidir.

Shu ko'rsatilganlar kishilarning ijtimoiy borlig'ini, moddiy sharoitlarini aks ettiradi. Ijtimoiy borliq o'zgarishi bilan ijtimoiy ong ham o'zgarib boraveradi.

Ijtimoiy ong ijtimoiy borliqni aks ettirar ekan u borliqni sust in'ikos etadi degan fikr kelib chiqmasligi zarur. Ijtimoiy ong nisbiy mustaqillikka ham egadir. Shu nuqtai nazardan aytamizki, siyosat, huquq, din, adabiyot va boshqalarni rivojlanishi iqtisodiy rivojlanishga bog'liqdir. Lekin ularning hammasi bir – biriga va iqtisodiy bazisga ta'sir qiladi. Bundan ko'rinyaptiki, faqat iqtisod faol emas, balki ijtimoiy ong ham faol xarakterga egadir. Ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi uning ijtimoiy borliqqa ta'sirida yaqqol ko'rinadi. Jamiyat rivojlanishi bilan bu ta'sir kuchayib boradi.

Ijtimoiy ong o'z ifodasini individual ongda, alohida kishining ongida topadi. Individual ong ijtimoiy ongga xos elementlarni aks ettiradi. Ijtimoiy ongning tashuvchisi – bu alohida kishilar, individlar, sotsial guruhlar – sinflardir.

Alohida kishining ongi – bu individual ongdir. Kishilar o'zlarining ma'naviy dunyosi bilan bir-birlaridan farq qilishadi, shu bilan birga ularning hammasi ijtimoiy zaruriy hodisalarini in'ikos ettirishadi. Individual ongda ijtimoiy borliq individning ruhiyatiga, xarakteriga, imkoniyatlariga, qobiliyatiga, qiziqishlariga, tarbiyasiga, millatiga bog'liq holda aks ettiriladi. Ikkita bir xil individ bo'limgani singari, ikkita bir xil individual ong yo'q.

Ijtimoiy va individual ong o'zaro dialektik bog'liqlikda bo'ladi. Ijtimoiy ong alohida kishilar miyasida bo'lgani uchun u faqat individual ong yordamida namoyon bo'ladi. Har bir alohida kishi jamiyatda yashagani uchun ularning individual ongi ijtimoiy ong bilan bog'liqdir.

Ijtimoiy ong murakkab tuzilishga ega. Ijtimoiy ongni vertikaliga – darajalarga, gorizontaliga – shakllarga bo'lish qabul qilingan.

Ijtimoiy ongning – oddiy (kundalik) va nazariy darajalari mavjud. Buni ba'zan ijtimoiy ruhiyat va mafkuraviy darajalari ham deyishadi. Oddiy ong kundalik hayot natijasida stixiyali tarzda shakllanadi. Oddiy ong kundalik hayot to'g'risidagi tushunchalar, g'oyalar va hokazo. tizimlashmagan bilimlardir.

Oddiy ong quyidagilarni qamrab oladi:

- kundalik hayot natijasida vujudga kelayotgan tajribaviy bilimlarni;
- qarashlar, odatlар, his-tuyg'ular, kishilarning qiziqishlari sifatidagi ijtimoiy ruhiyat (psixologiya)ni.

Oddiy ong kishilarning kundalik hayotda tabiat, atrof muhit bilan bevosita munosabatidan vujudga keladi. Shuning uchun oddiy ongni

individual ong bilan almashtirish mumkin. Oddiy ongni individual ongdan farqi ularning vujudga kelish manbaidadir. Individual ongni vujudga kelish manbai inson, oddiy ongni vujudga kelish manbai inson va sotsial guruhlar (sinflar)dir.

Ma'lum faoliyat tufayli birikkan kishilar ishlab chiqarish jarayonida o'zlarini o'zgacha tutishi mumkin, alohida-alohida hollarda esa boshqacha tutishi mumkin. Bu esa ijtimoiy ongning xususiy ko'rinishi, mehnat tufayli bir-biriga bog'langan kishilarning ma'naviy faoliyatining xususiyati – ijtimoiy ruhiyatdir (psixologiya). Ijtimoiy ruhiyatning mazmunini ijtimoiy kayfiyatlar, his-tuyg'ular, urf-odatlar, ijtimoiy fikrlar tashkil qiladi. Ijtimoiy ruhiyatning asosiy shakli – guruh ruhiyatidir. Bundan tashqari millatlar ruhiyati, professional guruhlar ruhiyati mavjud.

Nazariy ong ijtimoiy ongning oliy darajasidir.

Nazariy ong – bu g'oya va qarashlarning to'la tizimidir. Nazariy ong faol fikrlash jarayoni bilan bog'langan. Oddiy ong narsa va hodisalarni tashqi tomonini aks ettirsa, nazariy ong ularni ichki mohiyatini aks ettirishga qaratiladi. Lekin bu nazariy ong hayotni to'g'ri in'ikos ettiradi degan gap emas. Nazariy ong har xil sinflarning mafkurasi (ideologiyasi)da ifoda etiladi.

Mafkura nazariy jihatdan shakllangan va ma'lum bir sinflarning qiziqishlarini ifodalagan falsafiy, diniy, axloqiy, estetik va boshqacha qarashlarning majmuasidir. Sinflar o'z manfaatlarini amalga oshirishda mafkuradan foydalanishadi. Ustqurmaning hamma elementlari qarashlar, xulq normalari, sinflarning mafkurasiga bog'liqdir.

Ijtimoiy ong shakllari. Ijtimoiy borliq har xil bo'lgani uchun uning in'ikosi ham har xil. Ijtimoiy ongning quyidagi shakllari mavjud: siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, falsafiy, estetik, fan va boshqalar.

Huquqiy ong. Ijtimoiy ongning alohida shakllaridan biri – huquqiy ongdir.

Huquqiy ong deb huquqning subyektlari bo'lgan – individ, korxona, mehnat jamoalarining faoliyatlarida yuridik qonun sifatida qabul qilingan bilimlar va qadriyatlarning aks etishiga aytildi.

Huquqiy ong shaxs ongida, jamiyat g'oyalariда namoyon bo'ladigan huquqdir. Huquqiy ong huquq va qonuniylikka munosabatdag'i e'tiqodlar, tasavvurlar, baholar, his-tuyg'ular va ma'naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimidir. Huquqiy ong eng kam darajada davlat va jamiyatning ta'siriga uchragan huquqiy madaniyat elementidir. Tezlik bilan yangi qonun qabul qilish, davlat organini tuzish mumkin, ammo insonning huquqiy ongini tezda o'zgartirib bo'lmaydi.

Huquqiy ong darajasini ko‘tarish uchun oila, maktabgacha tarbiya muassasalar, maktablar, o‘quv yurtlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, hamda boshqa davlat va jamiyat institutlarining hamkorlikdagi harakatlari zarur. So‘nggi vaqtarda yuksak huquqiy ong faqat shaxs dunyoqarashiga kompleks va maqsadga muvofiq ta’sir etishning natijasi bo‘lishi tushunib yetildi. Yuqori darajada huquqiy ongni shakllantirish uchun huquqiy bilimlarni keng tarqatish zarur. Bu haqda Respublikamiz Prezidenti I. Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida «Jamiyatning demokratiya yo‘lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko‘rsatkichidir»¹. Deb ta’kidlaydi.

Huquqiy ongning tuzilishi. Huquqiy ong ikkita tarkibiy qismdan, ya’ni huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyatdan iborat.

Huquqiy mafkura huquqning mohiyati, ahamiyati va talablari to‘g‘risidagi g‘oyalar, qadriyatlarni o‘z ichiga olsa, huquqiy ruhiyat hissiyotlar, kayfiyatlar, kechinmalar, ya’ni huquqning emotsiyal qabul qilinishi bilan bog‘liq.

Huquqiy ong siyosiy va axloqiy ong orasida turadigan jarayondir. Siyosiy ongdan farq qilib u muayyan individual – shaxsiy kategoriylar bilan ish ko‘radi. U axloqiy ongdan farq qilib zarurat va haqiqat tushunchalari davlat qonunlari sifatida qabul qilingan va bu qonunlarni buzilishi huquqiy choralar ko‘rishni taqozo qiladi. Agar siyosiy ong obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqsa, huquqiy ong aqliy – axloqiy bahoga suyanadi.

Jamiyatda sinflar vujudga kelganidan so‘ng huquqiy ong axloqiy ongdan ajralib chiqqan, ilk huquq g‘oyasi paydo bo‘lgan, bu g‘oya individni davlatdan himoya qilgan.

Huquqiy ongning quyidagi shakllari mavjud: huquqiy his-tuyg‘u, huquqiy odatlar va malakalar, huquqiy bilimlar.

Huquqiy ong uchta asosiy funksiyani amalga oshiradi: bilish, boshqaruv, baholash.

¹ Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б.27-28.

**2-bob. FALSAFADA BILISH MUAMMOSI VA ILMIY BILISH
MOHIYATI. HUQUQIY IJODKORLIK BILISHNING
SHAKLI SIFATIDA**

**1-§. Falsafada bilish muammosi, inson bilishining asosiy
bosqichlari va ularning huquqni muhofaza qilish
idoralari faoliyatidagi o‘rni**

Falsafaning qonun va kategoriyalari yordamida inson ongida borliqning qonuniyatlarini aks ettirish – dunyoni bilish, haqiqatga erishishning yagona yo‘li. Falsafa olam va insonni bir butun holda olib o‘rganadi. Moddiy olam ong orqali idrok etilar ekan, bizning ongimiz shu moddiy dunyoga qanday munosabatda bo‘ladi, uni to‘g‘ri in’ikos ettira oladimi, degan masalalar barchasi falsafiy tafakkur qilish bilan bog‘liq.

Dunyoni va uning qonunlarini inson bila oladimi, bilish qanday amalga oshadi, uning asosiy shakllari, haqiqat mezoni falsafiy masalalar tahlili bilan gnesiologiya (yunon. «gnosis» bilim va «logos» tushuncha, ta’limot ma’nolarini anglatib «bilimlar to‘g‘risida tushuncha» va «bilimlar to‘g‘risida ta’limot» – degan ma’nolarni bildiradi), kognitiv psixologiya (bilish jarayoni bilan shug‘ullanuvchi psixologiya), mantiq va ilmiy bilish metodologiyasi va boshqa maxsus fanlar shug‘ullanadi.

Falsafa faniga «bilish nazariyasi» atamasi shotlandiyalik faylasuf Dj.Ferrer tomonidan 1854-yilda kiritilganligiga qaramasdan bilish to‘g‘risidagi ta’limotlar falsafaning vujudga kelishi bilan birga paydo bo‘lgan. Qadimgi yunon faylasuflari Demokrit, Suqrot, Aflatun, Arastu, epikurchilar, stoiklar, shuningdek, Markaziy Osiyo mutafakkirlari bilishning mohiyatini tahlil qilganlar.

Har bir kishining bilish darajasi, u yashayotgan tarixiy davr bilan bog‘liq bo‘lib, uning bilish imkoniyati chegaralaridir. Ammo insoniyatning bilish imkoniyati cheksizdir. Bilish nazariyasining asosiy muammolarini o‘rganishga O‘rta asrning buyuk Sharq mutafakkirlari ham munosib hissa qo‘sghanlar.

Markaziy Osiyoning qomuschi olimi Ibn Sino inson o‘z sezgi a’zolari yordamida moddiy olamni bilishi, idrok etishi mumkinligini aytib, o‘z shaxsiy faoliyati bilan buni isbotlashga intildi va juda ko‘p bilimlarni egallab, o‘zidan katta meros qoldirdi.

Buyuk alloma Forobiy moddiy dunyoning obyektiv mavjudligini, uni inson bilishi mumkin, degan fikrni bayon etib, shunday deb yozadi –

«Inson moddiy dunyoni biladi, ammo, bilish uchun u komolatga erishuvi lozim. Lekin bu erishuv quruq intilish bilangina cheklanib qolmasdan, balki tabiiy mavjudotdagi juda ko‘p narsalardan foydalanish yo‘li bilan yoki shu tabiatda bo‘lgan juda ko‘p ishlarni amalga oshirish bilan qo‘lga kiritiladi».

Beruniy va Markaziy Osiyoning boshqa olimlari ham falsafiy ta’limotlarida bilish nazariyasiga katta o‘rin berganlar. Beruniy fikricha, tabiatni bilish jarayoni sezgilardan boshlanib, tafakkurga ko‘tariladi, ma’lum narsalardan noma’lum narsalar va hodisalarni bilish tomon rivojlanib boradi.

Bilish nazariyasining rivojlanish tarixida XVII-XVIII asr faylasuflari muhim o‘rin tutadi. Ingliz faylasufi F.Bekon ta’limoticha, bilish jarayoni fan va amaliyot bilan bog‘liq bo‘lishi va shularga bevosita xizmat qilishi kerak. U bilish sezgidan boshlanadi deydi, hamda bilishning manbai tajriba ekanligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Uning fikricha, obyektiv olam to‘g‘risidagi bilimlar sezgilarimiz orqali olingan dalillar tufayligina tafakkur yordamida to‘ldiriladi.

Fransuz faylasufi R.Dekart bilishning birdan-bir manbai tafakkur deb, sezgi a’zolarimiz va ularning yordamida olingan ma’lumotlarga shubha bilan qaraydi. Uning ta’limoticha, kishilar bilimining haqiqatligi tajriba bilan emas, balki aql ko‘zi bilan tekshiriladi. Dekartning bilish nazariyasida sezgilar roli kansitilib ko‘rsatiladi.

Fransuz materialist faylasuflaridan Didro, Gol’bax, Gel’vetsiyalar dunyoni bilish mumkinligi masalasida sezgilarimiz tafakkurning asosi ekanligini ta’kidlashadi. Lekin, bilish jarayonida amaliyotning, insonning faol rolini inkor etadilar.

Ma’lumki, moddiy olam undagi narsa va hodisalar bilishning birdan-bir manbaini tashkil etadi. Shunday bo‘lsa-da, ayrim faylasuflar va din ta’limotida bilishning manbai sifatida qandaydir insondan tashqarida mavjud bo‘lgan ong («mutlaq g‘oya», «olam ruhi» va boshqalar) e’tirof etiladi. Ularning fikricha, inson, tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyatini bilishga qodir emas, u faqat iloh ijodining natijalarini qayd qilishga va turkumlarga ajratishgagina qodir deb ta’kidlashadi.

Dunyoni bilish mumkinligini, bilimlarimizning to‘g‘ri va aniq ekanligini inkor etuvchi ta’limot falsafada agnostitsizm (yunon. bilib bo‘lmaydigan) deb yuritiladi. Agnostitsizmning yirik vakillari ingliz faylasufi David Yum bilan nemis faylasufi Immanuil Kantdir. Yumning

fikricha, inson o‘z sezgilarini chegarasidan tashqariga chiqa olmaydi, u faqat o‘z sezgilarinigina bila oladi. Real voqelikni inson aslo bila olmaydi. Kant esa Yumga qarama-qarshi o‘laroq, inson ongi va sezgilaridan tashqarida obyektiv olam bor deb hisoblaydi. Uning fikricha, bu obyektiv olamda aslo bilib bo‘lmaydigan «narsa o‘zida» bor. Inson aqli o‘z mohiyati jihatidan cheklangan bo‘lib «narsa o‘zida»ni bila olmaydi. Kant inson bilishi mumkin, bo‘lgan hodisalar olamni «biz uchun bo‘lgan narsalar» deb, uni inson aqli bilan, fan vositasi bilan bilishi mumkin deb ta’kidlaydi. «Narsa o‘zida»ni insonlar bilishga qodir emas deydilar.

XIX asr subyektiv idealizmning vakillari bo‘lgan maxchilar ham dunyoni bilish mumkinligini inkor etishadilar.

Insoniyat ijtimoiy amaliyoti va ilmiy bilish taraqqiyotining ilgarilab borishi bilimni chegaralab qo‘yuvchi agnostitsizmni puchga chiqarmoqda. Inson o‘z aqli bilan olam sirlarini bilish mumkin ekanligini ayniqsa hozirgi zamon fani yutuqlari isbotlamoqda. Masalan, hozirgi zamon tabiat fanlari, ayniqsa fizika fani atom tabiatini, tuzilishini va xususiyatlarini o‘rganish sohasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Atomni parchalash, atom ichki energiyasidan foydalanish, atom yadro zarrachalarining bir-biriga bog‘liqligi, umuman mikroolamni bilish, astronomiya, biologiyadagi kashfiyotlar bilish nazariyasining to‘g‘riligini tasdiqladi.

Insonning bilish qobiliyati cheklanmagan, lekin har bir aniq tarixiy davrdagi bilish imkoniyatlari cheklangan, xolos. Inson har bir tarixiy davrda o‘zi xohlagan barcha narsa va hodisalarni emas, balki bilish imkoni borlarinigina bilib boradi. Inson bugun bilmagan narsasini ertaga, ertaga bilmaganini keyinroq biladi. Lekin shuni aytish kerakki, inson bilimining cheki yo‘q, chunki makro va mikro olamning cheksizligi inson bilimining ham cheksizligini ko‘rsatadi.

Bilish nima? Bilish – moddiy olamning inson ongida in’ikos etish jarayoni. Dunyoning moddiyligini va uning rivojlanish qonunlarining inson ongida in’ikos etishini e’tirof etish falsafaning bilish nazariyasining asosini tashkil qiladi. Fan qonunlari tabiat va jamiyatda inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan holda yuz beradigan obyektiv jarayonlarning in’ikosidan boshqa narsa emas. Falsafaning bilish nazariyasi asosan quyidagilarga asoslanadi:

birinchidan, obyektiv olam bizning sezgi va tasavvurlarimizga bog‘liq bo‘lmagan holda undan tashqarida mavjud. Obyektiv olam – inson sezgi va tasavvurlarining manbai;

ikkinchidan, inson moddiy olam va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilishi mumkin. Inson sezgi, tasavvur va tushunchalarida o‘ziga bog‘liq bo‘lman tashqi olam mazmunini in’ikos ettiradi.

Bilish jarayonida obyekt bilan subyekt dialektikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Keng ma’noda, bilishning obyektini inson ongiga bog‘liq bo‘lman holda mavjud bo‘lgan obyektiv olam tashkil qiladi. Tor ma’noda esa, tabiat va jamiyatdagi alohida narsa va hodisalar tashkil qiladi. Bilishning subyekti – ana shu obyektni aks ettiruvchi, bilib oluvchi insondir. Obyektning mavjudligi subyektga bog‘liq emas. Subyektning o‘zi ham muayyan sharoitlarda bilish obyekti bo‘lishi mumkin.

Insonsiz bilish jarayoni bo‘lishi mumkin emas. Subyektning ilmiy bilishdagi roli shundan iboratki, u obyektiv mavjud bo‘lgan qonuniy bog‘lanishlarni ochib beradi. Obyektga nisbatan ham amaliy, ham nazariy yondashadi. Subyektning faoliyati uning ehtiyojiga hamda ishlab chiqarishning qay darajada rivojlanishiga bog‘liq. Obyektiv qonuniyatlarni bilish darajasiga qarab odam o‘z oldiga ongli ravishda muayyan maqsadlarni qo‘yadi. Jumladan, hozirgi davrda bozor munosabatlarining vujudga kelishi, mulkchilikning turli shakllarining rivojlanishiga katta imkoniyatlar ochmoqda. Bilish jarayoni subyektga, uning maqsad va ehtiyojiga ham bog‘liq bo‘lib, ayniqsa uning faolligi bilan aloqador. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirish har bir kasb egasidan katta ijodiy faollikni, kamolotga erishishni, qilinayotgan xatti-harakatlarning oqibatlarini oldindan ko‘ra bilishni taqozo etadi.

Yuqorida qayd qilingan fikrlardan kelib chiqqan holda birinchi savolga xulosa shuki, birinchidan, bilish obyektiv real olamni ong orqali in’ikos ettirishdan iborat bo‘lib, u har doim mukammallahib, rivojlanib boradi; ikkinchidan, bilish jarayoni ziddiyatli bo‘lib, dialektik xususiyatga ega. Shuning uchun ham falsafa tarixida faylasuflar bu masalaga har xil yondashib kelishgan. Ba’zi faylasuflar bilish jarayonini hissiy bilishdan iborat deb bilishsa (Lokk, Gobbs, Kondilyak), ba’zilari bilish jarayonini faqat aqliy bilishdan iborat deb ta’kidlashib (Dekart, Spinoza, Leybnis) bilish nazariyasini talqin qilishda bir tomonlama yondashishadi. Bu to‘g‘risida ma’ruza rejamizning ikkinchi savoli, ya’ni bilish bosqichlari va ularning asosiy shakllari ustida to‘xtalamiz.

2-§. «Haqiqat» tushunchasi va uning asosiy shakllari: mutlaq, nisbiy, obyektiv va konkret haqiqatlar

Inson bilishi dialektik xarakterga ega bo‘lib, uning moddiy olamni bilishi oddiydan murakkabga, qo‘yidan yuqoriga, aniq bo‘lmagan bilishlardan aniqroq bilishlarga, to‘liq bo‘lmagan bilishlardan to‘laroq bilishlarga borishdan iboratdir. Shu bilan birga, insonning bilish jarayoni ayrimlik (alohidalik)dan xususiylikka, xususiylikdan esa umumiylilikka va nihoyat, umumiylidan eng umumiylik tomon, hodisalardan mohiyatlarga tomon boradi. Inson bilish jarayoni hissiy bilishdan aqliy bilishga, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga tomon va aksincha, borishdan iborat dialektik jarayondir. Borliqning inson ongida in’ikos etishi odatdagi narsalarning oynadagi yoki buyumning rasmdagi aks etishi kabi o‘lik, harakatsiz, mavhum, ziddiyatlarsiz holda bo‘lmay, balki jonli, konkret, harakat, o‘zgarish va rivojlanishda, ziddiyatlarning kelib chiqishi, ularning hal bo‘lishi, bir qo‘yi bosqichning o‘rnini unga nisbatan yuqoriq yangi bosqichining o‘rin olib borishidan iboratdir. Xullas, insonning moddiy olamni bilishi hissiy bilishdan aqliy bilishga va aksincha, bilish tomon dialektik yo‘l bilan sodir bo‘ladi. Hissiy va aqliy bilish bir butun inson bilishining bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq ikki «qo‘yi» va «yuqori» bosqichlarini tashkil etadi.

Biz qo‘yida Sizlar bilan hissiy va aqliy bilish bosqichlariga alohida-alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Hissiy bilish – inson bilishining dastlabki birinchi bosqichi bo‘lib, bilish jarayoni ayni shu hissiy bilishdan boshlanadi. Natijada, inson ongida narsa va hodisalarning belgilari va hissiy obrazlari hosil bo‘ladi.

Inson bilishining hissiy bilish bosqichi: sezgi, idrok va tasavvur kabi shakllarda sodir bo‘ladi. Sezgi hissiy bilishning dastlabki bosqichlaridan bo‘lib, u insonning borliqni bilishning ma’lum ko‘rinishidir. Sezgilar insonning sezgi a’zolariga borliqdagi narsa va hodisalarning bevosita yoki bilvosita ta’siri natijasida yuzaga keladigan hissiy obrazlardir. Sezgilarni hosil qiluvchi bunday sezgi a’zolari insonda tashqi va ichki holatlarda joylashgan bo‘lib, ular: ko‘rish, ta’m bilish, hid bilish, teri va eshitish sezgi a’zolaridir. Bu sezgi a’zolari insonning borliqni bilishda o‘ziga xos bir vosita bo‘lib, ular orqali narsa va hodisalar haqidagi dastlabki ma’lumotlar inson miyasiga qabul qilinadi. Inson bu sezgi a’zolari orqali borliqdagi narsa va hodisalarning tashqi belgi va xususiyatlarini bilib oladi.

Sezgilar o‘z ifodalanish shakliga ko‘ra yakka-yakka, alohida, aniq, subyektiv bo‘lsalar ham, o‘zlari ifodalagan mazmunga ko‘ra obyektivdir. Sezgilar insonning moddiy borliqni bilish uchun hali yetarli emas. Buning uchun inson o‘zining hissiy bilishida sezgilar shakllarida hosil qilgan ma’lumotlarni to‘plab, umumlashtirib, ularni bir butun holda in’ikos ettirishi ham lozim bo‘ladi. Hissiy bilishning bunday yangi shakli idrokdir.

Idrok sezgilardan farqli o‘laroq, borliqdagi narsa va hodisalarni yaxlit holda, bir butun ko‘rinishda, ularning hamma asosiy belgi va xususiyatlarini umumlashtirgan holda in’ikos ettiruvchi hissiy bilishning nisbatan yuqoriroq shaklidir. Idrok narsa va hodisalarning bir butun yaxlit hissiy obrazidir. U o‘zida sezgilar shakllaridagi obrazlarni jamlab ifodalovchi xususiyatga ega. Biroq insonning hissiy bilishi idrok bilan cheklanib qolmay, sezgilar va idrok shakllarida yuzaga kelgan hissiy ma’lumotlar inson miyasida qayta ishlanib, hissiy bilishning yangi, yuqoriroq shaklini hosil qiladi. Bu tasavvurdir.

Tasavvur – ilgari idrok etilgan, ammo ayni vaqtida bevosita idrok etilmayotgan narsa va hodisalarning inson ongidagi qayta ishlanib, tiklangan hissiy obrazidir. Tasavvurning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u borliqdagi narsa va hodisalar bilan ayni vaqtida bevosita bog‘lanishda bo‘lmagan holda, ularning ilgari paydo bo‘lmagan obrazlari asosida qayta tiklanishidir. Ammo inson o‘z tasavvurlarida, shu bilan birga, oldin idrok etilgan narsa va hodisaga, ularga o‘xshash yangi narsa va hodisalarning hissiy obrazlarini ham hosil qilishi mumkin. Masalan, hozir biz mustaqil O‘zbekistonning mavjud imkoniyatlari, shart-sharoitlaridan kelib chiqib, uning kelajakda rivojlangan mamlakat safidan o‘rin olishi, ya’ni buyuk davlat bo‘lishini tasavvur qilmog‘imiz mumkin.

Hissiy bilishning tasavvur shaklida narsa va hodisalarning ikkinchi darajali, muhim bo‘lmagan xususiyatlari tashlab yuborilib, faqat ayrim muhim xususiyatlarigina inkor etgan bo‘ladi. Shu tufayli tasavvur narsa va hodisalarni mavhumlashtirgan darajada aniq hissiy shaklda in’ikos ettiradi. Bu jihatdan tasavvurda, hech shubhasiz, tafakkurning ba’zi elementlari paydo bo‘ladi. Lekin u hali hissiy bilish chegarasidan chiqib ketmagan bo‘ladi. Bunga sabab, tasavvurning individual xarakterga egaligi, uning narsa va hodisalar tashqi tomonlari, tashqi aloqadorlik va bog‘lanishlarnigina o‘zida ifodalanib, ularning ichki tomonlarini, ulardagи o‘zgarish, rivojlanish qonunlarini in’ikos ettira olmasligidir.

Umuman olganda, insonning hissiy bilishi ma'lum darajada cheklangan, bir tomonlama, to'liq bo'lмаган bilishdir.

Inson borliqdagi narsa va hodisalarning ichki tomonlarini, ularning o'zgarish va rivojlanish qonunlarini, bir so'z bilan aytganda, ularning mohiyatini faqat aqliy bilish orqaligina bila oladi.

Aqli bilish, bilishning yuqori bosqichi bo'lib, unda inson bilishi hissiy bilish orqali hosil bo'lgan dalil va ma'lumotlarni tafakkurda qayta ishslash natijasida, borliqdagi narsa va hodisalarning inson ongidagi umumlashgan, mavhumlashgan va konkretlashgan fikriy ifodalanishidir.

Aqliy bilishda inson tafakkuri borliqdagi narsa va hodisalarning izchil bog'lanishlari va aloqadorliklarini, ularning harakat, o'zgarish va rivojlanish qonunlarini ma'lum fikr shakllari: tushuncha, hukm va xulosa chiqarish kabilarda ifodalanadi. Bunda hissiy bilish obrazlari tafakkur uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Tafakkur esa o'zida hissiy bilish bergen ma'lumotlarni qayta ishlab, ularni umumlashtirib, mavhumlashtirib, ayni bir vaqtida, aniqlashtirib, analiz va sintez qilib, aniqlikdan mavhumlikka va yana undan aniqlikka keltirib, ma'lum tushuncha, hukm va xulosalarni hosil qiladi. Tafakkur hosil qilgan aqliy bilishning bu fikriy shakllari tilda va so'zlar va gaplarda ifodalanadi. Aqliy bilishning dastlabki shakli tushunchadir.

Tushuncha narsa va hodisalar, ularning muhim va zaruriy belgi va xususiyatlarining umumlashtirilgan, mavhumlashtirilgan va ayni choqda aniqlashtirilgan fikriy obrazidir. Masalan, «inson» tushunchasini olaylik. Bu tushuncha hamma kishilik jamiyatiga xos bo'lgan mehnat qiluvchi, mehnat qurollari va mehnat vositalarini yaratuvchi hamda ular asosida moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi: ong, tafakkur, til va nutq kabi muhim va zarur belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan bioijtimoiy mavjudotning fikriy ifodasidir. Aqliy bilishning navbatdagi bosqichi hukmdir.

Hukm aqliy bilishning shunday fikriy shakli, unda borliqdagi muayyan narsa va hodisalar, ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorliklar haqida tasdiq yoki inkor fikr ifodalanadi. Inson o'z tafakkurida bir yoki birnecha hukmlarni mantiqiy o'zaro bog'lab, turli usullar asosida ularning eng muhim xususiyatlarini ajratib olib, biror tushuncha hosil qiladi. Aqliy bilishning navbatdagi yuqori shakli xulosa chiqarishdir.

Xulosa chiqarish aqliy bilishning shunday shakli, unda bir yoki birnecha hukmlar asosida yangi hukm – yangi fikr hosil bo'ladi. Xulosa chiqarish inson aqliy bilishining yuqori shakli bo'lib, uning birnecha shakllari mavjud, uni «Mantiq» fani o'rganadi.

Insonning bilish jarayoni hissiy bilish shakllari: sezgi, idrok va tasavvurlardan boshlanib, aqliy bilish shakllari: hukm, tushuncha va xulosa chiqarish shakllarida tafakkurda qayta ishlanib, bilishning «quyi» bosqichidan «yuqori» bosqichi tomon ko‘tarilib boradi.

Falsafa tarixida bilishning yuqorida qayd qilingan ikkita bosqichlarini bir-birlaridan ajratib talqin qiluvchi falsafiy oqim va yo‘nalishlar mavjud.

Sensulizm (lot. his, sezgi degan ma’noni bildiradi) tarafдорлари Gassendi, Gobbs, Lokk va boshqalar bilish jarayonida hissiy bilish va uning shakllari haqiqiy bilim olishning manbai deb ta’kidlashib, butun bilish jarayoni mohiyatiga hissiy organ faoliyatini kiritishga harakat qilishadi.

Empirizm (yunon. tajriba) vakillari F.Bekon, Lokk va boshqalarning fikricha, hissiy bilish va tajriba bilishning manbai deb ta’kidlab, bilish jarayonida aqliy bilishning o‘rnini ikkinchi darajali deb bilishadi. Har qanday bilim faqat tajribaga asoslanadi, tafakkur faqat tajriba orqali olingan ma’lumotlarni sistemalashtiradi, bir-biri bilan bog‘laydi, xolos, lekin ularga hech bir yangilik kirta olmaydi.

Ratsionalizm (fran. aql) vakillari – Dekard, Spinoza va boshqalar bilish jarayonida tafakkurning rolini haddan tashqari bo‘rttiradilar va olamni bilishning yagona yo‘li tafakkur orqali bilish deb ta’kidlashadi. Ularning fikricha, sezgilar olamni buzib ko‘rsatadilar, sezgilarga asoslanib fikrlash haqiqatni bilishga to‘sinqinlik qiladi. Epirizm va ratsionalizmning xatosi shundaki, bu oqimlar bilish jarayonining ikki bosqichini bir-biridan ajratib ko‘rsatadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining amaliy faoliyatida inson bilishining asosiy bosqichlari va ularning shakllari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir huquqni muhofaza qiluvchi xodim moddiy olam va undagi voqeа hodisalar to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlarni hissiy bilishning asosiy shakllari sezgi, idrok va tasavvurlar orqali oladi. Hissiy bilish orqali olingan bilimlarni aqliy bilish uning asosiy shakllari tushuncha, hukm va xulosa chiqarishlarda har taraflama tahlil qilib, ma’lum bir xulosalarga kelinadi. Masalan, biron-bir jinoyatning oldini olish yoki sodir etilgan jinoyatni fosh etishda har bir III xodimlaridan o‘ta sezgir va hushyor bo‘lishlik talab qilinadi, shuning bilan birgalikda hissiy bilish orqali olingan ma’lumotlarni har taraflama mushohada qilib, ma’lum dalillarga asoslangan holda tafakkur orqali ilmiy jihatdan asoslangan xulosalar qilish talab qilinadi. Bu o‘rinda ilmiy bilishning yuqorida qayd qilingan bosqichlari va ularning shakllari muhim ahamiyat kasb etadi.

Moddiy olamni bilish cheksizdir, chunki u har doim harakatda, o'zgarishda va taraqqiyotda bo'ladi. Har bir tarixiy davrda inson o'zining amaliy faoliyati natijasida moddiy olamni to'liq va aniq aks ettiruvchi bilimlarga ega bo'lib boradi. Bilib olingen narsalar obyektiv reallikka mos keladimi yoki yo'qmi? Bu masalaning hal qilinishida haqiqat to'g'risidagi ta'limot muhim ahamiyat kasb etadi. Endi bu to'g'risida rejamizdan o'rin olgan uchinchi savol to'g'risida so'z yuritamiz.

Insonning borliqni bilishdan asosiy maqsadlardan biri – haqiqatni bilishdir. Xo'sh haqiqat nima? Haqiqat to'g'risidagi falsafiy ta'limot nimadan iborat?

Haqiqat masalasini ilmiy asosda hal qilishning yagona yo'li – inson bilimlari bilan obyektiv borliqdagi real narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy asosda yoritib berishdir.

Haqiqat – bu inson bilimlarida borliqning to'g'ri in'ikos etishi, narsa va hodisalar asli qanday bo'lsa, ularni inson o'z miyasida xuddi shunday in'ikos ettirgan bilimlaridir. Haqiqat – bu borliqdagi narsa va hodisalar yoki ularning belgi va xususiyatlarining o'zi emas, balki ular haqidagi inson bilimlarining o'sha narsa va hodisalarga, ularning belgi va xususiyatlariga mos kelishidir. Bu jihatdan haqiqat o'zi ifodalagan bilimlarning mazmuniga ko'ra subyektga, ya'ni biluvchi inson va insoniyatga bog'liq bo'lmasa-da, lekin u o'z ifodalanish shakli jihatidan inson ongiga, subyektga bog'liq bo'ladi.

Inson o'z bilish jarayonida kashf etgan tabiat va jamiyat qonunlari haqiqatlardir. Ular o'zлари ifodalagan mazmunlariga ko'ra, bir jihatdan insonning ongiga bog'liq bo'lmasa ham, boshqa jihatdan, ya'ni inson fikrida ifodalanganiga ko'ra subyektivdir, inson ularni o'z ongida aks ettiradi. Haqiqatan ham, bizning sezgi, idrok va tasavvurlarimiz, tafakkurimiz va bir butun ongimiz obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarni to'g'ri in'ikos ettiradi, ular o'z mazmunlari jihatidan shu narsa va hodisalarga mos keladi.

Haqiqat – obyektivdir. Har bir bilimning haqiqatligi obyektiv voqelikni to'g'ri aks ettirishi bilan belgilanadi. Obyektiv haqiqat inson va insoniyatga bog'liq bo'lmanan obyektiv borliqning kishilar ongida to'g'ri in'ikos etishidir. Tabiat iqlimining yer insoniyatdan burun mavjud edi, degan fikri obyektiv haqiqatdir. Tabiat va jamiyat qonunlari ham obyektiv haqiqatdir. Bu qonunlar insonga bog'liq bo'lmanan, undan tashqarida mavjud bo'lgan ichki, zaruriy, muhim bog'lanishlarni ifodalaydi. Bu qonunlarni inson bekor qila olmaydi va o'z ixtiyori bilan o'zgartira olmaydi.

Haqiqatni bilish murakkab jarayondir. Bizning borliq haqidagi bilimlarimiz birdaniga, tayyor holda yuzaga kelmaydi. Biz borliqdagi narsa va hodisalarning avval tashqi, so‘ngra esa ichki tomonlarini bilib boramiz. Bunda bizning bilimlarimiz nisbiy haqiqatlardan mutlaq haqiqatga tomon boradi.

Nisbiy haqiqat – bizning borliqdagi narsa va hodisalar to‘g‘risidagi taxminan to‘g‘ri, lekin to‘liq bo‘lmagan, bilish jarayonida tuzatilib, to‘ldirilib borilishi lozim bo‘lgan bilimlarimizdir. Masalan, buni biz elementar zarralar haqidagi bilimlarimiz rivojlanishida ko‘rishimiz mumkin. XIX asr oxirida elektromagnit jarayonlar haqidagi ta’limotlar rivojlanishi elektron va atom yadrosi kashf etilishiga olib keldi. Oradan ma’lum vaqt o‘tgach yadro ham murakkab tuzilishga ega ekanligi, unda proton va neytron singari zarralar mavjudligi kashf etildi. Hozirgi kunda esa elementar zarrachalarning juda ko‘p yangi turlari ochildi. Hozir ma’lum bo‘lgan elementar zarralar leptonlar va androplarga bo‘linadi. Androplarga mezonlar va barionlar kiradi. Leptonlar gruppasiga foton, elektron, neytrino va boshqalar kiradi.

Mutlaq haqiqat esa bu borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi har tomonlama to‘liq, aniq, mukammal, kelgusida tuzatilmaydigan, to‘ldirilmaydigan bilimlardir. Bunday bilimlar inson tafakkurining obyektga cheksiz yaqinlashib borishi asosida, cheksiz nisbiy haqiqatlarning jami sifatida qaror topadi. Bu jihatdan nisbiy va mutlaq haqiqatlar o‘zaro chambarchas bog‘liqdir, ular bir-birlaridan ajralmasdir, har qanday mutlaq haqiqat nisbiy haqiqatlarning cheksiz birligidan yuzaga keladi, har bir nisbiy haqiqatda esa mutlaq haqiqatning donasi, zarrasi, ulushi mavjud bo‘ladi. Shu asosda inson bilishi nisbiy haqiqatlardan mutlaq haqiqatga boradi. Inson bilishi hech qachon mutlaq haqiqatga to‘liq ega bo‘lmaydi, balki unga cheksiz yaqinlashib boradi.

Ilm-fan taraqqiyotida har bir yangi bosqich nisbiy haqiqatlar sifatida mutlaq haqiqatning mazmuniga yangi-yangi zarralar qo‘shib boradi. Borliq bepoyon va cheksiz bo‘lgani kabi, insonning uni bilishi ham cheksiz davom etadi. Nisbiy haqiqatlarning mutlaq haqiqatga cheksiz yaqinlashib boruvchi chegaralari tarixan shartli bo‘lsa ham, lekin bu mutlaq haqiqatning mavjudligi shubhasizdir.

Inson bilimlarining rivojlanish yo‘li hamma vaqt silliq va oson kechavermaydi. Bilishda haqiqat sari qo‘yilgan har bir qadam fikrlar va qarashlarning keskin kurashlari jarayonida ro‘y berib, bunda avvalgi erishilgan bilimlar va qarashlar har doim cheklangan holda topilib,

ularning o‘rnini to‘laroq, mukammalroq bilimlar va qarashlar egallab boradi.

Shuning bilan birga, haqiqat mavhum ham emas, balki u aniq bilimlardir. Chunki o‘zgarmas, qotib qolgan bilimlar yo‘q, inson bilimlari doimo o‘zgarib boradi. Ayni bir vaqtida, ayni bir nisbatda haqiqat bo‘lgan bilim boshqa bir vaqtida va boshqa bir nisbatda haqiqat bo‘lmasi mumkin. Bu shuni ko‘rsatadiki, haqiqat har doim konkret, aniq bo‘ladi. Har bir konkret sharoit va real hayot konkret haqiqatni vujudga keltiradi. Bilimlarning haqiqatligi ma’lum joyga, o‘ringa, vaqt va vaziyatga, kishi bilishining imkoniyatiga va darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Bilimning haqiqatligini aniqlashda unga ma’lum aloqadorlik va bog‘lanishlardan kelib, aniq sharoit, joy, vaqt va ma’lum vaziyatni hisobga olgan holda yondashmoq kerak. Agar haqiqatning aniqligini, ya’ni har bir bilimning to‘g‘riliqi ma’lum vaqt va sharoit bilan bog‘liqligini hisobga olmasak obyektiv voqelikni to‘g‘ri, ilmiy bilish imkoniyatidan mahrum bo‘lib qolamiz. Ilmiy bilishning asosiy shartlaridan biri har bir bilimning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliqini abstrakt holatda emas, balki konkret sharoit bilan bog‘lab hal qilish lozimdir.

O‘tmishda va hozirgi kunda bilish jarayonidagi nisbiy va mutlaq haqiqatlar dialektikasini to‘g‘ri tushunmaslik, haqiqatning aniqligini hisobga olmaslik bilish nazariyasi sohasida ikkita yanglish qarashga, ya’ni dogmatizm va relyativizmga olib keladi.

«Dogmatizm» tushunchasi fanga qadimgi yunon skeptik faylasuflari Pirron va Zenon tomonlaridan kiritilib, bilimlarning haqiqatligiga shuhba bilan qarashadi. Keyinchalik nemis faylasufi I.Kant o‘zining tadqiqot obyekti va asosiga ega bo‘lмаган har qanday bilim bu dogmatizm deb biladi. Gegelda esa bu – metafizik tafakkur qilishdir. Dogmatizm insonning borliqni bilishda bilimlarning mutlaq tomonlarini bo‘rttirib, ularning nisbiy tomonlarini inkor etishdir. Dogmatizm tarafdorlari faqat mutlaq haqiqatni e’tirof etib, bilimlarga o‘zgarmas, qotib qolgan holda qarashadi. Bunday qarash insonning moddiy olamni bilishga, uni amaliy va nazariy o‘zlashtirish va o‘zgartirishga to‘sqinlik qiladi.

Relyativizm (yunon. relativus – nisbiy) inson bilishida hosil bo‘lgan bilimlarning nisbiy tomonlarini mutlaqlashtirib, inson bilimlari faqat nisbiy haqiqatlardan iborat deb qarashadi. Relyativizm tarafdorlari mutlaq haqiqatni butunlay inkor etishadi va bilishda yo agnostitsizmga, yoki subyektivizmga yo‘l ochib beradi.

Yuqorida qayd qilingan haqiqat ko‘rinishlarining to‘g‘ri talqin qilinishi, nafaqat moddiy olamni falsafiy bilish uchun ahamiyatga ega

bo‘lib qolmasdan, balki III xodimlarining amaliy faoliyatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Har bir III xodimi jinoyatlarning oldini olish va sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishda vaqt va sharoit bilan, surishtiruv va tergov jarayonida erishilgan bilim va ma’lumotlarning qanchalik voqelikka mos kelish yoki mos kelmasligi bilan hisoblashmaslikka iloji yo‘q. Bunda qayd qilingan jihatlarning, ya’ni bilimlarning obyektivligi, aniqligi, nisbiy va mutlaqligi, ularni to‘g‘ri talqin qilinishi muhim ahamiyat kasb etib, huquqni muhofaza qiluvchi xodimlarning amali faoliyatida haqiqatga erishishning yagona yo‘lini ta’minlab beradi.

Rejamizdagи uchinchi savolga yakun yasab, shuni ta’kidlashimiz mumkinki, haqiqat masalasi va unga erishish juda murakkab hamda mas’uliyatli jarayondir. Bilish jarayonida haqiqatga erishish uning shakl va ko‘rinishlari bilangina bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki bilishning darajalari hamda usullari bilan ham bog‘liqdir.

3-§. Ilmiy bilishning darajalari va usullari, ularning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi ahamiyati

Ilmiy bilish jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ilmiy bilish avvalo ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Uning asosiy maqsadi – moddiy va ma’naviy dunyo haqida chuqurroq, yangi bilimlar tomon borish.

Fanda, xususan falsafa fanida moddiy va ma’naviy olamni ilmiy bilishning ikkita darajasi mavjud bo‘lib, ular empirik va nazariy darajalarni tashkil qiladi.

Empirik bilimlar asosan tajriba natijasida qo‘lga kiritilib, kuzatish va eksperimentlarga asoslanadi. U nazariy tadqiqot rivojlanishining muhim omilidir. Tajriba ma’lumotlari asosida sxema va diagrammalar tuzilib, xulosa va gipotezalar ishlab chiqiladi, yangi olingan ma’lumotlar orasidagi bog‘liqlik aniqlanadi. Empirik ma’lumotlar klassifikatsiyasi ayniqsa tabiiy fanlar qonuniyatlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Masalan, Arximed, Abu Ali ibn Sino, Muso al-Xorazmiy, Beruniy, Ulug‘bek, Galiley, Paskal, Nyuton, Mendeleyev va boshqa olimlarning tajribalari shunday natijalarga olib kelgan.

Empirik bilish bir tomondan avvalgi nazariy bilimlarga asoslansa, ikkinchi tomondan empirik tadqiqotlar avvalgi nazariy bilim doirasiga to‘g‘ri kelmaydigan yangi dalillarni keltirib chiqaradi. Masalan, XIX asrning boshlarida fizikada ro‘y bergen kashfiyotlar buning yaqqol dalillaridir. Obyektiv vujudga keladigan ana shunday muammoli

vaziyatlar empirik bilimlardan nazariy xulosalarga tomon o‘tishni taqozo etadi. Bunday o‘tish o‘z mohiyati bilan dialektik o‘tish bo‘lib, u hodisadan mohiyatga tomon qarab borishni ifodalaydi.

Ilmiy bilishning nazariy darajasi umumlashtirish va ideallashtirishning yuqoriqoq bosqichi bo‘lib, obyektiv borliqni butun ichki bog‘lanish va qonuniyatlari bilan aks ettiradi. Masalan, D.I.Mendeleyevning ximiyaviy elementlar davri sistemasi nazariy umumlashtirishning yorqin misolidir. Eksperiment va matematik hisoblash yo‘li bilan 1860-yillarda ma’lum bo‘lgan elementlar o‘zlarining atom og‘irliklari ortib borishi bo‘yicha shunday joylashtirildiki, o‘sha davrda noma’lum elementlarni olim oldindan bashorat qilib aytib berdilar. Bir necha vaqtidan so‘ng bu elementlar topilib galley, skandiy, germaniy deb, atala boshlandi. Ilmiy bashorat mantiqiy tafakkurning nisbiy mustaqilligini ko‘rsatadi. Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari bir-biri bilan uzviy dialektik bog‘liqlikda bo‘lib, biri ikkinchisini taqozo etadi.

Ilmiy bilishning bu darajalarini yuqorida qayd qilingan bilishning hissiy va aqliy bosqichlari bilan aynanlashtirish noto‘g‘ridir. Agar hissiy bilish va aqliy bilish bosqichlari o‘rtasidagi farq asosan ularning moddiy olamni qay darajada in’ikos etishi bilan farqlansa, bilishning empirik va nazariy darajalari ilmiy bilishning sohalariga taalluqlidir. Hissiy va aqliy bilish alohida insonlar tomonidan amalga oshiriladigan in’ikos etishning shakllari bo‘lib, individlar ruhiy faoliyatining sifat jihatdan farqlanuvchi tipini tashkil qiladi. Bilishning empirik va nazariy darajalari esa, tadqiqotchining bilish faoliyati davomida har xil usullarni o‘zida ifodalab, o‘rganilayotgan obyekt xarakteri va qo‘llanilayotgan usullarning har xilligi qarab farqlanadi. Hissiy in’ikos etish shakllariga sezgi, idrok va tasavvurlar kirsa, ilmiy bilishning empirik darjasи tadqiqotchining amaliy faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, eksperimentning qo‘yilishi va o‘tkazilishi, ilmiy ma’lumot va faktlarni yig‘ish va qayd qilish, ularni sistemalashtirish va boshqalar kiradi. Empirik bilish jarayonida faqat hissiy bilishning shakllaridan foydalanib qolmasdan, balki aqliy bilish va uning asosiy shakllari yordamida qayd qilish, ilmiy faktlarni qayta ishslash va boshqa jarayonlar amalga oshiriladi. Olingan natijalarning oddiy tilda ifodalanishining o‘zi ham aqliy bilish natijasidir.

Ilmiy bilishning aqliy bosqichi bilan nazariy darjasи ham aynan bir narsa bo‘lmasdan, ular o‘rtasida birqancha farqlar bor. Jumladan, ilmiy

bilishning nazariy darajasiga har qanday tafakkur qilish kirib qolmasdan, balki faqat tadqiq qilinayotgan obyektning mohiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy bilimlar kiradi.

Hozirgi zamon fanida eksperimental tadqiqotlarning rivojlanib borishi bilan nazariy umumlashmalarning roli ortib bormoqda. Empirik tadqiqot usullariga kuzatish, o‘lchash, taqqoslash va eksperiment olib borish usullari kiradi. Nazariy tadqiqot metodlariga esa analiz, sintez, induksiya, deduksiya, modellashtirish, formallashtirish, umumlashtirish, aksiomatik, gipotetik, sistemali yondashish, abstraktlikdan konkretlikka, tarixiylikdan mantiqiylarga borish va boshqa usullar kiradi.

Ilmiy metod (usul) nima? Usul yunoncha so‘z bo‘lib, tadqiqot, bilish yo‘li ma’nolarini anglatadi. Ilmiy usul bilish jarayonida qo‘llaniladigan mavhum bilish yo‘llari hamda vositalarini ifodalaydi. Ilmiy bilish usuli inson amaliy faoliyatni negizida yuzaga keladi. U tabiat, jamiyat va inson ongining murakkab hodisalarini to‘g‘ri, obyektiv talqin etishga, fanning tabiiy aloqalarini o‘sishiga imkon beradi. Ilmiy bilish usuli tadqiqot turlarining mazmun va izchilligin o‘z ichiga olgani holda amalda bajarilgan faoliyatning ta’siri sifatida yuzaga chiqadi. Usul ilmiy bilishning tarkibiy qismi bo‘lib, uning obyekti, tahlil mavzui, tadqiqot vazifalari, ularni hal etish uchun zarur bo‘lgan vositalarni ifodalaydi.

Har bir fan obyektini o‘rganuvchi predmetning aniq izlanish usuli bo‘lib, bu usul xususiy, umumiyligini va eng umumiyligi usul bo‘lishi mumkin.

Ilmiy bilish jarayonida har bir fan o‘zining maxsus xususiy usullarini ishlab chiqishi zarur. Bular xususiy usullarni tashkil qilib, bunga har bir fan sohalarida qo‘llaniladigan maxsus usullar kiradi. Masalan, sotsiologik usul, statistik usul, kibernetik usul, qiyoslash usuli, o‘lchash, taqqoslash va boshqalar usullar kiradi. Ba’zi fanlar bir-biriga yaqin bo‘lgani uchun ularning tushuncha va qonunlari ham bir-biriga yaqindir. Shuning uchun ularning tadqiqot usullari ham bir-biriga yaqindir va tatbiq qilish chegarasiga ko‘ra bir-biriga samarali foyda keltiradi. Demak, bilishda xususiylik va umumiyligini bajaruvchi usullar ham mavjuddir. Yuqorida qayd qilingan xususiy usullar umumiyligini vazifasini ham bajaradi.

Ko‘pchilik fanlarda qo‘llaniladigan usullar umumiyligi deyiladi. Umumiyligi usul qo‘llanishi doirasiga ko‘ra umumiyligi, lekin o‘z maxsus vazifasiga ega. Ilmiy bilishning hamma fan uchun tegishli bo‘lgan umumiyligi usullariga analiz va sintez, induksiya va deduksiya, analogiya, mantiqiylilik va tarixiylik, mavhumlikdan aniqlikka borish va boshqalar kiradi.

Dialektik usul moddiy olamni ilmiy bilishning eng umumiy usuli bo‘lib, barcha fanlar uchun metodologiyadir. Dialektik usul xususiy fanlar erishgan yutuqlardan foydalanib, ularning usullari bilan birgalikda rivojlanadi, ular bir-birini to‘ldiradi va boyitadi. Xususiy, umumiy va eng umumiy usullar tadqiqotning yaxlit tizimini tashkil qiladi. Hozirgi zamon ilmiy bilish jarayonida quyidagi usullar keng foydalaniladi.

Bilishning empirik darajasida quyidagi usullar keng qo‘llaniladi: kuzatish, o‘lhash, taqqoslash, eksperiment.

Kuzatish – voqelikdagi narsa va hodisalarni muayyan maqsadga muvofiq qaratilgan hissiy bilish usulidir. Kuzatishning qay darajada bo‘lishi qo‘yilgan maqsadning aniqligiga, kuzatilayotgan narsa va hodisalar haqida oldindan bilimga ega bo‘lishga bog‘liqdir. Kuzatishda tadqiqotchi har xil asboblardan foydalanishi mumkin. Asbob kuzatish doirasini kengaytiradi, kuzatilayotgan obyektni idrok qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Kuzatish bevosita (asbobsiz) yoki vositali (asbob bilan) olib boriladi. Kuzatish jarayonida subyekt obyektning miqdor va sifat jihatlarini in’ikos ettiradi va aniqlab oladi.

O‘lhash bilish jarayonida narsaning miqdor tavsifnomasini aniqlash usulidir. O‘lchov odatda o‘rganilayotgan predmetni aniq qayd etilgan xossa va belgilariga ega bo‘lgan boshqa biron-bir predmet bilan nisbatlash yo‘li orqali amalga oshiriladi. O‘lhash usuli orqali predmetlarning xossalari, masalan, mustahkamligini, murakkabligini va boshqa tomonlarini aniqlash mumkin.

Taqqoslash bilish faoliyatida tatbiq qilinadigan usul bo‘lib, bilimlarning shakllanishi, rivojlanishida alohida bir bosqichni tashkil qiladi. Taqqoslash narsa va hodisalarning boshqa bir narsa yoki hodisadan farqli va o‘xhash tomonlarini hamda ularning munosabatlarini o‘rganish usuli hisoblanadi.

Eksperiment – tajribada sinab ko‘rish orqali fanda hodisalarni bilish faoliyatida tadqiq qilish, o‘rganish usuli hisoblanadi. Eksperiment kuzatishga nisbatan yuqoriq darajadagi bilish usuli bo‘lib, obyektni tegishli tajriba moslamalarini tatbiq qilish orqali obyektga ta’sir ko‘rsatish, o‘zlashtirish, bilimlarni boyitishga yordam beruvchi usuldir. Tadqiqotchi eksperiment usuli orqali o‘zini qiziqtirgan obyektning tomonlarini o‘rganishi uchun unga faol ta’sir ko‘rsatadi, buning uchun sun’iy sharoitlar yaratadi, shu sharoitda tekshirish olib boradi, ma’lumotlar to‘playdi. Eksperiment usuli hodisalarning muhim belgilari va xususiyatlarini, ularning boshqa narsa va hodisalar bilan munosabati,

aloqa va bog‘lanishlarini chuqurroq o‘rganishga imkoniyat yaratadi. Voqelikdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida tajribada olingan bilimlar mavhum tafakkurda qayta ishlanish natijasida yanada chuqurlashib, obyektiv haqiqatga yaqinlashib boradi. Ilmiy bilishning nazariy darajasida quyidagi usullar keng qo‘llaniladi: abstraksiya, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, analogiya, ideallashtirish, modellashtirish, tarixiylik va mantiqiylik hamda boshqa usullar qo‘llaniladi.

Abstraksiya – predmetlarning muayyan munosabatdagi muhim xossalari, munosabatlarini, taraqqiyot bosqichlarini fikran bilish usuli. Abstraksiyalash usuli analiz va sintez vositalarini o‘z ichiga oladi. Analiz va sintez dunyoni bilish jarayonida ishlatiladigan o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan usullardir.

Analizda o‘rganilayotgan narsa va hodisa mayda bo‘laklarga, ya’ni qismlarga bo‘linib, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar o‘zaro munosabat va ta’sir o‘rganiladi. Tarkibiy qismlarni sintez qilish uchun analiz qilinadi. Analiz usuli orqali narsa va hodisalarni to‘la bilish mumkin emas, shuning uchun u sintez yo‘li bilan to‘ldiriladi.

Sintez analizning natijalariga suyanib, narsa va hodisalarning bir butun sifatini o‘rganadi. Sintez – analiz natijasida fikran bo‘lingan elementlarni qaytadan tiklash, ularni birlashtirish, ilgari yaxlitlikni fikran vujudga keltirish usulidir.

Analiz tadqiqot jarayonida bilishning tayyorgarlik ko‘rish bosqichi hisoblansa, sintez uni yakunlaydi. Analiz va sintez natijasida umumiy tushuncha, muhokamalar tarkib topadi, ular yordamida o‘rganilayotgan obyektning sifati va muayyan qonuniyatları aniqlanadi va shakllanadi.

Induksiya – ayrim fikriy bilishdan umumiy xulosalar chiqarishda qo‘llaniladigan bilish usulidir. Bu usul yordamida xususiylik o‘rganilib, umumiylilik bilib olinadi. Induksiya usuli narsa va hodisalarning sababiy bog‘lanishlarini tekshirish usuli bo‘lib ham xizmat qiladi.

Deduksiya – umumiylididan xususiylikka olib boruvchi mantiqiy usul. Fandagi nazariyalar deduktiv usul natijasida yuzaga keladi. Bu usul asosan daliliy ma’lumotlar to‘plash natijasida ularni chuqur o‘rganish, sistemaga solishda qo‘llaniladi.

Analogiya (moslik, aynanlik, o‘xhashlik) – narsa va hodisalar biror xususiyatlarining o‘xhashligini o‘rganish usuli. Bu usul yordamida ikki predmetning o‘xhash xususiyatlari o‘rganiladi.

Ideallashtirish – bilish jarayonida obyektni qulaylashtirish usuli. Bu usulda real obyekt ideal obyekt bilan almashtiriladi. Bu usul tabiiyot

fanlarining tadqiqot usuli hisoblanadi. Masalan, fizikada shunday usul orqali fizik obyektlar: ideal gaz, mutlaq qattiq qism, mutlaq qora jism va boshqalarni ideallashtirilgan obyektlar deb qarash mumkin.

Modellashtirish borliqni bilvosita o‘rganishga asoslangan ilmiy usuldir. Bu usul asosida tadqiq qilinayotgan obyekt bilan uning modeli o‘rtasidagi o‘xhashlik, muvofiqlik yotadi. Modellashtirish usuli ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ba’zi hollarda murakkab obyektlarni o‘rganishning yagona vositasi hisoblanadi. Modellar ikki xil: moddiy va g‘oyaviy bo‘ladi. Moddiy narsalardan yasalgan modellar moddiy modellar deyiladi. Bu modellar obyektlarning taraqqiyot jo‘shqinligini, ularning mohiyatini ifodalovchi zaruriy qonuniy aloqalarni, munosabatlarni qayta hosil qiladi. G‘oyaviy modellar esa g‘oya shaklida mavjud bo‘ladi.

Aksiomatik usul tadqiqotning aksiomalarga asoslanib nazariy xulosalar chiqarish usulidir. Asos qilib olingan aksiomalar esa muayyan nazariy sistemada isbotlanmay haqiqiy deb qabul qilinadi. Nazariy bilimlar to‘la ravishda aksiomalardan deduktiv yo‘l bilan chiqariladi

Tarixiylik va mantiqiylik obyektiv dunyo taraqqiyot jarayonining muhim xususiyatlarini bilish usulidir. Tarixiylik usuli narsa va hodisalarning ro‘y berish vaqt, davri, aniq vujudga kelishi, rivojlanishini bilish usulidir. Har bir hodisani faqat aniq tarixiy nuqtai nazardan, faqat tarixning aniq tajribasi bilan bog‘lab o‘rganmoq zarur. Har bir narsaning tarixini olib berish uning taraqqiyotidagi asosiy tarixiy bosqichlar, ularning aloqalarini ajratib ko‘rsatishni talab qiladi. Buning uchun esa uning mohiyati haqida nazariy bilim bo‘lishi kerak. Mantiqiy usul predmetning mazmunini nazariy shaklda tadqiq qilish usuli hisoblanadi. Bu usul tadqiqot obyektining eng muhim aloqalarini bilib olishga imkon beradi.

Yuqorida qayd qilingan bilishning empirik va nazariy darajalari umuman ilmiy bilish sohasining darajalarini tashkil qiladi. Barcha tabiiy, ijtimoiy va texnikaviy fanlar bilishning empirik va nazariy darajalariga ega. Jumladan, huquqiy fanlar sohasi ham mana shu amaliy va nazariy bilish sohalariga bo‘linadi. Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari usullarining barchasi huquqshunoslik fanlarida ham keng qo‘llaniladi. III xodimlarining amaliy faoliyatida empirik (amaliy) bilish usullari kuzatish, o‘lchash, taqqoslash va eksperimentlar keng qo‘llanilib, jinoyatlarning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni bartaraf etishda keng qo‘llaniladi. Masalan, kuzatish usuli orqali jinoyat qilishga moyil

bo‘lgan kishilarni xatti-harakatlarini kuzatish orqali ularning oldini olish mumkin. O‘lchash, taqqoslash usullari orqali sodir etilgan jinoyatlar joylari, sodir etilgan jinoyatlarning shunga o‘xhash jinoyatlar bilan taqqoslash asosida ba’zi bir to‘g‘ri xulosalarga kelinadi.

Nazariy bilish usullari analiz, sintez, induksiya, deduksiya analogiya, tarixiylik va mantiqiylik hamda boshqa usullari orqali huquqiy soha va undagi munosabatlar mustahkamlanib bormoqda. O‘zbekistonda huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etishda keng foydalanimoqda. Masalan, milliy davlatchiligidan barpo etishda tarixiylik va mantiqiylik usulining o‘rni beqiyosdir. Biz bugungi kunda kelajagimizni o‘zida aks ettirgan jamiyatni barpo etishda, o‘tmishda yashab ijod etgan ota-bobolarimizning davlatni idora etish va boshqarish usullariga tayanmog‘imiz va ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqargan holda amaliyatga tatbiq etmog‘imiz zarur.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, empirik va nazariy bilish darajalarining usullari huquqshunoslik fanlarining takomillashtiruviga va ularning amaliy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy ijodkorlik bilishning shakli sifatida. Huquqiy ijodkorlik – jamiyatdagi mavjud turli xil ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari tizimini yaratishga hamda takomillashtirishga qaratilgan faoliyat turidir. O‘zining mohiyatiga ko‘ra huquq ijodkorligi davlat xohish-irodasini ifoda etuvchi normativ-huquqiy aktlar sifatida aks etadi. Ushbu hujjatlar hamma uchun majburiy bo‘lib, davlat organlarining normativ-huquqiy aktlarni yaratish, to‘ldirish, yangilash yoki bekor qilish borasidagi faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Huquq ijodkorligi – vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarning (referendum chog‘ida – butun xalqning) huquq normalarini o‘rnatish, o‘zgartirish, takomillashtirish va bekor qilishga yo‘naltirilgan maxsus faoliyatidir.¹

Huquq ijodkorligi davlat faoliyatida juda katta o‘rin tutadi. Huquq ijodkorligida tayyorgarlik ko‘rish jarayoni alohida ajralib turadi. Ushbu jarayonning zarurligi qabul qilinayotgan hujjatlarning sifatini muntazam oshirib borilishini taqozo etadi.

Huquq ijodkorligi jarayonida ham obyekt va subyekt munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Huquq ijodkorligida uning obyektini jamiyatning ma’lum sohalariga taalluqli bo‘lgan qonunlar, huquqiy

¹ Qarang: Давлат ва хуқуқ назарияси. Х.Т.Одилқориевнинг таҳрири остида. – Т., 2009. – Б.239.

normalar, huquqiy islohotlar, huquqiy munosabat va huquqiy jarayonlar tashkil qiladigan bo‘lsa, uning subyektini har qanday shaxs yoki kishilar guruhi tashkil qila olmaydi. Huquq ijodkorligi bilan davlatning alohida vakillik organlari shug‘ullanadi.

Davlatning huquq ijodkorligi faoliyati turli xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Tegishli davlat organlari ushbu faoliyat bilan shug‘ullanadilar. Ayrim davlatlarda huquq ijodkorligi referendum orqali amalga oshiriladi. Har bir davlatda huquq ijodkorligining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Huquq ijodkorligi bilan asosan parlament, ya’ni oliy vakillik organi shug‘ullanishi lozim. Hokimiyatning markaziy va mahalliy organlari u yoki bu darajada huquq ijodkorligi bilan shug‘ullanadilar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan, huquq ijodkorligini oliy vakillik organi – Oliy Majlis amalga oshiradi.

INSON VA HAYOT FALSAFASI

I-bob. INSON VA JAMIYAT FALSAFASI

1-§. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining falsafiy merosida inson muammosi

Inson muammosini o‘rganishda falsafaning ahamiyatini ko‘rsatib berish uchun insonni falsafiy o‘rganishning asosini tashkil etuvchi muammolar majmuasini ajratib olishimiz zarur. Eng umumiy holda, bular insonning paydo bo‘lishi, mohiyati va kelajagi haqidagi masalalardir. Qo‘yilgan masalalarни yanada aniqlashtirsak, falsafada inson muammosining quyidagi jihatlarini tahlil qilishimiz mumkin: 1) inson moddiy olamning o‘ziga xos siri sifatida; 2) inson mohiyati va mavjudligi dialektikasi; 3) insonda biologik va ijtimoiy jihatlar munosabati; 4) erkinlik, ozodlik muammosi; 5) inson qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiyot, maqsad va uni amalga oshira olish imkoniyati; 6) insonda cheklilik va cheksizlik, hayot mazmuni va hokazo. Umumiylig, xususiylik va yakkalik dialektikasini to‘g‘ri qo‘llash bu masalalarни hal qilishning muhim uslubiy yo‘li hisoblanadi. Insonga nisbatan bu dialektika umuminsoniylik va konkret tarixiylik, mohiyat va mavjudlik, obyektivlik va subyektivlik, sababiylig va erkinlik kabi munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Falsafada mazkur aloqadorliklar doimo muayyan tarixiy davr bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqilgan. Jumladan, O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi madaniy yodgorliklaridan biri bo‘lmish zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da inson, uning paydo bo‘lishi, mohiyati va kelajagi haqidagi masalalar jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda izohlangan. Avestoda aytilishicha, birinchi odam Yima (Iyyim) bo‘lib, boshqa odamlar undan tarqalganlar. Yima hukmronlik qilgan davr oltin davr hisoblanadi. U vaqtarda odamlar o‘lim nimaligini bilmaganlar. Xudo Axuramazda abadiy bahorni yaratib, unda odamlar baxtli va farovon yashaganlar. Lekin bir payt kelib, odamlar gunoh ish qilib qo‘yanlar, ya’ni taqiqlangan mol go‘shtini yeb qo‘yanlar. Shunda yovuzlik xudosi Axrimanning qahri kelib, odamlarga qor va sovuqni yuborgan.

Yima odamlar va mollarni sovuqdan saqlab qolish uchun uy qurib, unga barcha tirik narsalardan bir juftdan joylashtirgan. Shunday qilib, tarixning birinchi – oltin davri tugab, ikkinchi – ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash davri boshlangan. Bu kurashda yaxshilik xudosi Axuramazda yomonlik xudosi Axriman ustidan g‘alaba qozonadi va baxtli kunlar keladi. Shu tariqa uchinchi davr insonlar kelajagi davri boshlanadi.

Ko‘rib turganimizdek, Avestoda hayot va insonning paydo bo‘lish masalasi ilohiyot bilan bog‘lab tushuntirilgan. Bundan tashqari, Avestoda o‘sha davrning axloqiy va huquqiy qoidalari o‘z aksini topgan bo‘lib, inson va uning taqdiri masalalari aynan shu qonunlar doirasida yoritib beriladi. Avestoda ifodalangan axloqiy qoidalari asosini uchta narsa, ya’ni yaxshi fikr (gumata), yaxshi so‘z (gukta) va yaxshi ish (gvarishta) tashkil etadi. Ezgulik Axuramazda xudosining, yovuzlik fikr esa Axriman xudosining xislati hisoblanadi. Insonning kamolotga erishishi yomonlik ustidan g‘alaba qilishi bilan bog‘lanadi. Kitobda axloqiy qoidalari ilohiylashtiriladi, ya’ni yaxshi ishlari uchun insonlar narigi dunyoda taqdirlanishlari, gunohlari uchun esa jazolanishlari va’da qilinadi. Bunday saralashni bosh hakam – xudo Axuramazdaning o‘zi amalga oshiradi. Xullas, dastlabki yozma yodgorlik bo‘lmish Avestoda, diniy tusda bo‘lsa-da, inson va jamiyat munosabatlarini o‘sha davr nuqtai nazaridan yoritishga harakat qilingan.

Keyinchalik, VIII–XII asrlarda rasmiy islomga qarshi kurash jarayonida hurfikrlilik ramzi sifatida dunyoviy bilimlarga asoslangan ilg‘or ijtimoiy-falsafiy fikrlar ham rivojlangan. Sharqning bu davrda yetishib chiqqan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlari qarashlarida ham inson muammozi alohida o‘rin egallagan.

Forobiy (873–950) ta’limotida inson mavjudligi va uning paydo bo‘lishi, hayotning maqsadi kabi masalalarga e’tibor muhim o‘rin tutdi. Uning fikricha, moddiy olam inson, uning sezgisi, aqlidan avval mavjud bo‘lgan. Inson va uning aqli esa – moddiy olam rivojining oliy mahsuli bo‘lib, ijtimoiy hodisadir. Forobiy insonning faqat jamoadagina mavjud bo‘la olishini, o‘zining «Fozil shahar aholisining fikrlari» asarida quyidagicha tasvirlaydi: har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashashi va oliy darajadagi yetuklikka erishmog‘i uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi. Odamzod yolg‘iz o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi va ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan narsalarni bir-birlariga yetkazib

beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p insonlarning birlashuvi orqaligina odam o‘zi intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shu tariqa insonlar jamoasi vujudga kelgan¹.

Forobiy jamoalarning mukammallik darajasini inson komilligi bilan bog‘laydi. Shuning uchun ham uning fikricha, jamoada aqli, axloqan yetuk, vijdonan pok va bir-birlariga doimo yordam berishga tayyor insonlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, bunday shahar shunchalik fazilatli va mukammal bo‘ladi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, insonlarning adolatli jamiyatga erishish yo‘llarini Forobiy adolatli shohning hukmronlik qilishi, ilm-fan ravnaqi va, eng asosiysi, insonning axloqli bo‘lishi, ruhiy mukammallikka erishishida ko‘radi. Mutafakkir o‘z asarlarida bu narsa insonning o‘z qo‘lida ekanligi, ya’ni inson o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va yaratishi mumkinligini bir necha bor uqtiradi. Forobiy insonning baxt-saodati narigi dunyoda emas, balki o‘zi yashab turgan real dunyodadir, deb ta’kidlaydi.

O‘rta asr Sharqining yana bir ulkan allomasi mashhur qomuschi va buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ham o‘z ijtimoiy-falsafiy qarashlarida insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan. U insonni eng oliy qadriyat sifatida tushuntirgan, inson va, umuman, insoniyat paydo bo‘lishi uzoq davom yotgan evolyutsion jarayon bo‘lib, bunda geografik muhitning roli borligini, shunga ko‘ra odamlarning rangi, tuzilishi bir-biridan farq qilishini ta’kidlagan. Beruniy insonning oliy mavjudot ekanligi va u boshqa hayvonlardan o‘zining aqli, nutqi bilan farq qilishini ilmiy jihatdan izohlasa-da, ikkinchi tomondan, insonni hayvondan farq qiladigan ayni shu xususiyatlarning qanday paydo bo‘lganligini ilohiy jihatdan tushuntirib, insonni xudo azaldan shunday yaratgan, deydi.

Beruniyning qarashlari Forobiyniki singari insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. U insonni eng oliy qadriyat sifatida ulug‘lash bilan birga, uni umumbashariylik, odillik, ziyolilik, bilimdonlik, xalqparvarlik xislatlarini o‘zida shakllantirishga undaydi. Beruniy falsafasiga binoan, inson ichki dunyosi pokligrining asosi yaxshi niyatdir. Yaxshi niyat insonga doimo ezgu ishlarida hamroh bo‘lib, ishining o‘ngidan kelishiga madadkor bo‘ladi.

¹ Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши тарихидан лавҳалар. – Т., 1993. – Б.29-30.

Beruniyning zamondoshi, Sharq uyg‘onish davri madaniyatining eng yirik arboblaridan yana biri Abu Ali Ibn Sino (980–1037) falsafiy qarashlarida inson muammosi o‘ziga xos o‘rin tutgan. Ibn Sino insonning axloqi, tarbiyasi, huquqi, erki, burchi, vijdoni, iymoni, elparvarligiga doir masalalarga alohida e’tibor bergan. Tabiat va insonning paydo bo‘lishi masalasida esa evolyutsion rivojlanish yo‘lini tan olgan. Uning fikricha, avval tog‘-toshlar, so‘ngra o‘simlik va hayvonlar, taraqqiyotning eng yuqori bosqichida esa inson vujudga kelgan. Inson boshqa barcha hayvonot olamidan so‘zi, tili va aqli bilan ustunlik qiladi. Mavjud hodisalarini chuqur bilish faqat insonga xos xislatdir.

Ibn Sinoning ta’kidlashicha, inson ijtimoiy mavjudot bo‘lib, faqat jamiyatdagina mavjud. U o‘zini birovlardan farqlashi, o‘z o‘rniga ega bo‘lishi mumkin. Ibn Sino insonlarni jamiyatda tutgan o‘rniga qarab uch guruhga ajratadi: a) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug‘ullanuvchi kishilar; b) bevosita xomashyo, zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lganlar; v) davlatni qo‘riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlashni ta’minlovchi harbiylar¹. Bu guruhsalar orasida o‘zaro kelishuv bo‘lishi uchun jamiyatda, eng avvalo,adolat qonun-qoidalari o‘rnatalishi va ular asosida idora etish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi lozim.

Inson – olamdagi mavjudotlar ichida eng buyuk zot. U Ibn Sino tasavvurida farishtalardan ham sofroq va pokroqdir. Shu sababli ham mutafakkir odamlardan inson nomiga loyiq bo‘lishni talab qiladi. «Birodarlar, – deb yozadi u, – farishta yomonlik bilan mashg‘ul bo‘lsa yoki hayvonlar xunuk ish qilsa, bunga ajablanish kerak emas, balki inson aql bilan munavvar bo‘la turib shahvatga berilsa-yu, insoniyligini yo‘qotib vijdonidan kechsa, bunga ajablanish kerak bo‘ladi»².

O‘rta asr musulmon falsafasida inson to‘g‘risidagi qarashlarning shakllanishi va yanada rivojlanishida so‘fiylik ta’limotining g‘oyaviy-nazariy asosi bo‘lmish tasavvuf tariqatlarining ta’siri ham sezilarli bo‘lgan. Tasavvuf falsafasida insonning o‘z barkamolligiga erishishi yo‘llari sifatida tarkidunyochilik qilish g‘oyasi ilgari suriladi.

¹ Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар / Тузувчилар: М. Хайруллаев, Х. Алиқулов. – Т., 1995. – Б.68.

² Шермуҳамедов Я. Ўрта Осиё мутафаккирларининг яхшилик ва ёмонлик хақидаги қарашлари. – Т., 1970. – Б.33.

So‘fiylar fikricha, inson tanasida biri-biriga qarama-qarshi bo‘lgan rahmoniy va shaytoniy kuchlar mavjud. Inson barkamollik darajasiga ko‘tarilmog‘i uchun rahmoniy kuchning o‘z tanasidagi shaytoniy kuchdan g‘olib chiqishini ta’minlash malakasiga ega bo‘lmog‘i darkor. Inson tanasidagi barcha shaytoniy qiliqlar, nafs, g‘azab, bilimsizlik bilan aloqadorlikda sodir bo‘ladi. Nafsni jilovlay olmaslik, mol-dunyo to‘plashga hirs qo‘yish, ya’ni boylik to‘plashga uzlusiz intilish inson tanasini o‘tkinchi lazzatu farog‘at bilan ardoqlaydi. Bunday lazzat va farog‘at qarmog‘iga ilingan inson yirtqich hayvonlardek qutira boshlaydi, g‘azabi ortib boradi. Nafs va g‘azabning birlashib ketishi insondagi shaytoniy xislatlarni yanada rivojlantiradi va rahmoniy fazilatlarni yemiradi. Natijada bunday kishilar ma’naviy jihatdan qashshoqlasha boshlaydilar. Xuddi shuning uchun ham so‘fiylarning fikriga muvofiq, inson nafsga erk bermasligi, uni o‘z vaqtida jilovlay bilishi zarur. Nafsga erk bermaslik, uni jilovlay olish – ma’naviy yetuklik garovidir¹.

Tasavvuf talablariga ko‘ra, inson barkamollik darajasiga ko‘tarilmog‘i uchun to‘rtta murakkab bosqichni – shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlarini bosib o‘tmog‘i zarur. Ushbu bosqichlardagi talablar bir-biridan murakkab bo‘lib, oxir oqibatda vijdonan pok, axloqan yetuk komil insonni tarbiyalashga yo‘naltirilgandir.

Tasavvuf falsafasining Najmuddin Kubro (1145–1221) asos solgan eng yirik yo‘nalishlaridan biri – kubraviylikda (kubraviya) inson tarkidunyochilikka berilgan va o‘zini butunlay unutib qo‘ygan mavjudot emas, balki o‘zini qayta qurish uchun real ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan bunyodkor sifatida talqin qilinadi. Boshqa tadqiqotlarda bo‘lgani singari, kubraviylikda ham insonga xudo vasliga yetish talabi qo‘yilsada, bu asosan axloqiy talab bo‘lib, insonni ruhan pok va ma’naviy yetuk bo‘lishga undaydi. Kubraviylikning o‘ziga xos jihatlaridan eng muhimi shundaki, u insonni uni qurshab olgan olamni va o‘zini anglashga undaydi. Komil inson bo‘lmoq uchun nafaqat axloqan yetuk bo‘lish, balki, eng avvalo, o‘zligini anglash zarur. Inson o‘zligini anglagandagina butun olam sirlarini, demakki, ilohiy haqiqatni ham bilishga yaqinlashadi. Ilohiy haqiqatga erishgan inson esa, xudo vasliga yetgan va u bilan uyg‘unlashib ketgan bo‘ladi.

¹ Чориев А. Тасаввуф фалсафасида инсон киёфаси. – Карши, 1997. – Б.7-8.

Ahmad Yassaviy (vafoti 1166-yil) asos solgan yassaviylik tariqatida ham inson eng oliv mavjudot sifatida ulug'lanadi, Olloh vasliga yetishi uning kamolotga erishishi bilan belgilanadi. Yassaviy fikricha, insonning xudoga yetishishidagi eng yuqori bosqich «fano» holatidir. Fano deganda, yo'q bo'lish; o'zligidan voz kechib, o'zini har tomonlama qiyab, o'limni yaqinlashtirish; tirik murdaga aylanish, o'lim bilan hayot orasidagi faoliyat tushuniladi¹. Boshqacha qilib aytganda, bu holatda inson o'zining bor-yo'qligini mutlaqo unutadi, xudoning visoliga yetishishni maqsad qilib qo'yadi. Yassaviyning ta'kidlashicha, bu bosqichda inson g'ofillik va g'aflat deb atalmish bedavo qusurlardan ozod bo'ladi, manmanlikdan poklanadi, tubanlikdan chiqadi.

Tasavvuf falsafasining Bahouddin Naqshband (1318–1389) asos solgan yana bir yirik tariqati bo'lmish naqshbandiyada ham asosiy masala sifatida insonning ruhan poklanish, axloqan yetuk bo'lish orqali Ollohga yaqinlashish g'oyasi ilgari suriladi.

Naqshbandlik tariqati kubraviylik va yassaviylikdan, eng avvalo, odamlarni tarkidunyochilikdan voz kechishga va halol mehnat qilishga chorlagani bilan tubdan farq qiladi. Halol mehnat – ma'naviy-axloqiy yetuklikning tayanch nuqtasi. Naqshband ta'limotida inson kamoloti dabdabali hayot va mol-mulk to'plashdan voz kechish, kamtarona faqirlikni qabul qilish bilan bog'lanadi. Shu yo'l bilan insonlar Muhammad payg'ambardek yashashga chorlanadi.

Naqshbandlikda ta'kidlanishicha, inson o'z dilida Olloh ishqini mustahkam joylashtirib, shuhratparastlik, o'ziga bino qo'yish, yolg'onchilik, makkorlik, johillik kabi yaramas illatlarga qarshi tinimsiz kurash olib borgandagina ruhiy va ma'naviy yetuklikka erishadi. Insonning ruhiy-ma'naviy yetukligi, eng avvalo, o'tkir aqlga, yuksak idrokka, keng dunyoqarashga ega bo'lishni taqozo etadi. Naqshbandiya tariqati insonlarni e'tiqodli, iymonli bo'lishga chorlaydi, chunki bu xislatlar asosida abadiy mavjud Olloh yotadi.

Xulosa qilib aytganda, eng muhimi, naqshbandiya boshqa tariqatlardan farqli ravishda tarkidunyochilik g'oyalariga qarshi borib, tasavvuf falsafasiga dunyoviy tus berdi, uning g'oyalarini hayotga yaqinlashtirdi va ularning keng tarqalishiga yo'l ochib berdi.

Buyuk shoir Alisher Navoiy falsafasida insonning paydo bo'lishi masalasi optimistik panteizm nuqtai nazaridan hal etiladi, inson xudoning voqelikka aylangan imkoniyati deb izohlanadi. Boshqacha

¹ Яссавий Ахмад. Ҳикматлар. – Т., 1991. – Б.86.

qilib aytganda, odam xudo tomonidan yaratilgan ojiz banda sifatida emas, balki aql doirasi bilan olamni bila oladigan, tafakkurga va nutqqa ega bo‘lgan, o‘z maqsadlariga muvofiq harakat qiladigan, yaxshilik va yomonlikni farqlay oladigan ijtimoiy mavjudot sifatida baholanadi.

Navoiy panteizmiga binoan, xudo odam shaklida zuhur etilgan va shuning uchun xudo hamma narsaga qodir bo‘lganidek, odam ham xudoning namoyon bo‘lish shakli sifatida cheksiz iroda erkinligiga ega, u o‘z taqdirini o‘zi yaratadi hamda orzu qilgan hamma narsaga erishishi mumkin. Shu sababli ham Navoiy yaratgan hech bir ijobiy qahramon taqdirga tan bermaydi, o‘z maqsadlari yo‘lida tinmay kurashadi¹.

Azaldan O‘rta Osiyo falsafasida olg‘a surib kelingan komil inson g‘oyasining muayyan ta’siri Alisher Navoiyning falsafiy va axloqiy qarashlarida ham o‘z aksini topgan. Bu g‘oya uning asarlaridagi Suqrot, Aflatun, Iskandar Zulqarnayn, Farhod, Shirin singari ijobiy qahramonlar timsolida badiiy ifodalangan.

Yana bir buyuk alloma Boborahim Mashrab (1653–1711) o‘z g‘azallarida insonlarni komillikka intilishga chaqirdi. Mashrab qalandarlikni, tarkidunyochilikni yoqlab chiqdi va undan axloqiy komillikka, poklikka erishish, hayotdagi salbiy illatlarga qarshi kurashishda foydalandi. Uning fikricha, inson o‘z hayotida murod-maqsadiga yetish, fisqu fasod, yomonlik va sitamlardan qochish uchun qalandar bo‘lish kerak. Mashrab adolatsizlikka, jabr-zulmga, zo‘ravonlik va o‘zboshim-chalikka, firibgarlik va munofiqlikka qarshi faqat shunday tarkidunyochilik yo‘li bilan kurashish mumkin, deb tasavvur qildi.

Mashrab she’riyatida yaxshi xislatlar, insoniy fazilatlar Ollohdan qidiriladi va odamlarni Olloh singari barkamol bo‘lishga undaladi. Shu bilan birga, shoir insonlarni faqat Ollohga intilishga emas, balki mavjud dunyoga, insonga, ona zaminga ishq-muhabbatli, vafodor, xalqparvar bo‘lishga chaqiradi. Umuman, Mashrab she’riyatida inson ulug‘lanadi va baxtli, farovon yashashga haqli zot deb ta’riflanadi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida ma’rifatparvarlar harakatining taniqli namoyandalaridan biri bo‘lmish Ahmad Donish falsafasida ham doimo inson muammosi alohida o‘rin egallab kelgan. Uning fikricha, inson bu olamning buyuk mo‘jizasi bo‘lib, u hamma narsaga qodir. Ahmad Donish inson tabiatini quyidagicha tasvirlaydi: «Agar tafakkur daryosiga cho‘msang, yetti osmonni xayoling qutichasiga

¹ Qarang: Шермуҳамедов Я. Ўрта Осиё мутафаккирларининг яхшилик ва ёмонлик ҳақидаги қарашлари. – Т., 1970. – Б.54-60.

joylaysan; agar xayol quvvatini ishlatsang, yetti qavat yerni fikrning tokchasiga sig'dirasan; agar qahri-g'azabing kelsa, yo'lbarsni mushukday ham ko'rmaysan; agar mehribonliging tutar ekan, bechora chumolini kipriging ustida saqlaysan; agar saxiyliging jilva qilsa, kiygan to'ningni muhtojga berib, o'zing yalang'och qolasan; agar baxilliging tutsa, qumursqa og'zidagi donni talashasan»¹.

Ahmad Donish inson hayotining maqsadini yaratuvchilikda, o'zidan keyin moddiy, ma'naviy boylik qoldirishda deb biladi, yeb-ichishni, nafsni qondirishni o'z hayotining ma'nosi deb biladiganlarni kaltafahmlikda, johillikda ayblab, ulardan nafratlanadi. O'z zamonasining ichki ziddiyatlarini bilgan va keyinchalik hech zamonda podsho kelib, insonlarga farovon hayotni yaratib bermasligini tushungan Ahmad Donish kishilarni ilmga, ma'rifatga chorlaydi. Chunki, uningcha, ilm va ma'rifatgina xalqqa farovon hayotni yaratishga asos bo'la oluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida qilingan tahlillarimiz yakunida inson muammosi va uni yoritishda falsafaning roli, O'rta Osiyo ijtimoiy-falsafiy fikri tarixida mazkur masalaning tutgan o'rni haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1) hozirgi zamon fani taraqqiyotidagi differensiatsiyalashuv jarayonlarining kuchayib borayotganligi inson muammosi o'z mohiyati bilan falsafaning o'ziga xos tadqiqot obyekti ekanligini yana bir karra isbotlamoqda;

2) O'rta Osiyo falsafiy fikrining shakllanishi jarayonida insonning mohiyati va kamoloti masalalari muayyan-tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq holda yoritib kelindi;

3) O'rta Osiyo mutafakkirlari insonning paydo bo'lishi masalasini tushuntirishga asosan panteizm nuqtai nazaridan yondashgan bo'lsalarda, inson hayoti, kelajagi, kamoloti masalalarida hozirgi kunda ham yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan taraqqiyparvar g'oyalarni ilgari surganlar.

2-§. Insonning paydo bo'lishi haqidagi ilmiy falsafiy qarashlarning mohiyati

Ma'lumki, yerda hayot 4 milliard yil, Homo sapiens (aqlli inson) esa 40 ming yil avval paydo bo'lgan. Ilmiy adabiyotda keltirilishicha, yerda hayot paydo bo'lishi haqida ikki xil tasavvur bor. Birinchisiga

¹ Аҳмад Донии. Наводир ул-вақое. – Т., 1964. – Б.154-155.

ko‘ra, yerda hayot fizikaviy-kimyoviy jarayonlar natijasida paydo bo‘lgan; ma’lum bir vaqtدا o‘zgacha sharoit ta’sirida okeanlarda sodir bo‘lgan davomiy jarayonlar hayot paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Ikkinchи tasavvurga ko‘ra, fizikaviy-kimyoviy jarayonlarning o‘zi jonli hayotning paydo bo‘lishi uchun yetarli emas, bu yerda yana jonsizdan jonliga tomon sifatiy sakrash yuz bergen bo‘lishi kerak.

Rus bioximigi A.I.Oparinning ta’kidlashicha, sayyoramiz dastlabki davrlarda o‘z okeanlarida juda ko‘p miqdorda suv saqlagan. Yerning o‘z o‘qi atrofida va boshqa sayyoralarga nisbatan aylanishi okean sathi haroratining iloji boricha ko‘tarilmasligiga asos yaratib bergen. Yerning birlamchi qatlamida vodorod, ammiak, metan, uglevodorod gazi va suv kabi elementlar bo‘lgan. Atmosferada ozon qatlami yo‘qligi tufayli Yerda Quyoshning ultrabinafsha radiatsiya nurlarining ta’siri kuchaygan. Natijada organik birikmalarning kimyoviy evolutsiyasi sodir bo‘lgan va dunyo okeanlarining turli joylarida hayot paydo bo‘lishiga turtki bergen. Shu tariqa hayot paydo bo‘lgan¹.

Yerda hayot paydo bo‘lishi haqidagi gipotezalarni isbotlash uchun olimlar turli xil eksperimentlar o‘tkazganlar. Jumladan, nemis olimi S.Miller yer yuzida dastlabki davrlarda qaror topgan muhitni tajriba yo‘li bilan yaratishga harakat qilgan. U yopiq idishga vodorod, ammiak, uglerod-IV oksidi va suv birikmasidan iborat aralashmani solgan. So‘ngra yuqori voltli tokdan foydalanib, ultrabinafsha nur bilan ularga ta’sir qilgan. Natijada idishda oqsilning asosi bo‘lgan bir qator aminokislotalar, nuklein kislotalarning paydo bo‘lish jarayoni kuzatilgan. Bu tajribalar yordamida nemis olimi S.Miller hayotning asosini tashkil etuvchi aminokislotalar va ularning polimerlari hosil bo‘ladigan sharoitlarni ko‘rsatib berishga muvaffaq bo‘ldi².

Olingan natija quyidagi faktni isbotladi, ya’ni organik birikmalarning sintezlanishi Yerda juda keng miqyosda sodir bo‘la borgan. Vodorod, ammiak, uglerod, metan va suvdan tashkil topgan birlamchi atmosferaga bir necha ming yillar davomida Quyoshning ultrabinafsha nurlari ta’sir etib, ular reaksiyaga kirishib borgan. Buning natijasida organik birikmalar sintezlanib yomg‘ir bilan birga okeanga tushgan. Organik birikmalarning sintezlanishi okeanda davom etgan, undan keyin mazkur birikmalarning ma’lum bir qismi yana atmosferaga ko‘tarilgan. Shu tariqa Yer reaksiyalar sodir bo‘luvchi ulkan laboratoriya aylangan.

¹ Опарин А.И. Проблема происхождения жизни. – М., 1976. – Б.27–43.

² Дубинин Н.П. Что такое человек. – М., 1983. – С.238.

Unda ko‘p miqdordagi aminokislotalar va boshqa organik kislotalar reaksiyaga kirishib borgan va hanuzgacha mazkur hodisa davom etib kelmoqda.

Lekin bu unchalik isbotlovchi dalil emas, chunki bu birikmalarning o‘zaro reaksiya jarayoni notirik tabiatdan tirik tabiatni keltirib chiqara olmaydi. Bu yerda, albatta, muayyan bir sifatiy sakrash sodir bo‘lgan bo‘lishi kerak. Bu sakrashda DNKdan bir o‘lchamli ma’lumotning, o‘z-o‘zini ishlab chiqaruvchi butun tizim bo‘lgan uch o‘lchamli ma’lumotga – oqsilga aylanishi sodir bo‘ladi.

Hayotning paydo bo‘lish jarayonini tajriba (eksperiment) yo‘li bilan tiklab bo‘lmaydi. Lekin shu narsa aniqliki, hayotning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lgan aminokislotalar va boshqa polimerlar kimyoviy va fizikaviy jarayonlar natijasida paydo bo‘lgan, shundan so‘ng esa qandaydir bir sifatiy sakrash sodir bo‘lgan.

Demak, organik birikmalarning kimyoviy va boshqa reaksiyalarga kirishishi, ularning oddiy miqdoriy o‘zgarishining o‘zi hayot paydo bo‘lishiga kifoya bo‘lgan emas. Boshqa sayyoralardan, xususan, oy tuprog‘idan topilgan organik birikmalarning mavjudligi buning isboti bo‘lishi mumkin. Ular bor bo‘lgani bilan, oyda hayot mavjudligi isbotlanmagan. Faqat yerda organik birikmalarning reaksiyaga kirishishida sifatiy sakrash sodir bo‘lganligi tufayligina hayot paydo bo‘lgan. Lekin hozirgi kunda boshqa sayyoralarda, xususan Marsda mikroorganizmlar darajasidagi hayot borligi aniqlangan.

Jonli hujayra o‘zini o‘zi boshqarish, ta’minalash va yaratish xususiyatiga ega bo‘lgan ochiq tizim hisoblanadi. Hujayrada mazkur funksiyaning amalga oshishini DNK va RNKLarda nasldan naslga o‘tuvchi genetik kod ma’lumotlari hisobiga ta’minalash mumkin.

Molekular biologiya yana shu narsani isbotlamoqdaki, barcha tirik organizmlar (viruslar, bakteriyalar, hayvonlar va o‘simganlar)ning oqsilari o‘zlarining boshlang‘ich tuzilish doirasida, har xil mutanosiblikda bo‘lsa-da, lekin doimiy tarkibiy qismi bo‘lgan aminokislotalardan iborat. Xuddi shu holat adenin, timin, sitozin, guanin va uratsil kabi elementlarni o‘z tarkibiy asosi qilib olgan nuklein kislotalarga ham taalluqlidir. Mana 4 milliard yildirki, ular o‘z barqarorligi bilan tirik organizmlarning doimiy tashkil etuvchisi sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda¹.

¹ Дубини Н. П. Что такое человек. – М., 1983. – С.241.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida har qanday tirik organizmlar hujayralardan iboratligi haqidagi xulosaga kelishimiz mumkin. Ochiq tizimga ega bo‘lgan hujayralar o‘zlarining ichki tartiblanish xossasini tashqi muhit hisobiga ta’minlaydi. Hayot ikki holda – nuklein kislotalar va oqsillarning o‘zaro aloqadorligini ta’minlaganda hamda o‘zaro bog‘liq reaksiyalar oqimi genetik ma’lumotlar (DNK va RNK) bilan dasturlashtirilgandagina paydo bo‘ladi.

Demak, keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, fan yer yuzida hayotning paydo bo‘lish evolutsiyasining bevosita koinotdagi yulduzlar, gallaktikalar va ularning yerdagi biologik, geofizik jarayonlarga ta’siri bilan o‘zaro bog‘liq ekanligini tasdiqlamoqda. Lekin biz bu bilan fan hayotning paydo bo‘lishi masalasiga oxirgi nuqta qo‘ydi, degan xulosaga kelmasligimiz kerak. Chunki fanning yangi tarmoqlari bu masalaga yanada aniqlik kiritib bormoqda.

Insonning hayvonot olamidan ajralib chiqishi jonli tabiatning jonsiz tabiatdan paydo bo‘lishidek buyuk sakrash bilan teng hodisadir. Fan rivojlangani sari inson paydo bo‘lishidek buyuk mo‘jizaning sir-asrorini ochishda ham yangi-yangi ma’lumotlar topilmoqda. XIX asrning ikkinchi yarmida CH.Darvinnning umumiy evolyutsion nazariyasi o‘sha davrda hukm surgan diniy-teologik qarashlarga dastlabki qaqshatqich zarba bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki bu nazariya asosida inson biologik evolutsiyaning mahsuli ekanligi isbotlab berildi. CH.Darvinnning 1859-yilda nashr qilingan «Tabiiy tanlanish orqali turlarning kelib chiqishi» va 1871-yilda nashr qilingan «Insonning paydo bo‘lishi va tabiiy tanlash» nomli mashhur kitoblari insonning paydo bo‘lishi masalasiga yangicha qarashga ilmiy asos yaratib berdi.

CH.Darvinga qadar insonning kelib chiqishi sabablari haqida boshqa olimlar ham tadqiqot olib borganlar. Jumladan, XVIII asr o‘rtalarida insonning kelib chiqishi haqidagi farazlarga birinchi bor ilmiy tus bergen mashhur olim tabiatshunos Karl Linney hisoblanadi. Karl Lineyning ilmiy xulosalari insonni sut emizuvchilar sinfiga kiruvchi maymunlar bilan bir qatorga qo‘yib, primatlar (lot. «primus» – birinchi) otradiga mansubligini isbotlaydi. Keyinchalik XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida ingliz tabiatshunos olimi Tomas Geksli va shveysariyalik Karl Fogt (anatom) ham insonning odamsimon maymunlar bilan yaqin qarindoshligini asosladilar.

Bu izlanishlar orasida organik olamning evolyutsion ta’limotini birinchi bor yaratgan fransuz olimi Jan Batist Lamarkning xizmatini

ta'kidlab o'tish zarur, chunki bu ta'limot Darwinizm paydo bo'lishining bevosita ilmiy-nazariy manbai bo'lib xizmat qilgan. Chunonchi, 1809-yilda, hali Darvinnin olamshumul kitoblari chiqmasidan avval, Lamark o'zining «Zoologiya falsafasi» asarida inson maymunlarning nisbatan takomillashgan turi bo'lmish shimpanzelar oilasidan kelib chiqishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Lekin Lamark primatlarning bu turkumi bilan insonni bog'lab turuvchi halqani topa olmaydi.

Lamarkdagi bir tomonlama determinizmni Darwin bartaraf etadi. Uning fikricha, hayvonot dunyosining evolutsiyasida harakatlantiruvchi kuch vazifasini o'zgaruvchanlik, nasliylik va tabiiy tanlanish bajaradi. Primatlar oilasiga kiruvchi odamsimon maymunlar o'z rivojlanishida tashqi muhit ta'siriga duch keladi va nasliylik mexanizmi tufayli organizmda yuz bergen o'zgarishlarda o'z izini qoldiradi, tabiiy tanlanish natijasida biologik o'zgarishlarning nisbatan istiqbolli bo'g'lnlari saqlanib qoladi. Hali genlar kashf etilmaganligi bois Darvinnin o'zgaruvchanlik haqidagi ta'limoti mavhumroq bo'lib ko'rindi. Genetika yaratilishi bilan bu stixiyali dialektik uchlik – o'zgaruvchanlik, nasliylik, tabiiy tanlanish jarayoni tadrijiy rivojlanishning o'zagi ekanligi to'laligicha isbotlandi. Saqlanib qolgan o'zgarishlar tabiiy tanlash orqali keyingi avlodni yangi belgilar bilan to'ldirib boradi. Shu tariqa yangi tur paydo bo'lishi mumkin bo'ladi.

Darvinnin ushbu ta'limoti fanning o'sha davrdagi rivojlanish bosqichi bilan bog'liq ayrim juz'iy kamchiliklar bo'lishiga qaramay, ilmiy tafakkur taraqqiyotida ulkan inqilob bo'lgan edi. Lekin hozirgi kunda Darvinnin evolyutsion nazariyasi inson paydo bo'lishini izohlab beruvchi yagona ilmiy asos bo'lib xizmat qila olmaydi, chunki fanda evolyutsion nazariyaning to'g'riliqiga shubha bildiruvchi yangi nazariya va ilmiy farazlar vujudga kelmoqda.

Fanda mavjud ayrim ilmiy farazlarga ko'ra, koinot va undagi tuzilmalar yer yuzida insoniyat paydo bo'lishiga ikki jihatdan – birinchidan, noorganik tabiatning (iqlim, landshaft, relyef va boshqalar) o'zgarishi bilan, ikkinchidan, bevosita organik tabiatning (tabiiy tanlash – mutatsiya va hokazo) o'zgarishi bilan bog'liq ravishda – ta'sir ko'rsatganligi taxmin qilinadi¹.

Iqlim va landshaft, shuningdek, yerdagi biologik jarayonlarning o'zgarishi quyosh energiyasi aktivlik darajasi va xususiyatining o'zgarishiga bog'liqligi aniqlangan. Chunonchi, rus olimi Chievskiy

¹ Андреев И.Л. Происхождение человека и общества. – М., 1988. – С.24.

1930-yilning o‘zidayoq Quyosh magnit maydonining davriy o‘zgarishi asab tizimining o‘zgarishiga olib kelishini asoslab bergen edi¹. Fan, bundan tashqari, Yer magnit qutblari davriy o‘zgarishining jonli mavjudotlar evolutsiyasiga ta’siri borligini yetarlicha isbotlovchi materiallarni to‘plab berdi. Ushbu ma’lumotlarga qaraganda, mana bunday geomagnitik o‘rin almashinishlar davrida biosferani kosmik radiatsiyadan saqlovchi elektromagnit maydon qalqoni uzoq ming yillar davomida shu darajada zaiflashib qolganki, yuqorida aytilgan koinot zaminida ionlashgan radiatsiyaning quvvati 60 foizga kuchaygan. Bu esa gominidlar hujayrasidagi tebranishlar (mutatsiyalar) darajasini ikki marta kuchaytirgan va shu tariqa odamsimon mavjudotlardagi o‘zgarishlar insonning paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan.

Inson zoti shakllanishining evolutsiyasini o‘rganish borasida R.Lidekker, E.Dyubua, CH.Dauson, R. Dart, Luis va Meri Likilar kabi arxeolog, antropolog olimlar katta-katta kashfiyotlar qilganlar. Ular rahbarlik qilgan ekspeditsiyalarda sivapitek, prokonsul, avstralopitek, zinjantrop va boshqa odamsimon mavjudotlarning suyak qoldiqlari topilgan. Bu olimlar o‘zlarining har bir yangi topilmasini inson evolutsiyaning boshlang‘ich nuqtasi deb bilishga harakat qilganlar. Masalan, Hindistonda Himolay tog‘ etaklari Sivalik tepaligida Rixard Lidekker kashf qilgan va sivapitek deb nomlangan topilma (yoshi taxminan 8-10 million yilga teng bo‘lgan qadimgi shimpanze jag‘ suyaklarining qoldiqlari) ko‘p yillar davomida inson evolutsiyasidagi eng dastlabki tur deb hisoblanar edi. Topilmaning morfologik jihatlarini o‘rganish, suyak qoldig‘i o‘lchamlarini solishtirish ishlari sivapiteknii odamdan ko‘ra ko‘proq maymunga yaqinroqligi, hech qachon Homo (inson) ajdodi bo‘lishi mumkin emasligi, to‘g‘rirog‘i, shu evolyutsion shahobchaga yaqinroq bo‘lgan tur ekanligini ko‘rsatdi².

Ingliz antropologi Jon Neyper inson evolutsiyasining boshlang‘ich nuqtasini prokonsul va driopitekning ajdodi bo‘lmish yegiptopitek tashkil qiladi deb ta’kidlaydi. Boshqa olim Lyuring Breys fikricha, yegiptopitekdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ramapitek, avstralopitek, pitekantrop, neandertal va kromanyon odam kelib chiqqan. Yan Yelinekning taxmin qilishicha, ramapitek (topilmaning yoshi – 14 mln yil, bo‘yi – 110 sm ni tashkil qilgan)ning ajdodlari keniapitek, prokonsul va driopiteklar hisoblanadi³.

¹ О‘sha joyda.

² Ларичев В.Е. Сад Эдема. – М., 1980. – С. 357–374.

³ Андреев И.Л. Происхождение человека и общества. – М., 1988. – С.252.

Ko‘pgina arxeologik topilmalar inson evolutsiyasining dastlabki bosqichlari Sharqiy Afrikadan boshlanganligini ko‘rsatmoqda. Chunonchi, Natron va Esyai ko‘llari yonidagi Olduvey darasi (Sharqiy Afrika) arxeolog olimlar er-xotin Luis va Meri Likilarga inson evolutsiya bosqichlarini ko‘rsatuvchi noyob topilmalarni taqdim etgan joydir. Dastlab 1948-yilda bosh suyagi hamda yuqori va ostki jag‘ suyaklari yaxshi saqlangan, taxminan 25 mln yil oldin yashagan odamsimon maymun – prokonsul topilgan¹. Aynan shu tur, ya’ni prokonsul fan olamida inson paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan antropoidlar sinfining birlamchi shoxobchalaridan hisoblanadi.

Inson evolutsiyasining keyingi bosqichi, o‘zining kelib chiqish negizi ramapitek, driopitek va prokonsulga borib taqaladigan zot – avstralopitek bilan bog‘liqdir. «Avstralopitek» so‘zi o‘z etimologiyasiga ko‘ra, australis – lotincha «janub», pithekos – grekcha «maymun» so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, janub maymuni degan ma’noni anglatadi. Mazkur turga oid odamsimon mavjudotning suyak qoldiqlarini birinchi bor 1925-yilda Raymond Dart Afrikaning janubidagi Kalaxari sahrosining Taungas va Transvaal hududlari atrofida topilma sifatida kashf qilgan. R.Dart topilmasidan so‘ng avstralopiteklarning yangidan-yangi turlari Janubiy va Sharqiy Afrika hududlari atrofida kashf qilina bordi.

Fanda har bir odamsimon mavjudotga xos topilmani morfologik jihatlariga qarab insonlar (ya’ni lot. «homo», ko‘pgina ruscha kitoblarda «gominido» deb ataluvchi) turkumiga kiritishga harakat qilinadi. Avstralopiteklar turkum sifatida insonga yaqin bo‘lgan morfologik jihatlarni, ya’ni nisbatan katta hajmga ega bosh miya, qaddini tik tutib yurish qobiliyatini o‘zida mujassamlashtirgan.

R.Dart Taungas topilmasining jag‘ suyak qoldiqlari hamda tishlarini o‘rganib, tirikligida yetti yoshlar atrofidagi qiz bola bo‘lganligini aniqladi va unga «Bebi» deb nom berdi. Bebi bosh miyasining hajmi (520 sm³) bo‘yicha shimpanzeniki (480 sm³)dan katta, gorillanikidan (680 sm³) kichik bo‘lib chiqdi. Hisoblarga ko‘ra, agar yetti yoshli Bebi bosh miyasining hajmi 520 sm³ ga teng bo‘lsa, unda yoshi katta avstralopitek bosh miyasining hajmi 780 sm³ dan kam bo‘lmasligi aniqlandi². Demak, avstralopitek bosh miyasining hajmi va uning o‘sish sur’ati bo‘yicha ham shimpanze va gorillalardan farq qilar ekan, shuning

¹ Ларичев В.Е. Сад Эдема. – М., 1980. – С.360.

² O‘sha joyda. – Б.155-157.

o‘zi uning odamga yaqinroq tur ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, tos va uzun oyoq suyaklarining saqlanib qolgan holati ham avstralopitekning qaddini tik tutib yura olishi (taxminlarga ko‘ra, bo‘yi 135-140 sm atrofida bo‘lgan), tez yugura olish qobiliyatlariga ega bo‘lganligi haqida faraz qilishga asos bo‘la oladi.

Bundan tashqari, avstralopitek suyak qoldiqlari topilgan manzilgoh-lardan ko‘p miqdorda pavian (ittumshuq maymun)lar, antilopa (kiyik)lar kabi hayvonlarning suyak qoldiqlari va bir-biriga o‘xhash suyak to‘qmoqlar ham topilgan. Bu, o‘z navbatida, pavian, antilopa kabi hayvonlar avstralopiteklar uchun o‘lja, suyakli to‘qmoqlar esa ov quroli bo‘lgan, degan xulosaga olib kelishi mumkin. Lekin barcha manzilgoh-lardan topilgan avstralopiteklar suyak qoldiqlaridagi umumiylit doimo bir xil alomatlarni takrorlamaydi. Birgina Janubiy Afrikaning o‘zida turli joylardan topilgan avstralopiteklar suyaklarining qoldiqlari bir-biridan farq qiluvchi morfologik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan. Manbalarda keltirilishicha, avstralopiteklar Janubiy Afrika hududlarida juda uzoq vaqt davomida 1,75 – 0,8 mln yillar oldin yashagan¹.

Ejen Dyubuaning 1893-yilda Indoneziyadagi Yava orolinining Trinil qishlog‘i atrofida kashf qilgan Pithecanthropus erectus (qaddini tik tutib yuruvchi maymunsimon odam) suyak qoldiqlari topilmasini inson evolutsiyasida pitekantroplar guruhi bilan bog‘liq yangi bosqichni ochdi. Bu guruhga kiruvchi har bir yangi topilmani muayyan morfologik xususiyatlar, masalan, bosh miya o‘lchamlaridagi yaqinlik birlashtirgan. Pitekantroplar bosh miyasining hajmi shimpanze bosh miyasining hajmidan 2,4 marta katta bo‘lib, inson bosh miysi o‘rtacha hajmining uchdan ikki qismini tashkil etadi. Bu haqda Dyubua o‘zining nemis tilida chop etilgan «Pithecanthropus erectus, menschencihnhliche Über-gongsbormaus java» («Qaddini tik tutib yuruvchi maymunsimon odam, o‘tish davrida turuvchi yavalik odamsimon mavjudot») kitobining xulosa qismida shunday deb yozadi: «qaddini tik tutib yuruvchi pitekantrop, evolyutsion ta’limotga binoan, antropoidlar bilan insonlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan o‘tish shaklidan boshqa narsa emas: u – inson ajdodi»².

Pitekantroplar turkumining ikkinchi bir katta guruhi Xitoyda Chjou-kou-dyan va Kotsetang g‘orlaridan topilgan qadimgi gominidlarning suyak qoldiqlari bilan bog‘liq bo‘lib, 1927-yilda D.Blek tomonidan

¹ Бунак В.В. Род Homo, его возникновение и последующая эволюция. – М., 1980. – С.12.

² Ларичев В.Е. Сад Эдема. – М., 1980. – С.68.

pithecanthropus pekinensis yoki «Pekin pitekantropi» nomi bilan taklif qilingan. Paleontropologiyaga oid ayrim adabiyotlarda sinantroplar deb yuritiluvchi mazkur Xitoy pitekantroplarining yoshlari turlicha bo‘lib, topilgan manzilgohlari ham keng hududda yoyilgan. Masalan, sinantroplar guruhiga oid Chjou-Kou-Dyan g‘oridan kashf qilingan birinchi topilmaning yoshi 400 ming yilga teng bo‘lsa, Shensi viloyatining Lantyan manzilgohidan olingan topilmaning yoshi 500-600 ming yillarni tashkil etadi. Xitoy pitekantroplari Yava pitekantroplaridan asosiy morfologik jihatlari bilan ham farq qilar edi. Chunonchi, sinantroplar bosh miyasining hajmi Yava pitekantroplari bosh miyasining hajmidan o‘rtacha 200 sm³ kattaroq (Yava pitekantroplariniki 900-950 sm³, Xitoy pitekantroplariniki – 1100-1150 sm³) bo‘lgan.

Pitekantroplar guruhiga oid qadimgi gominidlarning suyak qoldiqlari yana Germaniya va Vengriya (geydelberg pitekantropi), Shimoliy Afrika (atlantrop) va Olduvey (Liki pitekantropi) kabi joylardan topilgan. Eng qadimgi pitekantroplarning yoshi 2 mln yillarga teng bo‘lsa, eng so‘nggilari 300 ming yillarni tashkil etadi¹.

Homo, ya’ni odam zotining eng yuqori bosqichi ikki guruh osti Homo neandertalensis (neandertal odam), Homo sapiens turlariga bo‘linadi. Neandertal turiga oid dastlabki topilma (bosh suyak yuqori qismining qoldiqlari) XIX asrning o‘rtalarida Germaniyaning Neandertal vodiysida kashf qilingan. Hozirgi Yevropada neandertal turiga oid 40 dan ortiq topilma manzilgohlari ma’lum. Neandertal odamlar morfologik xususiyatlariga ko‘ra, asosan bosh miya hajmining o‘zaro yaqin o‘lchamlari bilan (o‘rtacha bosh miya hajmi 1400 sm³) boshqa gominid guruhlaridan farq qilar edi. Neandertal turiga oid topilmalar aniqlangan manzilgohlarda ashel, mustye, hatto yuqori paleolit davri madaniyatiga mansub mehnat qurollari ham bo‘lganligi ularning yoshi 200-300 ming yillarga teng ekanligidan dalolat beradi. Neandertal odamlar manzilgohlari Yevropadan tashqari, Markaziy Osiyo hududlarida ham topilgan. Chunonchi, O‘zbekistonning janubida Boysun atrofidagi Teshiktosh g‘oridan 1938-yilda 8-9 yoshli neandertal bolaning suyak qoldiqlari, hamda mustye madaniyatiga oid tosh qurollari ham topilgan. Hisoblarga ko‘ra, neandertal bola bosh miyasining hajmi 1490 sm³ ni tashkil qilgan².

¹ O‘sha joyda.

² Ўзбекистон халқлари тарихи. 1-жилд. – Т., 1992. – Б.9-11.

1874-yilda Fransiyaning Kro-Manyon vodiysida bosh miyasining hajmi, yuz tuzilishi, jag' suyaklarining joylashuvi bo'yicha neandertal odamlardan farq qiluvchi Homo zotiga oid yangi topilma aniqlandi va joyning nomiga asoslanib, unga «kromanon odam» deb nom berildi. Yuqori paleolitning keyingi davrlari bilan bog'liq bo'lgan oxirgi 40 ming yilda neandertal odamlar o'rniqa aqli odamlar Homo sapiens kelganligi aniqlangan.

Biz yuqorida keltirgan antropologik ma'lumotlarga asoslanib, inson evolutsiyasining bosqichlarini quyidagi tartibda tasavvur qilishimiz mumkin.

Birinchi bosqich inson paydo bo'lishining eng dastlabki ildizlari primatlarning yuqori bosqichiga kiruvchi prokonsul, driopitek, ramapitek, sivapitek kabi odamsimon maymunlar turkumiga borib taqaladi (eng qadimiy topilmalar yoshi 25 mln yilga, eng so'nggi avlodlari 8-10 mln yillarga teng). Antropoidlarning bu turlari (ramapitek, driopitek va boshqalar) hozirgi maymunlar (shimpanze, gorilla)dan unchalik farq qilmaydigan oddiy hayvonlar bo'lganlar. Ular o'rmonlarda daraxtlar ustida hayot kechirganlar, lekin asosiy vaqtini yerda o'tkazganlar. Ekologik sharoitlar ta'sirida hayot ko'nikmalari ham o'zgarib borgan.

Kaynozoy erasining uchlamchi davri bilan to'rtlamchi davri o'rtalarida (taxminan 40-20 mln yil avval) tabiiy muhit keskin o'zgargan. Cheklangan miqdordagi o'simliklar muhiti boy hayvonlar dunyosi bilan uyg'unlashgan bir davrda ov qilish uchun qulay sharoitlar vujudga kela boshlagan. Bu holat, bir jihatdan, ov qilish uchun hayvonlarning turlari (antilopalar va hokazo) ko'paygan davrga, ikkinchi jihatdan, yirtqich hayvonlar uchun o'lja bo'lib qolish xavfi ortgan sharoitga to'g'ri kelib qolgan. Mazkur omillar inson evolutsiyasi jarayonida iz qoldirmasligining iloji yo'q edi.

Antropoidlarning yerdagi hayotga o'tish jarayoni, ular gavdasining kattalashuvi, jismoniy kuchining ko'payishi, tabiiy qurollarining takomillashuvi tufayli ularidan foydalanishni tasodifiylikdan sekin-asta obyektiv zaruratga aylantira bordi. Boshqacha qilib aytganda, agar odamsimon maymunlar dastlab yog'och, tosh, suyak qoldiqlari kabi qurollardan boshqa hayvonlarni o'ldirish uchun tasodifan, stixiyali foydalangan bo'lsalar, keyinchalik doimiy foydalana boshlaganlar.

Tabiiy qurollardan doimiy foydalanish zarurati old oyoqlar funksiyasining o'zgarishga, gavdaning tiklanishiga olib keldi. Tabiiy qurollardan doimiy foydalanish, mazkur qurollar orasidan eng qulay va

zarurlarini tanlashga, sun’iy ishlov berish yo‘li bilan maqsadga muvofiq qurollarni yaratishga olib keldi. Dastlab toshdan yasalgan qurollar va ular yordamida yog‘och, suyak, hayvon shoxlari va shunga o‘xshash (ishlov berish nisbatan oson bo‘lgan) materiallardan yasalgan qurollar paydo bo‘la bordi. Bu jarayonlar, albatta, antropoidlar xulq-atvorida o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Natijada inson paydo bo‘lishi evolutsiyasida yangi bosqichga o‘tish uchun zamin yaratildi.

Ikkinci bosqichda gominidlar oilasi ikki turkum – avstralopiteklar va pitekantroplarga bo‘linadi. Bu bosqichda odamsimon maymunlarning bevosita zoologik turidan insonga yaqin bo‘lgan turiga o‘tish jarayoni amalga oshdi. Inson evolutsiyasining bu bosqichida assosiy rol o‘ynagan avstralopiteklar bir jihatdan tur sifatida hali hayvonot olami dunyosidan batamom ajralib chiqa olmagan mavjudot bo‘lgan; ikkinchi jihatdan esa, ov qilish, oziq-ovqatlarni yig‘ib terish, tabiiy qurollarni ishlov berish orqali o‘zlashtira olish kabi turmush tarzidagi yangi belgilar shakllanishi tufayli, o‘zida ijtimoiylikni qaror toptirayotgan tur sifatida ham namoyon bo‘la bordi.

Ijtimoiy borliq va madaniyatning poydevori sifatida mehnatning paydo bo‘lishi, sun’iy qurollarni yasash va muloqot vositasi sifatida belgili tizimlarning asta-sekin yaratila borishi odamsimon maymunlarning o‘zaro birlashib, to‘da-to‘da bo‘lib yashashiga olib kelgan. Boshqacha qilib aytganda, avstralopitekka inson bo‘lish uchun quroldan foydalanishga ehtiyoj va qobiliyat borligining o‘zi yetarli bo‘lmay qolgan. Mehnat qilishning zaruriy sharti sifatida avstralopitekka o‘ziga o‘xshash boshqa individlar ham kerak bo‘la borgan. Individ o‘zligini anglashining obyektiv sharti va subyektiv omili sifatida unga qarama-qarshi bo‘lgan boshqa bir individning bo‘lishi «ijtimoiy instinct» qondirilishining birlamchi asosi hisoblangan to‘daning shakllanishini taqozo qilib qo‘yan.

Avstralopitekdan keyin inson evolutsiyasida yangi tur – *pitekantroplar* paydo bo‘ldi. Agar avstralopiteklar va parantroplar yashagan davr bundan 4,5 mln yil avvalgi davrdan 800 ming yil avvalgi davrgacha cho‘zilgan bo‘lsa, pitekantroplar davri 2 mln yil avvalgi davrdan 300 ming yil avvalgi davrgacha yetib kelgan. Inson evolutsiyasining pitekantroplar bilan bog‘liq bosqichida mazkur antropoid tur qaddini tik tutib yurishga o‘tish va old oyoqlarning mehnat faoliyatiga moslashishi kabi yangi sifatiy belgilarni o‘zida namoyon qila bordi.

O‘z morfologik tuzilishi va madaniyati bilan pitekantropga yaqin bo‘lgan tur sinantrop (pekinlik odamsimon maymun) hisoblanadi. Taxmin qilishlaricha, sinantrop mehnat faoliyatining nisbatan yuqori darajasida turgan, turli xil qurollardan foydalangan, kiyiklar, yovvoyi otlar, hatto yovvoyi to‘ng‘izlarni ham ovlagan, doimiy yashab turuvchi manzilgohi bo‘lgan, olovni kashf qilgan odamsimon mavjudot bo‘lgan.

Inson evolutsiyasining uchinchi bosqichida gominidlar oilasining neandertal odam, kromanyon odam va aqlli inson kabi vakillari shakllanadi va rivojlanadi (ular yashagan davr miloddan oldingi 200–300 ming yilliklardan 40 minginchchi yilliklargacha bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga oladi). Shu tariqa har bir evolyutsion bosqichning yuqori pog‘onasida odamsimon mavjudotlarda, biologik o‘zgarishlar yuz berishi bilan bir qatorda, ijtimoiy sifatlari ham asta-sekin boyib borgan. Inson tafakkuri, ongi, tili shakllana borgan. Xullas, insoniyat jamiyatini vujudga kela borgan.

3-§. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi inson mohiyati to‘laqonli namoyon bo‘lishining huquqiy asosidir

Inson mohiyati muammosi falsafaning fundamental masalalaridan biri hisoblanadi. Hanuzgacha insonning mohiyatini aniqlashda uning biologik (tabiiy) yoki ijtimoiy asoslarini mutlaqlashtirish harakatlari uchrab turibdi. Bizning fikrimizcha, mana shunday cheklangan biryoqlamaliklar bo‘lmasi uchun, eng avvalo, mazkur masalaga yondashish metodologiyasini aniqlashtirib olishimiz zarur. Ma’lumki, har qanday mohiyatni bilish jarayoni mavhum nazariy qoidalarga emas, balki mazkur predmetning real namoyon bo‘lish holatlarini tahlil qilishga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, bilishda inson hodisadan mohiyatga tomon harakat qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda inson mohiyatini tadqiq etishni uning tabiiyligi va ijtimoiyligi bilan bog‘liq bo‘lgan voqelik tizimidagi turli xil real munosabatlarni tahlil qilishdan boshlash lozim. Shuning uchun ham inson mohiyatini uning real mavjudlik shakllari orqali bilish eng aniq va to‘g‘ri yo‘ldir.

Inson, avvalo, dunyoda bor barcha mavjudotlardan sifat jihatdan farq qiluvchi, o‘zida biologik va ijtimoiy jihatlarni mujassam qiluvchi zot bo‘lib, rivojlanishning eng oliy mahsuli, o‘zini o‘rab turgan tashqi muhitning yaratuvchisi hamdir. Inson maqsadga muvofiq va anglangan xatti-harakatlari bilan tashqi muhitni faol o‘zgartiradi va ayni paytda o‘zi

ham o‘zgaradi. Shu bois, insonning tub mohiyatini uning o‘ziga xos hayot faoliyati, ongli, erkin, yaratuvchilik mehnatidan izlash lozim.

Falsafada insonning mohiyati mavhum, umumiy ijtimoiy munosabatlар majmui sifatida emas, aksincha har bir muayyan tarixiy davrda insonning individual borlig‘ini aks ettiruvchi munosabatlар majmuasi sifatida tahlil qilinadi. Insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida mavjud ijtimoiy munosabatlarga monand ravishda inson mohiyati muayyan tarixiy mazmun bilan boyib boradi. Har bir individ faoliyatning iqtisod, siyosat, madaniyat kabi turli xil sohalari orqali ijtimoiy munosabatlarga kirishib boradi va shu tariqa o‘zida ijtimoiylikni shakllantirib boradi.

Lekin inson ijtimoiy mohiyatining ifodasi har doim ham uning mavjudligi sharoitlariga monand bo‘lavermaydi. Jumladan, antagonistik mehnat taqsimoti hukmron bo‘lgan davrlarda ijtimoiy institutlar, insonning o‘z mehnat faoliyati mahsuli ko‘rinishidagi ijtimoiy omillar inson individini harakatga keltiruvchi kuchlarga salbiy ta’sir qilib, ularning rivojlanishini orqaga tortadi va jamiyat bilan individ o‘rtasida ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyotida inson mohiyatini aks ettiruvchi belgilarning inson individualligi bilan iloji boricha uyg‘unligini ta’minlashga ko‘proq e’tibor beriladi.

Demak, ko‘rib turganimizdek, inson muammosi uning umumijtimoiy mohiyatini aniqlash bilangina cheklanib qolmasdan, balki inson mavjudligining muayyan tarixiy tahlilini, shu jumladan, jamiyat va individ o‘rtasidagi ziddiyatlar va ularni bartaraf etish masalalarini ham o‘z ichiga olar ekan. Haqiqatan ham faqat mohiyat va mavjudlik, umumiylig va alohidalik, ijtimoiylik va individual hayot dialektikasigina insonning real voqelagini to‘la aks ettirishi mumkin. Shuning uchun ham insonni uning mohiyati va mavjudligining dialektik birligida tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Inson mohiyati bilan uning konkret tarixiy mavjudligi o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikni tahlil qilishda begonalashuv muammosi muhim o‘rin tutadi. Insonning o‘z mohiyatidan begonalashuvi tarixiy rivojlanishning muayyan bir davrida ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida inson yaratgan boyliklarning uning o‘ziga bog‘liq bo‘lmay qolib, hukmron va zulm o‘tkazuvchi kuchga aylanishida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, inson o‘zi yaratgan narsalarda o‘z ichki dunyosini voqelikka aylantiradi, inson voqeligi esa uning ijtimoiy mohiyatini tashkil qiladi.

Modomiki, shunday ekan, u holda insonning o‘zi yaratgan boyliklaridan ajralib qolishi inson voqeligining insonning o‘zidan, binobarin, ijtimoiy mohiyatidan begonalashuviga olib keladi.

Shunday qilib, «begonalashuv» tushunchasi eng umumiyligi holda insonning o‘z ijtimoiy voqeligidan va mohiyatidan ayrila borishini anglatadi. Insonning o‘z voqeligidan va ijtimoiy mohiyatidan begonalashuvi quyidagi uch sohada, ya’ni bevosita ishlab chiqarish faoliyatida, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish va ularni xususiy mulk sifatida o‘zlashtirishda, nihoyat iste’mol vositalaridan foydalanish va ularni xususiy mulk sifatida o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Inson erkinliklarini tiklovchi jamiyat sifatida yuzaga kelgan sotsialistik jamiyat xususiy mulkni ijtimoiy mulkka aylantirish, jamiyat boshqaruviga keng mehnatkashlar ommasini jalgan qilish, ezilgan sinf vakillaridan o‘z olim-ulamolarini shakllantirish, sinfiy struktura va siyosiy tuzumdagagi tub o‘zgarishlar borasida inqilobiy natijalarga erishgan bo‘lsa ham oldingi jamiyatlardan meros bo‘lib qolgan illat – insonning o‘z mohiyatidan begonalashuvini to‘laligicha bartaraf etadi. Aksincha, insonning har tomonlama rivojlanishini ta’minlab beruvchi xayoliy kommunistik jamiyat g‘oyasi ortidan zo‘r berib quvish eski tuzumdan meros qolgan antagonistik ziddiyatlarni batamom tugata olmadi, balki uning zaminida paydo bo‘lgan yangi ziddiyatlarni ham keltirib chiqardi.

Insoniyat tarixining keyingi bosqichida sobiq SSSR timsolidan parchalanib ketgan sotsialistik tuzum o‘rniga har qanday «izm» («sotsializm», «kommunizm»)lardan xoli bo‘lgan yangi ijtimoiy tizimlar shakllana boshladi. «Jahon yangi davrga qadam qo‘ydi. Bu davrning o‘ziga xos belgilari, bir tomonidan, davlatlar va xalqlar o‘rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorlikning kuchayishi, yaxlit siyosiy va iqtisodiy makonlarning vujudga kelishi, yagona xalqaro me’yorlar (normalar), qoidalar va andazalarga o‘tish bo‘lsa; ikkinchi tomonidan, sotsialistik lagerning yemirilishi, totalitar tuzumlarning tugatilishi, unitar tizimlar o‘rnida yosh mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishidir»¹. Bu davlatlar o‘z oldilariga zamонавиy bozor iqtisodiyoti munosabatlariga ega bo‘lgan, turmush darajasini ko‘tara oladigan, inson qobiliyatini harakatga keltira oladigan, uning huquq va erkinlarini himoya qila oladigan jamiyatni qurish kabi oliy maqsadlarni qo‘yanlar.

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – Б.274.

O‘zbekiston ham, mustaqillikka erishgan boshqa yosh davlatlar singari, sobiq sotsialistik tuzum boshqaruvining markazlashgan ma’muriy-buyruqbozlik uslubidan sifat jihatdan yangi ijtimoiy tizimga, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolyutsion o‘tishning o‘ziga xos yo‘lini ishlab chiqib, amalda tatbiq qila boshladi. Bu yo‘lning eng muhim jihatni nafaqat shiorda, balki amalda ham islohotlar markazida o‘z tashvishlari, ehtiyojlari, qiziqishlari bilan yashovchi real inson bo‘lishidadir. Mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab O‘zbekistonda aholining turmush darajasini ishonchli ravishda himoya qilishga, har qanday o‘zgarishlar va larzalar ta’siridan kafolatlanishga yo‘naltirilgan aniq chora-tadbirlarning davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotganligini buning isboti sifatida ko‘rsatish mumkin.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasining pastligi, mehnat taqsimotidagi tengsizlik, davlat mulkiga egasizlarcha munosabatning shakllanishi, rag‘batlantiruvchi omillarning ishlamasligi, turmush darajasining pastligi kabi omillar individni jamiyatdan uzoqlashgan, passiv, boqimanda shaxs sifatida shakllantira bordi. Xullas, ko‘rib turganimizdek, inson erkinliklarini tiklovchi jamiyat sifatida yuzaga kelgan sotsialistik tuzum mazkur yo‘nalishda ma’lum bir inqilobiy o‘zgarishlarga erishgan bo‘lsa-da, oxir oqibatda inqirozga uchrab, inalo, mavjud iqtisodiy sharoit va aholining past turmush darajasini hisobga olgan holda odamlarni kuchli ijtimoiy himoyalash kafolatlandi. Aholining deyarli barcha qatlamlari, ya’ni haqiqatan ham yordamga muhtoj bo‘lgan, kam ta’minlangan tabaqalargina emas, balki, shu bilan birga, ma’lum miqdordagi daromad oladigan shaxslar ham davlat tomonidan beriladigan nafaqa va turli xil yordam pullari, imtiyozlar bilan muhofaza etildi.

Aholini ijtimoiy muhofaza etish borasida qilingan dastlabki harakatlar obyektiv sharoit taqozosi bo‘lganligi va davr o‘tishi bilan bu chora-tadbirlar o‘zini oqlaganligini Prezidentimiz I.Karimov quydagicha ta’kidladi: «Bozor munosabatlariga o‘tishning ilk davrida biz oldindan butun aholini ijtimoiy himoyalash yo‘lidan bordik. Bu chora-tadbirlar odamlarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o‘ynadi... Shunday yondashuv tufayli islohotlar arafasida eng noqulay boshlang‘ich shart-sharoitlarga va sezilarli ijtimoiy ziddiyatlarga ega bo‘lgan O‘zbekiston ijtimoiy mojarolarni chetlab o‘tishga muvaffaq bo‘ldi»¹. Bir jihatdan, bunday chora-tadbirlar eng qiyin iqtisodiy

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т., 1998. – Б.183–184.

sharoitda aholini moddiy ko‘plab-quvvatlagan va ijtimoiy portlash-larning oldini olgan bo‘lsa, ikkinchi jihatdan sobiq sovet tizimidan meros bo‘lib qolgan boqimandalik kayfiyatining yanada tomir yoyishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham bunday salbiy illatlardan qutilish maqsadida islohotlar chuqurlashib, bozor munosabatlari keng yoyila borgan sari ijtimoiy siyosatda quyidagi tub o‘zgarishlar amalga oshirildi:

1) aholiga moddiy yordam berishga, davlat mablag‘lari bilan bir qatorda, mehnat jamoalari, xayriya tashkilotlari va turli xil jamg‘arma-larning mablag‘lari ham keng jalb etila boshladи. Boshqacha qilib aytganda, davlat ijtimoiy muhofazalash vakolatlarining muayyan qismini mehnat jamoalari, turli xil jamg‘armalar singari muqobil tuzilmalarga topshirdi;

2) sobiq sovet tizimidan meros bo‘lib qolgan markazdan taqsim-lashga asoslangan bir tekischilik amaliyotidan butunlay voz kechildi, haqiqatan ham muhtoj kishilarga mo‘ljallangan aniq yo‘naltirilgan maqsadli ijtimoiy himoya tizimiga o‘tildi;

3) har bir kishining o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini to‘la-to‘kis faollashtirishni ta’minlovchi huquq va erkinliklar berildi.

Eng muhimi, ijtimoiy himoya borasida amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlar o‘z mohiyati bilan tengchilik va boqimandalik kayfiyatini tugatish uchun barcha asoslarni yaratdi va kishilarda islohotlarga ishonch ruhini shakllantirdi.

Kuchli ijtimoiy himoya odamlarni yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga keskin o‘zgarishlar va larzalarsiz kirib borishini ta’minlashga qaratilgan davlat islohotlarining bir qismi, xolos. Aslida, islohotlarning maqsad va yo‘nalishlari keng ko‘lamli bo‘lib, jamiyatning barcha sohalarini o‘z ichiga oladi. Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganidek, «islohotlarning mazmuni va maqsadi O‘zbekistonning har bir fuqarosi millati, dini va maslagidan qat’i nazar, shaxs sifatida namoyon bo‘lish, o‘z qobiliyatini, iste’dodini namoyish etish, o‘z hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma’naviy bayroq qilish imkoniga ega bo‘ladigan zarur shartlarni yaratishdan iboratdir»¹.

Inson qobiliyatları va manfaatlarını ro‘yobga chiqarishning eng dastlabki sharti bu iqtisodiy erkinlikni ta’minlashdir. Bu borada islohotlar davrida yetarlicha asoslar yaratildi.

¹ O‘sha joyda. – Б.183.

Birinchidan, «inson huquq va erkinliklari ustuvorligidan kelib chiqadigan huquqiy qoidalar va normalarga asoslangan keng huquqiy makon vujudga keltirildi»¹.

Ikkinchidan, turli xil mulk shakllarini, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga asoslangan ko‘p ukladli iqtisodiyot vujudga keltirildi. Bu esa, o‘z navbatida, har bir kishiga o‘z intilishlari, qiziqishlari va qobiliyatiga qarab faoliyat turini erkin tanlash imkonini berdi. Bundan tashqari, «dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyatda tom ma’nodagi mulkdorlar sinfining ko‘pchilikni tashkil etishi ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi»².

Uchinchidan, insonning davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda mulkchilikning barcha shakllaridagi ma’muriy-xo‘jalik tuzilmalari bilan turli xil munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizmlar, bozor infrastrukturasi asta-sekin shakllanmoqda.

To‘rtinchidan, mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini keng jalb etish orqali ishlab chiqarishni texnika bilan ta’minlash va yangi texnologiyalarni joriy etishda ma’lum yutuqlarga erishildi.

Iqtisodiy erkinlikni ta’minlovchi bunday omillarni sanashni yana davom ettirish mumkin. Lekin biz uchun eng muhim xulosa shuki, islohotlar davomida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bozor munosabatlarining afzalliklarini real hayotda ko‘rsatib berdi. Ya’ni inson jamiyatdagi o‘z o‘rni va qadrining qanday ekanligini hozirgi kunda sodir bo‘layotgan ijobiy islohotlar natijasida ko‘rmoqda. Kishilarda o‘zini katta mexanizmning kichik murvati deb his qilish, hamma muammolarni uning o‘rniga davlat hal qilishi lozim degan tasavvurlar yo‘q bo‘lib, o‘z kuchiga, qobiliyatiga ishonch ruhi shakllanmoqda.

Shu bilan birga, islohotlar shakllanayotgan bozor munosabatlarining boqimandalik kayfiyatini yengishga, insonda ijodiy va mehnat imkoniyatlarini keng ochishga, yo‘qolib ketgan xo‘jayinlik hissini qayta tiklashga qodir ekanligini ham yaqqol ko‘rsatib berdi. Taraqqiyotimizning bugungi bosqichida inson omili jamiyatimizni harakatga keltiruvchi qudratli kuchga aylanadi.

Insonning o‘z ijtimoiy mohiyatidan begonalashuvining yana bir ko‘rinishi inson ma’naviy qadriyatlarining toptalishidir. Istiqlol bu

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т., 1998. – Б.171.

² Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. – Т., 2000. – Б.338.

sohada ham har bir insonga, qolaversa, xalqqa o‘z ma’naviy qadriyatlarini tiklab olish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Totalitar qaramlik davrida toptalgan ma’naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimiz tiklandi.

Eng muhimi, Prezidentimiz I.Karimov aytganidek, «biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e’lon qilganimiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulqatrori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz»¹.

Bunday shaxslarni tarbiyalashda tarixga murojaat qilish, uni xolisona yoritib berish zarurati tug‘ildi. Shu o‘rinda tarixchi olimlar tomonidan qilingan xatti-harakatlar tufayli O‘zbekistonning har bir fuqarosi tarixni sun’iy buzib ko‘rsatishning fosh qilingan sir-asrorlarini bilib oldi, o‘z xalqi tarixiga yangi nazar bilan qaray boshladi. Yoshlarda o‘z xalqi tarixiga, madaniy merosiga nisbatan g‘urur hissi shakllantirib borildi. Shu tariqa ma’naviy-ruhiy qadriyatlarning va milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi yuz bermoqda. Shuningdek, istiqlol tufayli siyosiy tizimdagи islohotlar mamlakatimizda shakllanib borayotgan ko‘pparatiyaviylik, ko‘pfikrlilik kishilar siyosiy faolligining ortib borishiga, ularning demokratik o‘zgarishlarda munosib o‘rnini topishiga imkon berdi.

Xullas, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar misolida ko‘rib turganimizdek, bozor munosabatlariga asoslangan yangi ijtimoiy tizimda insonning o‘z ijtimoiy mohiyatidan begonalashuvini bartaraf etish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu borada inson huquq va erkinliklarining ta’milanishi, fan-texnika taraqqiyotini ishlab chiqarishga joriy etishning jadallashtirilishi, ishlab chiqarishning barcha sohalariga yangi texnologiyalarning kirib borishi natijasida jismoniy mehnat bilan aqliy mehnat o‘rtasidagi tafovutning asta-sekin bartaraf bo‘la borishi, ko‘p ukladli iqtisodning yaratilishi, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning rag‘batlantirilishi, ijtimoiy-siyosiy faollikning oshishi, ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi kabi jarayonlarni aytib o‘tish mumkin.

Lekin bu O‘zbekistonda mustaqillik yillari jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshgan tub o‘zgarishlar asrlar mobaynida davom etib kelayotgan insonning o‘z mohiyatidan begonalashuvi

¹ Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б.134.

jarayonini butkul tugatdi degani emas. Chunki islohotlar inson huquq va erkinliklarining tiklanishi uchun yetarli ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, ma’naviy asoslarni yaratib berdi, xolos. Hali amalgalashuvini oshayotgan islohotlarning o‘zida ham bartaraf etilishi zarur bo‘lgan kamchiliklar uchrab turibdi. Insonning o‘z ijtimoiy mohiyatidan begonalashuvini to‘laligicha bartaraf etish uzoq davom etuvchi jarayondir. Shunga qaramay, mamlakatimizda amalgalashuvini oshayotgan islohotlarni bu borada qilingan katta siljish deb baholasak bo‘ladi.

2-bob. FANNING FALSAFIY TAHLILI. HUQUQ FALSAFASI – FAN

1-§. Fanning vujudga kelishi va shakllanishi. Fan obyektiv reallikning in’ikos shaklidir

Fan ilmiy bilimlar tizimidir. Fan o‘zining ilmiy tushuncha, uslublari va metodologiyasiga ega bo‘lgan, olamni bilish va o‘zlashtirishning maxsus usuli, ilmiy bilimlar tizimidir.

Fan – bu olam haqida obyektiv bilimlar ishlab chiqarishga qaratilgan yuksak darajada tashkil topgan va maxsus faoliyatdir. Fan ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Fan olam haqidagi bilimlar tizimi. Fan yangi bilimlarni egallahdag'i inson faoliyati. Fan jamiyat, davlatni tashkil qilish shakl (institut)laridan biri hisoblanadi.

Sharqda hamisha bilimlar oliy qadriyat sifatida qabul qilingan. XII asrda yashab ijod etgan mutafakkir Ahmad Yugnakiy fan va bilim haqida shunday deydi: «Olim odamlarga yaqinroq bo‘lgan. Bilimlar senga keng yo‘lni ochib beradi, bilimlarga intilgin, baxt yo‘lini izlagin. Olim odam dinordan qadrli, bilimsiz odam mevadan arzon. Endi o‘zing sinab ko‘r, o‘ylab ko‘r, bilimdan ham afzalroq narsa bormi ekan. Bilim olimni ulug‘laydi, bilimsizlik insonni obro‘sizlanadir».

Fanning paydo bo‘lishi haqida turli yondashuvlar mavjud. Masalan, fan jamiyat paydo bo‘lishi bilan bir vaqtida paydo bo‘lgan yoki fan jamiyat paydo bo‘lgandan keyin ma’lum bir vaqt o‘tishi natijasida paydo bo‘lgan degan fikrlar. Pozitivizm namoyandası G.Spenser (1820-1903) «Fanning paydo bo‘lishi» nomli asarida fan jamiyat bilan bir vaqtida paydo bo‘lgan degan fikrni inkor etadi. U kundalik va ilmiy bilim bir-biri bilan mutanosibdir deb e’tirof etadi. Fan hayoti – inson hayotining bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Fanning XVII asrda rivojlanishi insonni turmush tarzini o‘zgartirib yubordi. Ingliz mutafakkiri B.Rassel ta’kidlaganidek Yangi dunyonni

avvalgi asrlardan farqlantiradigan narsalarning deyarli barchasi XVII asr fani yutuqlari natijasidir. Bu albatta birinchi navbatda amaliy fanlarga bog‘liq edi.

Fanning mohiyatini, inson va jamiyat hayotidagi o‘mini bilishda uning quyidagi xususiyatlarini e’tiborga olish muhimdir:

- inson faoliyatining o‘ziga xos turi;
- alohida ijtimoiy institut sifatida fan ilmiy bilimlar yig‘indisi;
- insoniyatning ma’naviy salohiyati, olam, tabiat, jamiyat va inson to‘g‘risidagi tasavvur va qarashlarni shakllantiradi;
- olamni o‘zlashtirish va o‘zgartirish vositasi hisoblanadi.

Fan o‘z oldiga ilmiy bilimlar yaratishni maqsad qilib qo‘yadi. Ilmiy faoliyat moddiy ne’matlar ishlab chiqarish faoliyatidan keskin farq qiladi. Kishilar mehnat faoliyati, siyosat, ma’naviyat, din va hokazo sohalardagi faoliyatлари jarayonida ham bilim orttiradi. Lekin ilmiy bilimlar izchilligi, tizimliligi va haqiqiyligi bilan ajralib turadi.

Fanlar klassifikatsiyasi.

Antik davr falsafasidan bilamizki, qadimgi davrda yakkayu-yagona falsafa fani mavjud bo‘lgan, u o‘zida barcha fanlarni qamrab olgan. Miloddan oldingi III asrdan boshlab falsafadan matematika va meditsina ajralib chiqa boshlagan. Qadimgi yunon falsafasi tabiat falsafasi (naturfalsafa) sifatida rivojlanishda davom etgan. Fanlar tasnifi haqidagi birinchi ta’limotlar Demokrit, Platon va Aristotel asarlarida ishlab chiqilgan. Platon fanlar tasnifi masalasini hal qila turib, birinchi o‘ringa dialektikani kuyadi. Uning fikricha, dialektika fizika va etikani qamrab olgan. Bu davrda Aristotel nisbatan chuqur ishlab chiqqan mutafakkir Aristotel hisoblanadi. Aristotel fanlar tasnifi masalasiga asosan «Metafizika», «Topika» va «Nikomax etikasi» asarlarida batafsil to‘xtalgan.

Forobiy ham uz zamonasidagi fanlarni klassifikatsiya qilgan. Uning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi qarashlari «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» asarida batafsil yoritilgan. Kitobda o‘rtta asrda ma’lum bo‘lgan 30 dan ortiq fanning ta’rifi, ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Barcha fanlar 5 guruhga ajratiladi: 1) til haqidagi ilm (7 bo‘lim – grammatika, orfografiya, she’riyat); 2) mantiq va uning bo‘laklari; 3) matematika (arifmetika, geometriya, optika, astronomiya, muzika, og‘irliklar haqidagi ilm, mexanika); 4) tabiatshunoslik va metafizika (8 bo‘lim – bashorat qilish, tibbiyot, alkimyo); 5) shahar haqidagi fanlar – siyosiy ilm, fiqh, kalom (etika, pedagogika).

Fanlarning bu tasnifi o‘z davrida ilmiy bilimlarni ma’lum tizimga solishning mukammal shakli bo‘lib, bilimlarning keyingi rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Forobiy tabiiy va ijtimoiy fanlarni vazifasidan kelib chiqib to‘g‘ri farqlagan. Uning talqinicha, matematika, tabiatshunoslik, metafizika fanlari inson aqlini bilimlar bilan boyitish uchun xizmat qilsa, grammatika, mantiq, she’riyat kabi ilmlar fanlardan to‘g‘ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to‘g‘ri tushuntirish, ya’ni aqliy tarbiya uchun xizmat qilgan. Siyosat, axloq, ta’lim-tarbiyaga oid bilimlar esa kishilarning jamoalarga birlashuvini, ijtimoiy hayotga tegishli qoidalarni o‘rgatadi.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy ham fanlarni tasniflagan. Fanlar tasnifiga bag‘ishlangan uning asari «Mafatih al-ulum» deb ataladi, ya’ni «Fanlar kaliti». Muallif asarda o‘sha davrdagi fanlarni tartiblashtirish va tasniflashni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Asar ikkita qismdan iborat. Birinchi qismi shariat fanlari, u bilan bog‘liq bo‘lgan arab fanlari, ikkinchi qismi esa yunon fanlaridir. Shunday qilib, al-Xorazmiy fanlarni shariat va arablarga bog‘liq bo‘lmagan fanlarga bo‘lgan. Shariat fanlari – musulmon huquqi, kalom, tarix, arab tili grammatikasi va boshqalarni, arablarga bog‘liq bo‘lmagan fanlar – falsafa, mantiq, tibbiyot, arifmetika, geometriya, astronomiya, ximiya va boshqalarni qamrab olgan.

Dastlab fan fundamental va amaliy fanlarga bo‘lingan. Fundamental fanlarga bog‘liq holda texnika va texnologiya rivojlandi.

Ilmiy bilimlar hosil qilish usullariga qarab, fanlar eksperimental va fundamental fanlarga ajraladi. Ular o‘rganish obyektiga ko‘ra – tabiiy, ijtimoiy – gumanitar va texnik fanlarga bo‘linadi.

Boshqacha bo‘lish ham mavjud: tabiatshunoslik va ruh haqidagi fanlar. Tabiatshunoslik fanlari: fizika, kimyo, biologiya, geologiya va boshqalar, ya’ni tabiatni o‘rganadigan fanlar. Ruh haqidagi fanlar: psixologiya, antropologiya, sotsiologiya, ekologiya kabilar.

Hozirgi davrda fanlarni tiplarga ham bo‘lishyapti, uni asosan uch tipini ko‘rsatishyapti: formal, deskriptiv va aksiologik.¹ Formal fanlarga matematika, mantiq; deskriptiv fanlarga fizika, ximiya, geologiya, biologiya; aksiologik fanlarga politologiya, sotsiologiya, tarix, psixologiya, yurisprudensiya, tibbiy, texnik, qishloq xo‘jalik, ekologik fanlar kiradi.

Formal fanlar formal ko‘rinishga ega bo‘lgan fanlardir. Formal fanlar hamisha formallahgan ko‘rinishga ega bo‘lavermaydi, lekin mantiq va matematika doimo formallahgan ko‘rinishga egadir. Formal fanlar deskriptiv va aksiologik fanlardan hamisha farq qiladi. Deskriptiv

¹ Канке В.А. Философия для юристов. – М., 2011.

(ingl. descriptive – tasvirlash(opisatelno‘y) degan ma’noni anglatadi) fanlar yozib oluvchi yoki semantik fanlar deyiladi.

Aksiologik (grek. axios – qimmatli va logos – ta’limot) fanlar qadriyatlar va insonlar normalari bilan ish olib boradi. Bu fanlarni ko‘pincha amaliy fanlar yoki ba’zilar masalan inglizlar axloqiy fanlar deyishadi.

Tabiatshunoslik fanlari ko‘pincha aniq fanlar deb ham ataladi. Odatda aniq fanlar deganda matematika, fizika, va boshqalar tushuniladi. Chunki aniq fanlar deyilishiga sabab ular mantiqiy kategoriyalarga ega. Masalan, katetlar kvadratining yig‘indisi gepatenuza kvadratiga teng bo‘laveradi. Yoki jismni tezlanishi ta’sir qilayotgan kuchga to‘g‘ri proporsional, uning massasiga teskari proporsionaldir.

Falsafani ham aniq fanlar qatoriga qo‘sish mumkin. Chunki u ham o‘z mantiqiy kategoriyalariga ega, asoslardan natijalarni keltirib chiqarish bilan xulosalarni shakllantiradi. Aniq fanlar o‘z predmetlarini mohiyatini chuqur tahlil qiladi, bu ularning kuchli tomoni hisoblanadi. Ularning kuchsiz tomoni ular oxir oqibatda modellarga tayanib qolishadi (aytaylik fizik, matematik model). Masalan, biz qandaydir bir hodisani modelini yaratsak, o‘shandan natijalarni keltirib chiqaraveramiz. Albatta, biz modelni aniq yaratishimizga bog‘liq. Modellar aks ettirilayotgan hodisani soddalashtiradi. Har qanday soddalashtirish nimanidir yo‘qotishga olib boradi. Keyinchalik shu yo‘qotilgan ahamiyatsiz narsa juda katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Aniq fanlar: matematika, fizika murakkab tarkibga ega. Ular turli darajadagi izlanishlarga ega. Gumanitar fanlarda izlanishlar darajalari kamroq.

Bundan tashqari aniq fanlar terminlarga aniq ta’rif berilgandan keyin foydalanishni tavsiya qiladi. Gumanitar fanlar esa termin aniq ta’rifga ega bo‘lmasa-da, lekin nima haqda gap borayotganligi ko‘pchilikka umumiy tarzda tushunarli bo‘lsa, undan foydalanaveradi. Gumanitar fanlarda aniq ta’riflarni yo‘qligi uning kuchsizligi emas, balki kuchli tomonini aks ettirilishidir. Masalan, qattiq yoki gaz holatidagi predmetlar haqida gap borsa, biz ular nima ekanligini aniq tasavvur qilamiz. Agar adabiyot tarixi haqida gapishtaganimizda biz klassitsizm qayerda tugaydi, romantizm qayerda boshlanadi, buni aniq tasavvur qila olmaymiz. Ular bir-biriga tabiiy holda o‘tadi, shuning uchun ular haqida tushunchalar ham har xildir.

Fan tarixida shunday hodisalar bo‘lganki, bir hodisani bir vaqtda bir-necha olim bir-biridan bexabar holda o‘rganishi mumkin. Buning

natijasida bir narsa bir-necha olim tomonidan bir vaqtida kashf qilinishi mumkin. Masalan, noevklid geometriyasi. U bir vaqtida uchta olim tomonidan kashf qilingan. Dastlab uni nemis olimi Gauss ochgan, lekin uni e'lon qilib, chop etmagan. Keyin uni rus olimi Lobachevskiy ochgan va uni e'lon qilgan, u Gauss ishlaridan bexabar bo'lgan. Lobachevskiy bilan bir vaqtida shu yo'nalishda venger matematigi Bolyai ham ish olib borgan. Lekin Bolyai o'z ishlarini Lobachevskiydan olti oy keyin e'lon qilgan va chop ettirgan. Xuddi shunday voqea «Neptun» planetasini ochilishida ham kuzatilgan. Yosh (25 yoshlarda) ingliz olimi Djon Adams 1841-yil «Neptun» planetasi borligini aniqlagan, keyin uni aniqroq bilmaguncha e'lon qilmagan. Bu haqda Dj.Adams o'rtog'i Chalmsga aytgan. 1846-yilda fransuz olimi Leverye bu planetani kashf qilganligini e'lon qilgan.

Shuni ham ta'kidlash lozimki hozirgi zamon texnikasi kapitalizm va amaliy fanlarni birlashishi natijasida vujudga kelgan. Ammo har qanday texnika ham ilmiy hisoblanmaydi. Masalan, Xitoyda bizning eramizgacha texnika rivojlansa-da, fizika fani mavjudligidan bexabar edi.

Fan inson bilish faoliyatining asosiy shakllaridan biridir. Hozirgi kunda fanning ahamiyati o'sib boryapti va bizni o'rabi turgan voqelikning tarkibiy bir qismiga aylanmoqda. Bu haqda Respublikamiz Prezidenti I.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida shunday yozadi: «Mamlakatni jadal rivojlantirish borasidagi dasturiy vazifalarni amalga oshirishda fanni va ilmiy infrastrukturani rivojlantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Respublika fani qudratli intellektual salohiyatni yaratgan. U hayotimizning ko'pgina sohalarida amalda qo'llanmoqda. Vatanimizning milliy davlatchiligi va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Tarixan O'zbekiston Respublikasida shakllangan intellektual salohiyat XXI asr bo'sag'asida o'zining rivojlanish darajasi jihatidan, innovatsion kashfiyotlar, imkoniyatlari bilan hozirgi vaqtida jahondagi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan ilgarilab ketgan.

Fanimiz, aql-zakovat salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Bilimlar xazinasini ochgan buyuk ajdodlarimizning nomlari butun dunyoda mashhur. Bular buyuk matematik va astronomlar al-Xorazmiy, Farg'oniy, Javhariy, Marvaziy, Ulugbek; faylasuf va ilohiyotchi-

huquqshunoslar Forobiy, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Marg‘inoniy, Nasafiy; qomusiy olimlar Beruniy, Ibn-Sino; tilshunos – shoirlar Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Xojib, Zamahshariy, Alisher Navoiy; tarixchilar Bobur Mirzo, Abulg‘ozzi Bahodirxon, Ogohiy va boshqa ko‘pgina zotlardir.

Hozirgi zamon fani bundan 100-150 yil oldingi fandan har tomonlama farq qiladi. Uning xarakteri va jamiyat bilan munosabati butunlay o‘zgardi.

Hozirgi zamon fanining inson va jamiyat hayotining turli sohalariga qanday ta’sir qilishini u amalga oshiradigan uchta assosiy funksiyasida kuzatish mumkin.

Bu ijtimoiy funksiyalar quyidagilar:

- a) madaniy – dunyoqarashlik;
- b) fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuch ekanligi;
- v) ijtimoiy kuch ekanligi.

Feodal jamiyatning yemirila boshlashi bilan fanning dunyoqarashga ta’siri sezila boshladи. Shu davrda Fan ijtimoiy institut sifatida shakllana boshladи. Bu davrda ijtimoiy hayotning barcha tomonlarida din, diniy dunyoqarash hukmron edi. Bu davrda fan va din o‘rtasida kuchli kurash borar edi. N.Kopernik amalga oshirgan kashfiyotdan keyin fanning dunyoqarashga ta’siri kuchaydi va ilmiy bilimlar insonlar dunyoqarashida salmoqli o‘rin egallay boshladи. N.Kopernikning geliosentrik nazariyasini qabul qilish oson emasdi, chunki oldingi dogmalardan voz kechish zarur edi. O‘sha davrdagi dramatik hodisalar – D.Brunoning gulxanda yondirilishi, Galileyning tavba qilishga majbur qilinishi, CH.Darvin ta’limotidan noroziliklar, – esdan chiqishi uchun va fanning dunyoqarash shakllanishidagi ta’siri kuchayishi uchun vaqt zarur edi. Shu tariqa fanning madaniy – dunyoqarashlik funksiyasi kuchaya bordi.

Fanning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishi funksiyasi bugungi kunda nafaqat sezilarli bo‘lib qoldi, balki birinchi darajali bo‘lmoqda. Hozirgi zamon ilmiy texnik taraqqiyotining ko‘لامи ijtimoiy hayotning barcha tomonlarida o‘sib boryapti.

Fan ijtimoiy institut sifatida shakllanib borishida «fan – texnika – ishlab chiqarish»ni birlashtirish imkoniyatlari vujudga keldi. Bu zarurat o‘ziga muvofiq tafakkurni shakllantirdi. Texnika rivoji ham fan bilan bog‘liqdir. Texnika rivojida vujudga keladigan muammolar fanning izlanish predmetiga aylana borgan. Bu jarayon ba’zan yangi fanlarni ham vujudga keltiradi. Masalan, gidravlika, termodynamika.

XIX asr o‘rtalarigacha fan yutuqlari kamdan-kam hollarda sanoatga, qishloq xo‘jaligiga tatbiq etilgan. Empirik bilimlarning rivojlanib borishi fanning ishlab chiqarishga kuchli ta’sirini sezish imkonini berdi.

Fanning ishlab chiqarish kuchiga aylanishida fan yutuqlaridan foydalanish kanallarini vujudga keltirish lozim. Unga xizmat qiladigan fanlarni yaratish lozim. Masalan, amaliy matematika, amaliy fizika va hokazo. Ilmiy izlanishlarni, ilmiy-texnik axborotlar tizimini va boshqalarni yaratish zarur.

Bugungi kunda fanning ijtimoiy kuch sifatida funksiyasi yanada rivojlanib bormoqda. Fan ijtimoiy taraqqiyotga bevosita ta’sir qilib ijtimoiy kuchga aylanyapti. Bugungi kundagi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishdagi katta reja va dasturlarda ilmiy izlanish natijalari va usullaridan samarali foydalanilmoqda. Ushbu reja va dasturlarni amalgaloshirish ijtimoiy, tabiiy va texnik fanlarni o‘zaro munosabatini taqozo qiladi.

Hozirgi zamon global muammolarini hal qilishda fanning ijtimoiy kuch sifatidagi roli katta ahamiyatga ega. Masalan: ekologik muammoni hal qilish. Ilmiy texnik taraqqiyot ekologik tanazzulning sabablaridan biridir. Inson va jamiyat hayotiga zararli atmosfera, suv, yerning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga fan ekologik tanazzuldan chiqishning, zararsiz texnologiyalar yaratish imkoniyatiga ega. Fan global muammolar haqida birinchi bo‘lib xabar bergan. Fan global muammolarni vujudga kelish sabablarini, undan qutilish yo‘llarini yoki bartaraf etish yo‘llarini ochib beradi.

Fanning asosiy funksiyalari sifatida M.A.Axmedova, V.S.Xan rahbarligi ostida chiqqan «Falsafa asoslari» kitobida quyidagilar keltirilgan:

- a) ilmiy bilimlardan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish yo‘lida foydalanish (fanning texnologik funksiyasi);
- b) ilmiy bilimlardan fanni o‘zini rivojlantirish yo‘lida foydalanish;
- v) ilmiy bilimlarni inson rivojlanishi yo‘lida foydalanish;
- g) fandan turli xil tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda foydalanish.

2-§. Hozirgi zamon fani yutuqlari

Oldingi ikki asrda juda katta miqdorda bilimlar yig‘ildi. Bu bilimlarni fan oldin umumlashtirdi, tizimplashtirdi va yangi vazifalarni yechishga kirishdi. Ya’ni u bilimlarni amaliyotga tatbiq qila boshladи.

Amaliyot ham fanga ta'sir qila boshladi. Buning natijasida termodinamika vujudga keldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida qishloq xo'jaligidagi muammolarni yechishga organik ximiya fani kirishdi. Uning yordamida yangi dori-darmonlar, bo'yoqlar yaratildi. Ximiyaviy texnologiya elementlari ishlab chiqarishga tatbiq qilina boshladi.

Elektrordinamikaning vujudga kelishi yangi davrni boshlab berdi. Elektr, magnit va yorug'lik hodisalarining chuqur o'rganilishi elektrotexnikani rivojlantirib yubordi va yangi elektr mashinalari va aloqa vositalari ishlab chiqildi.

XX asr 50-60 yillariga kelib tabiatshunoslik, texnik va ijtimoiy fanlar juda rivojlanib ketdi. Asr boshlarida fizika, ximiya, biologiya fanlari keskin rivojlandi. Bunga XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi yangiliklar sezilarli turtki berdi. A.Eynshteynning umumiy nisbiylik nazariyasini va maxsus nisbiylik nazariyasini ochishi yangi texnika va texnologiyani vujudga keltirdi. 60-70 yillarga kelib insonni o'rganuvchi fanlar – gen injeneriyasi, biotexnologiya, biomeditsina rivojlandi. Ushbu fanlarni rivojlanishi olimlarning ijtimoiy mas'uliyatini ham oshirdi. Chunki gen injeneriyasini rivojlanishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. 1975-yilda ko'pgina ko'zga ko'ringan olimlar insonni o'rganishda moratoriyl e'lon qilishdi. Buning natijasida molekular genetika rivojlandi. Endi olimlar yangi organizmda o'zлari xohlagan xususiyatlarni rivojlantirish imkoniyati tug'ildi. Oldin ishlab chiqarish murakkab bo'lган dorilar – insulin, inson o'sishi uchun zarur bo'lган garmon, antibiotiklarni xohlagancha yaratish mumkin bo'ldi. Sovuqqa, qurg'oqchilikka, har xil kasalliklarga, parazitlarga qarshi tura oladigan qishloq xo'jalik ekinlari, to'g'ridan-to'g'ri havodan azot ola biladigan o'simliklar yaratildi. Azot ishlab chiqarish esa juda qimmatlidir.

XX asr informatsion asr hisoblanadi. Informatsion texnologiya vujudga keldi. Informatsion texnologiyaning mohiyati shundaki ma'lum bir apparatlarni o'zaro ulab ishlab chiqarishni boshqarishi mumkin. Bu texnologiyaning asosini EHM – kompyuterlar tashkil qiladi. Kompyuterlarda axborotlar qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi. Ular maxsus dasturlar asosida ishlaydi. Informatsion texnologiya ishlab chiqarishni to'la avtomatlashtirishi mumkin. Inson mehnatini robotlar amalga oshiradi. Informatsiya uzatuvchi qurilmalar yordamida kosmik kemalar, yangi samolyotlar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish boshqariladi. Bunday qurilmalardan ta'lim va tarbiya jarayonida ham foydalanishyapti. Albatta buni o'ta murakkab informatsion texnologiya yordamida amalga oshiriladi.

G‘arb davlatlarida, AQSHda mehnatkashlarning asosiy ko‘pchiligi xizmat ko‘rsatish sohalarida mehnat qilishadi (AQSHda – 80%dan, Germaniyada – 70%dan ortig‘i). Katta ko‘lamda o‘zaro bog‘langan bilimlar banki tashkil qilindi. Bunday banklarga mamlakatning har qanday nuqtasidan juda qisqa vaqt mobaynida qonunlar bog‘lanish imkonini beradi. AQSHda 100 mlndan ortiq aholi shaxsiy kompyuteriga ega.

XXI asr arafasida Internet vujudga keldi. Internet ilmiy bilimlarni keng tarqalishi, almashinishi uchun yaxshi imkoniyatlar yaratdi.

1960-yillarda kosmik texnika, texnologiya rivojlana boshladi. 2000-yilgacha fazo intensiv ravishda o‘zlashtirila boshlandi. Orbital kosmik stansiyalar paydo bo‘ldi. Kosmik stansiyalarda ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borildi. Aytaylik yerni, quyoshni, boshqa planetalarni o‘rganish bo‘yicha, yangi sintetik materiallar yaratish bo‘yicha. Buning natijasida insonlar xohlagan xususiyatlarini oldindan rejalashtirib materiallarga o‘tkazib yangi materiallar yaratildi.

Ammo fan yutuqlaridan tinchlik maqsadlarida va urush maqsadlarida ham foydalanish mumkin. S.I.Vavilovning fikricha, «Fan-juda ham kuchli, ikki tomoni ham o‘tkir qirralidir. Kimning qo‘lida bo‘lishiga qarab undan tinchlik yoki yomonlik maqsadida ishlatalishi mumkin». Tabiatshunoslik fanlarining bir tomonlama rivojlanishi termoyadro urushi xavfini vujudga keltirdi. Bu haqda Julio-Kyuri shunday yozadi: «fan insoniyatga qanchalik foyda keltirganligini olimlar bilishadi, agar yer yuzida tinchlik hukmron bo‘lsa fan qanday yutuqlarga erishishini ham bilishadi. Ular kimdir bizni fan atom va vodorod bombasidan o‘limga olib keldi deyishini xohlasmaydi. Olimlar fan aybdor emasligini bilishadi. Fan yutuqlaridan g‘araz maqsadlarda foydalangan inson aybdor». Fan yutuqlaridan hamisha dastlab mamlakat manfaatlaridan kelib chiqqan holda harbiy maqsadlarda foydalaniladi. Masalan, A.Eynshteyn atom yadro energiyasidan foydalanish, inson ongi-miya xususiyatlarini o‘rganishidan foydalanib zombilarni yaratilishi, oldingi davrlarda Al-ximiklar tashkilotining faoliyati. Fan yutuqlarining hayotga tatbiq etilishi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshadi: «fan – texnika – ishlab chiqarish». Fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish ba’zan qisqa davrni, ba’zan esa uzoq davrni qamrab oladi. Masalan, Cherepanovning suvni, havoni tozalovchi qurilmasi, yaqinda AQSHda yaratilgan yangi tez uchar samolyot Yer yuzini 4.5 soatda aylanib o‘tadi. Ishlab chiqarishga 2016-yilda kirishiladi.

Nobel mukofoti laureati J.Alfyorovni yarim o‘tkazgichlarini 70-yillarda ochganini ham keltirish mumkin.

Shuni ham ta’kidlash lozimki hozirgi vaqtida fan bilan shug‘ullanadigan shaharlar paydo bo‘layapti. Oldin ham bo‘lgan. Masalan: Arkansas, Los-Alamos va boshqalar. Hozirgi vaqtida RFda shunday shaharlar yaratish haqida 1997-yil 7-noyabrda farmon qabul qilingan. Hozir RFda 60 dan ziyod shunday shahar bor, ularni 29 tasi Pod-Moskovyeda, qolganlari Ural va Sibirda.

Yaponiyada mavjud bo‘lgan, faqat fan bilan shug‘ullanadigan shahar Sukubu deb ataladi. U yerda dunyoning turli joylaridan olimlar kelib ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishadi.

Fan yutuqlari III faoliyatiga ham ta’sir qilyapti. IIIda fan yutuqlari dan ham foydalanilayapti. Aytaylik yarim o‘tkazgichlardan yaratilgan aloqa vositalari IIIga keng kirib keldi, yangi radioaloqa vositalari faoliyatida katta samara beryapti.

Fan yutuqlari asosida yaratilgan yangi avtomobillardan, yangi suratga olish, ovoz yozib apparatlaridan foydalanilayapti. O‘q o‘tkazmaydigan materiallardan avtomobillarda, xodimlarni himoyalashda qo‘llanilyapti. Ximiya fani yutuqlaridan ximiyaviy moddalarni aniqlashda foydalanilyapti.

Kompyuterlar Ichki iglar idoralariga to‘la kirib kelyapti. Kompyuterlarni kirib kelishi xodimlarni mas’uliyatini oshirib, vazifalarini o‘zgartiryapti. Kompyuterlarda ko‘pgina ishlarni masalan: jinoyatchini foto robotini yaratish va boshqalar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy fanlarda amalga oshayotgan demokratizatsiya va insonparvarlik jarayonlari III faoliyati insonparvarlik bilan singdirilyapti.

Ichki ishlar idoralari faoliyati fan yutuqlarini tez fursatda amaliyotga tatbiq qilishni talab qiladi. Bu holat IIIning xususiyati bilan bog‘liq. Jinoyatni oldini olish, jinoyatni ochish buni talab qiladi. Aks holda jamiyatdagi ijtimoiy psixologik muhit murakkablashib ketadi.

Kundan-kunga jinoyatlar murakkablashib bormoqda, uni ochish ham ko‘p mushkulliklarni vujudga keltiradi, vaqt esa kutmaydi.

3-§. Huquq falsafasi – fan sifatida

Huquq falsafasi yangi fanlardan biri hisoblanadi. Huquq falsafasi huquq to‘g‘risidagi haqiqatni, odamlar ijtimoiy borlig‘ining maxsus shakli va ijtimoiy tartibga solishning alohida turi bo‘lgan huquq haqidagi haqiqiy bilimlarni izlash va aniqlash bilan shug‘ullanadi. Huquq obyekt

sifatida turli fanlar tomonidan tadqiq etiladi. Ularning har biri huquqni o‘ziga xos tushunishi va mazkur obyektni o‘rganishning o‘z usullari, o‘zining maxsus predmeti va metodi nuqtai nazaridan qarab chiqadi. Huquq falsafasida umuman huquq muayyan universal yaxlitlik sifatidagi huquq, butun huquqiy universum, huquqning butun olami, huquqning mohiyati tadqiq etiladi. Eng umumiy tarzda huquq falsafasining predmeti – huquqdir. Huquq falsafasining predmetini yanada chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak aytish mumkinki, bu o‘zaro farqlanadigan, o‘zaro nisbatda bo‘lgan va izlanayotgan birlik bo‘lgan huquq va qonun. Huquq falsafasining predmetini aniqlashtirish huquq falsafasining u yoki bu aniq konsepsiysi asosida yotgan huquq mohiyatini tushunishga bog‘liqdir.

Huquq falsafasining predmeti – bu rasman tenglik va uning namoyon bo‘lish shaklidir. Ijtimoiy sohadagi har qanday tenglik – aynan rasman tenglik bo‘lgani uchun yuqoridagi ta’rifni qisqaroq shaklda: huquq falsafasining predmeti – bu tenglik va uning namoyon bo‘lishi prinsipidir.

Huquqiy hodisalarga rasman tenglik prinsipiiga muvofiq keluvchi, mazkur prinsip talablarining zohiriyligi ifodasi va amalga oshirilishi shakllaridan iborat bo‘lgan real hodisalar (rasman o‘rnatilgan qonun, amalda mavjud bo‘lgan davlat, ijtimoiy turmushning turli subyektlari xulq-atvori, ularning o‘zaro munosabati va hokazolar) tegishlidir.

Huquq falsafasi predmetiga boshqa huquqiy hodisalar bilan birga, davlat ham alohida huquqiy hodisa sifatida kiradi.

Huquq falsafasi – bu huquqni falsafiy anglash va asoslashgina emas, balki ayni vaqtida aksilhuquq (o‘zboshimchalik)ni uning barcha nazariy va amaliy ko‘rinishlarida – aksilhuquqiy qonun, aksilhuquqiy hokimiyat, munosabatlarning aksilhuquqiy shakllari va hokazolar sifatidagi ko‘rinishlarini falsafiy fosh etish, tanqid qilish va inkor qilishdir. Biz huquqni ham mohiyat ham hodisa sifatida qarab chiqyapmiz. Huquqning mohiyati – bu uning tashqi va ichki birligidir. Huquqning mohiyati – bu uning o‘zgarishlari qonunlarining tizimidir. Huquqning mohiyati – bu uning universalligidadir. Huquqning mohiyati – bu uning konkretligidadir. Huquq shu bilan birga nazariy izlanish predmetidir.

Huquq falsafasi ijtimoiy falsafaning tarkibiy qismidir.

Huquq falsafasi harakatdagi huquq tizimining nazariy dasturidir.

Huquq – bu ijtimoiy va ma’naviy borliqning shaklidir, ya’ni ijtimoiy hayotni tashkil qilish shakli hisoblanadi.

Huquq – bu ijtimoiy va individual borliqning universal tavsifidir.

Huquq – bu konkret-tarixiy va madaniy o‘ziga xos hodisadir.

Huquq – bu hayotni estetik ifodalash shaklidir.

Huquq falsafasi – huquqning mohiyati, vujudga kelishi, huquqiy qoidalarning axloqiy normalar bilan mutanosibligi va shu kabi boshqa muammolarning falsafiy talqini. Huquq falsafasi huquqni mantiqiy gnoseologik, psixologik, sotsiologik va axloqiy nuqtai nazardan tadqiq etadi. Huquq falsafasi uzoq muddat davomida falsafiy ta’limotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib keldi. Antik falsafa namoyandalari (Suqrot, Platon, Aristotel) huquq falsafasining qator muammolariga qo‘l urgandilar. Ular huquq vaadolat, huquq va qonun, huquq va kuch-qudrat o‘rtasidagi munosabatlarni huquqni ijtimoiy qadriyatlar iyerarxiyasidagi o‘rnini aniqlashga intildilar. Huquq falsafasi, ayniqsa, ma’rifatparvarlik falsafasida (tabiiy huquqiy nazariyasi), nemis klassik falsafasida (masalan, Gegelning «Huquq falsafasi» asari) katta o‘rinni egalladi. XX asrning ikkinchi yarmida huquq falsafasi bilan Gusserl, Sheler, Gartman va qator ekzistensializm namoyandalari shug‘llandilar. Mazkur mutafakkirlar huquq ontologiyasini yaratishga intildilar. Ularning fikricha, huquqning o‘ziga xos borlig‘i mavjud, huquqshunos esa turli huquqiy tushunchalar, me’yorlar va qadriyatlarni kashf etib boradi. Bugungi kunda G‘arbda Huquq falsafasining tarixiy huquqiy muktab avinyi) va neokantchilik (R.Shtamler) kabi yo‘nalishlari obro‘ qozongan.

Huquq falsafasi qadimiy va boy tarixga egadir. Falsafiy – huquqiy muammolar qadimgi davrda va o‘rtalarda umumiyoq mavzuning bo‘lagi va bir jihat sifatida, XVIII asrdan boshlab esa alohida ilmiy fan sifatida ishlab chiqildi.

«Huquq falsafasi» atamasi dastlab yuridik fanda paydo bo‘ldi. Taniqli nemis huquqshunosi, huquqning tarixiy maktabi asoschisi G.Gugo o‘zi «huquq to‘g‘risidagi ta’limotning falsafiy qismi» sifatida ishlab chiqishga intilgan «pozitiv huquq falsafasi»ni lo‘nda tushuntirish uchun ushbu atamadan foydalangan. Gugoning fikricha, huquqshunoslik (yurisprudensiya) uch qismdan: yuridik dogmatika, huquq falsafasi (pozitiv huquq falsafasi) va huquq tarixidan iborat. Uning fikricha, amalda bo‘lgan (pozitiv) huquq bilan shug‘ullanuvchi va o‘zida «yuridik hunar»ni ifodalovchi yuridik dogmatika uchun empirik bilim yetarlidir. Huquq falsafasi va huquq tarixi tegishli ravishda «huquqni ilmiy bilishning oqilona asosini» tashkil etadi va «ilmiy, liberal yurisprudensiyan» («bashang» yurisprudensiyan) hosil qiladi. «Huquq

falsafasi» atamasining keng yoyilishi Gegelning «Huquq falsafasi» (1820) bilan bog‘liqdir. Gegelning fikricha, huquq falsafasi tabiiy huquq (yoki falsafiy huquq) to‘g‘risidagi chinakam falsafiy ta’limotdir. Shuni ham aytish lozimki Gegelning «Huquq falsafasi» deb qabul qilingan asari aslida «Tabiiy huquq va davlat to‘g‘risida fan ocherklari. Huquq falsafasi asoslari» degan ikkita nom bilan chop etilgan. Gegelning ta’kidlashicha, huquq falsafasi Gugoda bo‘lgani singari, yuridik fan emas, balki falsafiy fandir. «Huquq to‘g‘risidagi fan, – deydi u, – falsafaning bir qismidir». Shunga muvofiq Gegel huquq falsafasi predmetini quyidagicha ifodalaydi: «Huquq to‘g‘risidagi falsafiy fan predmeti huquq g‘oyasi – huquq tushunchasi va uning amalgamasi oshirilishidir». Gegelga ko‘ra, huquq falsafasining vazifasi huquq asosida yetuvchi fikrni anglab yetishdan iborat. Bunga esa faqat to‘g‘ri fikr yuritish, huquqni falsafiy bilib olish yordamida erishish mumkin. «Huquqda, – deb qayd etadi Gegel, – inson o‘z aqlini topishi, binobarin, huquqning oqilona ekanligini ko‘rib chiqishi kerak va bu bilan faqat ziddiyatlar ila ish ko‘radigan pozitiv yurisprudensiyadan ko‘ra ko‘proq bizning fanimiz shug‘ullanadi». XIX-XX asrlarda huquq falsafasini fan sifatida xususiyatini ta’riflashga Gugo va Gegelning ikki xil yondashuvi yanada rivojlantirildi.

Maxsus falsafiy fan sifatidagi huquq falsafasida (tabiat falsafasi, din falsafasi, axloq falsafasi va shu kabi maxsus falsafiy fanlar bilan birgalikda) bilish bilan bog‘liq qiziqish va tadqiqot e’tibori asosan ishning falsafiy jihatiga, huquqning alohida sohasida falsafa konsepsiyasini aniqlashda bilish imkoniyatlarini va evristik salohiyatni namoyish qilishga qaratilgan. Bunda mazkur obyekt (huquq)ning xususiyatlariga tatbiqan tegishli konsepsiyanı mazmunli aniqlashtirishga, uni anglab olishga, ushbu konsepsiyanı uning metodologiyasi, gnoseologiyasi va aksiologiyasi oqimida tushunarli izohlash va o‘zlashtirishga jiddiy ahamiyat beriladi. Huquqshunoslik (yurisprudensiya) nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan huquq falsafasi konsepsiylarida esa, ular qanchalik farq qilishiga qaramay, odatda, tadqiqotning huquqiy motivlari, yo‘nalishlari va mo‘ljallari ustunlik qiladi. Uning falsafiy ixtisosi falsafiy asosga ega emas, balki falsafiy anglashda uni huquqiy soha ehtiyoji taqozo qiladigan olam, inson to‘g‘risidagi, ijtimoiy turmush shakllari va normalari, bilishning yo‘llari va metodlari, qadriyatlar tizimi to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot tizimida huquq va huquqiy tafakkurning mazmuni, o‘rni va ahamiyati kabi falsafiy dunyoqarash nuqtai nazaridan, muammolarga ustun darajadagi qiziqish shu tufaylidir. Yuridik fanda

falsafiy-huquqiy muammolarga, garchi yetarli darajada bo‘lmasa ham, an’ anaviy ravishda katta e’tibor beriladi. Huquq falsafasi huquqshunoslikning falsafa va boshqa bir qancha gumanitar fanlar bilan fanlararo aloqalari jihatidan ham, yuridik fanlar tizimining o‘zidagi aloqalar jihatidan ham bir qancha muhim metodologik, gnoseologik va aksiologik tusdagi umumilmiy funksiyalarini bajarishga da’vat etilgan.

3-bob. MA’NAVIYAT VA MADANIYAT FALSAFASI. HUQUQIY MADANIYAT – MADANIYATNING BIR TURI

1-§. Ma’naviyat, uning individual va ijtimoiy-falsafiy mohiyati

«Ma’naviyat» so‘zi arabcha bo‘lib, «ma’nolar majmui» degan tushunchani bildiradi. Shunga ko‘ra, uni ko‘pincha, sodda holda, «Ma’naviyat insonning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir» deb ta’riflaydilar.

Lekin bu ta’rif ma’naviyatning bir tomonini, ya’ni individual mazmunini ifodalaydi. Uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati esa kengroq mazmunni anglatadi. Unga ko‘ra ma’naviyat har qanday jamiyatning zaruriy va muhim tarkibiy qismi sifatida inson ichki ruhiy holatini ifodalaydi va uning ongi, aqli, tafakkuri, qobiliyati, imkoniyatlari, hayotiy mavqeining uyg‘unlashgan mazmunini tashkil etadi.

Prezident I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillarida ma’naviyat haqida: «Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi» – degan edi. Yana fikrini davom ettirib, «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida: «Ma’naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman», – deydi.

Ma’naviyat aniq shakllarda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy hodisadir. U faqat insonga xos xususiyatdir. Inson ma’naviyat bilan tirik. Ma’naviyat insonga insoniy mazmun baxsh etadi. Ya’ni, odam farzandi ma’naviyat sohibi bo‘lganligi, aql-idrok va tafakkurga, imon va e’tiqodga, odob-axloqqa, sharm hayo va or-nomus singari fazilatlarga ega bo‘lgani uchun inson degan sharaflı nomga sazovordir.

Ma’naviyat – inson butun ruhiy olamini yaxlit tizim sifatida ifoda etuvchi ijtimoiy kategoriya. Ma’naviyat insonda o‘z-o‘zidan paydo

bo‘lmaydi, balki uning o‘qib izlanishi, mehnati natijasida vujudga keladi. Zero, Prezident I.Karimov ta’kidlaganidek, «Ma’naviyat – taqdirning ehsoni emas. Ma’naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalbdan va vijdanan, aql va qo‘l bilan mehnat qilishi kerak. Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag‘ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo‘lida kun ko‘rishga yo‘l qo‘ymaydi...» (Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li // O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T., 1996. – B.81) Ma’naviyat insonlarning o‘zaro munosabatlarida, uning hayotiy tajribalari davomida shakllanadi va rivojlanadi. Har bir inson o‘z ma’naviyatini o‘zini shaxs sifatida anglagandan boshlab, to umrining oxirigacha shakllantirib va rivojlantirib boradi. Inson ma’naviyatini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji cheksiz jarayondir.

Ma’naviyat mafkura orqali amaliyatga tatbiq etilgandagina moddiy kuchga aylanadi. Chunki ma’naviyat amaliyatda moddiylashadi. Haqiqatga, ma’naviy yuksaklikka intilishdan, komil insonni tarbiyalashdan asosiy maqsad – olamni go‘zallikka burkash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdir.

Ma’naviyat individual va ijtimoiy-falsafiy mohiyatlarga egadir. Uning individual xususiyatlari har bir individ – har bir inson ichki dunyosi mazmunini anglatadi. Ijtimoiy ma’naviyat esa jamiyat ma’naviy hayotining umumiyligi mazmunini tashkil etib, insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. U yo‘q joyda bama’ni turmush, baxt-saodat bo‘lmaydi.

Ma’naviyat, shuningdek, milliy, mintaqaviy va xalqaro ma’nomazmunlarga ham ega. Uning milliyligi millat va elatlar psixologik (ruhiy) alomatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, mintaqaviy va xalqaro mazmunlari mintaqaviy hamda umumjahon mushtarak ma’naviy hayot tarzi xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Milliy ma’naviyat muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo‘lgan g‘oyat qimmatli ma’naviy boyliklardir.

Mintaqaviy ma’naviyat – muayyan jug‘rofiy mintaqqa xalqlariga xos, ular uchun umumiyligi bo‘lgan ma’naviy boyliklardir. Masalan, O‘rta Osiyo xalqlarining ma’naviyatidagi yoki yanada kengroq doirada oladigan bo‘lsak, Sharq va G‘arb ma’naviyatidagi mushtaraklik, o‘xshashlik.

Mintaqaviy ma’naviyatda turli elatlarning umumiyligi, bir-biriga yaqinligi, turmush tarzi va moddiy hayot sharoitlariga xos mushtarak jihatlar namoyon bo‘ladi.

Umuminsoniy ma’naviyat – butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo‘lgan ma’naviy – axloqiy boyliklardir.

Ma’naviyat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, rivojlanmaydi. U insonning hayotiy tajribasi asosida shakllanib boradi. Ayni vaqtda inson hayoti va faoliyatini yo‘naltiradi, xalqning tarixi va madaniyatini chuqr anglashga yordam beradi.

Ma’naviyatning shakllanishi va takomillashuvida ijtimoiy hayot nafasi, unda ustuvor bo‘lgan ijtimoiy g‘oyalar, ma’rifat va mafkura muhim ahamiyatga egadir. Shu ma’noda, Prezidentimiz I.Karimov rahnamoligida ishlab chiqilgan va amaliyotda qo‘llanilayotgan milliy g‘oya va mafkura mustaqillik sharoitida fuqarolarimiz, xususan yoshlarimiz ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida, shakllangan hamda takomil topgan ma’naviyat ham mustaqillikni yanada mustahkamlashga, yurtni obod, xalqni farovon bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Respublikamizda mustaqillik qo‘lga kiritilgach ma’naviyatga juda katta e’tibor berilayotganligini isboti sifatida Prezident I.Karimov tomonidan 1994-yil 23-aprelda «Ma’naviyat va ma’rifat» respublika jamoatchilik markazini tuzish haqidagi farmonini keltirish mumkin. 1996-yil 9-sentabrda ushbu markaz faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida yana bir farmon e’lon qilindi. 1999-yilning 3-sentabrida bu markaz Ma’naviyat va ma’rifat kengashiga aylantirildi.

Ma’naviyat haqida «Ma’naviyat asoslari» fanida yana chuqurroq to‘xtalamiz.

2-§. Madaniyat va sivilizatsiya, ularning umumiyligi va o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekistonda demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurish yo‘lidagi tarixiy kurashimiz jarayonida madaniyat hamda sivilizatsiya muammolariga doimiy e’tibor qaratish eng muhim masalalaridan biridir. Zotan madaniyat va sivilizatsiya darajalari qadim-qadimdan barcha davr va zamonlarda jamiyatning sifat ko‘rsatkichi, uning ko‘rki, turmushning ma’nosи hisoblangan. Adabiyotlarda madaniyatga berilgan ta’riflar haddan tashqari ko‘pdir. Lekin ularning aksariyati madaniyatni to‘la-to‘kis ifodalab bera olmaydi. Buning sababi shundaki, madaniyat shu darajada keng va teran tushunchaki, uni biror bir ta’rifga sig‘dirishning iloji yo‘q. Shuning uchun madaniyatni ta’riflashda tor doiradagi «ta’rif»

shaklidan ko‘ra «tavsiflash» usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lsa kerak.

Madaniyat g‘oyat serqirra bo‘lishi bilan birga turfa sifatlarga egadir. Uni odamlar yaratadilar, ijtimoiy faoliyatlar tufayli o‘z qo‘llari harakatlari bilan yuzaga keltiradilar. Madaniyat o‘z navbatida inson faoliyatlarining oshib borishiga, inson ko‘rkining kamoliga, inson go‘zalligiga eng muhimini-inson ijtimoiy faoliyatining tobora dadillash-tirib borishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu xususiyatlari bilan madaniyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan buyuk ijtimoiy hodisadir.

Shu sabab mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov o‘zlarini barcha nutqlarida, risola va kitoblarida madaniyat masalalariga katta e’tibor beradilar, kishilarni madaniyatli bo‘lishiga, qadriyatlarimizni o‘rganish-ga, ma’naviyatni rivojlantirishga undaydilar. Yana shuni ta’kidlaydilarki, madaniyatsiz yoki madaniyati past mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish amrimaholdir.

Xo‘sh madaniyat deganining o‘zi nima?

Dastlab «madaniyat» (kultura) atamasini Rimlik notik Mark Tulliy Sitseron «Tuskulan suhbatlari» degan asarida ishlatgan. Madaniyat lotincha cultura – so‘zidan kelib chiqib, yerga ishlov berish, yerni qayta ishslash degan ma’noni anglatgan. Sitseron ko‘chma ma’noda, inson ongiga ta’sir qilish ma’nosida ishlatgan.

Madaniyat haqidagi dastlabki nazariy tasavvurlar yangi davrda paydo bo‘lgan, aynan shu davrda madaniyat falsafiy qiziqishlarning obyektiga aylangan. Ammo Yevropaliklar tilida «madaniyat» tushunchasi alohida tushuncha sifatida XVIII asr oxirlarigacha mavjud bo‘lmagan. Nemis lingvisti I.Nidermanning fikricha, madaniyat alohida tushuncha sifatida XVII asr oxirida muomalaga kiritilgan. Shu davrlargacha bu tushuncha alohida ishlatilmagan, balki boshqa tushunchalar bilan bog‘liqlikda ishlatilgan. Masalan, xulq madaniyati, til madaniyati va boshqalar.

Nemis faylasufi va huquqshunosi Samyuel Puffendorf (1632-1694) o‘zining «Xalqlarning tabiiy huquqi haqida» asarida birinchi marta «madaniyat» tushunchasini alohida tushuncha sifatida qo‘llagan. Bu asarda S.Puffendorf «madaniyat» tushunchasini alohida tushuncha sifatida ishlab chiqqan. Endi «madaniyat» tushunchasi keng, ya’ni inson faoliyati tufayli yaratilgan barcha narsalarni qamrab oluvchi ma’noda ishlatila boshlangan. S.Puffendorf talqinida madaniyat ikkita shaklda birinchidan, insonni (olamni – D.Yum.) takomillashtiruvchi vosita

sifatida, ikkinchidan faqatgina olamni takomillashtiruvchi vosita emas, balki shu takomillashtirish natijasi shaklida namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan S.Puffendorf «madaniyat» tushunchasiga inson faoliyatining turli ko‘rinishlari (hunarmandchilik, savdo, shaharlar qurilishi, konstitutsiyalar tuzish, tarbiya, axloq, san’at, til va boshqalar)ni kiritadi. Haqiqatan ham, madaniyat inson faoliyatining yuqorida sanab o‘tilgan barcha ko‘rinishlarini qamrab olgan.

XIX asr oxiri va XX asr bosqlarida «madaniyat» tushunchasi faqatgina fanga emas balki muomala tiliga ham to‘la kiritildi.

Falsafa tarixida Sitseron, T.Mor, Gobbs, Spinoza, Leybnis, nemis faylasuflari Kristofer Adelyung, Gerder, Kant, Gegel, Fixte, M.Veber, V.Diltey, G.Rikkert, E.Kassirer, O.Shpengler, shveysariyalik faylasuf YA.Burkxard, tarixchi F.Klemm, ingliz faylasuflari M.Arnold, A.Radkliff-Braun, M.Mid, E.Teylor, A.Kreber, K.Klakxonlar madaniyatni falsafiy jihatdan tahlil qilishgan.

Madaniyat – inson hayot faoliyatini tashkil qilish va rivojlanishining o‘ziga xos usuli. Madaniyat insoning muayyan hayot sohalarida uning harakati, xulqi, ongi va faoliyatini tavsiflaydi.

Madaniyat – jamiyat faoliyatining mahsuli, jamiyat esa bu faoliyatning subyektidir. Madaniyat bu insonlarning faoliyat usulidir, ijtimoiy munosabatlar esa – bu faoliyat uchun asos, hududdir. Faoliyat subyektlariga individ, shaxs, kichik guruh, ijtimoiy institutlar, tashkilot va birlashmalar, sinflar, elat, xalqlar, davlat mamlakatlar, mintaqaviy birlashmalar, insoniyat kiradi. Bu sanab o‘tganlarning har biri madaniyat subyekti sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shuning uchun shaxs madaniyati, milliy madaniyat, yoshlar madaniyati, G‘arb va Sharq madaniyati haqida gapirish o‘rinlidir. Madaniyatning juda ko‘p ta’riflari mavjud. Chet ellik olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, 1919-yilga qadar «madaniyat» tushunchasiga yettita ta’rif berilgan, 1950-yilga kelib bu son 164 taga, 1970-yillarda esa – 250 taga yetgan. Amerikalik oimlar A.Kreber va K.Klakxonlar 1950-yillarning boshida «madaniyat» tushunchasining 257 ta ta’rifi mavjudligini ta’kidlaganlar. Masalan, amerikalik mutafakkir Eduard Barnet Taylor (1832-1917-yillar)ning «Pervobiytnaya kultura» asaridagi ta’rifni keltiramiz: «Madaniyat bu insonning butun tarixi davomida yaratgan moddiy va ma’naviy ijodidir».

Akademik E.Yusupov o‘zining «Inson kamolotining ma’naviy asoslari» asarida shunday yozadi: «Madaniyat tushunchasi tabiatga nisbatan jamiyatning o‘ziga xosligini ifodalaydi». Shunga ko‘ra

madaniyatga keng ma'noda insonning ichki ruhiyati, aql-idroki va jismoniy mehnati bilan yaratilgan barcha narsalar kiradi. Madaniyat manbai insonning, hayotning barcha sohalaridagi ijodiy, yaratuvchanlik faoliyatidir.

Demak, madaniyat – ko‘p qirrali murakkab ma’naviy, ijtimoiy hodisadir.

Ontologik nuqtai-nazardan madaniyat o‘zining vujudga kelish, rivojlanish qonuniyatlariga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisadir, insoniyat tarixiy taraqqiyotining mahsulidir.

Mantikiy nuktai-nazardan madaniyat falsafiy-sotsiologikkategoriya bo‘lib, kishilar faoliyatiasosida tarkib topgan bilimlar, amaliyot natijalarining tizimini ifodalaydi.

Gnoseologik nuqtai-nazardan insoniyat ma’naviy-ruhiy bilimlari, empirik va nazariy bilim tajribalarini tugdiruvchi asosdir. Ana shularni barchasini hisobga olgan holda madaniyatga yaxlit ta’rif berish mumkin.

Madaniyat – bu kishilar faoliyatining jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayoti sohasida yaratgan, o‘zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqargan moddiy va ma’naviy boyliklar tizimidir.

Madaniyat jamiyat va inson tarixiy taraqqiyotining muayyan sifat darajasini ifodalovchi ijtimoiy hodisadir. Madaniyat kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, ular yuzaga keltiradigan moddiy va ma’naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyatning obyektiv namoyon bo‘lishi va rivojlanishi bevosita ijtimoiy hayot, uning taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. U ijtimoiy hayot oqimi jarayonida inson faoliyatining mahsuli sifatida shakllanadi, inson faoliyatining uzluksiz davomiyligi va salmoqligi ta’sirida jilolanib odamzod ma’naviyatining buyuk hamda qudratli ne’matiga aylanib boradi. Ma’naviyat yuksaklikka ko‘tarilgani sayin uni yuzaga keltirgan inson oldidagi burchini mukammalroq ado etib boradi: insonning o‘zligini chuqurroq tushunib yetishiga, uning mukammallashishiga ta’sir etadi. Boshqacha qilib aytganda, inson mehnati va umuman faoliyati tufayli tabiat, moddiy borliq madaniylashadi, madaniylashgan atrof-muhit vositasida esa inson o‘zining haqiqiy tabiatini, mohiyatini bilib boradi.

Ilmiy falsafaning ta’limotiga ko‘ra, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining taraqqiyoti madaniyat rivojlanishining asoslarini tashkil etadi. Ishlab chiqarishning ikki asosiy turi moddiy va ma’naviy tuzilmalariga qarab madaniyatning tarkibi ham ikki asosiy ko‘rinishga moddiy madaniyat va ma’naviy madaniyatga bo‘linadi.

Moddiy madaniyat insonning yaratuvchilik faoliyati hamda uning natijalarini o‘z ichiga oladi. Moddiy madaniyatga mehnat qurollari, turar joylar, inshoatlar, turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalari kiradi. Ma’naviy madaniyat inson ma’naviyati tarkibini o‘z ichiga oladi. Ma’naviy madaniyatga ong, bilim, saviya, ta’lim, axloq, falsafa, fan, san’at, adabiyot, din va hokazolar kiradi.

Ilmiy falsafa moddiy va ma’naviy madaniyatlarni bir biridan ayri holda emas, balki o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganadi. Moddiy madaniyatga qarab ma’naviy madaniyat darajasini, ma’naviy madaniyatga qarab esa moddiy madaniyat ahvolini belgilash mumkin.

Madaniyatning amaliy ifodasi va taraqqiyot darajasi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlariga bog‘liqligi sababli uning turli ijtimoiy davrlardagi amaldagi ifodasi, xususiyatlari, taraqqiyot darajasi ham muayyan ijtimoiy davr ishlab chiqarish munosabatlari, o‘scha davr iqtisodiy, siyosiy holatlarining mahsulidir. Shuning uchun ham madaniyat qadimgi davr madaniyati, o‘rta asrlar madaniyati, yangi davr madaniyati, qadimgi Misr, Yunon, Xitoy, Hindiston madaniyatlari, Markaziy Osiyo madaniyati kabi tarixiy va hududiy turlarga bo‘linadi.

Dunyo madaniyati o‘z mohiyati va mavqeい bilan ijtimoiy, umumjahoniy, umuminsoniy hodisadir. Har qanday umumiyl hodisa singari umumbashariy madaniyat ham milliy madaniyatlar durdonalaridan tarkib topgandir. Har bir millat o‘z tarixi, madaniy merosi, qadriyatlari, psixologiyasi, turmush tarzi, ishlab chiqarish xususiyatlari va boshqa ayri sifatlari asosida o‘z milliy madaniyatini shakllantiradi va rivojlantiradi. Milliy madaniyatning eng nodir durdonalari asosida umumjahon, umuminsoniy madaniyat yuzaga keladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, umuminsoniy madaniyat milliy madaniyatlar nodir durdonalarning mexanik ravishdagi yig‘indisidan iborat emas. Dunyo madaniyati milliy madaniyat durdonalarini asrlar davomida sayqallashtirib ularga umumiylik hamda yorqin bo‘yoqlar berib umumjahon qadriyatlari aylantiradi. Shu yo‘l bilan dunyo madaniyati doimiy va uzlusiz ravishda milliy madaniyatlarning abadiy jo‘shqin bo‘yoqlaridan kuch oladi. O‘z navbatida milliy madaniyatlar ham dunyo madaniyati gulshanidan tinimsiz holda oziqlanib boradi. Madaniyat umumiyl bo‘lishi bilan birga jamiyat hayotining alohida sohalariga moslashgan ko‘rinishlariga egadir. Chunonchi madaniyatning mehnat madaniyati, kasb-kor madaniyati, ma’naviy madaniyat, turmush madaniyati, axloq madaniyati, huquq madaniyati, siyosiy madaniyat kabi ko‘rinishlari mavjud. Madaniyatning bunday xilma-xil ko‘rinishlari

jamiyatning ayni shu jabhalari uchun hayotiy ahamiyatga egadir. Buning sabablari ayon. Ijtimoiy hayotdagi har bir jabhaning taraqqiyot darjasini ana shu sohalardagi madaniyatning qanday ahvolda ekanligiga bog‘liqdir. Muayyan bir soha taraqqiyotining yuksalishi shu sohadagi madaniyatning yuksakligidan dalolat beradi, yuksak madaniyat esa o‘sha sohani yanada taraqqiy etishiga undaydi, bu jarayon cheksizdir.

Madaniyatning yuzaga kelishi ham, namoyon bo‘lishi va amaliyoti ham jamiyat hayoti bilan bevosita bog‘liqdir. Jamiyat – bu insonlar yashayotgan, faoliyat ko‘rsatadigan dunyo. Jamiyat ayni vaqtida inson faoliyati tufayli yuzaga keladigan madaniyat dunyosi hamdir. Binobarin, madaniyat kishilar faoliyatiga singib ketgan va o‘z xususiyati, quvvati vositasida inson faoliyatining takomiliga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Madaniyatning ijtimoiy xossalari shu bilan belgilanadi.

Xullas, madaniyat taraqqiyoti jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga uzviy ravishda bog‘liqdir. Har bir tarixiy davr madaniyati ayni shu davr ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tartiblarining mahsulidir. Bu hol madaniyat, san’at, adabiyot taraqqiyotining umumiy xossalari va qoidalarini tashkil etadi.

Shu bilan birga madaniyat, ayniqsa san’at taraqqiyoti faqat jamiyat taraqqiyotiga, undagi ijtimoiy o‘zgarishlariga, jamiyatning ishlab chiqarish usuliga tobe bo‘lib qolmasdan, o‘z ichki taraqqiyot imkoniyatlariga ham egadir.

Madaniyat, san’at, adabiyot taraqqiyoti ichki imkoniyatlaridan eng oldingi davr madaniyati yutuqlaridan yangi davrda amalda foydalanishdir. Chunonchi, madaniyat va san’at muayyan bir ijtimoiy tarixiy davr ikkinchi bir tarixiy davrga o‘tishi bilan siyosat yoki mafkura singari darhol boshqa tusga kira qolmaydi, balki o‘zining amaldagi shaklda davom etadi.

Shu bilan birga yangi davr ijtimoiy-siyosiy talablari darajasida tarixiy an’analar mazmunini to‘ldirib boraveradi. Bu bilan madaniyat, san’at, adabiyot o‘z taraqqiyoti uchun ijtimoiy kuchdan tashqari «o‘z-o‘zidan» – ichki imkoniyatidan ham madad oladi. Bu madaniyat va san’atning o‘ziga xos nisbatan mustaqil rivojlanish qonunidir.

Bu qonunning hayotiyligini ijtimoiy taraqqiyotning har bir ijtimoiy o‘zgarish bosqichlaridan ko‘rish mumkin. Zotan, ijtimoiy-tarixiy davr o‘zgarishi bilan mehnat qurollari, ashyolar, turar joy va inshoatlar yo‘q qilib tashlanmaydi, balki ular yangi ijtimoiy davr uchun xizmat qilaveradi, xalqning badiiy xazinasi, musiqasi, raqsi va hokazolar tarix sahnasidan tushib ketmaydi, balki oldingidek maroq bilan ijro

etilaveradi. Ya’ni eski madaniyat ijtimoiy hayotning o‘zgarishi bilan yo‘qolib ketmaydi, balki madaniyat merosni, madaniy va ma’naviy qadriyatlarni to‘ldirib, boyitib boradi.

Ko‘rinib turibdiki, madaniyatning butun borlig‘i inson bilan, insonning faoliyati bilan chambarchasdir. Madaniyat inson tufayli yuzaga keladi, inson tufayli yuksaladi, insonning faoliyati tufayli jamiyatga xizmat qiladi. Xullas, madaniyat hodisasining markazida inson turadi. Madaniyatning jamiyatga ko‘rsatadigan ta’sir-foydasi esa inson shaxsiga, uning madaniyatga nisbatan munosabatiga bog‘liqdir. Tabiiyki, tom ma’nodagi madaniyatli inson o‘z faoliyati tufayli madaniyatning jamiyatga ta’siri kuchaytirib boradi.

Madaniyat bevosita sivilizatsiya bilan bog‘lik, ular o‘rtasida umumiy aloqadorlik mavjud.

«Sivilizatsiya» so‘zi lotincha «grajdanlik» yoki «davlatchilik» ma’nosini anglatadi. Sivilizatsiya ishlatilish ma’nosiga ko‘ra «madaniyat» tushunchasining sinonimidir. Shuning uchun ham «sivilizatsiya» so‘zi 18 asrdan boshlab «madaniyat» so‘zi bilan bir ma’noda ishlatilib kelinadi.

Lekin, shu bilan birga, sivilizatsiya umuman madaniyatni, madaniyat taraqqiyoti jarayonlarini, madaniyatning o‘ziga xos qonuniyatlarini va xususiyatlarini o‘zida to‘liq ifodalamaydi. Sivilizatsiya kishilik jamiyati madaniyati taraqqiyotining muayyan bosqich (yoki bosqichlari) darajasini, pog‘onasini ifodalaydi. Shu sababli sivilizatsiya muayyan bir tarixiy ijtimoiy munosabatlar madaniyati pog‘onasini ifodalab, bosqichlik (formatsion) xususiyatiga egadir. Sivilizatsiya jamiyatning haqiqiy insoniy munosabatlar tomon harakatini o‘zida aks ettirib, tinimsiz ravishda umuminsoniy fazilatlarni to‘plab boradi.

Kishilik tarixining sivilizatsiyasiga o‘tish tarixi juda uzoq qadimiyatga, insoniyatning vahshiylikdan ijtimoiy taraqqiyot darajasiga chiqish tarixiga borib qadaladi. Sivilizatsiya bosib o‘tgan yo‘l insoniyat jamiyatining buyuk taraqqiyot yo‘lidir. Shuning uchun ham sivilizatsiyalashgan jamiyat degandaadolatga asoslangan jamiyatni tushunamiz. Sivilizatsiya o‘z mohiyatiga ko‘ra vahshiylikka tamoman teskari va, aksincha, unga nisbatan buyuk yuksak hodisadir.

Sivilizatsiyaning mohiyati jamiyatda inson uchun barcha qulayliklarning, imkoniyatlarning, insoniy munosabatlar erkinligining, o‘z davriga ko‘ra mukammal komunikatsiyalarning, ma’naviy madaniyat ravnaqining, inson uchun zarur moddiy-texnik ashyolarning va boshqalarning hozirligini taqozo etadi. Inson uchun bunday imkoniyat va

qulayliklar mavjudligiga erishish sivilizatsiyaning mazmuni va maqsadini tashkil etadi.

Madaniyat esa ijtimoiy hayotning tomir-tomiriga, insonning ham moddiy, ham ma’naviy dunyosiga, inson faoliyatining barcha jabhalariga singib ketgan hodisadir. Madaniyat bu ijtimoiy hayot sifatini ifodalovchi mezon, insonlar hayotiy faoliyati rivojlanishining o‘ziga xos usulidir. Madaniyat – ko‘p qirrali ijtimoiy hodisa. U insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, shuningdek, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib, mo‘tadillashtirib boradi, muayyan tarixiy shaxs zotini shakllantiradi. Madaniyat, shuningdek, qadriyatlar majmuasi va bu majmua yaratilishining usulidir.

Madaniyat va sivilizatsiyaning yuqorida qayd etilgan xususiyatlari asosida ularning mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin: madaniyat – bu inson shaxsiyatini barkamolligining o‘lchash, sivilizatsiya esa jamiyat taraqqiyotining o‘lchamidir. Bu ikkala o‘lcham bir-birlari bilan doimo uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Madaniyat va sivilizatsiyaning mazmunlari va o‘lchamlari jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida o‘zgarib, boyib, mukammallashib boradi. Madaniyat bo‘lmasan yerda sivilizatsiya yuzaga kelmaydi, sivilizatsiya o‘z navbatida, madaniyatning keyingi taraqqiyoti uchun yo‘l ochadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida bo‘lgani kabi, madaniyat va sivilizatsiya ibtidosi va taraqqiyotining asosida inson, uning faoliyati, yaratuvchilik mehnati yotadi. Inson mehnatisiz, uning ijtimoiy dadil faoliyatisiz madaniyat va sivilizatsiya taraqqiyoti haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Shuningdek, madaniyat va sivilizatsiya ham o‘z taraqqiyot jarayonida inson shaxsini takomillashtirib, uning mehnati va umuman ijtimoiy faoliyati uchun qulayliklar yaratib boradi.

Qayd etish kerakki, bizning mamlakatimiz – O‘zbekiston zamini azal-azaldan madaniyat va sivilizatsiya rivoj topgan tarixiy manzillardan hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov xalqimiz tarixi haqida gapirib, ko‘hna madaniyatimizning quyidagi muhim bir omilini qayd etadi. «Bizning ajdodlarimiz, xalqimiz, – deydi Prezident, – qadim-qadimdan o‘troq yashagan, millatimizning iligi o‘troq madaniyat sharoitida qotgan. Xalqimizdagi «iligi to‘q, baquvvat» degan tushuncha, men, hatto, qonuniyat degan bo‘lardim, bejiz paydo bo‘lmasan. O‘zbek xalqining iligi to‘q, baquvvat demoqchiman. Yana tilimizda «tagli-to‘g‘ri», «palagi toza» degan iboralar ham bor. Bu bir joyda muqim yashagan, o‘z

turmush tarziga, axloq-odob mezonlariga, aqidalari va tafakkur tarziga ega bo‘lgan xonadonlarga nisbatan aytildi. Butun ommani, bir necha yuz minglab, millionlab aholini birlashtirgan aqidalarga, mezon va qoidalarga ega bo‘lgan xalqni qanday izohlash, ta’riflash mumkin?! Ana shu hayotiy va ijtimoiy mantiqdan kelib chiqsak, ta’rif va izoh bitta bo‘ladi – milliy borlig‘imiz, madaniyatimiz ildizi, tomiri o‘troq bo‘lgan»¹.

O‘troq turmush tarzi, ilm-ma’rifatga intilish, o‘z urf-odatlarini muqaddas deb bilish va hokazo fazilatlar har qanday millat madaniyati va sivilizatsiyasi uchun muhim manbalar bo‘lib hisoblanadi. Ana shunday teran ma’naviy xislatlar sohibi bo‘lgan ajdodlarimiz ko‘p ming yillik tarixida o‘z zamonasiga nisbatan yuksak madaniyat boyliklarni yaratdi, sivilizatsiyasi ustun bo‘lgan davrlarni boshidan kechirdi. Bu bilan faqat milliy madaniy taraqqiyotiga emas, jahon madaniyati va sivilizatsiyasi rivojiga ham sezilarli ta’sir etdi.

Mustaqil O‘zbekistonda hozir amalga oshirilayotgan olamshumul islohotlar jarayonida, mamlakatda fuqarolik jamiyatni va demokratiyaga asoslangan huquqiy davlat qurilishida bиринчи galda asrlar davomida xalqimiz yaratgan ana shu beba ho ma’naviyatdan unumli foydalanishimiz lozim. Shu bilan birga mamlakatimizda adolatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishda jahon madaniyati va sivilizatsiyasi to‘plagan nodir tajribadan ham oqilona foydalanishimiz zarur.

3-§. Huquqiy madaniyat madaniyatning bir turi sifatida. Uning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi o‘rni

Prezident I.Karimov huquqiy madaniyat to‘g‘risida shunday deydi: «Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri, bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallash-tirishdan iboratdir. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo‘lib qolmoqda».¹ Yana fikrini davom ettirib shunday deydi: «Jamiyatning

¹Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қулимиз билан қурамиз. Т.7. – Т., 1999.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б.15-16.

demokratiya yo‘lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, ko‘p jihatdan, odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko‘rsatkichidir»¹.

Ko‘rinyaptiki, huquqiy madaniyat bugungi kunning dolzarb muam-molardan biri bo‘lib qolmoqda. Huquqiy madaniyat deganda jamiyatning qonunchilik darjasи, mavjud qonunlardan xalqning xabardorligi darjasи, xalqning huquq normalariga rioya qilishi va huquq normalarini bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo‘lishi tushuniladi.

Huquqiy madaniyat shartli ravishda jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatiga ajratiladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turi sifatida quriladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati shaxs erkinligi va xavfsizligi, inson huquqlarini ta’minalash, uning huquqiy himoya etilishi va ijtimoiy faolligini kafolatlash uchun zamin bo‘lib hisoblanadi. Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyatning huquqiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. Bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi, natijada shaxs va jamiyatning doimiy huquqiy boyishi sodir bo‘ladi. Shubhasiz, shaxsning yuksak huquqiy madaniyati jamiyat taraqqiyotini ta’minalaydi.

Shunday qilib, shaxs va jamiyatning huquqiy madaniyati umuminsoniy qadriyatlar tushunchalari va insoniyat umumdemokratik yutuqlarining muhim natijasi hisoblanadi. Huquqiy madaniyat – huquqiy davlatning ajralmas qismi.

Huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlari kuyidagi elementlardan tashkil topadi:

- yuridik normalar tizimi bo‘lmish huquq;
- huquqiy munosabatlar, ya’ni qonun bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar tizimi;
- huquqni muhofaza qilish va ta’minalash faoliyati bilan shug‘ul-lanuvchi davlat va jamiyat institatlari tizimi bo‘lmish yuridik muassasalar;
- huquqiy ong, ya’ni huquqiy voqelikni ma’naviy jihatdan aks ettiruvchi tizim;

¹ O‘sha manba. – T., 2010. – Б.27.

– huquqiy xatti-harakat.

Huquqiy madaniyat quyidagilarni belgilaydi:

– aholi huquqiy ongingin rivojlanish darajasini;

– huquqiy faoliyat darajasining o'sishini;

– barcha shakldagi normativ-huquqiy hujjatlarning mustahkmalanishini.

Yuqori darajadagi huquqiy madaniyat quyidagicha tavsiflanadi:

– jamiyat va davlat tomonidan inson huquqlari va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida tan olinishi;

– fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmini bilishi, shu bilan bir vaqtida, boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishi;

– fuqarolarning huquqiy xatti-harakat qilishga jalg qilinishi;

– fuqarolarning konstitutsiya va boshqa muhim qonunlarni bilishi;

– fuqarolarning huquq sohasidagi jarayonlardan keng doirada xabardorligi;

– sudga ijobiy munosabatda bo'lishi.

Yuqori darajadagi huquqiy madaniyatga erishish quyidagilarni talab qiladi:

– kuchli huquqiy ta'limning mavjudligi;

– huquqshunoslarni tayyorlovchi ta'lim muassasalarida huquq fanidan sifatli o'qitishni tashkil qilish;

– huquqqa oid masalalarni hal etishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash;

– qonun ijodkorligi jarayonida yuqori darajadagi kasbiy mahorat va sifatga e'tibor qaratish;

– huquq ijodkorligi jarayonida demokratik va yuridik tartibga riosa qilish;

– rivojlangan va takomillashgan davlat apparatining mavjudligi;

– davlat apparati tizimida va xalq orasida sudning yuqori darajadagi obro'ga egaligi;

– sud hokimiyati mustaqilligining kafolati mavjudligi;

– odil sudlovning demokratikligi, sudda ishlarni ko'rib chiqishda inson huquq va erkinliklarining asosiy diqqat e'tiborda bo'lishi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishni talab qiladi. Shuning uchun huquqiy davlatning muhim belgisi – huquqiy madaniyatdir. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun keng

ko‘lamli demokratik islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu esa fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Jamiyatda kishilar qanchalik yuqori madaniyatli bo‘lsa, huquq normalarini bilsa, qonunlarni yuridik adabiyotlarni o‘qib, ularga amal qilsa, huquq buzilishi ham shunchalik kam bo‘ladi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasida aholining huquqiy madaniyatini oshirishga katta e’tibor berilmoqda. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Jamiyatda huquqiy madaniyatini yuksaltirish milliy dasturi» qabul qilindi. Unda mamlakat miqyosida aholining huquqiy madaniyatini rivojlantirish va huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy tarbiyani yaxshilash, ommabop yuridik adabiyotlarni ko‘paytirish, xalqning yuridik sohadagi bilimlarini oshirishga katta e’tibor qaratilib, jamiyat huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo‘yildi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, huquqiy madaniyati bir qancha funksiyalarini bajaradi. Huquqiy madaniyatning regulativ (tartibga solish), normativ, sotsiologik, kommunikativ (aloqalar o‘rnatish), prognostik funksiyalari shular jumlasidandir.

III xodimlari doimo fuqarolar bilan ishlaganliklari sababli yuksak huquqiy madaniyatga ega bo‘lishlari lozim. Bu ulardan hamisha huquqni yaxshi bilishlarini, bu bilimlarni amaliy faoliyatlarida namoyon qilishlarini, fuqarolarga qonun talablarini tushuntira olishlarini taqozo qiladi. Shuning uchun III xodimlari doimo uz bilimlarini o‘sirib borishlarini, uz ustida ishlab yurishlarini, qonunlar o‘zgarishlari, yangi qonunlar qabul qilinishidan xabardor bo‘lishlarini talab qiladi. Yuksak huquqiy madaniyatga ega xodim jamiyatimiz taraqqiyotidan darak beradi va uni mamlakatimiz fuqarolari hurmat qiladi.

4-bob. QADRIYATLAR FALSAFASI. ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARINING SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI

1-§. «Qadriyat» kategoriyasi, uning mohiyati va turlari

Jamiyatning rivojlanishida asrlar davomida xalq tomonidan yaratilgan qadriyatlardan oqilona foydalanishning ahamiyati ulkandir. Uning ahamiyati Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlarimizga e’tibor va qiziqish kuchaydi. Endilikda o‘zbek

xalqining bir necha ming yillik tarixiga oid ko‘pgina kitoblar davlat tili maqomi berilgan o‘zbek tilida chop etilmoqda, Muqanna, Temur Malik, Manguberdi singari milliy qahramonlarimiz nomi yanada ulug‘landi. Xalqimizning asrlardan asrlarga meros bo‘lib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ularning o‘tmishi 3 ming yildan ortiq davrni o‘zida mujassamlashtirgan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yaratdi. Bizning milliy qadriyatlarimiz shu sivilizatsiyaga xos jihatlar: tug‘ilgan makon va ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomilada mulozamat, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan ham tavsiflanadi.

«Qadriyat» iborasi o‘z ma’nosida mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng keng qo‘llanila boshlandi» – deb ta’kidlaydilar yuridik fanlar doktori, professor X.T.Odilqoriyev va yuridik fanlar nomzodi SH.U.Yakubov (Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar. – T., 2010. – B.117).

Qadriyatlar o‘zi nima degan savolga javob berishda turli xil qarash va tushunishlar mavjuddir. Masalan, 1970-yilda Moskvada nashr qilingan 5 tomli «Filosofskaya ensiklopediya» to‘plamining 5-tomida ta’riflanishicha, «Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U, birinchidan, biror obyektning ijobiy yoki salbiy qiymatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi – baholovchi jihatni (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatları)ni ifoda etadi. Shunga ko‘ra obyektiv (ashyoviy) va subyektiv (ong) qadriyatları bir-biridan farqlanadi»¹.

Mazkur manbada yozilishicha, tabiiy boyliklar va tabiat hodisalari (bular yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan baholanadi), mehnat mahsullarining iste’mol qiymati (umuman foydalilik); ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ezgulik va yovuzliklar; tarixiy hodisalarning progressiv va reaksiyon ahamiyati; hozirgi zamon kishilarining boyligi sifatida namoyon bo‘luvchi moziyning madaniy merosi; ilmiy haqiqatning foydali samarasi yoki nazariy ahamiyati; kishilarning ifodalanuvchi axloqiy yaxshilik va yomonlik; tabiiy va ijtimoiy obyektlarning hamda san’at asarlarining estetik jihatdan tavsiflanishi; diniy ibodat buyumlari va boshqa ashayoviy qadriyatlarga kiradi.

Ko‘rinib turibdiki, mazkur ta’rifda «qadriyat» tushunchasiga kishilar tomonidan yo ijobiy, yo salbiy baholanadigan, ularning moddiy va ma’naviy hayotiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan barcha narsa va hodisalar kiritilgan.

¹ Философская энциклопедия. – М., 1970. – С.462

O‘zbek Sovet ensiklopediyasida «qadriyat – vogelikni muayyan hodisalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ma’rifiy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, ularning mazmuni va xarakteriga ko‘ra progressiv va reaksiyon turlarga ajratish mumkin» deyilgan¹.

Yoki «Falsafa» qomusiy lug‘atida «qadriyat – vogelikdagi muayyan» hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha» deb ta’riflanadi².

Qadriyatlar haqida keltirilgan turlicha ta’riflarni Respublikamizning J.Tulenov, Q.Nazarov, Q.Xonazarov, X.Shayxova, T.Abdullayev, G.Tulenova kabi bir qator yirik olimlari ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda o‘zbek falsafiy maktabi rivojiga katta hissa qo‘shgan yirik olimlardan biri J.Tulenovning «Qadriyatlar falsafasi» kitobida mazkur masala bo‘yicha berilgan bir qator tahlillarni misol o‘rnida keltirishimiz mumkin. Mazkur manbada³ misol tariqasida, rus olimi V.P.Tugarinovning quyidagi ta’rifi keltiriladi:-»qadriyatlar muayyan jamiyat yoki sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining haqiqiy yoki ideal ne’matlari bo‘lgan tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyati (yoki hodisaning bir jihat)dir. Bu ne’matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab – kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun ham kishilar o‘z tasarruflaridagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o‘zlari uchun maqsad yoki ideal bo‘lgan qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar. Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiysi hayotning o‘zidir, chunki hayotdan mahrum bo‘lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo‘qqa chiqaradi... qolgan qadriyatlar, aslini olganda, hayot ne’matlarining mohiyatidadir, madaniy qadriyatlaridir»⁴.

Bu ta’rifda V.P.Tugarinov «qadriyat» va «bahos» tushunchalarini farqlashni taklif qiladi. Qadriyat real yoki orzudagi hodisadir, baho esa shu hodisaga bildirilgan munosabatdir. U yoki bu narsani qadriyatlarga mansub hisoblash, ya’ni uni qadriyatlarga qo‘shish yoki qo‘shmaslik ana shu munosabatga – ijobiy yoki salbiy bahoga bog‘liq.

¹ Ўзбек Совет Энциклопедияси. Т.14. – Т., 1980. – Б.7.

² Фалсафа: Қомусий луғат. – Т., 2004. – Б.476.

³ Тўланов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Т., 1998. – Б.11.

⁴ Тугаринов В.П. О ценностях жизни и культуры. – Л., 1960. – С.3.

Qadriyatlarning hayotdagি o‘rni va ahamiyati baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqadi. Ma’lumki, jamiyat a’zolarining ehtiyojlari, manfaatlari, qiziqishlari turli-tuman bo‘lib, ko‘pincha ular bir-biriga zid kelishi mumkin. Shuning uchun muayyan ijtimoiy guruhlar, millat va sinflar uchun oliv qadriyat bo‘lib hisoblanib kelingan tabiat va jamiyat hodisalari boshqalar uchun qadriyat bo‘lmasligi ham mumkin va aksincha. Demak, tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyat turkumiga kiritish, yoki kiritmaslik kishilarning ehtiyoj, manfaat maqsad qiziqishlari bilan belgilanar ekan deyishimiz mumkin.

Modomiki shunday ekan, u holda qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog‘i lozim bo‘ladi.

Bu esa, o‘z navbatida, G.Tulenovaning «Barkamol yosh avlod – istiqlol tayanchi» deb nomlangan kitobida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, bu ta’riflarni hammasini umumlashtirgan holda «qadriyat – inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, ayrim xalq, millat, elat yoki ijtimoiy guruhlarning o‘zlarining tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan o‘z manfaatlari va maqsadlari yo‘lida xizmat qiladigan barcha qimmatdorliklar majmuuni ifodalovchi tushuncha»¹ sifatida ta’rif berishimizga asos bo‘la oladi.

Yuqorida qadriyatlarga berilgan ta’riflarni umumlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovni ta’rifini keltirish o‘rinli deb hisoblayman. I.Karimov o‘zbekona milliy qadriyatlarni asrabavaylash, ularni kelajak avlodga yetkazish xususida fikr bildirar ekan, «qadriyat» so‘zining ma’nosini ochib beradi: «Biz tarix sinovlaridan o‘tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to‘la javob beradigan, yillar o‘tgani sari qadri ortib boradigan g‘oya va tushunchalarni qadriyat deb bilamiz»²

Qadriyatlar sermazmun va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga tabiiy, ijtimoiy siyosiy, huquqiy, moddiy, ma’naviy, axloqiy, estetik va shu kabilarni oladilar. Har qanday qadriyat inson faoliyatining mahsuli, uning atrof-muhitga nisbatan bo‘lgan munosabatining ifodasidir³.

¹ Туленова Г. Баркамол ёш авлод – истиқлол таянчи. – Т., 2004. – Б.45.

² Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б.82.

³ Назаров К. Қадриялар тизимиning барқарорлиги ва ўзгаришлари. – Т., 1992; Хайруллаев М. Социальное развитие и духовный процесс. – Т., 1986.

Qadriyat jamiyat ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotining zaruriy mahsulidir. Har bir qadriyat muayyan bir davr sharoit va ehtiyojining mahsuli bo‘lishi bilan birga, uning ko‘zgusi hamdir.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo‘ladilar va rivojlanadilar. Inson yo‘q joyda biron narsaning qadr-qimmati bo‘lmaydi. Qadriyatlar insonning turli sohadagi faoliyati uchun zarur bo‘lgan va foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmui bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi.

Qadriyatlar ichida eng oliysi bu inson va uning hayotidir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e’zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘lig‘ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishini tashkil qiladi. Jamiyatimizda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlarning, islohotlarning barchasi insonlar hayoti to‘q, boy, go‘zal bo‘lishi, inson o‘zini chinakam erkini his etishi, o‘z mehnati natijasining, o‘z taqdirining, o‘z mamlakatining egasi bo‘lishini ta’minlashga qaratilgandir.

Inson ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar katta ahamiyat kasb etadi. Tabiiy qadriyatlarga yer va yer osti boyliklari, suv, havo, o‘rmonlar, o‘simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar kiradi. Tabiiy resurslar, ya’ni yonilg‘i, har xil metallar, rudalar, havo, suv, o‘simliklar, hayvonot dunyosi bo‘lmasa insoniyat yashay olmaydi. Tabiat biz uchun moddiy ne’matlarning bosh manbai sifatida ham, sog‘liq, shodlik, turmushga mehr-muhabbatning va har bir kishidagi ma’naviy boyliklarning bitmas tunganmas omili sifatida ham o‘zining g‘oyat zo‘r ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. O‘zbekiston yerlari turli foydali qazilmalarga boy. Qariyib 90 turdagি mineral xom ashyo borligi aniqlangan. Oltin, mis, qo‘rg‘oshin, ruh, volfram, radioaktiv elementlar, tabiiy gaz, neft va boshqa qazilmalar miqdori bo‘yicha ko‘pgina davlatlar orasida yetakchi o‘rinda turadi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida ochilgan (Kakaydi, Lalmikor, Ko‘kdumaloq, Muborak, Namanganda Mingbuloq kabi) neft konlari boy zaxiraga ega ekanligi aniqlangan. O‘zbekiston hududida Uchqur, O‘rtabuloq, Chaqmoqli, Qorovulbozor, Setyalantepa kabi gaz konlari faoliyat ko‘rsatishmoqda. Angren, Sharg‘un va Boysun kabi yirik va bir qancha mayda ko‘mir konlari mavjud. Ko‘mir konlarining zaxiralari boy bo‘lib, Angren qo‘ng‘ir ko‘mirining miqdori 2 mlrd tonnaga yaqindir. Agar yiliga 10 mln tonnadan qazib olinishini nazarda tutilsa, Angren ko‘miri 200 yilga yetadi. Shuningdek, O‘zbekiston yerining qo‘rg‘oshin, ruh va

nodir metall rudalari konlari, mineral tuzlar, shifobaxsh mineral suvlari kabi yana bir qancha tabiiy boyliklari mavjud.

Rang-barang tabiiy boyliklarga ega bo‘lgan ona yerimiz biz uchun g‘oyat darajada muhim va zarur bo‘lgan hayot manbaidir. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida yozib qo‘yilganidek, – «Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simplik, va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir».¹

Inson mehnati, xatti-harakati, aql-zakovati bilan yaratilgan turli tuman moddiy boyliklar, me’moriy obidalar, inshootlar, zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish kuchlari, transport vositalari, asbob-uskunalar, turar-joy, mol-mulk, noz-ne’mat va shu kabilar **moddiy qadriyatlarga** kiradi.

Moddiy qadriyatlarning asosini jamiyatning moddiy-texnika bazasi tashkil qiladi. Har bir konkret-tarixiy davrda insoniyat muayyan ishlab chiqarish usuliga ega bo‘lgan va uning rivojlanish darajasiga asosan ishlab chiqarish rivojlangan. Boshqacha qilib aytganda taraqqiyot uchun nima ishlab chiqarish emas, balki uni qanday ishlab chiqarish doimo muhimroq bo‘lgan va shunga ko‘ra bu jamiyatning taraqqiyot darajasi belgilangan.

Moddiy qadriyatlar haqida gap ketganda mulkiy munosabatlarning to‘liq qaror topishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda islohotlarning maqsadi haqida Prezidentimiz I.Karimov gapirib, mulk mulkdor uchun xizmat qilishiga erishishimiz kerak deydi. Bu esa o‘z navbatida mulkdorga ertangi kunga ishonchni shakllantiradi.

Qadriyatlar ichida ma’naviy qadriyatlар ham inson ijtimoiy mohiyatini belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Ma’naviy qadriyatlarga yuksak axloq, imon, e’tiqod, insof-diyonat, yaxshi xulq-atvorni targ‘ibot qiluvchi boy ma’naviy merosimiz, urf-odatlarimiz, an’analrimiz kiradi.

Xalqimizning eng aziz qadriyatlardan biri – axloqiy qadriyatlardir. Bu qadriyatlar kishilarning bir-birlariga, Vatanga, jamiyatga nisbatan tarixan tarkib topgan insoniy olajanob munosabatlarini ifodalab, xulq-atvor, odob, tartibli xatti-harakat, insoniy muomala qoidalari va tamoyillari majmuidir. Aynan ana shu sifatlarning turmushda qo‘llanilish jarayonlarida axloqning o‘ziga xos tarkibiy o‘lchamlari ro‘yobga chiqadi. Bular: yaxshilik, burch, vijdon, or-nomus, sabr, farosat, kamtarlik, andisha kabilardir.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2011. – Б.19.

Shuningdek, normativ shakldagi tushunchalar: yuqori baholangan voqeа-hodisalar, «taqiq»lar, maqsadlar, loyihalarda o‘z aksini topuvchi subyektiv qadriyatlar ham mavjuddir.

Bundan tashqari, qadriyatlarni umumiylig darajasiga ko‘ra individual, jinsiy, yoshga oid, milliy, mintaqaviy, umuminsoniy kabi turlariga bo‘linadi. Milliy qadriyatlar muayyan millat yoki elat ma’naviyati va turmush tarziga xos bo‘lgan ijtimoiy tushuncha yoki hodisa bo‘lsa, mintaqaviy qadriyatlar muayyan mintaqa hududida yashovchi ruhiy-psixik hamda kasb-kori jihatidan bir-biriga yaqin millatlar, elatlar yoki kishilar guruhining turmush tarzi bilan bog‘liq hodisadir. Umuminsoniy qadriyatlar esa yer yuzi xalqlarining umumiyl ideallari, turmush tarzini ifodalaydi.

Milliy qadriyatlar – bu millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analari, jamiki moddiy-ma’naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi.

Mintaqaviy qadriyatlar – iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odat va an’analari mushtarak bo‘lgan xalqlar manfaatiga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlardan mazmuni jihatidan chuqur va keng bo‘lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan umumbashariy muammolar kiradi.

Bundan tashqari qadriyatlar tasnifida insonning o‘zi uchun ahamiyatiga ko‘ra e’tiqod darajasiga ko‘tarilgan «**ichki**» va tashqaridan singdirilgan «**tashqi**» qadriyatlar, yoki bo‘lmasa «**mutlaq**» va o‘zgaruvchan tabiatga ega bo‘lgan «**konkret-tarixiy qadriyatlar**», bajaradigan vazifalariga ko‘ra **insonlar maqsadining yo‘nalishini belgilovchi, sotsial guruhlarda nazorat usuli sifatidagi yoki zaruriy funksional qadriyatlar** kabi turlar ham qayd etiladi.

Qadriyatlar tasnifida «Huquqiy qadriyat» o‘ziga xos urin egallaydi. Huquqiy qadriyat ijtimoiy qadriyatning alohida bir shakli hisoblanadi. Insoniyat yaratgan ma’naviy qadriyatlarni bir turi huquqiy qadriyatdir. Huquq inson uchun zarur imkoniyatlar, sharoitlar yaratishi, insonlar tomonidan qadrlanishi uchun qadriyat hisoblanadi. X.T.Odilqoriyev va SH.U.Yakubovlar «Huquqiy qadriyatlar – bu insonlar, jamiyat va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda fuqarolar tomonidan e’zozlanadigan, qadrlanadigan, ularning manfaatlariga xizmat qiladigan huquqiy normalar, g‘oyalar, qarashlar, institutlar, prinsiplar va

hodisalardir» – deb ta’rif beradilar. Ular «Huquqiy qadriyat – ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solishga, jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat tantana qilishga, inson huquqlari va erkinliklari sobitqadamlik bilan ta’minlanishiga, yuksak huquqiy ong va madaniyat shakllanishiga xizmat qiladigan huquqiy hodisa»dir deb ta’kidlaydilar (Shu asar. – B.122). Huquqiy qadriyatlar gultoji – Konstitutsiya hisoblanadi.

Қадриятлар аксиология фани томонидан ўрганилади.

2-§. Milliy madaniy qadriyatlar – jamiyatimiz ma’naviy poklanishining zaminidir

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, «mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan oq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, beba ho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi»¹. (Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., 1997. – B.137-138). Natijada xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo‘lga kiritgach, o‘z taqdirining chinakam egasi, o‘z taqdirining ijodkori, o‘ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi.

Mustaqillik sharofati bilan tiklanib, qaddini rostlayotgan, to‘xtovsiz rivojlanib borayotgan milliy madaniyatimizning jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, insonni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kamol toptirishda o‘rni benihoya kattadir.

Jamiyatimizda ro‘y berayotgan ma’naviy yuksalish, insonning axloqiy, g‘oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg‘onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikdadir. Insonning ma’naviy-axloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko‘p qirrali, mazmun mohiyati jihatdan chuqur bo‘lib, o‘z ichiga juda ko‘plab sohalarni qamrab oladi. Shularning ichida markaziy o‘rinni dunyoqarash masalasi egallaydi.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kashfiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo‘lgan – insonning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Inson ma’naviy kamolotining eng muhim ko‘rinishi va zarur shartlaridan biri siyosiy madaniyatning o‘sib borishidir. Siyosiy madaniyat o‘zida halollik va poklikni, ishchanlik va uzoqni ko‘zlab ish

tuta bilish fazilatlarini mujassam etgan odamlarning g‘oyaviy-siyosiy yetukligi, nazariy bilimlarni istiqbolni yorqin tasavvur etgan holda amalda qo‘llay bilish, kun tartibidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy muammolarni keng miqyosda hal etish mahorati demakdir. Siyosiy madaniyat aytilganlardan tashqari, insondagi faollik va tashabbuskorlikni, yuksak axloqiylik, qat’iy irodalik, xushmuomalalik, ziyraklik, uzoqni ko‘ra bilishni ham o‘z ichiga oladi.

Sharq mutafakkirlari jamiyatni ilmiy asosda boshqarish masalalariga katta e’tibor berib kelganlar. Jumladan, Forobiy, Beruniy, Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy va boshqalarning asarlarida davlatning tuzilishi, uning ichki va tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, davlat rahbarlarining xususiyatlari bo‘yicha muhim ma’lumotlar berilgan. Ularni sinchiklab o‘rganib, hayotga ijobiy tatbiq etish mustaqil davlatimizning siyosiy asosini yanada baquvvat qilishda katta zamin bo‘lishi shak-shubhasizdir.

Ta’lim – tarbiya oldida turgan asosiylar maqsad yosh avlodga ajdodlarimizning dono tajribalarini singdirish, insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlan Tirish vatan va millat oldidagi burch va mas’uliyatni his qilishga o‘rgatish, qonunlarga rioya etish xislatini qaror toptirishdan iboratdir. Bu borada Sharq falsafasi va islom ta’limotidan unumli foydalanmog‘imiz lozim, chunki ajdodlarimiz tomonidan qonunga rioya qilish, unga bo‘ysunish kabi masalalar chuqur va atroflicha ishlab chiqilgan. Bunga islom ta’limotining durdonasi hisoblangan «Shariat» va «Hidoya», Amir Temur «Tuzuklari» va boshqa manbalar, huquq masalasiga oid fikr – mulohazalar misol bo‘la oladi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki milliy qadriyatlarimiz jamiyatimiz ma’naviy poklanishiga zamin bo‘lib xizmat qilayotgan ekan o‘z navbatida hozirgi davrdagi milliy tiklanish jarayonlari ham qadriyatlarga munosabatlarni o‘zgarishiga ham olib kelmoqda. Milliy qadriyatlarimizni mohiyatini yangicha falsafiy anglash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Milliy qadriyatlarimizda transformatsiya yuz bermoqda va ularni umuminsoniylik va milliylik nuqtai-nazaridan qarab chiqmog‘imiz lozim. Bir tomonidan shuni unutmasligimiz zarurki, har qanday jamiyatning qadriyatlar tizimi – fan, falsafa, adabiyot, san’at – faqat milliy urf-odatlar bilan cheklanib qolmaydi. Bu ayniqla hozirgi yuqori darajada rivojlanayotgan informatizatsiya, kompyuterizatsiya, aloqa vositalarining rivojlanishi jarayonidagi olamga xosdir. Fan, madaniyat xodimlari va siyosatdonlar esdan chiqarmasliklari lozimki, inson faqat biologik mavjudot emas, balki u ijtimoiy mavjudot hamdir. Barcha

mohiyatli munosabatlarda insonlarning qiziqish, manfaatlari birdir. Bu nuqtai-nazardan barcha kontinentlarning asosiy muammolari bir xildir. Umuminsoniy muammolar umuminsoniy qadriyatlar tizimini vujudga kelishini taqozo qiladi.

Boshqa tomondan, yoshlarda milliy urf-odatlarga, rasm-rusumlarga, milliy til va san'atga shakllantir zarur. Ko'pgina milliy qadriyatlar tizimimiz saqlanib qolishiga qaramasdan uning ko'pgina elementlari trasformatsiyaga uchrayapti. Ba'zi urf-odatlar o'zining mohiyatini o'zgartirgan, ba'zilari umuman yo'q bo'lgan. Markaziy Osiyo xalqlarining tilida o'zgarishlar yuz bermoqda, masalan o'zbek tilida. Bir necha bor o'zbek alfaviti o'zgardi. Leksikamizda eski turmush tarzimizga xos bo'lgan ko'p o'zgarishlar bo'ldi, yangi so'zlar paydo bo'ldi. O'zbekistonda o'zbeklarga xos qadriyatlar tizimi qadim-qadimdan shakllanib kelgan. Uning asosida o'zbek xalqiga xos bo'lgan dunyoqarash yotadi. O'zbeklarning urf-odatlarga mos xatti-harakati etnik va diniy ong shakllari bilan bog'liqdir. Mehmonnavozlik o'zbek xalqi hayotining asosiy xususiyatlaridan biridir. Har bir oilada mehmon aziz inson hisoblanadi. Shunga muvofiq mehmon qabul qilish rituali amalga oshiriladi. Bu ritual to'laligicha mehmon hurmati bilan uning mehmonda bo'lish vaqt yoqimli bo'lishi bilan sug'orilgan. O'zbek oilalarida doimo atrofdagilarni fikrlari, ularni hurmati bilan hisoblashish qabul qilingan. O'zining xatti-harakatlari umumqabul qilingan xatti-harakatlar bilan muvofiqligi hisobga olinadi. Bu o'zbek mentalitetining asosiy komponentidir. O'zbek xalqining ko'pgina a'zolari atrofdagilar bilan maslahatlashmay kamdan-kam hollarda o'zicha qaror qabul qiladi.

5-bob. GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASI

1-§. Ijtimoiy bashoratning mohiyati, turlari hamda huquqshunoslik fanlari va amaliyotidagi o'rni

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida jamiyatida juda katta o'zgarishlar amalga oshmoqda. Jamiyat qiyofasi oldingi asrlarga nisbatan keskin o'zarmoqda. Bu albatta jamiyatning rivojlanish natijalaridir.

Kishilik jamiyatining rivojlanish ehtiyojlari kelgusini ijtimoiy bashorat qilishni dolzarb qilib qo'ymoqda. Tarixiy progressni anglamagan holda davom etishini oldi olinmasa jamiyat uchun ko'pgina

muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, bu holda ertangi kun muammoli bo'lib qoladi. Kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy muammolarni oldini olishga intilish kelgusini aytishga qiziqishni kuchaytirib yuboryapti. Shuning uchun har xil tarixiy davrlarda ko'pgina bashoratchilar vujudga kelgan. Masalan, o'rta asrlarda Nostradamus, hozirgi davrda bolgariyalik Vanga, Chechenistonlik Supyan Sharipov, Quriyalik Ono va boshqalar mashhur bashoratchilar hisoblanishadi.

Kishilik jamiyatining kelgusini oldindan bilish tarixda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ayniqsa o'tish davrlarida kelgusini oldindan aytishga, uni bilishga qiziqish kishilarning hayotiy ehtiyojlari bilan bog'liq.

Keyingi o'n yilliklar jamiyat rivojlanishini kelgusini ijtimoiy bashoratining portlash davri bo'lyapti. Ijtimoiy bashorat bilan ko'pgina davlat va nodavlat tashkilotlari, muassasalar shug'ullanyapti, yakka-yakka shaxslar ham kelgusini bashorat qilishga harakat qilishyapti.

Keyingi yillarda birgina AQSHda 100dan ortiq katta ijtimoiy bashoratlar qilindi, unda ko'pgina nufuzli muassasalar ishtirok etdi. Ayniqsa Xalqaro bank bashorati, 2000-yilgacha umumbashariy muammolarning prezidentga hisoboti, Interfyuchers guruhining, G.Kan va Dj. Saymon tayyorlagan «Global 2000» bashorati, Rim klub, Gudzon instituti va boshqalar. 1974-yilda kelgusini o'rganuvchi xalqaro federatsiya tuzildi.

O'zbekistonda ham mamlakatimizni kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini bashorat qiladigan tashkilotlar mavjud, ya'ni O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, ilmiy texnika davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, strategik izlanishlar instituti.

Kelgusini bashorat qilish murakkab jarayondir, uning murakkabligi shundaki, kelgusi to'g'risida dalillar, asoslar yo'q, balki kelgusining nazariy asoslari, qonunlar mavjuddir. Kelgusi to'g'risidagi qonunlarni hamisha rivojlantirib borish lozim. Aks holda bu qonunlar kelgusini qanday bo'lishligini to'g'ri, aniq aks ettirmasligi ham mumkin. Kelgusini bilishga qaratilgan fan futurologiya deyiladi. Futurologiya kelgusini nazariy asoslangan qonunlarini o'rganadi.

Mantiqiy jihatdan bashorat deganda oldin noma'lum bo'lgan, lekin qonunlardan kelib chiqib kelgusida real bo'lishi mumkin bo'lgan narsa va hodisalar to'g'risidagi fikr tushuniladi. Ijtimoiy bashorat – bu rivojlanish istiqbolini sifat va miqdor jihatdan aniqlashdir. Bashoratdan

ko‘pgina fanlar foydalanadi va aniq fanlar ma’lum qonuniyatlarga asoslangan holda keljakni bashorat qiladi. U.Tadjixonov va A.Saidovlar o‘zlarining «Huquqiy madaniyat nazariyasi» kitoblarida huquqiy madaniyatning prognostik funksiyasi haqida gapirib, shunday ta’kidlashadi, – «Huquqiy madaniyatning prognostik funksiyasi huquqiy ijodkorlik va huquqni qo’llashni qamrab oladi, qonunlar va huquqiy tartibotni mustahkamlashni, fuqarolardan huquqqa mos xatti-harakat, faolligi va boshqalarni, butun huquqiy tizim uchun xos bo‘lgan an’analarni tashkil qilishni o‘z ichiga oladi. Hozirgi vaqtida ilmiy prognozlash va rejalarshirishning elementlari, masalan qonunchilik faoliyatida kuchayib bormoqda, chunki qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilishni rejali ravishda amalga oshirish zarur.

Huquqiy madaniyat bashoratlari ehtimoli bo‘lgan o‘ziga xos qadriyatlardan iborat¹. Ijtimoiy bashorat qisqa va uzoq muddatli, xalqaro va mintaqaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ekologik, hayotning boshqa sohalarida bo‘lishi mumkin.

Bashoratni gnoseologik tushunish uning mazmunini yanada kengaytiradi. Chunki falsafiy nazariya bo‘lgan gnoseologiya izlanishni mantiqiy darajasi va ilmiy shaklni tahlil qilish bilan cheklanmaydi, balki ularni tarixiylikda, hamma shakl va darajalarni birlikda olib qaraydi.

Ko‘p ming yillik insoniy faoliyatning vorisiyligi uchun kelgusini bilishning anchagina mexanizmlarini, usullarini yaratdi. Bilishning o‘tmishda paydo bo‘lib, insonning bugungi kunidan o‘tib kelgusiga qaratilishi uning hayot bilan bog‘liqligidan, faol ijodiy o‘zgartiruvchilik xarakteridandir. Bashoratga bunday gnoseologik yondashuv uni «oldindan ko‘ra bilish» va «oldindan ayta olish» tushunchalari bilan aynanlashtiradi.

Bashorat ma’lum qoidalar asosida aqliy amalga oshirilgan oldindan ayta olishdir. Demak, bashorat «oldindan ayta olish»dan o‘zining qoidalar asosida va aqliy amalga oshirilishi bilan farq qiladi. Oldingi tajribaviy ma’lumotlarni tahlili, qat’iy o‘rnatilgan dalillar, ilmiy qoidalar va nazariyalar ustunligi asosida bashorat amalga oshiriladi.

Ba’zan ijtimoiy bashorat utopiya bilan ham aynanlashtiriladi. «Utopiya» grekcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosи «у» – yo‘q, «topas» – joy, ya’ni yo‘q joy degan ma’noni anglatadi. Tomas Mor o‘zi o‘ylab topgan mamlakatni shunday nomlagan. «Utopiya» so‘zini

¹ Таджихонов У., Saidov A. Хуқуқий маданият назарияси. Т.1. – Т. 1998. Б.34-35.

boshqacha talqini ham mavjud. «Yev» – takomillashgan, yaxshi va»topas» – joy,ya’ni takomillashgan joy, takomillashgan mamlakat degan ma’noni ham bildiradi. Ushbu termin utopiyaga bag‘ishlangan ko‘pgina adabiyotlarda ikki xil ma’noda ishlatiladi. Masalan, Uilyam Morisning «Hech joydan axborot», Kampanellaning «Quyosh shahri» va boshqalar. Bu terminni qanday ma’noda ishlatilishdan qat’i nazar, uning vazifasi biz xohlagan kelgusini ifodalashdir. Utopiyani ijtimoiy bashoratdan farqi, u maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan. Bashoratning maqsadi rivojlanishning ma’lum bosqichida jamiyat rivojlanishining real imkoniyatlarini, ularning ehtimolligini aniqlashdir. Utopiya esa kelgusini qanday bo‘lishi imkoniyatlari, ehtimolini olib bermaydi, balki kelgusi to‘g‘risidagi xohishimizdir, xolos. Utopiya adabiy ijodning bir turi sifatida o‘tmishni va bugungi kunni ideallashtiradi, u borliqni tahlil qilish asosida kelgusini tasvirlaydi.

Utopiyaning asosiy belgisi voqelikka yondashish. Sobiq Sovet Ittifoqida kelgusi to‘g‘risida utopiya yaratish 1930-yillardan boshlab bekor qilingan, tanqid qilingan. Masalan, akademik A.D.Saxarov o‘zining «Razmishleniya o progresse, mirnom sosushestovovanii i intellektualnoy svobode» nomli futurologik maqolasini chop qilgandan so‘ng ta’qib qilina boshlangan. Uning ko‘pgina g‘oyalari utopiyani sifatida qabul qilingan. Utopiya kelgusini qanday bo‘lishini chuqur asoslab bermaydi. Kelgusini chuqur tahlil qilmaslik utopiyani nisbatan erkin qilib qo‘yadi, qadriyatarga erkin yondashadi. Utopiya birorta qadriyatni biroz bo‘rttirishi yoki mutlaqlashtirishi mumkin. Ijtimoiy bashoratni utopiyaga yaqinligidan uning chinligiga ishonmaslik ham kuchayadi. O‘tmish yoki hozirgi vaqtdagi bilimlarni chinligini aniqlash uchun uni dalillar bilan taqqoslash yetarlidir. Kelgusi to‘g‘risidagi bilimlarni dalillar bilan taqqoslab bo‘lmaydi, chunki kelgusi to‘g‘risidagi hali dalillar, hujjalr yo‘qdir. Kelgusining faqat kurtakchalari, real rivojlanish yo‘nalishlari va jamiyat, insonlar taraqqiyotining nazariya bilan asoslangan qonunlari bo‘lishi mumkin. Lekin kelgusining ko‘rtakchalari, real rivojlanish yo‘nalishlari va nazariyaga asoslangan taraqqiyot qonunlari kelgusini qanday bo‘lsa shundayligicha ko‘rsatib bera olmaydi. Shundan bashoratning haqiqatligi muammosi kelib chiqadi. Ko‘pgina adabiyotlarda bashoratning qisman haqiqatligi to‘g‘risida gapiriladi. Masalan, G.I.Ruzavinning «Rol teorii v protsesse nauchnogo obyasneniye i predvideniya» // Materalisticheskaya dialektika – metodologiya yestestvennykh, obshchestvennykh i texnicheskix nauk. –

M., 1963. S.196-197; V.G.Vinogradov, S.I.Goncharukning «Zakony obshchestva i nauchnoye predvideniye» (M., 1972); «Metodologicheskiye problemy sotsialnogo prognozirovaniya» (L., 1975). Hozircha fanda bashoratning haqiqatligi muammosi yetarlicha o‘rganilmagan. Bizningcha bashoratning haqiqatligi dastavval qanday bilimlar asosida kelgusi to‘g‘risida fikr bildirilyapti, ya’ni haqiqiy bilimlarmi yoki haqiqiyligi isbotlanmagan bilimlar asosida fikr bildirilishiga bog‘liq. Ikkinchidan, bashorat qancha vaqt ni o‘zida qamrab olayotganligiga bog‘liqdir. Ijtimoiy bashorat qancha vaqt ni qamrab olishiga nisbatan uchga bo‘linadi: bevosita, yaqin kelajak va uzoq kelajak. Bevosita ijtimoiy bashorat – jamiyatni kelajakdagi 20-30 yilini, yaqin kelajak ijtimoiy bashorati – kelajakdagi 100-150 yillarni, uzoq kelajakni ijtimoiy bashorati – kelajakdagi 150 yildan keyingi davrlarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqqan holda agar ijtimoiy bashorat qisqa vaqt ni qamrab olgan bo‘lsa bashorat aniq, haqiqatga yaqin bo‘ladi agar ijtimoiy bashorat uzoq vaqt ni qamrab olsa unda bashorat noaniqroq va ehtimolga yaqin bo‘ladi.

Hozirgi davrda fan bevosita kelajakni bashorat qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘pgina aniq ma’lumotlarga ega. Masalan, demograflarning fikricha, sayyoramizda 2025-yilda 8 mlrd kishi yashaydi. Hatto o‘scha davrgacha ayrim davlatlarda aholining soni, ularning yoshiga ko‘ra tarkibi, tug‘ilishi, o‘rtacha umr ko‘rishi ham hisoblab chiqilgan. Mineral xom ashyo zaxiralari, ularni qazib olish 20-30 yil oldin bashorat qilinyapti va ularga asoslangan holda keng ko‘lamli xalqaro dasturlar tuzilyapti, shartnoma-bitimlar qabul qilinyapti. Ilmiy kashfiyotlarni ishlab chiqarishga tatbiq qilguncha o‘rtacha 20 yil o‘tadigan bo‘lsa, biz XXI asr boshlaridagi iqtisodning texnologik darajasi haqida hozirdan aytishimiz mumkin.

Yaqin kelajak to‘g‘risida gapiranimizda bizning bilimlarimiz haqiqatga o‘xshash xarakterga ega bo‘ladi. Taxminlarga ko‘ra aholining o‘sishi 2100-yillarga borib to‘xtaydi. Ishlab chiqarishning texnologik darajasi o‘scha davrlardagi amalga oshadigan ilmiy kashfiyotlar bilan aniqlanadi. Yaqin kelajak davomida demografik revolutsiya tugashi, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy qoloqlikni yengishi, insonparvar va demokratik jamiyatga o‘tishi mumkin.

Uzoq kelajakni real imkoniyatlarga zid kelmaydigan har xil farazlar asosida bashorat qilishimiz mumkin. Bizni uzoq kelajak to‘g‘risidagi bilimlarimizdan bilmaydigan narsalarimiz ustun bo‘ladi. Bu vaqtga borib ijtimoiy hayot tubdan o‘zgarib ketadi.

Shunday qilib ijtimoiy bashorat bu bilimlarimiz, hayotiy tajribalarimiz asosida va fan yutuqlariga suyangan holda vujudga keladigan kelgusi haqidagi tasavvurlarimizdir.

Kelgusini bashorat qilishda fanning ilmiy va maxsus usullaridan, bilishning mantiqiy va texnik vositalaridan foydalaniladi. Avstriyalik futrolog Erix Yanchning fikricha, ijtimoiy bashoratning 200dan ortiq usuli mavjud. Fanda, kundalik turmushda ijtimoiy bashoratning asosan beshta usulidan foydalaniladi. Ular quyidagilar:

- 1) ekstropolyatsiya;
- 2) tarixiy qiyoslash;
- 3) kompyuterda modellashtirish;
- 4) kelgusining rejasi (ssenariysi);
- 5) ekspert bahosi.

Bu usullarning har biri o‘ziga xos ustunlikka va kamchiliklarga egadir. Ijtimoiy bashoratda eng ishonarli usullardan biri ekspert bahosi hisoblanadi, albatta u to‘g‘ri nazariy tasavvurlarga suyangan bo‘lsa. Ekspert bahosi usuli boshqa usullar natijasidan ham foydalanishi mumkin.

Keljakni bashorat qilishda boshqa usullardan ham foydalanish mumkin. Amerikalik mashhur ijtimoiy-iqtisodiy bashoratchi Jon Nesbit o‘zining 1990-yilda chop etilgan «Megatendensii 2000: desyat novых napravleniy dlya 1990-x» nomli asarini yaratishda kontent tahlil usulidan foydalangan. J.Nesbit kelgusini bashorat qilishdan oldin AQSHda 12 yil davomida gazeta va jurnallarda e’lon qilingan kelgusi haqidagi 2 milliondan ortiq maqolalarni tahlil qilib chiqqan. Bu usul J.Nesbitga kelgusini qaysi yo‘nalishlarda rivojlanishini aniq aytishga imkon bergen.

Kelgusini bashorati insonlarni ongi va xatti-harakatiga ta’sir qilishi ham mumkin. Kelgusini bashoratining mohiyatiga qarab insonlar unga tezroq intilishi mumkin yoki uni kelishini xohlashmaydilar. Shuning uchun har qanday ijtimoiy bashorat bilishda va mafkurada o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ijtimoiy bashoratni mazmuni va maqsadidan kelib chiqib uni turlarga bo‘lishadi. Ijtimoiy bashoratning quyidagi turlari mavjud:

- 1) qidiruv;
- 2) qoidaviy;
- 3) tahliliy;
- 4) ogohlantiruvchi.

Qidiruv bashorati kelgusi qanday bo‘lishini aniqlash uchun yo‘naltirilgan bo‘ladi, qoidaviy bashorat kelgusida aniq maqsadlarga

erishishga qaratilgan bo‘ladi, maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan tavsiyalarni ham keltirishi mumkin.

Tahliliy bashorat ilmiy maqsadlarda qaysi usul foydali ekanligini aniqlashga qaratilgan. Ogohlantiruvchi bashorat insonlarni ongi va xattiharakatiga ta’sir qilib, kelgusi salbiy bo‘ladigan bo‘lsa uni oldini olishga undaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki bashoratning turlari o‘rtasidagi tafovutlar nisbiydir, bitta ijtimoiy bashorat turida boshqa turlarning belgilari ham bo‘lishi mumkin. Bashorat qanday sohalarda amalga oshirilmasin, u ilmiy-nazariy va amaliy yaratuvchanlik faoliyatidir.

2-§. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida bashorat

Bashorat III xodimlari faoliyatida ham katta ahamiyatga egadir. III xodimlari o‘zlarining bilimlari, hayotiy tajribalari va yutuqlaridan foydalangan holda kelgusida jinoyatchilikni holati to‘g‘risida biron tasavvurga ega bo‘ladi. Qaysi sohalarda jinoyatchilikni o‘sishi yoki pasayishi, ularning xarakteri va ularga qarshi kurashishni yo‘llarini aytib bera olishi mumkin. Biron jinoyat haqida tergov yoki jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘limi xodimi erkin tusmol keltirishi mumkin. Lekin tusmol bashoratdan farq qiladi, farqi tusmol o‘tmishga yoki bugungi kunga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Bashorat esa faqat kelgusiga qaratilgan bo‘ladi. III xodimlari kelgusida jinoyatchilikka qarshi kurashishda zarur bo‘lgan vositalar va usullar haqida ham fikr bildirishlari mumkin. Qonunni himoya qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashni kelgusini bashorat qilishda III xodimlari bashoratning mavjud bo‘lgan usullari va turlaridan foydalanishadi.

Jinoyatchilik o‘z qarama-qarshiliklariga ega bo‘lgan, hamisha o‘zgarib rivojlanib turuvchi jarayondir. Jinoyatchilik uchun xarakterli bo‘lgan narsa faqat uning mavjudligi, amal qilishi emas, balki uni rivojlanishi hamdir. Jinoyatchilikning rivojlanishini tushunmaslik, uni ertangi kundagi holatini baholay olmaslik, unga qarshi kurashni murakkablashtirib yuboradi. Shuning uchun IIIda jinoyatchilik oldindan bashorat qilinadi va u kriminologik bashorat deyiladi. Kriminologik bashorat yordamida jinoyatchilikni sabablari aniqlanadi, unga qarshi kurashning yo‘nalishlari, vositalari belgilanadi. Kriminologik bashoratni yuridik va ijtimoiy jihatdan ko‘rib chiqish lozim.

Yuridik bashorat ijtimoiy bashoratning bir turi, uning tarkibiy qismidir. Yuridik bashoratning ijtimoiy bashorat tizimidagi o‘rni yuridik

fanlarning ijtimoiy fanlar tizimidagi tutgan o‘rni bilan aniqlanadi. Yuridik bashorat yuridik fanlarning sohalarida yanada konkretlashadi. Yuridik bashorat bir necha turlarga bo‘linadi. Masalan, jinoiy-huquqiy bashorat, kriminalistik bashorat, mehnat-ijroiya bashorat, kriminologik bashorat va boshqalar. Kriminologik bashorat ijtimoiy-huquqiy sohaga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. U ijtimoiy va huquqiy sohalardan erkin bo‘la olmaydi. Shunday qilib kriminologik bashorat ijtimoiy bashoratning bir turi va yuridik bashoratning bir tarmog‘idir.

Kriminologik bashorat o‘ziga xos vazifalarni amalga oshiradi, ular quyidagilar: o‘rganilayotgan kelajak haqida axborot olish, ushbu axborotlarni qayta ishslash, kelajakda bo‘lishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar ko‘rsatkichlarini umumlashtirishdir. Kriminologik bashoratning asosiy vazifasi aniqlangan ko‘rsatkichlar asosida jinoyatchilikka qarshi kurashishi eng zarur va samarali yo‘llarini, vositalarini belgilab berishdir. Kriminologik bashorat jinoyatchilikka qarshi kurashni boshqarishning bir atributidir. Jinoyatchilikni kriminologik bashorat qilish ikkiga bo‘linadi: dastlabki jinoyatlarni bashorat qilish va retsidiv jinoyatlarni bashorat qilish.

Dastlabki jinoyatlarni bashorat qilish va retsidiv jinoyatlarni bashorat qilish o‘z navbatida yana bir necha turlarga bo‘lish mumkin. Masalan, dastlabki jinoyatlarning bashoratini – katta yoshlilar o‘rtasida dastlabki jinoyatni bashorati, balog‘atga yetmaganlar o‘rtasida dastlabki jinoyatlarni bashorati, erkaklar o‘rtasida dastlabki jinoyatlarni bashorat qilish, qishloq joyida dastlabki jinoyatlarni bashorat qilish, shahardagi dastlabki jinoyatlarni bashorat qilish va boshqalar.

Retsidiv jinoyatlarni bashoratini ham xuddi yuqoridagidek turlarga bo‘lish mumkin.

Kriminologik bashorat qancha vaqt ni qamrab olishiga qarab ham bir necha turlarga bo‘linadi: qisqa davrli, o‘rta davrli, uzoq davrli. Qisqa davrli 5 yilgacha bo‘lgan vaqt ni davrni qamrab oladi, o‘rta davrli 6 yildan 10 yilgacha bo‘lgan vaqt ni, uzoq davrli 10 yildan 15 yilgacha bo‘lgan vaqt ni qamrab oladi.

Qisqa davrli kriminologik bashorat jinoyatchilikka qarshi kurashishning taktikasini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Kriminologik bashoratda umumilmiy va xususiy ilmiy usullardan foydalanishadi. Xususiy ilmiy usullar uch xil bo‘ladi. Ular quyidagilar: ekstropolyatsiya, modellashtirish va ekspert bahosi.

Ekstropolyatsiya usulining mohiyati shundan iboratki bashorat qilinayotgan obyekt, ya’ni jinoyatchilikning tarixi o‘rganiladi va uning

o‘tmishdagi rivojlanish qonunlari kelgusiga nisbatan qo‘llaniladi. Boshqacha gapirganda ekstrapolyatsiya usuli kelgusini ko‘rsatkichlarini o‘rganishga mo‘ljallangan, kecha va bugun shunday bo‘lgan, demak kelgusida ham shunday bo‘ladi degan xulosaga asoslangan usuldir.

Modellashtirish ilmiy bilish usullaridan biri hisoblanadi. Obyektiv tajriba natijalari asosida qurilgan va tekshirib ko‘rilgan kriminologik model har xil ijtimoiy va demografik omillarning jinoyatchilikni o‘sishiga ta’sirini to‘g‘ri tavsiflash imkoniyatini beradi. Kriminologik modellashtirish jinoyatchilikka qarshi kurashni konkret boshqarishning ilmiy asoslarini ishlab chiqarish qurolidir. Bashorat qilinayotgan jinoyatchilikni sifat jihatdan bayon qilib berishda modellashtirishdan foydalanishadi.

Ekspert bahosi usulining mohiyati shundan iboratki, bashoratning asosi qilib mutaxassisning fikri olinadi. Bashoratda qo‘llaniladigan ekspert bahosi usuli norasmiy bashorat hisoblanadi va u katta amaliy va bilish ahamiyatiga ega. Yuqori malakali ekspert hodisani baholashda faqat rasmiy axborotdan emas, balki o‘z tajribalaridan kelib chiqqan natijalardan ham foydalanadi. Ekspert – olim yoki amaliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xodim, konkret bir sohani chuqur egallab olgan yuqori malakali mutaxassisdir.

3-§. «Hozirgi zamon umumbashariy muammolari» tushunchasi va ularning asosiy turlari

XX asr oxirlarida insoniyat o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ydi. Bu davrning o‘ziga xos belgilari quyidagilardan iborat:

- a) Yer yuzidagi davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlikning yuksalib borishi;
- b) dunyodagi aksariyat mamlakatlarning, xususan yaqinda mustaqillikka erishgan davlatlarning eng katta xalqaro banklar, nufuzli xalqaro tashkilotlarga teng huquqli a’zo bo‘lib kirib kuch-g‘ayratlari va imkoniyatlarini umumiyl maqsadlar yo‘lida birlashtirayotganliklari (bunga O‘zbekiston misol);
- v) fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini sanoat va qishloq xo‘jaligining barcha sohalariga joriy etilishi.

Jamiyat o‘z taraqqiyotida ko‘pgina dolzarb muammolarga ham duch kelmoqda va ular tez fursatlarda o‘z yechimini topilishini taqozo qilmoqda. Dolzarb muammolar o‘z xarakteriga ko‘ra, ya’ni makonda tarqalishiga ko‘ra 3 turga bo‘linadi: lokal, mintaqaviy, umumbashariy.

- lokal – faqat ayrim davlatlar, millatlar, xalqlarga tegishli bo‘lgan muammolar;
- mintaqaviy – ayrim mintaqalar, u yerdagi xalqlar, millatlarga tegishli bo‘lgan muammolar;
- umumbashariy – barcha davlatlar, xalqlar va millatlarga tegishli bo‘lgan muammolar.

Umumbashariy muammolar deb butun insoniyatga daxldor bo‘lib, ularni tashvishlantirayotgan, makonda cheklanmagan va zamonda tez yechimini kutayotgan muammolarga aytildi.

Hozirgi zamon umumbashariy muammolari – insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim va asosiy muammolar.

XX asrning 60 yillaridan umumbashariy muammolar termini ishlatila boshlandi. Ijtimoiy taraqqiyotning bundan buyongi istiqboli ko‘p jihatdan umumbashariy muammolarning hal etilishiga bog‘liq. U muammolarni hal etilishi o‘z navbatida ilmiy texnika taraqqiyoti bilan bog‘langandir.

Bu muammolarning kelib chiqish sababi jamiyat, odamlarning tabiatga ko‘rsatayotgan ulkan ta’siri, uning beqiyos xo‘jalik faoliyatining o‘sishi.

Bu muammolarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ham e’tibordan chiqarib bo‘lmaydi. Guruhiy, sinfiy, milliy, hududiy manfaatlar ko‘pincha jahon hamjamiyati va umumbashariy manfaatlardan ustun qo‘yilmoqda.

Umumbashariy muammolar vujudga kelishining asosiy sababi tarixiy rivojlanish jarayonidagi qarama-qarshiliklardir.

Umumbashariy muammolarga quyidagilar kiradi:

- 1) termoyadro urushi oldini olish;
- 2) qurollanish poygasini to‘xtatish;
- 3) ekologik inqirozni oldini olish;
- 4) aholi o‘sishini tartibga solish;

5) rivojlangan davlatlar bilan taraqqiyotda orqada qolgan davlatlar iqtisodiyoti o‘rtasida tafovut o‘sib borishi oldini olish;

6) sog‘liqni saqlash muammolari;

7) tabiiy zaxiralalar(oziq-ovqat, xom-ashyo, energiya)ning yangi turlarini izlab topish;

8) ilmiy texnika inqilobining turli salbiy oqibatlarini darhol payqash va uning oldini olish.

Umumbashariy muammolar bir-biri bilan bog'langandir. Qurollanishni o'sib ketishi iqtisodiyotga salbiy ta'sir qilishi mumkin, iqtisodiyotni stixiyali rivojlanishi atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishi mumkin, atrof-muhitni ifloslanishi sog'liqni saqlashga salbiy ta'sir qiladi va hokazo. Ulardan birining hal qilinishi ikkinchisiga va uchinchisining hal qilinishiga yo'l ochadi.

Umumbashariy muammolarni mazmuni va xususiyatiga ko'ra 3 guruhga ajratish mumkin:

- birinchi guruhga jahon termoyadro urushining oldini olish, Yer yuzida tinchlikni saqlash kiradi;
- ikkinchi guruhga ekologik inqirozni oldini olish, insoniyatni yoqilg'i, xom-ashyo, oziq-ovqat bilan ta'minlash kiradi;
- uchinchi guruhga ilmiy-texnika inqilobining salbiy oqibatlarini oldini olish, sog'liqni saqlash kiradi.

a) Termoyadro urushi oldini olish.

Umumbashariy muammolar ichida termoyadro urushini oldini olish, Yer yuzida tinchlikni saqlash ustuvor ahamiyatga ega. Biz shuni anglab olishimiz zarurki, agar yadroviy urush boshlanib ketsa, Yer yuzidagi barcha jonli narsalar yo'q qilib tashlanadi. Yadroviy qurollarda juda katta mintaqani vayron qilishga qodir bo'lgan zasadlar (energiya) jamlangan. Masalan, bitta strategik suv osti kemasining olib yurgan qurolining kuchi bir necha ikkinchi jahon urushi kuch-qudratiga teng. Dunyo okeanida esa o'nlab ana shunday suv osti kemalari suzib yuribdi. Ba'zi davlatlarda yadro quroli va ularni tashish moslamalari ancha ko'p. AQSH bilan Rossiya Federatsiyasi hududidagi yadro qurollarining talafot kuchi 60 ming megatonnani tashkil qiladi. Olimlarning taxminicha urush boshlanib, yadro quroli qo'llaniladigan bo'lsa, uning 12 ming megatonnagacha quvvatidan foydalaniladi. Buni tasavvur qilish uchun ikkinchi jahon urushi bilan solishtirib ko'ramiz. Ikkinchi jahon urushi davrida qo'llanilgan barcha portlovchi qurollarning quvvati 6 megatonnani tashkil etgan. Demak yangi urush bo'ladigan bo'lsa, uning qo'llanadigan portlash qurollari kuchi ikkinchi jahon urushidagidan 2000 marta ko'p. Ikkinchi jahon urushi 5 yil davom etgan bo'lsa, hozirgisi bir yoki ikki kunda yuz berishi mumkin.

Termoyadro qurolining uchta texnik xususiyati insoniyatni, sivilizatsiyani xavf ostiga qo'yadi:

- 1) termoyadro quroli katta talafot kuchiga ega;
- 2) termoyadro quroli ishlab chiqarish harbiy samolyotlar ishlab chiqarishga nisbatan ancha arzon;

3) yadro-raketa hujumidan himoyalanishga intilish amaliy samara bermasligi.

Hozirgi vaqtida termoyadro urushi, qurollanish poygasi oldini olish maqsadida RF va AQSH o‘rtasida muzokaralar olib borilyapti. Yadro quroli – atom bombasiga ega bo‘lgan davlatlar – RF, AQSH, Angliya, Fransiya va Xitoy o‘rtasida atom bombasi sinovlarini to‘xtatish to‘g‘risida kelishib olingan. Ammo ba’zi davlatlar hozirgacha sinovlarni davom ettirishyapti. Yadro urushida g‘olib bo‘lmagani kabi, qurollanish poygasida ham yutib chiqish mumkin emas. Bunday poygani davom ettirish, ayniqsa uni kosmosga ham yoyish yadro qurolini takomillash-tirish sur’atini yanada tezlashtiradi.

Yadroviy urushni oldini olish, tinchlikni saqlash umuminsoniyatning oldida turgan assosiy vazifa ekan, unga erishish uchun jahondagi barcha kuchlarni birlashtirish lozim.

Ushbu muammoga O‘zbekiston Respublikasining munosabati qanday?

Prezident I.Karimov e’tirof etganidek, biz davlatlarning tinch-totuv yashash, xalqaro masalalarni hal qilishda kuch ishlatmaslik tamoyilini tashqi siyosatimizga asos qilib olganmiz. O‘zbekiston muddati 1995 yilda uzaytirilishi lozim bo‘lgan yadro qurolini tarqatmaslik to‘g‘risidagi shartnomani, yadro qurolini yo‘q qilib tashlash to‘g‘risidagi shartnomaga aylantirish tarafdori.

Ekologik muammolar. Insoniyatning tabiatni tez o‘zlashtira boshlashi natijasida tabiat va jamiyat o‘rtasida muvozanat buzila boshladi. Bu hol o‘z navbatida ekologik muammoni keltirib chiqardi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «Yer, yerosti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummiliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»¹, – deb ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov «Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir»², – deb ta’kidlaydi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2011. – Б.17.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – Б.115.

Shuning uchun ham respublikamizda mustaqilligimizdan keyin Oliy Majlis sessiyasida qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish», «Suv va suvdan foydalanish», «Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar», «Yer osti boyliklari», «O’simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish», «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish», «Atmosfera havosini muhofaza qilish», «Yer kodeksi», «Yer kadastro», «O’rmon to‘g‘risida»gi kodeks va qonunlar ushbu muammoni hal etishga qaratilgandir.

Markaziy Osiyo davlatlarida tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik rivojlanmoqda. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining 1993-yil mart oyida Qizilo‘rdada, 1994-yil yanvarda Nukus shahrida, 1994-yil mart oyida Toshhovuzda bo‘lgan uchrashuvlarida Orol dengizi tangligini hal etish, ekologik vaziyatni yaxshilash masalalariga qaratildi.

1991-yilda «Ekosan» xalqaro ekologiya va salomatlik jamg‘armasi tashkil etildi. Bu jamg‘arma O‘zbekiston va umuman butun Markaziy Osiyo mintaqasi ekologik holatini yaxshilashga, atrof muhitni muhofaza etishga, aholining salomatligini himoya qilish va sog‘lom zurriyotni saqlab qolishga qaratilgan dasturlar va loyihalarni amalga oshirmoqda.

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov o‘zining «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida ekologik muammoga alovida e’tiborni qaratgan. Asarda ta’kidlanishicha, «insonning tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmay jadal yuritilgan xo‘jalik faoliyati... Yer yuzida tuproq nurashi, o‘rmonlardan mahrum bo‘lish, baliqlarning haddan tashqari ko‘p ovlanishi, tuzli yomg‘irlar, atmosfera ifloslanishi, ozon qatlami buzilishi va hokazolarning ro‘y berishiga olib keldi. Mutaxassislarning baholashlaricha, 2000-yilga borib o‘rmonlar egallab turgan maydon quruqlikning oltidan bir qisminigina tashkil etadi, holbuki 50-yillarda ular to‘rtadan bir qismini egallagan edi. Jahon okeanining suvlari halokatli ravishda ifloslanib bormoqda, uning takroriy mahsuldorligi keskin pasaymoqda. Jadal sur’atlar bilan yuz berayotgan urbanizatsiya jarayonlari shaharlarning asosiy angloemeratsiyalari eng yirik ifoslantirish manbalariga aylanib qolishiga olib keldi .Prezidentimiz I.Karimov O‘zbekistondagi ekologik sharoitga chuqr iztirob bilan to‘xtalgan va bu haqda shunday yozgan: «Afsuski, bu jarayonlar O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. Bu yerda, mutaxassislarning baholashicha, juda murakkab, aytish mumkinki, xavfli vaziyat nimadan iborat?

Birinchidan, yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog‘liq xavf to‘xtovsiz ortib bormoqda. Respublikaning atigi 10 foizinigina ekin maydonlari tashkil etadi. Bizda aholining o‘sishi nisbatan yuqori bo‘lib, urbanizatsiya va hosildor yerkarni shaharlarni rivojlantirishga, uy-joy qurilishiga, yangi korxonalar, muhandislik hamda transport kommunikatsiya tarmog‘ini barpo etishga ajratib berish jarayonlari jadal bormoqda. Shuni hisobga olsak, yaqin yillar ichida, hatto XXI asr arafasida yer zaxiralari bilan ta’milish muammosi yanada keskinlashishi mumkin.

Ikkinchidan, suv zaxiralarining, shu jumladan yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug‘dirmoqda... Ichimlik suv ta’mnoti manbalarining ifloslanishi respublikada, ayniqsa, orol bo‘yida kasallikka chalinishning yuqori darajasiga sabab bo‘lmoqda.

Uchinchidan, Orol dengizining qurib borish xavfi g‘oyat keskin muammo, aytish mumkinki, milliy kulfat bo‘lib qoldi.

To‘rtinchidan, havo bo‘shlig‘ining ifloslanishi ham respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdiddir.

Mutaxassislarning ma’lumotlariga qaraganda, har yili respublikaning atmosfera havosiga 4 million tonnaga yaqin zararli moddalar qo‘shilmoqda. Shularning yarmi uglerod oksidiga to‘g‘ri keladi, 15 foizini uglevodorod chiqindilari, 14 foizini oltingugurt qo‘sh oksidi, 9 foizini azot oksidi, 8 foizini qattiq moddalar tashkil etadi va 4 foizga yaqini o‘ziga xos o‘tkir zaharli moddalarga to‘g‘ri keladi».

Ekologik inqirozni oldini olish borasida keng ish olib borilyapti, ayniqsa g‘arbdagi yashillar harakati, Rim klubi a’zolari, O‘zbekistonidagi «Ekosan» xalqaro fondi va boshqalar. Respublikamiz Prezidenti I.Karimov Birlashgan millatlar tashkilotining 48 sessiyasida nutq so‘zlab dunyo hamjamiyati diqqatini yana bir bor ushbu muammoga qaratdi. Yangi ishlab chiqarish usuli va yangi energiya turlarini izlab topish bilan ekologik inqirozni oldini olish mumkin. Yangi ishlab chiqarish usulini tatbiq qiladigan bo‘lsak, masalan po‘lat ishlab chiqarish uchun 4 marta kam, aluminiy qazib chiqarish uchun 6 marta, sement 5, neftni qayta ishslash uchun 9, qog‘oz ishlab chiqarish uchun 125 marta kam energiya talab qilinadi.

Sog‘liqni saqlash muammosi. Jamiyat vujudga kelgandan buyon sog‘liqni saqlash muammosi dolzarb bo‘lib kelmoqda, hozir u umumbashariy xarakterga ega. Jamiyat rivojlanishi bilan mavjud bo‘lgan kasalliklarni davolash yo‘llari izlab topilmoqda, yangi tibbiy texnika va

dorilar yaratilyapti. Shu bilan birga yangi kasalliklar vujudga kelyapti va dunyo bo'yicha tez tarqalib bormoqda. Hozircha insoniyat ko'pgina kasalliklarni davosini topolmay, oldini ololmayapti. Masalan, SPID, rak, ebola, infarkt va hokazo. Respublikamizda hozir gripp ko'p tarqalgan, ya'ni aziatskiy virus 1915-yillarda bu xil gripp 20 mln kishini yostig'ini quritgan.

Hozirgi vaqtida jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kishilarni sog'ligini saqlash borasida ko'p ishlar olib boryapti. VOZ sog'liqni saqlash 12 ta umumbashariy muammosini ishlab chiqqan. Unga muvofiq masalan har bir davlat jami milliy mahsulotini 5% dan kam bo'limgan mablag'ni har yili sog'liqni saqlashga ajratish lozim. Har bir kishiga har yili jami milliy mahsulotdan 500% dan kam bo'limgan mablag' ajratishi lozim. Har bir kishiga birinchi tibbiy yordam ko'rsata olinishi zarur. Bu degani, har bir uyda ichimlik suvi bo'lishi yoki 15 minutlik masofada bo'lishi lozim. Aholi yuqimli kasalliklariga qarshi immunizatsiya qilinishi (ayniqsa difteriya, tuberkuloz) lozim. Aholiga tibbiy yordam, demak har bir aptekada 20 xil dori albatta bo'lishi zarur (ularni ro'yxati har bir aptekada bor), ularni bahosi davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Hozirgi zamon umumbashariy muammolari yangi siyosiy tafakkur, yuksak axloqiy mas'uliyat va misli ko'rilmagan birlashgan amaliy harakatni taqozo etmoqda.

Demografik muammo. Jamiyat rivojlanishining tabiiy omillaridan biri aholining o'sishi hisoblanadi. Aholining o'sishi jamiyat iqtisodi bilan chambarchas bog'langan. Masalan, ibridoiy jamoa tuzumida aholi o'sishi (tug'ilish) nisbatan past darajada edi, o'lish ko'rsatkichlari juda yuqori edi, kishilar umri juda qisqa edi. Quldarlik tuzumida aholi o'sishi biroz oshdi, feodalizmda yanada oshdi. Aholi o'sishiga iqtisodiy omillardan tashqari fan, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, tarbiya, madaniyat, ba'zi xalqlarning urf-odat va an'analari ham ta'sir qiladi. Yuqorida aytilganlarni aholi o'sish dinamikasi yana bir bor isbotlaydi. Planetamizda 1000-yil 275 mln kishi, 1500-yil 450 mln, 1650-yil 550 mln, 1800-yil 906 mln, 1850-yil 1 mlrd 170 mln, 1900-yil 1 mlrd 617 mln, 1950-yil 2 mlrd 486 mln, 1970-yil 3 mlrd 635 mln, 1987-yil 5 mlrd, 1999-yil 6 mlrd kishiga yetdi.

Hozirgi vaqtida har bir sekundda 2-3 ta bola tug'ilyapti. 1987-yil 11-iyulda Yer yuzida 5 milliardinchি bola tug'ildi. U Xorvatiyalik Zagreb shahridan Matey Gashpar edi. Uni tabriklash uchun BMTning bosh kotibi Peresde Kuelyar kelgan edi. 1999-yil oktabr oyida 6 milliardinchি bola tug'ildi. U Bosniya-Gersegovinaning Sarayeva shahridan Annan

Menich bo‘ldi. Uni tabriklash uchun BMTning bosh kotibi Kofi Annan keldi. BMTning bosh kotibi nomi bolaga berildi.

O‘zbekistonda hozirgi vaqtida 24 milliondan ortiq aholi yashaydi. Prezident I.Karimov ta’kidlaganidek Respublikamiz aholisi har yili 450 ming kishiga ortib boryapti. Toshkent shahri aholisi 1995-yil 2,1 mln kishiga ortgan. Mirzo Ulug‘bek tumani aholisi 1995-yil 253,5 ming kishini tashkil qilgan.

ADABIYOTLAR

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2011.

Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёsat, мафкура. Т.1. – Т., 1996.

Каримов И. А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. Т.2. – Т., 1996.

Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т., 1996.

Каримов И. А. Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. – Т., 1996.

Каримов И. А. Янгича ишлаш ва фикрлаш – давр талаби. Т.5. – Т., 1997.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т., 1998.

Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. – Т., 1999.

Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. – Т., 2000.

Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9. – Т., 2001.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. – Т., 2002.

Каримов И. А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003.

Каримов И. А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т.12. – Т., 2004.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т., 2005.

Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. – Т., 2006.

Каримов И. А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т., 2007.

Каримов И. А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. – Т., 2008.

Каримов И. А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. – Т., 2009.

Каримов И. А. Жаҳон инқирози оқибатларини енгиш мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т.18. – Т., 2010.

- Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008.
- Каримов И.А.* Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т., 2009.
- Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010.
- Каримов И. А.* Миллий истиқлол гояси: асосий тушунча ва тамоийлар. – Т., 2000
- Ahmedova M.A., Xan V.S. va boshq.* Falsafa: Darslik. – Т., 2006.
- Shermuhamedova N.* Falsafa va fan metodologiyasi. – Т., 2008.
- Yusupov E.Y. va boshq.* Falsafa. 2-nashri. – Т., 2005.
- Абдуллаева М.Н.* ва бошқ. Фалсафа: Қисқача изоҳли луғат. – Т., 2004.
- Абу Наср Форобий.* Фозил одамлар шахри. – Т., 1993.
- Алексеев П.В., Панин А.В.* Философия. – М. 1997.
- Алимов Т.А., Рафиқов А.А.* Экологик хатолик сабоқлари. – Т., 1991.
- Ахмедов Э., Сайдаминова З.* Ўзбекистон Республикаси. – Т., 1998.
- Ахмедова М.А., Хан В.С. ва бошқ.* Фалсафа асослари. – Т., 2006.
- Ахмедова М.А., Хан В.С.* Основы философии. – Т., 2004.
- Баратов П.* Табиатни муҳофаза қилиш. – Т., 1991.
- Введение в философию / Под ред. И.Т.Фролова. – М., 1989.
- Гойибов Н.* Амир Темур даври маънавияти. – Т., 2001.
- Гуломов М., Жўраев Й.* Экология: жиноят ва жазо. – Т., 1991.
- Давлат ва ҳукуқ назарияси. Х.Т. Одилқориевнинг таҳрири остида. – Т., 2009., .
- Джалалов А.М.* Человеческий фактор: философия, идеология, политика. – Т., 1991.
- Зведенюк А.В.* Проблема человека в философии. – Т., 1992.
- Иванова К.И.* Методологические проблемы междисциплинарных исследований человека // Проблема человека в современном мире. – Т., 1992.
- Искандаров Б.* Ўрта Осиё фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши тарихидан лавҳалар. – Т., 1993.
- Канке В. А.* Философия. – М., 1999.
- Мавлянов А.А.* Фалсафада инсон борлиғи муаммоси. – Т., 2001.
- Малахов В.П.* Философия право. –М., 2001.
- Мўминов И.* Амир Темур Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т., 1993 й.
- Назаров К.* ва бошқ. Фалсафа асослари. – Т., 2005.
- Нерсесянц В.С.* Ҳукуқ фалсафаси. – Т., 2003.
- Одилқориев Х.Т., Якубов Ш.У.* Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий қадриятлар. – Т., 2010.

- Сангинов С.С.* Философский анализ моделирования глобальных процессов. – Т., 1996.
- Таджиханов У., Сайдов А.* Ҳуқуқий маданият назарияси. Т.1-2. – Т., 1998.
- Туленов Ж., Гофуров З.* Фалсафа. – Т., 1997.
- Туленов Ж.* Қадриятлар фалсафаси. – Т., 1998.
- Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар: Ўқув қўлланма / М.М. Хайруллаев таҳрири остида. – Т., 1995.
- Фалсафа / Академик Э.Юсупов таҳрири остида. – Т., 2001.
- Фалсафа асослари / Масъул муҳаррир К.Буронов. – Т., 2005.
- Фалсафа асослари / Масъул муҳаррир Қ.Назаров. – Т., 2005.
- Фалсафа. 1-қисм / Масъул муҳаррир проф. А. Аюпов.– Т., 1992.
- Фалсафа: Комусий луғат / Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. – Т., 2004.
- Фалсафа: Ўқув қўлланма / Академик Э. Юсупов таҳрири остида. – Т., 1999.
- Фалсафадан ваъз матнлари / Масъул муҳаррир Иброҳим Каримов. – Т., 1995.
- Философия / Под ред. В.Д.Губина и Т.Ю.Сидориной. – М., 2008.
- Философский энциклопедический словарь. – М., 1983.
- Хайруллаев М., Алиқулов. X.* Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. – Т., 1995.
- Хайруллаев М.М., Бахадиров Р.М.* Абу Абдаллах ал-Хорезми. –М., 1988.
- Холмўминов Ж.* Экология ва қонун. – Т., 2000.
- Чориев А.* Тасаввуф фалсафасида инсон қиёфаси: Ўқув қўлланма. – Қарши, 1997.
- Шадиметов Ю.Ш.* Ижтимоий экологияга кириш. – Т., 1994.
- Шермуҳамедов С.* Фалсафа ва ижтимоий тараққиёт. – Т., 2005.
- Юсупов Э., Абдураҳманов Ф.* Фалсафага янгича ёндашиш – давр талаби. – Т., 1999.
- Юсупов Э., Абдураҳмонов Ф.* Маънавий камолат мустақил тараққиётимизнинг асосий омили. – Т., 1999.
- Юсупов.* Э. Истиқлол йўлида. – Т., 1996.

М У Н Д А Р И Ж А

KIRISH.....	3
-------------	---

I BO'LIM FALSAFA VA UNING MUAMMOLARI

1-bob. FALSAFA FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA UNING ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARI FAOLIYATI UCHUN AHAMIYATI

1-§-Falsafaning bahs mavzui va ilmiy-nazariy o'rghanish, tadqiq etish masalalari.....	6
2-§. Falsafaning asosiy funksiyalari.....	11
3-§. Falsafaning izlanish metodlari.....	14
4-§. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning faoliyatida falsafiy bilimlarning o'rni va ahamiyati.....	17

2-bob. DUNYOQARASH VA UNING TARIXIY SHAKLLARI. MUSTAQILLIK VA FALSAFIY DUNYOQARASHNING YANGILANISH ZARURATI

1-§. «Dunyoqarash» tushunchasi, uning mohiyati va tuzilishi.....	18
2-§. Dunyoqarashning tarixiy shakllari.....	22
3-§. Mustaqillik va falsafiy dunyoqarashning yangilanish zarurati.....	33

II BO'LIM FALSAFANING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY BOSQICHLAR

1-bob. FALSAFIY TAFAKKUR SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

1-§. Qadimgi Sharq va Antik dunyo falsafasi.....	38
2-§. O'rta asrlar va yangi davr Yevropa falsafasi.....	50
3-§. Hozirgi zamon falsafasi, uning asosiy oqimlari.....	56

2-bob. MARKAZIY OSIYO FALSAFASI VA UNING JAHON MADANIYATIDAGI O'RNI

1-§. Markaziy Osiyoda dastlabki ijtimoiy-falsafiy g'oyalar. Diniy-falsafiy ta'limotlar.....	60
--	----

2-§. Markaziy Osiyoda O‘rta asrlar falsafasi.....	64
3-§. Amir Temur davri ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari va ularning keyingi davrlar falsafasi rivojlanishidagi ahamiyati.....	75
4-§. Markaziy Osiyo falsafasining jahon madaniyati taraqqiyotidagi o‘rnii.....	84

III BO‘LIM **DUNYONI FALSAFIY TUSHUNISH**

1-bob. FALSAFADA BORLIQ MUAMMOSI

1-§. Borliq va uning asosiy shakllari.....	87
2-§. Hozirgi zamon fani materiya haqida.....	92
3-§. Harakat, makon va zamon kategoriylarining mohiyati hamda ularning yuridik fani va amaliyoti uchun ahamiyati.....	96

2-bob. TABIATNING FALSAFIY TAHLILI

1-§. «Tabiat» tushunchasi, uning mohiyati.....	101
2-§. Tabiat borlig‘ining struktura darajalari.....	109
3-§. Tabiat va jamiyat munosabatlari.....	111
4-§. Ekologik muammo va uning bartaraf etish yo‘llari.....	114

IV BO‘LIM **BORLIQNING ALOQADORLIGI VA RIVOJLANISH QONUNLARI**

1-bob. FALSAFIY QONUNLAR VA ULARNING YURIDIK QONUNLAR BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI

1-§. Dialektika rivojlanish haqidagi ta’limot.....	120
2-§. «Qonun» tushunchasi, uning mohiyati va falsafiy talqini.....	127
3-§. Falsafiy qonunlarning huquqshunoslik fani va amaliyoti uchun metodologik ahamiyati.....	129

2-bob. FALSAFA KATEGORIYALARI VA ULARNING HUQUQIY KATEGORIYALAR BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI

1-§. «Kategoriya» tushunchasi. Falsafa kategoriyalari va ularning bilishdagi roli.....	137
2-§. Voqelikning tuzilishi va umumiylaro aloqadorligini aks ettiruvchi kategoriylar.....	138
3-§. Determinizmning umumiylaro aloqadorliklarini ifodalovchi kategoriylar.....	143

V BO‘LIM DUNYONI ANGLASH FALSAFASI

1-bob. FALSAFADA ONG, G‘OYA VA MAFKURA MASALALARI. HUQUQIY ONG IJTIMOIY ONGNING BIR TURI SIFATIDA

1-§. Ongning paydo bo‘lishi va ijtimoiy-tarixiy mohiyati.....	149
2-§. In’ikos, uning mohiyati va shakllari.....	151
3-§. Huquqiy ong ijtimoiy ongning bir turi sifatida.....	161

2-bob. FALSAFADA BILISH MUAMMOSI VA ILMIY BILISH MOHIYATI. HUQUQIY IJODKORLIK BILISHNING SHAKLI SIFATIDA

1-§. Falsafada bilish muammosi, inson bilishining asosiy bosqichlari va ularning huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatidagi o‘rni.....	165
2-§. «Haqiqat» tushunchasi va uning asosiy shakllari: mutlaq, nisbiy, obyektiv va konkret haqiqatlar.....	169
3-§. Ilmiy bilishning darajalari va usullari, ularning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi ahamiyati.....	176

VI BO‘LIM INSON VA HAYOT FALSAFASI

1-bob. INSON VA JAMIYAT FALSAFASI

1-§. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining falsafiy merosida inson muammosi.....	184
2-§. Insonning paydo bo‘lishi haqidagi ilmiy falsafiy qarashlarning mohiyati.....	191
3-§. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi inson mohiyati to‘laqonli namoyon bo‘lishining huquqiy asosidir.....	202

2-bob. FANNING FALSAFIY TAHLILI. HUQUQ FALSAFASI – FAN

1-§. Fanning vujudga kelishi va shakllanishi. Fan obyektiv reallikning in’ikos shaklidir.....	209
2-§. Hozirgi zamon fani yutuqlari.....	215
3-§. Huquq falsafasi – fan sifatida.....	218

3-bob. MA’NAVIYAT VA MADANIYAT FALSAFASI. HUQUQIY MADANIYAT – MADANIYATNING BIR TURI

1-§. Ma’naviyat, uning individual va ijtimoiy-falsafiy mohiyati.....	222
2-§. Madaniyat va sivilizatsiya, ularning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari....	224
3-§. Huquqiy madaniyat madaniyatning bir turi sifatida. Uning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi o‘rni.....	232

**4-bob. QADRIYATLAR FALSAFASI. ICHKI ISHLAR IDORALARI
XODIMLARINING SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA
QADRIYATLARNING AHAMIYATI**

1-§. «Qadriyat» kategoriyasi, uning mohiyati va turlari.....	235
2-§. Milliy madaniy qadriyatlar – jamiyatimiz ma’naviy poklanishining zaminidir.....	242

5-bob. GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASI

1-§. Ijtimoiy bashoratning mohiyati, turlari hamda huquqshunoslik fanlari va amaliyotidagi o‘rni.....	244
2-§. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida bashorat.....	250
3-§. «Hozirgi zamon umumbashariy muammolari» tushunchasi va ularning asosiy turlari.....	252

YUSUBOV Davlet Abdusharipovich,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

SAITXODJAYEV Xusan Bekjanovich,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

MAVLYANOV Abdurahim Abduvohidovich,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

FALSAFA

Darslik

Muharrir S.S. Qosimov
Texnik muharrir D. X. Hamidullayev

Bosishga ruxsat etildi 30.08.2012. Nashriyot hisob tabog‘i 15,0.
Adadi 200. Buyurtma Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent shahri, Intizor ko‘chasi, 68.